MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI

“ BOSHLANGICH TA‘LIMDA YANGI METODIKALAR ASOSIDA YARATILGAN DARSLIKLAR BILAN ISHLASH USULLARI”

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

ANDIJON VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

MAKTABGACHA, BOSHLANG’ICH VA MAXSUS TA’LIM METODIKALARI KAFEDRASI

“ BOSHLANGICH TA‘LIMDA YANGI METODIKALAR ASOSIDA YARATILGAN DARSLIKLAR BILAN ISHLASH USULLARI”

MAVZUSIDA ILMIY-AMALIY ONLAYN KONFERENSIYA MATERIALLARI

ANDIJON-2023

Tahrir hay’ati: M.A.Abdullayeva, O.Jabborov, N.Karimova, B.Raxmonova, Q.Azizova, M.Kuychiyeva

Mas’ul muharrirlar: N.Karimova, M.Iminova, M.Mamanabiyeva, D.Usmonova, G.Asqarova

Sahifalovchilar: M.Iminova

“ BOSHLANGICH TA‘LIMDA YANGI METODIKALAR ASOSIDA YARATILGAN DARSLIKLAR BILAN ISHLASH USULLARI”

Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazining 2023-yil ish rejasiga kiritilgan ilmiy-amaliy konferentsiya O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O_zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qaroriga muvofiq, “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining dasturi”da belgilangan vazifalar bo‘yicha ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me‘yoriy hujjatlarini, ta‘lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta‘minlash, ta‘limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta‘lim standartlarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining 2019-yil 10-dekabrdagi “Sirdaryo viloyati umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 396-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida 2023 yil 15 sentyabrda onlayn tarzida o‘tkazildi.

Konferentsiyada “Boshlangich ta‘limda yangi metodikalar asosida yaratilgan darsliklar bilan ishlash usullari” mavzusida tashkil etilayotgan yangiliklar, ta‘lim-tarbiya tizimida innovatsion metodlardan foydalanishva ularni ta‘lim jarayoniga joriy etish hamda intergratsiyalash jarayonlariga tadbiq etish masalalariga e‘tibor qaratiladi.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy xujjatlarning to‘g‘riligi, aniqligi, tahliliy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflar uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldir.

© Мақолалар тўплами
© Boshlangich ta‘limda yangi metodikalar asosida yaratilgan darsliklar bilan ishlash usullari mavzusida ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari

SO‘Z BOSHI

Respublikamizda so'nggi yillarda pedagoglarni uzluksiz malaka oshirsh tizimini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, pedagoglarni moslashuvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, ta'lim muassasalarini kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish” masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berildi. Shunga muvofiq kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlashning sifat darajasini oshirish hamda raqobatbardoshligini ta'minlash, malaka oshirish tizimining ta'lim sifatini ta'minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish, jahon amaliyotiga asoslangan pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimining o'quv-metodik ta’minotini yaratishning imkoniyatlari kengaydi.

Davlat ta’lim standartlarini xalqaro ta’lim standartlari darajasiga ko’tarish, hamda darsliklarni sifat va mazmunini tubdan o’zgartirish bugungi kunning eng dolzarb va muhim vazifasidir.Shu munosabat bilan bu to’plamga ta’limdagi muhim masalalar va muammo va yechimlar,yangi darsliklardagi qulayliklar haqida keng fikr va mulohazalar bildirilgan tezis va maqolalar kiritilgan.

I-SHO‘BA. INTEGRATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM TIZIMI XODIMLARINING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

MA’NAVIYAT O’QUVCHILARNI GO’ZALLIKGA YETAKLAYDI – GO’ZALLIK VA MA’NAVIYAT ULARNI HAYOTGA TAYYORLAYDI.

M.Abdullayeva, professor
Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o`rgatish milliy markaz direktori.

Annotatsiya: Ma’naviyat shaxsning, insonning, xalqning, davlatning, jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti imkoniyatlari va istiqbollarini belgilovchi ichki ijobiy, ruhiy omildir. Estetik jihatdan tarbiyalangan inson bu – hayotda va san’atda eng go’zal narsalarni ko’ra oladigan, uni his etib, o’zi ham go’zallik yarata oladigan, atrof-olam go’zalligidagi uyg’unlikni baholay oladigan kishidir. Yuqoridagi jihatlarning barchasi yosh avlod tarbiyasida, uni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim bo’lsa, ma’naviy tarbiyada esa bularning barchasini bir butun holda shakllantirishni taqozo etadi.

Kalit so’zlar. Oila, ma’naviyat, estetika, go’zallik, oilaviy xayot, ma’naviy, o’smir, o’quvchi, munosabat, qadriyat, sog’lom turmush,oila muqaddas, tejamkorlik.

O’quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning yana bir muhim tomoni ularni estetik jihatdan tarbiyalashdir. Estetik jihatdan tarbiyalangan inson bu – hayotda va san’atda eng go’zal narsalarni ko’ra oladigan, uni his etib, o’zi ham go’zallik yarata oladigan, atrof-olam go’zalligidagi uyg’unlikni baholay oladigan kishidir. Insoniy munosabatlarda go’zallikni kashf eta olish, turmush go’zalligini his etish va yarata olish, o’z atrofini o’rab olgan tabiat go’zalliklarini estetik idrok eta olish, san’atni tushunish va qadrlay olish, o’zgalarda ham badiiy faoliyatga qiziqish uyg’otish, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish estetik tarbiyaning asosiy yo’nalishlari hisoblanadi.

Inson tug’ilishi bilan go’zallikni his etib, unga intilib yashaydi. Go’dak rang-barang o’yinchoqlar rangi, ona allasidagi mehrdan ta’sirlanadi, quyosh nurlaridan, turli ranglardan jilmayadi. Lekin boladagi estetik hissiyotlar doimo rivojlanib borishi zarur. Aks holda go’zallikka bo’lgan hissiyotlar so’nib, estetik rivojlanish o’rniga shaxsiyatparastlik, loqaydlik paydo bo’lib, insonning hayotga, kishilarga, o’z-o’ziga bo’lgan munosabatiga salbiy ta’sir etishi mumkin. Estetik qarashlarning va hissiyotlarning yuqori darajada rivojlanganligi bolalarni kelajakda mehnat go’zalligini his etishga, ijtimoiy hayotning moddiy va ma’naviy sohalarida ijodiy faoliyatga yo’llashga yordam beradi. Bu bilan estetik tarbiya ma’naviy tarbiya bilan bevosita bog’lanib ketadi. Insoniy munosabatlarning go’zalligi ma’naviy hayotida ham aks etadi va uning mazmunida axloqiy va estetik ideallar tabiatdagi, insondagi, jamiyatdagi umuminsoniy qadriyat darajasiga ko’tariladi. Estetik tarbiyalangan inson ma’naviy dunyosining boyligi bilan ajralib turadi, boshqalarning dardu-qayg’usini his eta oladi, xushmuomala, nutqida baqiriq-chaqiriqlarsiz, axloqiy me’yorlarga o’zi rioya qilganligi bilan emas, balki insonlardagi o’zaro muloqotlarni hurmat qilgani uchun undagi ma’naviy go’zallikni qadrlay oladi. Bularning barchasi kelgusi oilaviy hayotida turmushning go’zal va mazmunli bo’lishiga zamin tayyorlaydi.

Yuqoridagi jihatlarning barchasi yosh avlod tarbiyasida, uni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim bo’lsa, ma’naviy tarbiyada esa bularning barchasini bir butun holda shakllantirishni taqozo etadi. Zero, ma’naviyat shaxsning, insonning, xalqning, davlatning, jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti imkoniyatlari va istiqbollarini belgilovchi ichki ijobiy, ruhiy omildir. Demak, ma’naviyat jamiyat taraqqiyotiga ta’sir etar ekan, u shu jamiyatning negizi oila taraqqiyotiga ham tahsir etadi. Buning uchun esa oilaning har bir a’zosi ma’naviyatli bo’lishi zarur. Chunki XXI asr-inson ma’naviy kamoloti muammolari ustuvor ahamiyat kasb etadigan asr bo’ladi.

Haqiqatan ham, jamiyatni sog’lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o’z muddaolariga erishishi uchun ma’naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor

ma’naviy tarbiyani yuksak darajaga ko’tarish muhim va dolzarb qilib qo’yilar ekan, shu jamiyat negizi sanaladigan oila bilan jamiyat o’rtasida dialektik birlik bo’lib, bolalarni kelgusi oilaviy hayotga tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, ma’naviyat inson axloqi va odobi, bilimlari, iste’dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir-biri bilan uzviy bog’langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan mushtarak tuzimdir.

Ma’naviyatning tarkibiy qismlariga tadqiqotchilarning fikriga ko’ra:

a) axloq, odob;

b) bilim, ilm, amaliy malakalar, iste’dod, qobiliyat;

v) iymon, e’tiqod, vijdon, insof, ixlos;

g) dunyoqarash kabilar kiradi.

Bugungi o’quvchi ertaga jamiyatimizning faol fuqarosi, oila boshqaruvchisi. Uning ongi va qalbida milliy g’oyalar asosida ma’naviyatni shakllantirish va ma’naviy yuksak inson bo’lib yetishishi uchun ma’naviy-axloqiy hislatlarni singdirish doimiy va uzluksiz bo’lmog’i lozim.

Ma’naviy yuksak insonning turmush tarzi ham sog’lom kechadi. Sog’lom turmush tarzining asosiy negizi esa oiladir. Buning uchun oilada totuvlik va mehr-shafqat, har qanday vaziyatda ham bir-biriga tayanch, hamdard bo’lish, g’amho’rlik qilish, oila a’zolarining bir-biriga munosabati, oilada sog’lom muhit yartashi, ulkan ma’naviy qadriyatlarimiz namunasida va hozirgi davrda turmushimizga singib ketgan yangi an’analar asosida yondoshish farzandlarimizni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim xizmat qiladi. Oila ma’naviyatini tarkib toptirishda oilaning muqaddasligi, ota-ona va farzand burchi, oilada sog’lom turmush tarzini yaratish, odob-axloq me’yorlari, tejamkorlik, shuningdek oila a’zolarining o’zaro muomala-munosabatlari, uy tutish va ro’zg’or sirlari, oilada mehnat tarbiyasi, oila an’analari va udumlari, oilada avlodlar zanjirini davom ettirish kabilarga ayniqsa katta ahamiyat berilishi maqsadga muvofiq. Eng muhimi, o’quvchilarga chuqur va mustahkam bilim berish jarayonida fan-texnika yutuqlarini anglab yetib, jamiyat va

oila rivojiga o’z hissasini qo’shadigan salohiyatli inson bo’lib yetishishi mas’uliyatini ular ongiga singdirish zarur.

Biz yuqorida sanab o’tgan o’quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning muhim jihatlari, ayniqsa, o’smir yoshida muhimdir. Chunki, o’smir yoshi bolalikdan yoshlikka o’tish davri bo’lib, 12-13 yoshdan 14-15 yoshgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bu davrni balog’atga yetish davri deb ham ataladi. Chunki bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanib, ichki sekretsiya bezlarida, ovozida o’zgarishlar yuz beradi, jinsiy yetilish davri boshlanishi sababli, modda almashuvida o’zgarishlar paydo bo’ladi. Bu o’zgarishlar ularning xatti-harakatlarida ham ko’rina boshlaydi. Ularda sirdosh do’st topishga, boshqalarning diqqat-e’tiborida bo’lishga, obro’ qozonishga harakati kuchaya boradi. Ba’zida mustaqillikka intilishi ota-onalar tomonidan sezilmasligi, hatto rad etilishi, ularni hali ham yosh bola tarzida qaralishi ziddiyatlar paydo bo’lishiga ham olib keladi.

Bunday holatlarda o’smirlarning mustaqilligini qo’llab-quvvatlash, ular bilan “maslahatlashish”, xatto ba’zi oilaiy muammolarni hal etishda ularga tayanish, hamkorlik qilish muhim bo’lib, ularning o’z-o’ziga va ota-onalariga bo’lgan ishonchni mustahkamlaydi. Chunki o’smirlar o’zlari va ota-onalari haqidagi har qanday salbiy bahoni kechira olmaydi va oila or-nomusi uchun ziddiyatlarga berilishi mumkin. Shu bilan birga ota-onasi, aka-ukasi, opa-singillarining kamchiliklaridan qattiq ta’sirlanadi. Lekin bu kamchiliklarni sir saqlashga harakat qiladi. Agar ota-onasi uning oldida o’z mavqeini yo’qotsa, ularga qarshi “isyon” qilishdan qaytmaydi: chekish, spirtli ichimliklar ichishi, uydan ketib, ba’zi guruhlarga qo’shilib ketishi ham mumkin. Bunday xollarda o’smir “isyoni”ning asosiy sababini aniqlash va uni bartaraf etish muhim. O’smirlarga eng yomon ta’sir etadigani bu – ota-onalar xulqidagi noto’g’ri xatti-harakatlar hamda ularni kamsitishga yo’naltirilgan ta’sirdir. Buni psixolog olim L.S.Vigotskiy ham ta’kidlaydi. Shuning uchun ham o’smirlar bilan munosbatda ularga hurmat-e’tibor, ota-onaning shaxsiy namunasi va o’smirning ishonch va e’tiborini qozonish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - T.: Universitet, 1998. 3-bet.
2. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - T.: Universitet, 1998. -184 b.
3. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. Psixol. f.d., prof. G'.B. Shoumarov tahriri
4. Alimova J. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rni. xalq ta'limi. J. - T.: 2001. №1. 38-40 betlar.
5. Inomova M. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. - T.: Nizomiy nom. TDPU, Maxpirat nom. O'rta Osiyo halqlari tarixi instituti. 1999. -152 b.
6. Minavarov A.Q. Oila pedagogikasi. - T.: O'qituvchi, 1994. -112 b.
7. Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. - T.: FAN, 1993. - 112 b.
8. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur: O'quv qo'llanma. - T.: O'qituvchi, 1999. - 200 b.
9. Musurmonov O., M.Qarshiboyev. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. 9-sinf. – T.: ma'naviyat. 2001. – 112 b.
10. To'raeyva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1990. - 222 b.

PRACTICAL DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND AESTHETIC COMPETENCE IN FUTURE MATEMATIC TEACHERS TECHNOLOGICAL SYSTEM

Senior teacher of the Andijan region national center for training pedagogues in new methods

AXMEDOVA Z.A

The aim of the research is to improve the artistic-aesthetic competence in future teachers.

The resultative criterion for improving the artistic-aesthetic competence in future teachers has been determined by educational (enrichment of artistic-aesthetic activities), normative (setting axiological consciousness for environmental protection in students) and practical (students' environmental protection, research and labour activities) indicators.

The reliability of the research resultsis explained by the fact that the used approaches, methods and theoretical data were derived from official sources, the effectiveness of the analyses and experimental studies was based on mathematical statistical methods, conclusions, recommendations and proposals were implemented in practice, and the obtained results were confirmed by competent structures.

Implementation of the research results. Based on the obtainedscientific results on the improvement of the artistic-aesthetic competence in future teachers:

Pedagogical-psychological features and factors of improving the artistic-aesthetic competence in future teachers have been incorporated in the content of the State Educational Standardsin Bachelor's Degrees that were approved by the Resolution No.2-540 of "O'zstandart"Agency of 15 February 2015. As a result, conditions will be created for the development of artistic-aesthetic competence.

The proposals on practical introduction of interdisciplinary modular education technology for improving the artistic-aesthetic competence in future teachers were used in developing educational and normative materials in accordance with the Resolution No.242 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan of20 August 2015 "On Measures for the Retraining and Professional Development of Leading and Pedagogical Staff of Higher Education Institutions" and the Resolution No.103 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan of 27 February 2017 "On Amendments and Additions Introduced in the Charter of Courses forRetraining and Professional Development of Leading and Pedagogical Staff of Higher Education Institutions"and the state requirements and curriculum programsapproved by the Decree No.3 of the Ministry of Higher and Secondary Special Education of 8 August 2016 "On the Methodology of Teaching of Exact and Natural Sciences (Matematic)";

The proposals for the development of didactic provision of improving the artistic-aesthetic competence in future teachers were used in working out the technology for the development of artistic-aesthetic competence and development of ecological thinking in the future ecologists in accordance with Paragraph 3 of the

State Grant for the “Development of Ecotourism” (Certificate No.26-09) allocated by the Fund for Nongovernmental Non-profit Organizations and Other Civil Society Institutions under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan.

A model for the development of artistic and aesthetic competence in future biology teachers

Both empirical and theoretical methods are widely used in pedagogical and psychological research. As V. Zagvyazinsky noted, the empirical methods of research can not be opposed to the theoretical methods that serve to reveal the essence of the origin of the studied voelik, its internal structure, sources, development mechanisms and functions ". In fact, they complement each other and serve to ensure the reliability of the research results. Theoretical methods of research allow to understand the hidden laws in the evidence, to obtain general, necessary, important aspects, to understand the interaction of developmental factors. Theoretical methods of research can include analysis, synthesis, abstraction, and concretization. One of the special methods related to the theoretical level of pedagogical research is modeling.

“Modeling serves to reflect a holistic range of research activities. The researcher carefully examines the essence of the series. After all, it enriches the theory with conclusions and ideas as a final model. Thus, modeling allows you to visualize the selected object in the form of a series ".

The term "model" should describe a system (sample, template), reflect its specific properties, its relationship with another, so-called real system, and in a sense replace it.

The concept of "model" is used in many fields of science. A model is an artificially created object in the form of a scheme, physical constructions, definite shapes and formulas, which is similar to the object under study, its structure, properties, interactions and relationships between the elements of the object in a simple and clear way.

A model is a symbolically created object that is similar to the object under study in the form of a picture, table, diagram, etc., and reflects and demonstrates the structure, properties, interactions and relationships between its elements in a simple, condensed form.

Modeling is a method of studying objects of different nature in order to determine or determine the properties of an existing object or objects being reconstructed on the basis of their analogues.

As can be seen from the above definitions, modeling allows for a deeper and more complete study of the manifestations of relationships and patterns in many real objects and requires the abstraction of all elements pertaining to the system.

In the process of implementing the pedagogical process, it is difficult to establish a legal relationship between complex, multifaceted and diverse factors. That is why it is important to create a theoretical model of the pedagogical process.

In pedagogy, modeling is effectively used in solving important didactic tasks, such as optimizing the structure of the educational process, increasing the independent learning activity of students, the implementation of a person-centered approach in the learning process. Of course, in pedagogical research there is a special need for a theoretical model. To develop a theoretical model, the object is usually considered as an integral system that requires the study of components, elements, subsystems separately. The components of the system are interconnected, as well as structural relationships that serve to solve specific tasks.

Systematic, person-centered, activity-oriented and competent approaches serve as a methodological basis for the model of development of artistic and aesthetic competence in future biology teachers.

A system is a collection of interacting objects conditioned not only by its unique properties, but also by its new integrative qualities. The system itself reflects the following characteristics: the presence of a structure, ie a clear connection and relationship between the elements; the presence of integrative quality (systemic); purposefulness; the presence of communicative features.

According to T. Shamova, the system is a purposeful unity of interconnected elements with a new integrative quality, denying the individuality of each; integrity associated with the external environment.

According to N.Muslimov, the system (Greek systema - integral, consisting of parts, attached) means a certain integrity, unity, interaction and many elements that are interconnected.

A system is a whole that represents the unity of parts that are arranged in an orderly fashion and are interconnected. A system is a whole that represents the unity of parts that are arranged in an orderly fashion and are interconnected. A "system" is a set of elements arranged in a specific order, which, in an interconnected state, form a certain integral unit.

From the definitions of the concept of "system", it can be concluded that the concept of "systemicity" can reflect the fact that processes and events can form a system, the existence of the system, the systemic structure of the material world and its forms of knowledge.

The systematic approach is a direction of scientific knowledge and methodology of social practice, which is based on the perception of objects as a system. This requires imagining the object as a whole, as a whole, according to the content and essence of its connections and means. In the study of the object of study, it is divided into several parts with separate features, and the interrelated and interdependent features between them are identified, because each part has its own impact on the change of the whole system.

The person-centered approach in pedagogy means that the individual is focused on the organization and implementation of the pedagogical process as the main criterion for the purpose, subject, outcome and effectiveness of the educational process.

In modern psychological and pedagogical publications, information on the integrated activities of the selected approaches, which are selected separately from the individual approach to education, is widely covered. However, this approach is

a much narrower concept than the self-directed approach, in which all human activities and behaviors are overlooked.

References:

1.Раббимова Ф.Т. Бўлажак ўқитувчилар – соғлом авлод тарбиячилари.// Ўзбекистонда соғлом авлодни шакллантиришнинг ижтимоий, педагогик-психологик асослари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2014. – Б. 239-241.

2.Раббимова Ф.Т. Табиатшунослик фанларини ўқитишда Шарқ алломаларининг фикрларидан фойдаланиш. - Ж. Биология, 2009. – Б.230-233.

3.Раббимова Ф.Т. Талабаларни эстетик тарбиялаш.//Формирование гармонично развитого поколения в современных условиях.-№8. Тошкент, 2012. – Б.85-88.

PEDAGOGIK MAHORAT VA O‘QITUVCHI KOMPETENSIYASI– TA’LIM SIFATINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Azimova Gullola Ilyosbek qizi
Oltinko‘l tumani 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Bu maqolada O‘zbekistonda ta’lim tizimini o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasining milliy g‘oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo‘lishini ta’minlash masalasi, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi hamda bu jarayoda o‘qituvchi kompetensiyasi ahamiyatli ekanligi bayon qilingan.*

Kalit so’zlar. *yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, ta’lim-tarbiya tizimi, isloh qilish, pedagogika, nazariya, metodologiya, samara, ma‘naviy-axloqiy talab, kompetensiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы организации системы образования в Узбекистане на основе национальных идей, требований подрастающего поколения, обеспечения ее соответствия мировым стандартам и перспективам развития общества, создания высокодуховной и образовательной системы для процветания общества, теоретико-методическое оснащение системы образования, направленное на всестороннее развитие личности, – главная цель педагогической науки на сегодняшний день, а также значимость компетенции учителя в этом процессе.*

Ключевые слова. *воспитание подрастающего поколения, система воспитания, реформа, педагогика, теория, методика, эффективность, духовно-нравственный спрос, компетентность.*

Kompetensiya (lot.competo-erishyapman, munosibman, loyiqman) –u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba. O‘qituvchi - muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azaldan e’tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo‘yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan.

O‘qituvchining kasbiy shakllanishi oliy o‘quv yurti dargohida kasbiy ta’lim olish jarayonida boshlanadi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘quv-reja va fanlar bo‘yicha dasturlarida bo‘lajak o‘qituvchilarga shu kasbning sir-asrorlarini o‘rgatish, ilmiy bilimlar berish, o‘qituvchi kasbi haqida ma’lumot berish va ko‘nikma hosil qilish nazarda tutiladi.

Ta’lim jarayonida fanlar bo‘yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko‘nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo‘llashga ham imkon beradi. Bunday mashg‘ulotlar tanlagan kasbi to‘g‘ri ekaniga ishonch hissini uyg‘otadi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi davrdagi o‘qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati, ayniqsa, ilmiy mudir hamda pedagogik jamoatchilik katta rol o‘ynaydi. Yosh o‘qituvchilarga tajribali o‘qituvchilarni biriktirib qo‘yish, ularning darslarini kuzatish, uslubiy ishlarga jalb etish maktab rahbariyatining asosiy vazifalaridan biri. O‘qituvchi o‘z kasbini sekin-asta o‘zlashtirib borishi bilan birga ota-onalar o‘rtasida pedagogik bilimlarni targ‘ib etadi. Shu yo‘l orqali ham kasbiy shakllanishi takomillashib boradi. O‘qituvchilik kasbini va pedagogik mahoratni egallash, maktab o‘qituvchilar jamoasiga kirishib, unda o‘z o‘rnini topib keta olishi yosh o‘qituvchining o‘ziga bog‘liq. Jamoaning yordamidan yuz o‘girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o‘z xatolarini ko‘ra bilish va uni bartaraf etish uchun harakat qilish uning o‘qituvchi bo‘lib shakllanishidan darak beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchining kasbiy shakllanishi

o‘z-o‘zini tarbiyalab borishga, o‘z ustida tinmay ishlashga va o‘z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog‘liq. Bularning hammasi kasbiy fazilatlarning ajralmas qismihisoblanadi. O‘zbekistonda ta’lim tizimini o‘sib kelayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasining milliy g‘oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo‘lishini ta’minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o‘tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko‘tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta’lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir. Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi. Pedagogik mahorat – o‘qituvchi ijodkorligining oliy namunasi bo‘lib, u yillar davomida shakllanadi. Uning yuksak mahoratni egallashi g‘oyat murakkab jarayon bo‘lib, pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchi kasbiga xos bo‘lgan ko‘pgina fazilatlar bilan birga uning pedagogik mahoratni egallashi katta ahamiyatga ega. Yuqori pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchigina o‘z kasbiga layoqatli, iste’dodli bo‘lishi mumkin.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o‘qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo‘lishi kerak. Shundagina o‘zi mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo‘lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo‘lishi, o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘otishi, o‘quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta

olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi o‘zini o‘quvchining o‘rniga qo‘ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo‘lgan narsalarni o‘quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo‘lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o‘ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

O‘qituvchi o‘quvchining, ichki dunyosiga kira olishi, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday o‘qituvchi o‘quvchining ruhiyatiga ko‘z ilg‘amas o‘zgarishlarni ham tez fahmlab oladi.

O‘qituvchida nutq o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati hisoblanadi. Bu o‘qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir.

O‘qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his-hayajonli bo‘lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

O‘qituvchi kasbiga xos bo‘lgan xislatlar, ya’ni yuksak pedagogik mahorat unda birdaniga shakllanmaydi. U o‘z ustida tinmay ishlash, izlanish va ko‘nikmalar asosida rivojlanadi.

O‘qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta’lim tizimida asosiy o‘rin egallagan malaka oshirish o‘quvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo‘nalishlar berishga imkon beradi.

Hozirgi davr o‘qituvchidan o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiya talablarini to‘g‘ri tushunish, tashabbuskorlik, o‘z fani bo‘yicha yangiliklardan xabardor bo‘lishi va darslariga joriy eta olishni talab etadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, do‘stona muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, fan o‘qituvchilari va maktab rahbariyatining egallagan bilim, ko‘nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qituvchi avvalo:

- Yumshoq ko‘ngilli, ochiq chehrali, shirinso‘zli, bolalarni qanday bo‘lsa shundayligicha yaxshi ko‘rishi;

- Mehr-muhabbat, qalb g‘urini o‘quvchilarga bab-baravar bo‘lib berishi, sinfda do‘stona muhitni yaratish va o‘quvchilarning o‘quv motivlarini rivojlantiruvchi kuch-rag‘batlantirish metodlari ekanligini anglash;

- O‘quvchilarning taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas’ul ekanligini chuqur his etish, ularning nafsoniyati va qadr-qimmatini e’zozlash;

- Har qanday pedagogik vaziyatda o‘quvchilarga qo‘pollik qilmaslik, haqorat qilish va baqirish, taqdid va qo‘rqitishdan o‘zini tiyishi zarur;

- O‘quvchilarni tushuna olishi, ularning his-tuyg‘ularini qadrlash, tashvishlari, iztiroblarini engishiga yordam berishi, yoshlik va psixologik rivojlanishda o‘ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini bilish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim tizimining odil va demokratiyalashtirilishi o‘quv jarayoniga o‘zgacha talab va o‘zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bu jarayon mazmun mohiyatdan avvalgidan tubdan farqlanadi.

Ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, mustaqil fikr yurita oladigan ijtimoiy faol yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi yoshlarga zamon talablariga javob beruvchi bilimlarni berish uchun avvalo o‘zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi kerak. Zero, tizimdagi yutuqlarning asosi maktablarda tashkil etiladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. O‘quv soatlarida o‘quvchilarga etarli bilim berish hayotiy ko‘nikmalarini oshirish va malakalarini shakllantirish o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq. O‘quvchining mustaqil fikrini bayon etish, o‘z yo‘nalishini tanlashi va buning asosi bo‘lgan qarashlarini isbotlashi, o‘rni kelganda himoya qilishni o‘rgatilsa, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirib borishga erishishi orqali ta’lim mazmunining natijasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ta’limni isloh qilishda o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilagn talablar kundan-kunga oshib bormoqda. Pedagogika fani oldida turgan muammolarning biri ham,

aynan, o‘qituvchi va pedagog mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. O‘qituvchining ko‘p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni bilimli va axloq-odobli qilib voyaga etkazish vazifasi yotadi.

Shu munosabat bilan bugungi kunda o‘qituvchi shaxsiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- o‘z fanini chuqur bilishi va uning metodikasini etarli darajada o‘zlashtirish;
- keng ilmiy dunyoqarashli va teran e’tiqod sohibi bo‘lishi;
- ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatni chuqur tushunishi;
- ijtimoiy va fuqarolik burchini chuqur anglashi;
- ijtimoiy-siyosiy faol bo‘lishi;
- o‘z kasbi va bolalarni sevishi;
- ruhiy pedagogik ziyrak bo‘lishi va yangilikka intilishi;
- o‘z xalqi tarixi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini chuqur o‘rganishi va ularni targ‘ibot qilishi;
- pedagogik kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, talabchanlik, qat’iylik, vazminlik, haqqoniylik, o‘zini tuta bilish kabi xislatlar sohibi bo‘lishi;
- o‘z kasbiga to‘la layoqatli va pedagogik takt (odob) egasi bo‘lmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir pedagog-o‘qituvchi o‘zining butun bilim va tajribasini ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga yo‘naltirishi bugungi kunning muhim dolzarb masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.–T.: “O‘zbekiston”, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz” – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

3. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi o‘quv dasturi // Boshlang‘ich ta’lim . – Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.

4. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi// Boshlang‘ich ta’lim, 2014.

5. M.M.Axmetjanov, Sh.Sh. Olimov “Umumiy pedagogika”

6. Z.Rasulova. Bo’lajak o’qituvchining kasbiy kompitensiyalarini rivojlantirish. T., 2021.

Ta’lim-tarbiya jarayonidagi zamonaviy yondashuvlarda o’qituvchi kompetentligining zarurati.

Islomov Ibratjon Inomjon o’g’li
Shahrixon tumani 68-umumtalim maktabi o’qituvchisi

Annotatsiya; Ushbu tezisda Ta’lim-tarbiya jarayonidagi zamonaviy yondashuvlarda o’qituvchi kompetentligining zarurati bayon qilingan.

Kalit so’zlar: Kompitentsiya, texnologiya, interfaol, zarurat, o’qituvchi faoliyati

Hozirda fan va texnika asri jadal taraqqiy etayotgan hayot o’quvchilarda predmetlar bo’yicha faqatgina bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lishning o’zi yetarli emasligini ko’rsatmoqda. Ularga yetarli bilim berish uchun o’qituvchi yuqori kompetentlikka va tajribaga ega bo’lishligi talab etiladi. Birgina ona tili fanini o’qitish misolida ko’rib chiqadigan bo’lsak, o’qituvchining har tomonlama puxta tayyorgarlikka, chuqur bilim ,yuksak iqtidor, hayotiy ko’nikmaga ega, ya’ni kompetent o’qituvchi bo’lishi uchun qanday vazifa va maqsadlar mavjudligining guvohi bo’lamiz. Umumiy o`rta ta’lim maktablari barcha fanlar qatori ona tili va adabiyot fani o`qituvchilari kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy vazifalari: o’quvchilarga ona tili va adabiyot fanini o`qitishda zamonaviy yondashuvlarni tadbiq qilish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalarni shakllantirish, ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanish ko`nikmalarini rivojlantirish, ona tili va adabiyot fani nazariyasi va uni o`qitish metodikasi yutuqlari, fanning texnika va ishlab chiqarishga qo`llanishi bo`yicha tadqiqotlar bilan tanishtirish, zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni, fan nazariyasi va uni o`qitish metodikasi yutuqlarini, fanning texnika va ishlab chiqarishga qo`llanishi bo`yicha tadqiqotlarni,

fanni o`qitishda qo`llanilayotgan ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llay olish, ta'lim sifatini baholash bo`yicha xalqaro tadqiqotlar mohiyatini tushuntirish, ta'limi samaradorligini oshirish yo`llari va zamonaviy dars shakllarini qo'llash, nutqiy kompetensiyalar darajasini baholash mezonlarini bilish kabilardan iborat.Shu bilan birga,o`z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, muammolarni aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq takliflar berish va turli pedagogik texnologiyalar bo`yicha dars ishlanmalarini tahlil qilish va baholay olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat,o'qituvchi o'z oldiga kompetensiyalarni rivojlantirish vazifasini qo'yar ekan, albatta, quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

-fanni o'qitish metodlari va shakllarining uzviyligi va izchilligini ta'minlash;

o`qitish mazmuniga oid axborotlarni qayta ishlash, umumlashtirish va o`quvchilarga yetkazish;

- pedagogik ishlarni rejalashtirish;

Kasbiy mahoratini mustaqil va muntazam ravishda oshirib borish,ta'lim jarayonida sifat va samaradorlikka erishish yo`llarini bilish, darslarda ta'limiy innovatsiyalarni qo`llash ,zamon yangiliklarini tez ilg'ab olishi hamda ta'limda qo`llay olish, darsga qo`yiladigan zamonaviy talablar asosida darslarni tashkil etish malakalarni egallash ham o'qituvchi kompetensiyasini rivojlantiradi.Bunday omillar o'qituvchilarinizning har qanday horijiy tajribalarni yurtimiz ta'lim tizimiga olib kira olishiga zamin bo'ladi.Bugungi kun ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligini hisobga olib ,aksariyat xorijiy davlatlarda ta'lim va fan sohalari ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ayrim ilg'or tajribalar o`rganib chiqildi.

Xususan, o`qish va tushunish dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O`quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo`llanilib kelinmokda.O'quvchi- yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, yosh avlodning ijodi va ijodkorligini

qo`llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishga qaratilgan dunyo ta'lim tizimida tan olingan va juda ko`plab mamlakatlarda joriy etilgan xalqaro baholash dasturlari PISA, PIRLS, TIMSS dasturlariga tayyorlash uchun ham o'qituvchilarimizdan katta mahorat, bilim va ko'nikma talab qilinadi. 15 yoshli o`quvchilar ta'lim dargohida olayotgan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini shakllantirish uchun ham o'qituvchining dunyoqarashi juda keng bo'lishi, kutilmagan vazyatlardan olib chiqib keta oladigan test savollarini muammosiz tuza oladigan , mantiqiy fikrlaydigan yuqori kompetentlikka ega bo'lishi zarurdir. Testda faqat 15 yoshdagi o`smirlar ishtirok etadi.Lekin, maktabda bu yoshgacha yetib borgunga qadar kichik yoshidan boshlab ,barcha fan o'qituvchilari birdek ma'suliyat bilan, o'qitishning ilg'or tajribalariga tayangan holda faoliyat ko'satishi va buning uchun tajriba, bilim ko'nikmalarini rivojlantirishi yana bir zaruratdir. Shu bilan birga o'qituvchi ana shunday sinovlarga tayyorgarlik jarayonlarida ba'zi hollarda o'zining kucnli va kuchsiz tomonlariani xolisona aniqlab, boshqalarga nisbatan mavqeyini ko`radi, baholaydi hamda ta'lim muassasalarida o`quv jarayonini takomillashtirishda o`z yo`nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi.

Chunki bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, uslublar, o`qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir. Zero , o'qituvchi bugun ,eng avvalo ,o'quvchilar ,ota- onalar , ayniqsa ,keng jamoatchilik tomonidan tanlanmoqda. Yaxshi o'qituvchining reytingi oshib boraveradi. O'qituvchi tanlanga bo'lish uchun esa ,aytib o'tganimizdek kompetent o'qituvchi bo'lishga erishish zarurdir.

ZAMONAVIY O‘QITUVCHI, ZAMONAVIY DARS - JAMIYAT TAYANCHI

Ismoilova Muyassarxon Ergashevna
Qo'rg'ontepa tumani 33-umumiy o‘rta ta'lim maktab o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu tezisda zamonaviy darsning jamiyat tayanchi ekanligi,

uni tashkil qilish jarayonlari haqida tavsiyalar berilgan

Kalit so’zlar: ilmiy materiallar, pedagogik mahorat, interfaol ta’lim metodlari,kreativ

Ulkan islohatlar jadallashib borayotgan jarayonlarda ta’lim tizimida ham boshqa sohalar kabi tezkor rivojlanish, axborot almashinishlar tez suratlarda o‘sishi kuzatilmoqda . Zero, yosh avlod ongini ham ko‘plab axborot oqimlari qamrab olgan . Bu sharoitda,albatta, ta’lim tarbiya tizimda jiddiy o‘zgarishlar, ulkan islohatlar amalga oshirilayotgani maktab ta’limida yaqqol namoyon bo‘lmoqda . Ko‘rinib turibdiki, yosh avlodni mustaqil fikrlash , o‘zini va o‘zgalar fikrini nazorat qilish , jamiyat taraqqiyoti bilan birga jadal qadam tashlashlari uchun bugungi kunda ona tili va adabiyot fanini o‘qitish o‘qituvchidan ham boshqa fan mutaxassislaridanda ko‘proq katta mahorat, yuksak salohiyat, chuqur bilim, ilg‘or tajriba, ulkan iste’dod talab qilinadi. Darsni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi hamda ona tili va adabiyot fani darslariga quyidagi talablar belgilangan.

Ta’lim-tarbiya tizimidagi dolzarb vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan o‘qituvchi shaxsiga bog‘liqdir. Ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadga erishish, o‘quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish,ularni bilimli, odobli,e’tiqodli, mehnatkash,ishbilarmon, barkamol inson qilib o‘stirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan.Xalqimizning kelajagi, O‘zbekistonning

istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchiga,uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq . O‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirishda O‘quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o‘quv materialini tanlash, uni analiz va sintez qila olish, ilmiy materiallarni qayta ishlab, o‘quv materialiga aylantira olish, ma’lum murakkab matnlarni va o‘quv materialini o‘zlashtira olish ko‘nikmasini shakllantirib borishi lozim. O‘qituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashi zarur. Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarf qilib, katta natijalarga erishadi, o‘z ishining natijasi bilan mo‘‘jizalar

yaratadi, ijodkor bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat bo‘lishi mumkin. Pedagogik faktlar va ularning tahlili shundan dalolat beradiki, muallim o‘quvchilar bilan muomalada ma’lum axloqiy talablar, mezonlarga amal qilishi zarur.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

2. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

3.O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri ,asosli ma’lumotlarni bera olishi kerak.

4.O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan olish imkoniyatiga ega

5.O‘qituvchi ijodkor,tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi shart.

6.O‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur,uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to‘g‘riligi;

b) nutqning aniqligi;

v)nutqning ifodaviyligi;

g)nutqning sofligi

d) nutqning ravonligi;

j)nutqningboyligi

7.O‘qituvchi kiyinish madaniyati

8.O‘qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o‘rnak bo‘la olishi shert. Shunda ko‘rinib turibdiki,ona tili va adabiyot o‘qituvchisi aql –idrokli, xotirasi mustahkamligi, notiqligi bilan o‘quvchilarni o‘ziga jalb qila oladigan, so‘zi bilan ortidan ergashtira oladigan , muloqot madaniyatiga ega bo‘lgan shaxsdir. U

o‘zining odob- ahloqi ,ibratli hayoti, kiyinish madaniyati , qalbining pokligi, yurish - turishi , hulq atvori, tashabbuskor va tadbirkorligi , nutqning jozibadorligi bilan boshqa fan o‘qituvchilaridan ajralib turadi.Zamonaviy texnologiyalar, AKT, interfaol ta’lim metodlari, didaktik materiallar, mul’tmedia va audio – vedio texnik ko‘rsatmalar bilan qurollangan o‘qituvchi darsning muqaddas ekanligini teranroq xis qiladi, o‘z vazifasini sidqidildan bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini Birgalikda barpo etamiz- Toshkent 2009

2.Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.– Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.

3. Karimov I. Istiqlol va ma’naviyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 1994.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ZAMONAVIY DARSLIKLAR VA ULARNING AFZALLIKLARI.

Andijon viloyati PYMO’MM
Maktabgacha, boshlang’ich va
maxsus ta’lim kafedra mudiri
Karimova Nargiza Raximovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich sinf o’qituvchilarining zamonaviy darsliklardan foydalanishning o‘ziga xosligi yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: 4K modeli ,zamonaviy darsliklar, tanqidiy fikrlash,shartli belgilar.

Bugungi kunda maktablardagi sifatli ta’lim ko‘p jihatdan yaratilayotgan darsliklarga bog‘liq. Darsliklar davlat ta’lim standartlariga javob berish bilan birgalikda o‘quvchini qiziqtirish va fanga bo‘lgan mehrini uyg‘otishi, bilim olishga bo’lgan ishtiyoqlarini oshirishi kerak. Bu yil boshlang‘ich sinf darsliklarining tubdan yangilangani nafaqat o‘quvchi va ustozlarni, balki ota-onalarni ham quvontirdi.

Milliy dastur asosida yaratilgan 2023-2024-o‘quv yilidagi darsliklar avvalgilaridan nimasi bilan farq qiladi? Bu yil taqdim etilgan boshlang‘ich sinf

darsliklari o‘qituvchilar uchun yangilik bo‘ldi. O‘quvchilar kitoblar berilgan kun qanchalik quvonishganini so‘z bilan ta’riflab berib bo‘lmaydi. Haqiqatan ham hozirgi darsliklar avvalgilaridan ancha ustun. Darsliklarning ko‘rinishi va rang-barang suratlari har bir o‘quvchini o‘ziga qarata oladi.

Avvalgi darsliklar ancha qalin va og‘ir edi. Ayni o‘sish davridagi bola uchun bu qator qiyinchiliklarni tug‘dirar edi. Bola bir o’quv yiliga mo’ljallangan darsliklarni har kuni maktabga olib borib kelishi, uning nafaqat yoshiga,kichik jussasiga ham ta’sir etar edi. Yangi darsliklarning har bir o’quv choraklariga moslab ishlanganligi ,o‘quvchini yil davomida ortiqcha yukni ko‘tarib yurishdan xalos qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 726-qaroriga muvofiq ta’lim muassasalarining matbaa mahsulotlari texnik reglament asosida ishlab chiqariladi. Yangi boshlang‘ich sinf darsliklari ana shu texnik reglamentning eng maksimal darajasidan ham yuqori sifatda ishlab chiqarilgan. Bu o‘z navbatida darslikdan uzoq yil foydalanishga sabab bo‘ladi. Ular sifati va chidamlilik darajasi bo‘yicha Xalqaro poligrafiya standartlariga to‘liq javob beradi. Darslikning vazni, o‘lchami, shriftlari bo‘yicha reglament tasdiqlangan va shu talablardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarilgani barcha boshlang’ich ta’lim o’quvchilarini cheksiz quvonchiga sabab bo’lmoqda.

Zamonaviy va xalqaro talablar asosida yaratilgan 1-4-sinflar uchun maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuv taqdim etilgan. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi:

Kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Darsliklardagi tanqidiy fikrlashga qaratilgan topshiriqlar orqali o’quvchilarda tahlil qilish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish, ma’lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash, mustaqil xulosalar chiqarish, muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirishga asoslangan.

Kreativlik (ijodkorlik) ko‘nikmasini shakllantirish o’quvchilarning qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko‘proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o‘rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o‘z savollariga javob topish,tasavvur – ko‘plab original va nostandart g‘oyalarni ishlab chiqish, optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish, g‘oyalarni rivojlantirish hamda turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o‘zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma’lumotlarning paydo bo‘lishida o‘z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyatini rivojlanishiga olib keladi.

Muloqot qilish ko‘nikmasi bolalarni muloqotdan cho‘chimaslik va muloqotni uyushtira bilishi, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik,muloqot maqsadi hamda mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish, muloqot qoidalari ma’nosini tushunish, ishonch darajasini oshirish,boshqa odamlarning fikrini tinglashni o‘rganish, o‘zining ijobiy obrazi shakllanishini ta’minlash,o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash, taqdim etish, qabul qilish, qayta aloqani aks ettirish, katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash ko’nikmalarini amaliyotga bog’lagan holda rivojlanishiga zamonaviy darsliklardam keng imkoniyat yaratib berilgan .

Jamoaviy ishlash ko‘nikmasi o’sib kelayotgan yosh avlodni umumiy maqsadlarni o’z maqsadidek qabul qilish, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo‘nalishini qurish, ijtimoiy o‘zaro ta’sir, ya’ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o‘z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish, o‘z rejalari va g‘oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik ko‘nikmalarini va o‘z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish,o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishni o’rgatadi.

Bu ko’nikmalarni rivojlantirish darsliklar bilan ishlash jarayonida amalga oshirib boriladi.Darsliklarda berilgan topshiriqlar, qiziqarli ma’lumotlar, mantiqiy topshiriqlar o’quvchilarni fanlarga bo’lgan qiziqishlarini ortirib boradi.

Darsliklarni ishlab chiqishda bolalar ruhiy holati ham hisobga olinadi. Ularda ijodkorlar va fikrlash qobiliyatini oshirish uchun rasmlar va illyustratsiyalardan keng

foydalanilgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola matnlarga nisbatan, tasvirlar orqali ma’lumotni tezroq qabul qiladi. Shu bois yangi darsliklarni yaratishda matnlar bilan birga, rang tasvirlarga ham alohida e’tibor qaratilgan.

1-4-sinf darsliklarda oltita grafik qahramonlar bor. Ular dars jarayonida o‘quvchilar bilan g‘oyibona suhbatlashadi,qiziqarli o’yin va topshiriqlarni bajarishda o’quvchilarga hamrohlik qiladilar.

Boshlang’ich ta’limda avvalgi darsliklar matematika fanidan 1-2 sinflarda birmuncha yengil bo’lsa, 3-4 sinflarda qator muammo va qiyinchiliklarga tug’dirar edi. Yangi matematika darsligidagi misol va masalalar tabaqalashtirish ko‘rinishida berilgan, ya’ni ular osondan bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Tabiiyki, o‘quvchilarning bilim darajalari turlicha bo‘ladi. Oson ko‘rinishidagi masalalar ko‘p bo‘lgani uchun o‘zlashtirishi yaxshi bo‘lgan iqtidorli o‘quvchilar uchun qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanishga to‘g‘ri kelardi. Yangi chop etilgan matematika darsligida esa o‘qituvchi o‘quvchisining bilim darajasiga qarab, misollarni taqsimlab berishi mumkin. Har bir o‘quvchi barcha misol va masalalarni yechimini topishi shart emas.O’quvchilar ularni darsdan tashqari, mustaqil bajarsa ham bo‘ladi.

Differensial ta'lim, o‘quvchilarni yoshi, qobiliyati, ishtiyoqi, o‘ziga xosligi, qiziqishlari, o‘zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda ularga yondashuv qilingan ta'lim. Ya'ni yakka tartibdagi ta'lim. Darsliklardagi topshiriqlar aynan differensial ta’lim asosida tuzilgan.Aslida matematikada faqat misol va masalalar yechishdan iborat emas, balki to‘g‘ri qaror qabul qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o‘quvchi mantiqiy va tanqidiy fikrlashi kerak. Darsliklarda shunday o‘yinlar borki, ular o‘quvchini jamoaviy bo‘lib ishlashga o‘rgatadi. Jamoada o‘z fikrini ifodalay olishi esa bolada liderlik qobiliyatini oshiradi. Undagi masalalar hayotiy misollar bilan berilgani esa o‘quvchini yanada fanga bo’lgan qiziqishi va bilimini orttiradi. Ma’lumki bugungi kunda iqtidorli o‘quvchilar ko‘payib boryapti.Boshlang’ich sinf o’qituvchisi ilgari darslikdan tashqari, yana boshqa adabiyotlardan foydalanishga majbur bo‘lardi.Bu iqtidorli o‘quvchilarni 45 daqiqalik dars davomida cheklanib qolmasdan,bir qancha misol va masalalar bilan

ishlash imkoniyati yaratilgan. Chunki yaxshi o’zlashtiruvchi o’quvchilar, boshqa bolalarga qaraganda ko’proq mustaqil ishlashga intiladilar, darsliklardagi misol va masalani son jihatdan ko’p kiritilgani iqtidorli o’quvchilarni talablariga mos keladi.

Boshlang’ich ta’lim o’qituvchilari yangi darsliklar bilan ishlash jarayonida, unda berilgan topshiriqlarni o’zi yaxshi anglab,keyin o’quvchilarga tushuntirishlari lozim. Darsliklar tubdan mazmun va shakl jihatidan o’zgartirildi. Unda tanqidiy fikrlash, mulohaza yuritib qaror qilinishi kerak bo‘lgan jihatlar ham bor. Darsliklardagi topshiriqlar o’quvchilarni amaliyotga bog’lash bilan bir qatorda hayotga ham tayyorlab borish kabi dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan bo’lib, o’quvchini har tomonlama rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratilgan,faqatgina o‘qituvchi o‘z ustida ishlab, uni o‘quvchiga to‘g‘ri tushuntira olishi, zamonaviy darsliklardagi g’oyalarni o’quvchiga yetkazib bera olsagina, o’quvchilarning bilim olishga qiziqish va ishtiyoqlari o’sib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

2. Ishmuhamedov R.J, Yuldashev M.A, “Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”.T.: “Nihol”,2013

3. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar – do‘stona muhit yaratish omili. - T.: YUNISEF, 2005.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA STEAM TA’LIMI ASOSIDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA TINGLOVCHILARDA ILMIY FIKRLASH VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Kuychiyeva Mo’jizaxon Abdumannobovna-Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedra mudiri, p.f.f.d.(PhD), v.b.dotsent

Annotatsiya: *Mazkur maqolada malaka oshirish tinglovchilarda STEAM ta'limi asosida tabiiy fanlarni o'qitish kompetentligini rivojlantirishda ularda ilmiy fikrlash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida shakllanadigan kompetensiyalarning ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.*

Kalit so'z:. *STEAM ta'limi,tabiiy fanlar,ilmiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, , refleksiya,kasbiy faoliyat, kreativlik ko'nikmasi, madaniyatlararo ko'nikmalar va global xabardorlik*

РАЗВИТИЕ НАУЧНОГО И КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК НА ОСНОВЕ ПАРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ

Куйчиева Мужизахон Абдуманнобовна- Андижанский областной национальный центр подготовки педагогов по новым методологиям, заведующая кафедрой методологии точных и естественных наук, к.п.н.(PhD), доцент

Аннотация: Целью данной статьи является раскрытие значения компетенций, которые формируются в процессе развития научного и критического мышления, в развитии компетентности при преподавании естественных наук на основе STEAM-образования.

Ключевое слово: STEAM образование, наука, научное мышление, критическое мышление, размышление, профессиональная деятельность, творческие навыки, межкультурные навыки и глобальная осведомленность

DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC THINKING AND CRITICAL THINKING IN STUDENTS IN THE TEACHING OF NATURAL SCIENCES BASED ON STEAM EDUCATION IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Kuychiyeva Mo'jizakhan Abdumannobovna-Andijan Region National Center for Training Pedagogues in New Methodologies, Head of the Department of Methodology of Exact and Natural Sciences, Ph.D. (PhD), Dotsent

Abstract: This article aims to reveal the importance of competences that are formed in the process of developing scientific thinking and critical thinking in the development of competence in teaching natural sciences based on STEAM education.

Keyword: STEAM education, science, scientific thinking, critical thinking, , reflection, professional activity, creativity skills, intercultural skills and global awareness

Biz raqamli texnologiyalar asrida, ta’lim karyerada muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan davrda yashayapmiz. Zamonaviy ta’lim bizning nafaqat bilim va ko‘nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo‘shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.

Bugungi kunda “Tabiiy fanlar” fani dunyoning hozirgi ilmiy muhitini shakllantirishda, undagi asosiy tushunchalar, qonuniyatlarning fundamental xarakteri, metodologiyasining keng qamrovliligini oshirishda tobora yaqqol namoyon bo‘lib bormoqda. “Tabiiy fanlar” fanining fanlararo aloqalari juda katta bo‘lib, bu aloqalarning soni ham tushunchaviy apparat miqyosida, ham vositalar, ya’ni voqelikni anglashning metod (usul) va vositalari miqyosida kundan kunga ortib bormoqda. Bu fanni o‘rganish atrofimizdagi olamda sodir bo‘layotgan juda ko‘p hodisa va jarayonlarni anglashga yo‘l ochib beradi. Tabiiy fanlar tufayli rivojlanayotgan ko‘pdan ko‘p qoidalar zamonaviy tamaddunning eng muhim texnologik yutuqlaridan biri bo‘lgan STEAM texnologiyasining asosidir. Tabiiy fan sohasida metafan xarakteriga ega bo‘lgan juda ko‘p faoliyat turlari va kompetensiyalar shakllanib, ularni bilish o‘sib kelayotgan avlodning STEAM ta’limi savodxonligining asosini tashkil qiladi. STEAM ta’limi talabalarni tanqidiy

fikrlashni, ijodiy fikrlashni, hamkorlik qilishni, muloqot qilishni va STEAM bilan dunyo muammolariga innovatsion yechimlarni taklif qilishni o‘rganishga undaydi. Bu kabi qarashlardan kelib chiqadiki, tinglovchilarda ilmiy tafakkur va tanqidiy fikrlash tinglovchilarni asosiy va har tomonlama tarbiyalashda kalit hisoblangan ikkita intellektual jarayondir. Shu sababli ularni rivojlantirish ham fan ta’limining asosiy vazifalari qatoriga kiradi

O‘n yillar davomida ilmiy tafakkur va tanqidiy fikrlash psixologiya, falsafa, pedagogika kabi turli fanlar va fan ta’limi kabi so‘nggi sohalarning alohida e’tiborini tortdi. Ikki turdagi bilimlar intellektual jarayonlarni ifodalaydi, ularning rivojlanishi malaka oshirish tinglovchilarda va umuman jamiyatda bugungi jamiyat talablariga muvofiq mas’uliyatli fuqarolikni amalga oshirish uchun ajralmas deb hisoblanadi. Biroq, ko‘rsatilgandek, ularni kontseptsiyalash vazifasi murakkab va tinglovchilarni ilmiy va tanqidiy fikrlashga o‘rgatish qiyin ta’lim muammosidir. Adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, ko‘plab ilmiy nashrlarda ilmiy fikrlash va tanqidiy fikrlash bir-birini almashtirib bo‘lmaydigan yoki ajratib bo‘lmaydigan tarzda taqdim etilgan yoki qabul qilinganligini guvohi bo‘lamiz. Ularning farqlari, munosabatlari yoki umumiy xususiyatlari kamdan-kam hollarda aniq o‘rganilgan. Qolaversa, fizika va kimyo fanlari bo‘yicha o‘quv dasturini ishlab chiqishda xuddi shu qoidada “Ilmiy tafakkurning mohiyati tabiiy muhitda sodir bo‘layotgan hodisalarning sabablari nimada ekanligini tushunish va keyin ularni tushuntirishga harakat qilishdan iborat. Biroq, Biologiya, Geologiya fanlari ichida tanqidiy fikrlash bu kabi tilga olinmaydi. U "tanqidiy tahlil", "tanqidiy baholash", "tanqidiy mulohaza", "tanqidiy munosabat" va "tanqidiy ruh" kabi iboralar bilan ko‘proq yoki kamroq to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishora qilinadi. Yuqorida aytilgan ilmiy tafakkur va tanqidiy fikrlash tushunchalarining kichik namunasidir, ba’zi hollarda faqat farqlanadi, boshqalarida esa ular bir-birini almashtirib, bir xil kognitiv, metakognitiv jarayonlar haqida gapirish uchun amaliyotlar u yoki boshqasidan noaniq foydalanadi. Biroq, boshida aytib o‘tilganidek, tan olish kerak - bu ikki turdagi fikrlashni kontseptsiyalash oson emas, chunki ular qisman bir-biriga mos keladi va ma’lum xususiyatlarni baham ko‘radi.

Bu ilmiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni ko‘p jihatdan bir-biriga mos keladigan va bir-biriga oziqlanadigan, lekin ma’lum kognitiv qobiliyatlari va maqsadlari jihatidan farq qiladigan ikkita intellektual jarayon sifatida tasavvur qilishda birlashadi. Shunday qilib, ilmiy fikrlashda maqsad mavjud muqobil tushuntirish takliflari asosida hodisaning mumkin bo‘lgan eng yaxshi izohini tanlashdir. Adabiyotda ularning har birini qanday tavsiflash bo‘yicha yakdillik yo‘q va ular kamdan-kam hollarda qiyosiy tahlil qilingan.

Boshqa tomondan, Evropa hisoboti ilmiy ta’limning muammolaridan biri bo‘lishi kerakligini aniqlagan holda ilmiy fikrlash haqida gapiradi: "Ilmiy madaniyatni rivojlantirish, fikrlash va fuqarolarni qaror qabul qilishda dalillarga asoslangan mulohazalardan foydalanishga undash” (Yevropa komissiyasi, 2015 yil, 14-bet). Biroq, Pisa 2020 strategik qarashlari va fan yo‘nalishi hisobotida ilmiy fikrlash haqida so‘z yuritilmaydi, biroq tanqidiy fikrlash to‘g‘risida eslatib o‘tiladi: “Umuman olganda, (talabalar) ilmiy izlanishlarning natijalari bilan cheklovlarini tan olishlari va mashg‘ulotlarga jalb qilishda tanqidiy fikrlashni qo‘llashlari kerak.” (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), 2020, 9-bet). Asosiy ta'lim uchun yangi ispan fanlari o'quv dasturi (Qirollik qarori 217/2022) ilmiy tafakkurga aniq havola qiladi. Misol uchun, majburiy o‘rta ta’lim uchun STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) kompetentsiya identifikatorlaridan biri quyidagicha:

Atrofda sodir bo‘layotgan hodisalarni tushunish va tushuntirish uchun ilmiy fikrlashdan foydalaning, bilimga rivojlanish uchun vosita sifatida ishoning, savollar bering va tekshiring.

Tanqidiy fikrlash:

• tahlil – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo‘lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati;

• baholash – kirish va chiqish ma’lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati;

• tushuntirish – o‘z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog‘liq izchil matnlar qurish;

• maqsadlarni belgilash – erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni to‘g‘ri shakllantirish, zarur ma’lumotlarni va uning yetarliligini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati;

• o‘zini boshqara bilish – o‘z-o‘zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya);

• modellashtirish – amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhum modeli bilan almashtirish qobiliyati;

• o‘rganilayotgan predmetga turli nuqtayi nazardan qarash amaliyoti;

• kuzatish va o‘lchovlarni rejalashtirish va amalga oshirish amaliyoti;

• muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;

• dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;

• strategik fikrlash.

Kreativlik (Ijodkorlik) ko‘nikmasi:

• qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko‘proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o‘rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o‘z savollariga javob topish qobiliyati;

• tasavvur – ko‘plab original va nostandart g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

• optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati;

• g‘oyalarni rivojlantirish – g‘oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o‘zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma’lumotlarning paydo bo‘lishida o‘z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

Muloqot qilish ko‘nikmasi

• muloqotdan cho‘chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik;

• muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;

• muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;

• muloqot qoidalari ma’nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;

• boshqa odamlarning fikrini tinglashni o‘rganish;

• o‘zining ijobiy obrazi shakllanishini ta’minlash;

• o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash amaliyoti;

• taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;

• o‘z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;

• katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti.

Jamoaviy ishlash ko‘nikmasi:

• umumiy maqsadlarni o‘z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo‘nalishini qurish qobiliyati;

• ijtimoiy o‘zaro ta’sir, ya’ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o‘z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;

• o‘z rejalari va g‘oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik ko‘nikmalarini va o‘z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish;

• o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;

• mustaqillik va avtonomiya va tashabbuskorlik.

Madaniyatlararo ko‘nikmalar va global xabardorlik:

• turli madaniyatlarning tarixiy va zamonaviy xususiyatlarini o‘rganish, ushbu madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

• turli mamlakatlar, madaniyatlar va alohida shaxslarning tabiiy fanlar fanining rivojlanish tarixiga qo‘shgan hissasi bilan tanishish, ularning qimmati, o‘zaro bog‘liqligi va joydan mustaqilligini tushunish;

• odamlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

• tinglovchilarni o‘zlarining til va madaniy o‘ziga xosligini shakllantirishda qo‘llab quvvatlash.

Farovonlik va barqaror rivojlanish ko‘nikmasi:

• barqaror turmush tarzi uchun foydali bo‘lgan odatlarni bilib olish;

• tuyg‘ularni tan olish va ifodalashni mashq qilish amaliyoti;

• o‘z-o‘zini ijobiy baholashning o‘sishini rag‘batlantirish;

• ekologik xabardorlikni oshirishni qo‘llab-quvvatlash.

Mehnatga oid hayotiy malakalar va tadbirkorlik ko‘nikmasi:

• mehnat hayotiga ijobiy munosabatni rag‘batlantirish;

• o‘rganilgan fanlarning mehnat hayotida zarur bo‘lgan malakalar bilan aloqadorligi;

• ko‘p qirrali ishlash usullari amaliyoti;

• ish jarayonlarini to‘g‘ri rejalashtirish va tashkil etish, ularni avtomatlashtirishni mashq qilish.

Fanlararo fikrlash ko‘nikmasi:

• yangi axborot va qarashlarni yaratishni rag‘batlantirish;

• o‘rganilayotgan fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash amaliyoti;

• yangi g‘oyalar va farazni topish uchun axborotlarni to‘plash, birlashtirish qobiliyati;

• ilgari o‘rganilgan axborotlarga asoslanib yangi axborotlarni shakllantirish qobiliyati.

Bilish va fikrlash qobiliyatlari ko‘nikmasi:

• og‘zaki va yozma nutqni nazorat qilish amaliyoti;

• eslab qolish malakalarini mashq qilish;

• vizual tanib olish amaliyoti;

• sabab-oqibat aloqalarini sezish qobiliyati;

• toifalash va tasniflash amaliyoti.

Bilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikmasi:

• o‘qishdan zavqlanish va yangi bilimlarga intilish qobiliyatini shakllantirish;

• o‘z bilimini baholash amaliyoti;

• o‘z ta’lim olish maqsadlarini belgilash;

• o‘z ta’limi uchun javobgarlik;

• ishlashning yanada mos usullarini izlash;

• ishni bajarishda qat’iyatlilik bilan yondashish.

Ijodkorlik va innovatsiya ko‘nikmasi:

• tinglovchilarni innovatsiyalar va yangi g‘oyalarni ilgari surishga rag‘batlantirish;

• improvizatsiyani mashq qilish;

• ijodiy tafakkur amaliyoti;

• ijodiy fikrlash uchun talablarni yaratish;

• xabarlarni tuzishda matn, audial, lingvistik, fazoviy va vizual resurslardan foydalanish.

Multimodal savodxonlik ko‘nikmasi:

• xabarlarni tuzishda matn, eshitish, lingvistik, fazoviy va vizual resurslardan foydalanish;

• izlanish va ijodiy jarayonning bir qismi sifatida turli texnologiyalardan foydalanish;

• turli shakllardagi axborotni tushunish va izohlash. AKT savodxonligi ko‘nikmasi

• jarayonlarni avtomatlashtirish va tezlashtirish, amaliy vaziyatlarni modellashtirish uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;

• axborotni izlash va qo‘llash uchun AKTdan foydalanish;

• kommunikatsiya uchun mumkin bo‘lgan AKT vositalaridan foydalanish;

• global tarmoqdagi xavfsizlik qoidalari va odob-axloq qoidalarini tushunish.

Media va axborot savodxonligi ko‘nikmasi:

• o‘z yozma matni mazmuni va tasavvurlarini rejalashtirish va bayon etishni o‘rganish;

• axborotdan mustaqil va interaktiv tarzda foydalanish amaliyoti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bailin, S. (2002). Critical thinking and science education. Science

2. BBVA Foundation (2011). El Nobel de Física Sheldon L. Glashow no cree que los neutrinos viajen más rápido que la luz [Physics Nobel laureate Sheldon L. Glashow does not believe neutrinos travel faster than light.]. https://www.fbbva.es/noticias/nobel-fsica-sheldon-l-glashow-no-cree-los-neutrinos-viajen-mas-rapido-la-luz/. Accessed 5 Februray 2023

3. . Hyytinen, H., Toom, A., & Shavelson, R. J. (2019). Enhancing scientifc thinking through the development of critical thinking in higher education. In M. Murtonen & K. Balloo (Eds.), Redefning scientifc thinking for higher education. Palgrave Macmillan

4. European Commission. (2015). Science education for responsible citizenship. Publications Ofce https://op. europa.eu/en/publication-detail/-/publication/a1d14fa0-8dbe-11e5-b8b7-01aa75ed71a1

5. Organisation for Economic Co-operation and Development [OECD]. (2020). PISA 2024: Strategic Vision and Direction for Science. https://www.oecd.org/pisa/publications/PISA-2024-Science-StrategicVision-Proposal.pdf

6. Z.A.Qo‘ychiyeva “STEAM va SMART ta‘lim texnologiyasi” o‘quv qo‘llanma. Andijon 2023

BOSHLANG’ICH TA’LIM DARSLARDA FANLAR INTEGRATSIYASINI TASHKIL ETISHNING O’ZIGA XOS JIHATLARI

Mannopova Nozima Qamchibekovna
Izboskan tumani 26-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Bu maqolada Respublikamizda ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim-fan-ishlab chiqarish sohalari o’rtasida o’zaro aloqani mustahkamlash, ta’limni integratsiyalash texnologiyalarini ishlab chiqish va o’quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylanganligi bayon qilingan.*

Kalit so’zlar. *Integratsiya, o’quv-tarbiya jarayoni, dolzarb vazifalar, bilim, tafakkur, munozara, mustaqil tarzda ijodiy mulohaza, o’rgatish, guruhlararo musobaqa .*

Аннотация. *В данной статье говорится о том, что совершенствование системы образования в республике, укрепление взаимодействия между сферами образования, науки и производства,*

разработка и внедрение технологий интеграции образования в учебно-воспитательный процесс стали одними из приоритетных направлений государственной образовательной политики.

Ключевые слова. *Интеграция, учебно-воспитательный процесс, актуальные задачи, знания, мышление, дискуссия, творческое мышление самостоятельно, обучение, межгрупповое соревнование .*

Respublikamizda ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim-fan-ishlab chiqarish sohalari o’rtasida o’zaro aloqani mustahkamlash, ta’limni integratsiyalash texnologiyalarini ishlab chiqish va o’quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi. Umumta’lim maktablarida o’quv fanlarini integratsiyalash orqali dars samaradorligiga erishish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

“Integratsiya” tushunchasi dastlab olim Spenser tomonidan izohlangan bo’lib, integratsiya – ayrim bo’laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo’shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. «Integratsiya» tushunchasi ta’lim jarayoniga tatbiq etilganda ikkita ma’noni anglatadi:

a) maktab o’quvchilarida bizni o’rab turgan atrof-olamni bir butunlikda deb qabul qilinishiga erishish (bunda integratsiya ta’lim maqsadi sifatida maydonga chiqadi);

b) fanga doir bilimlarni umumiy jihatlarini yaqinlashtirish (bunda integratsiyaga ta’lim vositasi sifatida qaraladi).

Professor R.A.Mavlonovaning ta’kidlashicha, integratsiya – butun degan ma’noni bildiradi. «Integratsiya» so’zi lotincha «integratio» – tiklash, to’ldirish, «integer» butun so’zidan hosil bo’lgan. Ta’lim integratsiyasining bosh maqsadi – shaxsni har tomonlama kamol topishini ta’minlashning muhim printsipi sifatida maydonga chiqdi. Integratsiyalashgan ta’lim shaxsni intellektual va madaniy rivojlantirishning bosh omilidir.

Pedagogik adabiyotlar tahlili shun ko’rsatadiki, integratsiya o’quvchilar tafakkurini o’stirish uchun imkoniyat, sharoit yaratib beradi. Integratsiya – o’quvchi bilan individual ishlash va uni faollashtirishning muhim vositasidir. Fanlararo aloqani darslarda tashkil etish natijasida o’quv fanlarining soni kamayib, uning

samarasi yuqori bo’ladi, tahsil oluvchilarni mustaqil ishlashga jalb etish oson kechadi.

Integrativ darslarni tashkil etish orqali munozara qilish, o’quvchilarni mustaqil tarzda ijodiy mulohaza yuritishga o’rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil etish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qo’llashdan asosiy maqsad – o’quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o’quv materialini o’zlashtirish-ning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o’quvchilarda dunyoni o’zgacha tasavvur qilishga o’rgatib, amaliyotni hayot bilan bog’lash, nazariy qoidalarni so’zma-so’z yodlamaslik, shaxs va jamiyat uyg’unligini anglash, fikrlar rangbarangligiga erishish, nostandart tafakkur qilish, shuningdek, o’z-o’zini rivojlantirish yo’llarini tushunishga imkon yaratadi.

Integrativ ta’limda – fanlararo integrativ bilimlarni chuqurlashtirish, ularni shakllantirishga erishiladi. Integrativ ta’lim zamonaviy bilimlarning har bir bo’limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga oliy ta’limning quyidagi fanlarini kiritish mumkin: pedagogika va pedagogik texnologiya; pedagogik psixologiya; inson yoshi psixologiyasini rivojlanishi jarayonini o’rganuvchi pedagogik psixologiya. SHuningdek, insonning boshqa hayot jarayonlariga bog’liqligini o’rganuvchi fanlar: kibernetika – boshqarish; aloqa va informatsiyani qayta ishlash; informatsiyaning tuzilishi va xususiyatlarini, uning shaxs shakllanishidagi o’rnini o’rganuvchi informatika va h.k.

Umumta’lim maktablarida ta’lim jarayonini integratsiyalash asosida o’quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, fanlarni o’qitishda samaradorlikka erishish mumkin. Masalan, boshlang’ich sinflarda ona tili va o’qish fanlari integratsiyasi “Savod o’rgatish davridan boshlansa, “O’qish va matematika”, “O’qish va tabiatshunoslik”, “Tabiatshunoslik va matematika” fanlarining o’zaro integratsiyasi juda yaxshi samara beradi. CHunki, o’quvchilar matematika darsida ham, darslikdagi berilgan rasmlar orqali suhbat, og’zaki hikoya asosida tabiat haqidagi bilimlarini mustahkamlay oladilar.

Boshlang’ich sinflarda fanlarni integratsiyalash natijasida dars samaradorligini oshirish, vaqtdan unumli foydalanish, o’quvchilar darsni chuqur o’zlashtirishlariga yordam berish, bo’sh vaqt orttirish va o’quvchilarni to’garaklarga jalb etish mumkin.

Boshlang’ich sinflarda fanlarni integratsiyalash asosida dars o’tilganda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- har bir dars muayyan maqsadga yo’naltirilgan bo’lishi;
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo’shimcha material o’tiladigan mavzu bilan bog’lanishi zarur.

Sinf o’quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo’llarini aniqlash lozim. Dars faqat ta’limiy vazifalar bilan cheklanib qolmasdan, o’quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo’lishi ham kerak. Mavzuni mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar, respublikamiz kelajagiga ishonchni va e’tiqodni shakillantirishga qaratilgan bo’lmog’i lozim. Integratsiyalashgan dars bir-biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo’lishi kerak.

Zamonaviy ta’lim tizimi fan asoslarini yuqori darajada o’rganish, o’quvchi-yoshlar tafakkurini rivojlantirish, olamni bir butunligicha anglash va tasavvur etish, tevarak atrofda bo’layotgan voqealarni to’g’ri anglash, ularni mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashga yo’naltirilgan. Maktablarda o’rgatiladigan fanlarning tarqoqligi o’quvchilarda bir ko’rinishli (fragmentar) dunyoqarashni shakllantiradi. Zamonaviy ilm-fanda esa iqtisodiy, siyosiy va madaniy fanlarni integratsiyalashga moyillik yuqori turadi. Integratsiyalashtirilgan darslar bolalar dunyoqarashida bir butunlik, voqealar uzviyligini tushunishini tabiatan anglab yetishga o’rgatadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, boshlang’ich sinflarda darslarning integratsion bog’lanishlari ilmiy jihatdan juda kam ishlab chiqilgan. Mavjud turli fikrlar va qarashlar esa bir-biriga zid va uzviy bo’lmaganligi sababli integratsiya muammosi hamon olimlarimiz o’rtasida bahsli masalalardan biri bo’lib qolmoqda.

Boshlang’ich sinf o’qituvchisiga integrirlashgan darslarga o’tish oson, chunki uning bir o’zi hamma fanlarni o’qitadi. O’quvchi qanchalar yosh bo’lsa, u shuncha kam biladi. SHuning uchun boshlang’ich sinflarda darslarni integratsiyalash imkonlari chegaralangan. Boshlang’ich ta’limda amalda ichki va fanlararo aloqalardan foydalanish va ularni rivojlantirish kerak.

Boshlang’ich ta’limda integratsiya «oz-oz hamma narsadan» usuliga ega. Bolalar boshlang’ich ta’limda juda ko’p hodisa, tushuncha, fanlar bilan tanishishadi, lekin ular to’g’risida elementar tushuncha olishadi. Keyingi yillarda mavjud bilimlarini to’ldirib va kengaytirib borishadi. SHuning uchun o’qituvchi bir xillikdan qochishi va rang-barang shakl va usullardan foydalanib dars o’tishi talab etiladi.

Interatsiyalashgan darslar o’quvchilardan charchoq va zo’riqishlarni oldini olib, faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o’tishi hisobidan ularni ziyraklik va hozirjavoblikka o’rgatadi. Biroq, 1-2-sinflarda integratsion darslarga uncha berilmaslik tavsiya etiladi. Vaholanki, bolada bilim boyligi hozircha uncha ko’p emas, unda savodxonlik, matematik va texnik ko’nikmalar shakllanib ulgurmagan. Integratsiyalashgan dars mavjud mavzuni kengaytirib, uni chuqur tahlil etishni talab etadi, hodisalarni umumlashtirib, bolalarda bilim doirasi boshqa fanlar hisobiga kengayadi. O’quvchilarning mustaqil tarzda shuncha ishni bajarishga kuchi yetmasligi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.–T.: “O‘zbekiston”, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz” – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

3. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi o‘quv dasturi // Boshlang‘ich ta’lim . – Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.

4. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi// Boshlang‘ich ta’lim, 2014.

5. Boshlang‘ich ta’lim dasturi. XTV 2017-yil , 3-iyun, 190-sonli buyrug‘i.

6. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.

Таълим тизимини бошқариш усуллари

Ўткирбек Қурбонов- Андижон вилоят педагогларни янги методикаларга ўргатиш миллий маркази, ўқув бўлими бошлиғи

Аннотация: *Ушбу монографияда замонавий таълим муассасаси раҳбарларининг функционал вазифалари ва бошқарув фаолияти самарадорлиги, бошқарув функциялари ва методлари, таълим муассасаларидаги ташкилий тузилиш, стратегик бошқарув ва режалаштириш, бошқарув жараènидаги тарбиявий муносабатлар, бошқарувда раҳбарлик услублари, таълим муассасаси раҳбарларининг бошқарув қобилиятлари ва умуминсоний хислатлар, бошқарувда меҳнат муносабатлари этикаси, таълим раҳбарининг иш вақти ва ундан фойдаланиш, ҳодимлар орасида иш тақсимлаши ва ҳодимлар ва раҳбарлар фаолиятини ташкил этиш ва бошқа таълим тизимини бошқариш масалалари ёритилган.*

Калит сўзлар: *баркамол шахс, малакали мутахассис, илғор технология, табақалаштирилган ёндашув*

Таълим ҳар қандай жамиятнинг ажралмас таркибий қисми, маданиятнинг кўрсаткичи ва тараққиётнинг асосидир. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон Республикасида амалга оширилган таълимий ислохотлар ягона мақсад – баркамол шахс ва малакавий мутахассисни тарбиялаш ҳамда тайёрлашга қаратилган. Баркамол шахс ва малакали мутахассисни тарбиялашда мухим ўрин тутувчи таълим тизимига илғор ғояларни тадбиқ этиш ва шу сохада унинг мазмунини шакллантириш ижтимоий зарурият саналади. Ушбу жараён таълим тизимини бошқариш, уни демократик ва инсонпарварлик тамойилларига асосланишига таъминлаш ҳисобига кечади. Хозирда илғор технологияларини кенг ўзлаштирилиши, иқтисодиётдаги ижобий ўзгаришлар, чет эл инвестициялари кўламларининг кенгайиши, тадбиркорлик, кичик ва

хусусий бизнеснинг ривожланиши, шунингдек, узлуксиз таълимнинг фан ва ишлаб чиқариш билан интеграциялашуви, ўқувчи – ёшларнинг қобилиятлари ва имкониятларига мувофиқ равишда таълимгача табақалаштирилган ёндашувнинг жорий этилиши хамда таълим беришнинг илғор педагогик технологиялари, замонавий ўқув – услубий мажмуаларининг яратилиши, ўқув – тарбия жараёнининг дидактик жихатдан таъминланиши таълимни бошқариш тизимини такомиллаштиришга асос бўлмоқда.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий – иқтисодий ислохотлар жараёнида ишлаб чиқаришни ривожлантириш, ташкилот ва корхоналарнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлаш кўп жихатдан замон талабларига жавоб берадиган раҳбар ва мутахассисларни тайёрлаш сифатига боғлиқ. Бугунги кунда ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётини барпо этиш шароитида раҳбарларни (бошқарувчиларни) тайёрлаш, уларнинг малакасини ошириш ва қайта тайёрлашда менежмент (бошқариш) фани алохида ўрин тутади. Менежмент фанининг шаклланиши ва ривожланиш босқичлари узоқ вақт давом этиб келаётган тарихий даврлар билан изохланади, менежмент алохида, мустақил фан сифатида XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларида шаклланди. Менежмент – инглизча сўз бўлиб, ўзбек тилида бошқарувни ташкил этиш (бошқариш, бошқарув хокимияти, ташкил этиш), раҳбарлик қилиш (режалаштириш, тартибга солиш, мувофиқлаштириш, назорат қилиш) маъноларини англатади. Менежмент – бу мақсадга эришиш учун инсонлар ёки уларнинг гуруҳлари фаолиятини мувофиқлаштириш ҳамда бошқариш усуллари, шакллари ва воситалари йиғиндиси. Оддий қилиб айтганда менежмент умумий холда у ёки бу фаолият турини ташкил этишни ва унга раҳбарлик қилишни, турли сохаларда фаолият кўрсатаётган инсонларнинг хатти– ҳаракатларини, муносабатларини мувоффиқлаштириш, уларнинг имкониятлари ва қобилиятларидан тўғри фойдаланишни ташкил этиш, назорат қилиш ва бошқаришни билдиради. Менежмент энг аввало инсонларни бошқаради, уларни ўз фаолиятига

қизиқтириш, тадбиркорликка, меҳнатга ижобий ёндашиш, ўзига ишонч туйғуларини шакллантириш, сохалар бўйича билим, кўникма ва малакаларни эгаллашга кўмаклашиш, янгиликка ва ижодкорликка чорлаш, инсонлар фаолиятини бошқариш демакдир. Бошқа фанлар қатори менежмент фани ҳам ўз предмети, назарияси ва услубларига эга бўлиб, унинг предмети хўжалик юритишнинг барча йўналишларида бошқаришни ташкил этиш мантиқи, шакллари, услубларини ифодаловчи назарий ва амалий тамойиллар мажмуидан иборат. Инсонлар эхтиёжи ва уларнинг хаётдаги фаоллиги ортиб борганлиги туфайли социология, педагогика, психология, статистика, бухгалтерия ҳисоби, молия ва кредит, менежмент иқтисодиёти, макро ва микро иқтисодиёти фанлари билан узвий боғлиқ. Менежмент фани ижтимоий ва табиий фанлар билан боғлиқ холда ривожланиб бориб, мақсад ва вазифаларга, хизмат қилиш сохаларига кўра бир неча турларга бўлинади: - амалий менежмент; - иновацион менежмент; - стратегик менежмент; - маркетинг менежменти; - молия менежменти; - технологик менежменти; - маъмурий менежмент; - таълим менежментига бўлинади. Буларни менежмент фанининг шохобчалари деб аталади. Олимларнинг фикрича умумий менежмент барча хўжалик юритиш тизими учун таъллуқли бўлиб, амалий, инновацион менежмент – янгилик яратишнинг бошқариш, стратегик менежмент – режалаштиришни, амалий менежментни такомиллаштиришга йўналтирилган бошқарув фаолиятидан иборат. Менежмент фани – бу раҳбарларга бошқарув фаолиятини тўғри амалга ошириш, ҳодимлар фаолиятини самарали бошқариш ва мувофиқлаштириш, шунингдек, корхона ва таълим муассаса олдига қўйган мақсадларга, кўзланган натижаларга эришишда зарур қарорларни қабул қилиш, уларни бажарилишини назорат қилиш ва таҳлил қилишни ўргатувчи фан бўлиб, унинг асосий мақсади замонавий ҳар қандай шароитларда бошқарувнинг барча йўналишларида самарали ишлай оладиган юқори малакали бошқарувчиларни тайёрлашдан иборат. Менежмент фани қуйидагиларни ўрганади: - бошқариш назарияси ва

амалиёти; - бошқариш объекти ва субъекти; - бошқариш тамойиллари ва усуллари; - раҳбар маданияти; - раҳбар ва лидер, ва уларни фазилатлари; - раҳбар рейтинги; - бошқаришда киришувчанлик ва қарор қабул қилиш; - бошқариш функциялари; - бошқариш методлари; - ҳодимларни бошқариш; - ишлаб чиқаришни бошқариш; - самарадорликни бошқариш; - ўзини – ўзи бошқариш; - худудий бошқаришлар киради. Маъмурий менежмент бошқаришнинг махсус қисми бўлиб, бошқарувчи тизим ичидаги муносабатларни, уни ривожланган қонуниятлари, тамойиллари, усул ва услубларини ўрганади. Маъмурий менежментнинг асосий мақсади – ташкилот маъмурияти ривожланишида уйғунликни таъминлашдан, яъни ташкилотнинг барча ички ва ташқи элементлари фаолиятининг самарадорлигини ва мақсадга мувофиқлигини таъминлашдан иборат. Маъмурий менежментнинг асосий субъектлари – маъмурий бошқариш аппаратлари, уларнинг бўғинлари ва турли лавозимдаги раҳбарлар ва ҳодимлар бўлиб, уларнинг ҳар бири тегишли вазифаларга, ваколатларга ва масъулиятларга эга бўлади.

Таълим менежменти бу – илмий асосда ташкил этилган, ўзига хос поғонавийликка асосланган бошқарув: раҳбар, педагогик жамоа, таълим олувчилар жамоаси. Шунга кўра бошқарувни турли хил моделлар асосида амалга ошириш мумкин: Интеграл модел, биринчи поғона – педагогик жамоа фаолиятини бошқариш, иккинчи поғона – ўқувчилар фаолиятини бошқариш. Таълим менежментининг асосий мақсади – таълим муассасаларида ташкил этиладиган таълим – тарбия жараёнини илмий асосда ташкил этишда, олдига қўйган мақсадларга эришиш ва рақобатбардош битирувчилар тайёрлашда таълим – тарбия жараёни иштирокчилари бўлган раҳбарлар, мутахассислар ва ижрочиларнинг муносабатлари ва фаолиятларини мувофиқлаштириш, назорат қилиш хамда самарали бошқаришни таъминлашдан иборат. Инсоният пайдо бўлгандан сўнг инсонлар у ёки бу шакл ва мазмунда фаолият кўрсатганлар. Аммо унда менежмент фани шаклланмаган эди. Улар хаётий эхтиёжларини қондириш мақсадида меҳнат қилишган ва бола тарбияси билан

шуғулланишган, шунда бошқаришга мухтожлик сезилган. Меҳнат давомидаги ўзаро муносабатлар бошқариш усулларини шаклланишига олиб келган. Ўрта асрларда шаклланган давлатлар, империялар фаолияти мураккаб ташкилотларни бошқариш амалиётидан дарак беради. Бошқариш назариясининг дастлабки куртаклари қадим замонларга бориб тақалиб, Ю. Цезарь, А.Македонский, Амир Темур хукмронлиги вақтидан бошлаб шакллана бошлаган. Дастлабки пайтларда у оддий бўлиб, асосан ҳарбий тавсифга эга эди. XVIII асрнинг охирларида Англия саноат инқилоби бошқарувига бўлган қизиқишни янада кучайтиради. Бошқарув ҳодимларини тайёрлашга алохида эътибор берила бошланди. Натижада бошқарув тўғрисидаги илм ва фан вужудга келди. Бошқариш назарияси ва амалиёти ривожланишини бир неча тарихий даврларга бўлиш мумкин.

1 – давр Қадимий давр. Инсонлар биргаликда меҳнат қилишнинг оддий бошланғич шакли ибтидоий жамоа тузуми даврида вужудга келган. Бу даврда бошқариш уруғ, жамоа, қабила аъзолари маслахатлашиб амалга оширилган. Бошқарув фаолияти турли шаклларини таҳлил қилиб, бошқаришнинг универсаллик тамойилини тавсия қилган шахс бу – Суқротдир. Давлат бошқариш шакли классификациясини яратган аллома бу – Платон. Ҳарбийларни бошқариш назарияси ва амалиётини ривожлантирган бу – Александр Македонский.

2 – давр Индустриал давр. Бу даврда давлат бошқаруви назарияси сохасида Адам Смитнинг хизмати катта бўлди. Роберт Оуэннинг таълимоти менежмент мактабларининг шаклланишига катта таъсир кўрсатди. Бошқариш назарияси ва амалиётида биринчи бурилиш ҳисоблаш техникасининг яратилиши бўлди.

3 – давр Тартибга солиш даври. Бугунги менежмент XIX асрда содир бўлган саноат инқилоби натижаси бўлиб, бошланғич фабрикаларни пайдо бўлиши, катта гуруҳдаги кишиларни иш билан таъминлаш зарурияти, мулкдорларни барча ҳодимлар фаолиятини назорат қилиш ва бошқаришни

мураккаблиги энг яхши ҳодимларни танлаб ўқитишлари биринчи менежерларни вужудга келишига сабаб бўлди, чунки улар жойларда корхона эгалари манфаатларини ифодалаши мумкин эди.

4 – давр Ахборот даври. Сўнгги бошқариш назариялари асосан бошқаришга оид “миқдорий мактаб” вакиллари томонидан ишлаб чиқилган. Мамлакатимизда менежмент назарияси ва амалиётининг ривожланишига академиклар М.Шарифхўжаев, С.С.Ғуломов, профессорлар Ш.Зайнуддинов, Ё.Абдуллаев, Қ.Абдурахмонов, Ш.Қурбонов, Ж.Йўлдошев, Р.Ахлидинов, Э.Сейтхалилов, М.Қуронов, Л.Перегудов, М.Саидов ва У.Иноятовлар ўзларининг муносиб хиссаларини қўшмоқдалар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Махкамова М.А. Инновацион технологиялар бошқаруви. Монография. – Т.: Алоқа, 2011.

2. Махкамова М.А. Инновацион менежмент асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДТУ, 2009.

3. Махкамова М.А. Организация и управление инновационной деятельностью. – Т.: Иқтисодиёт, 2007.

4. Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент: Учебник. — М.: Бизнес-щкола Интел-Синтез, 2000.

5. Маллаев О. Янги педагогик технологиялар. Т. 2000. Ўзбекистон Республикаси “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”. - Т.:Ўзбекистон, 1997.

6. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Т.: ТГПУ им. Низами, 2003.

7. Баубекова Г.Д., Халикова Г.М. Образование: опыт, проблему, перспективу. Т., 2001.

8. Махкамова М.А. Инновацион менежмент. Ўқув қўлланма. – Т: Фан ва технология, 2013.

9. Махкамова М.А. Инновацион технологиялар бошқаруви. Монография. – Т.: Алоқа, 2011.

10. Махкамова М.А. Инновацион менежмент асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДТУ, 2009.

11. Махкамова М.А. Организация и управление инновационной деятельностью. – Т.: Иқтисодиёт, 2007.

Integrativ yondashuvlar asosida Maktabgacha va maktab ta’lim tizimi xodimlarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish omillari

G. To’rayeva -Andijon viloyat pedagoglarni yangi innovatsiyalarga o’rgatish milliy markazi maktabgacha va boshlang’ich, maxsus ta’lim kafedrasi o’qituvchisi

Anotatsiya: Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenyzi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liqligiga alohida to’xtalgan.

Kalit so’zlar: kreativlik, kreativlikni rivojlantirish, kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillar, kreativ potensial, pedagogik kreativlik, pedagogning kreativ potensiali, kreativ potensialning tarkibiy asoslari va tamoyillari, pedagogning kreativ potensialini aniqlovchi mezonlar.

Ta’lim tizimi takomillashib borayotgan ushbu kunda zamonaviy pedagogikada “kreativ pedagogika” tushunchasi qo‘llanila boshlamoqda. Biroq, ta’lim berish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo‘lgan ehtiyoj “Kreativ pedagogika”ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta’minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g‘oyalari tashkil etadi. “Kreativ pedagogika” fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shart- sharoitni yaratishga xizmat qiladi. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra jarayon tarzda namoyon bo‘ladi.

Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o‘zgarishining o‘zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogenyzi – tug‘ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog‘liq. Ma’lu mki, kasbiy tajriba bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi sifatida aks etadi. Biroq, kasbiy-ijoiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining etarli darajada o‘zlashtirilishi talab etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi. So‘nggi yillarda etakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida talaba va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar, ularning natijalarian ko‘rish mumkin. Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko‘pchilik o‘qituvchilar hali hanuz shaxs (o‘zlarida hamda talabalarda kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o‘zlashtira olmayaptilar. Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o‘quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o‘quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o‘qituvchilarni kasbiy o‘sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan arajada yuzaga keltiradi, ularning o‘quv-bilish

qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, o‘quv yilining oxirida kelib oliy ta’lim muassasalarida talabalarning fanlarni o‘zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko‘plab talabalarning ta’lim olishga nisbatan qiziqishi yo‘qolgan. Buning natijasida o‘qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o‘ylashmayapti. Ta’lim tizimini boshqaruvchi organlar ta’lim olishga nisbatan xohish-istagi bo‘lmagan talabalar, bu kabi ta’lim oluvchilarni o‘qitishni istamayotgan o‘qituvchilar faoliyatini o‘zgartirish borasida yangidan-yangi choratadbirlar belgilansa-da, ahvol o‘zgarishsiz qolmoqda. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi talabalar uchun qiziq bo‘lmayotgandir, balki balki ta’lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimul bermayotgandir, rag‘bat bildirmayotgandir. O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar. O‘quv mashg‘ulotlarida etishmayotgan omil – kreativlik sanaladi9 . SHaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” (Azzam, 2009 y.) sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir.

Barchamizga ma’lumki, shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok eta olishi unda shakllangan kompetensiyalarga bevosita bog’liq. Qobiliyat bu-shaxsning individual-psixologik xususiyati bo’lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va

ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig'indisi hisoblanadi. Tarbiyachi bolalarni o'qitish emas, o'qishga boshqarib turishi tarbiyalash emas, tarbiya jarayoniga raxbarlik qilish uchun yaratilgan bu vazifani u qanchalik chuqur anglab yetsa u o'z bolalariga shunchalik erkinlik, tashabbuskorlik, mustaqil fikrlash uchun sharoit yaratib bergan bo'ladi. Tarbiyachilik qobiliyatini haqiqatdan ham yuqori darajada egallagan tarbiyachi ta'lim tarbiya jarayonini go'yo chetdan kuzatib turgandek tuyuladi aslida esa bu jarayon boshqarilib boriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining mustaqil faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari bolalarda rivojlanish sohalari (jismoniy, ijtimoiy hissiy, nutq, muloqot, o'qish, yozish, bilish jarayonlarining rivojlanishi, ijtimoiy rivojlanish) bo'yicha tayanch kompetensiyalarni(kommunikativ, o'yin, ijtimoiy, bilish) shakllantirishning integrativ-variativ dasturlariga aoslangan guruhlar faoliyatidagi kreativlikka ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining menejerlik, kreativlik, refleksivlik, kvalimetrik kompetensiyalarni rivojlantirish hamda kasbiy kompetentligi va innovatsion faoliyatga yo'nalganlik darajasinini baholash bilan bogliq takliflar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va mutaxassisi xodimlari uchun "Maktabgacha ta'lim markazlari" tashkil etilib ular bolalarning aqliy, jismoniy,ma'naviy,estetik rivojlanishlari , ularning individualliklarini shakllantirish bilan shug'ullanadilar. Tarbiyalanuvchilarga qobiliyatlarini shkllantirish va ularning namoyon bo'lishi uchun albatta tarbiyachilarga malaka, ko'nikma yetarli bo'lmog'i lozim. Barcha holatlarda integratsiya doimo muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarni, birgalikda rejalashtirishni va uni tashkil etuvchi tarmoqlar o'rtasida tinch-totuv yashashni o'z ichiga oladi. Bu tomonlar yaxlitlikni tashkil qilishi mumkin bo'lgan yagona usul, hattoki individuallikni yo'qotmasdan ham.Innovatsion ta'limiy muhitni shakllantirish yo'nalishlarida yuqori darajada pedagogik tajribalarga ega bo'lgan tarbiyachilar o'z faoliyati jarayonida tadbiq etayotgan ta'lim texnologiyalrining yangiligi hamda

tarbiyalauvchilar yoshiga va ta;limiy guruh xususiyatlariga muvofiqligi tarbiyalanuvchilarning olgan bilimlari , dunyoqarashining o‘zgarishi, intellectual qobiliyatlarining rivojlanish darajasi hamda ularning kommunikativ qobiliyatlarining rivojlanish darajalariga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur ta’sirning o‘ziga xosligi innovatsion ta’limiy muhitda tarbiyalanuvchilar faolligi va shaxsiy sifatlarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar samaradorligining ta’minlanishi holatini aniqlash omillari sifatida ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.Maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan barcha uchun qulay ta’limiy muhitda tarbiyalanuvchilar faolligi va shaxsiy sifatlarning shakllanishi darajasiga ahamiyatli ta’sir etuvchi omillar vaziyatlarga ko‘ra mazkur jarayonni ichki va tashqi o‘zgarishlarga javob berishi kerak.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar.

Pedagogik jarayonlarning samaradorligi uchun kerakli bo‘lgan faoliyatlar ko‘rsatilgan. Albatta bularning barchasi jamiyat uchun kerakli bo‘lgan kadrlar tayyorlash va tarbiyalanuvchilarning erkin va shaxsiy fikr egasi qilib tarbiyalash, zamonaviy metodlardan foydalanib integrativ yondashuv asosida tayanch kompetensiyalari shakllanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Avezmurodovich Q. R. et al. “Yozuv daftari” asosida boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilarining chiroyli yozish ko ‘nikmasini shakllantirish usullari (1-sinf misolida) //Scientific Impulse. –2022. –T. 1. –No. 4. –S. 1312-1317.

2.Avezmurodovich Q. R. et al. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining grammatikaga oid tushunchalarini shakllantirishda ta’limiy o ‘yinlardan foydalanish metodikasi //Scientific Impulse. –2022. –T. 1. –No. 4. –S. 1328-1335.

3.Avezmurodovich Q. R., Usmonovna S. S. Chapaqay o ‘quvchilar bilan ishlash va yozuvga o ‘rgatish jarayonida foydalanadigan innovatsion texnologiyalar (1-sinf misolida) //Scientific Impulse. –2022. –T. 1. –No. 4. –S. 1336-1341.

4.Qo‘ldoshev R. Maktab o‘quvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari: Ushbu maqolada maktab o ‘quvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari haqida gap boradi //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. –2021. –T. 1. –No. 1.

5.Avezmurodovich Q. R. Jadid maktablarida yaratilgan darsliklar va ularning metodik imkoniyatlari: Qo ‘ldoshev Rustambek Avezmurodovich Buxoro davlat universiteti //Obrazovanie i innovatsionnыe issledovaniya mejdunarodnыy nauchno-metodicheskiy jurnal. –2023. –No. 1. –S. 221-225.

6.Qo'ldoshev R. Darslik: mazmun va shakl birligi //" pedagogicheskaya akmeologiya" mejdunarodnыy nauchno-metodicheskiy jurnal. –2022. –T. 1.

7.Qo'ldoshev R. Chapaqaylik: muammo yoki qobiliyat //sentr nauchnыx publikatsiy (buxdu. uz). –2022. –T. 22. –No. 22.

8.Avezmurodovich Q. R., Oybekovna N. D. Boshlangich sinf o’quvchilarining bog’lanishli nutqini o’stirish. Qayta hikoyalash va bayon turlari. –2022.

9.Qo'ldoshev R. Maktab o ‘quvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari haqida gap boradi //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. –2021. –T. 1. –No. 1.

O’QITUVCHINING FAOLIYATI, MULOQOTI VA SHAHSIY HUSUSIYATLARIDA AKS ETUVCHI OMIL - O’QITUVCHI KOMPETENTLILIGIDIR

Tursimatova Surayyo Xusanbekovna
Baliqchi tumani 32 -umumiy o`rta ta’lim maktabi, boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada o’qituvchining pedagogik mahorati pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot va shaxsiy xususiyatlarning birligi asosida innovatsion ta’lim texnologiyalarining dars jarayoniga tadbiq etish orqali o’qituvchining pedagogik maxoratini yanada takomillashtirish yo’llari o’rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mahorat, kasbiy mahorat, pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, pedagogik muloqat, pedagogik texnika, pedagogik jarayon, pedagogik tizim, ijodkor o’qituvchi, mahoratli o’qituvchi.*

Dunyo hamjamiyatida ta’lim-tarbiya tizimida mutaxassislarni innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta’limni amalga oshirish buyicha dunyoning yetakchi ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadkikotlarda bo’lajak mutaxassislarning kasbiy maxorati shakllantirish, innovatsion ta’lim muxitini yaratish, xalkaro ta’lim standartlari talablarining joriy kilinishiga aloxida axamiyat karatilmokda. Mazkur tadkikotlarda mutaxassislarning kasbiy mahorati, kompetentligi tarkibi va ularni kasb-hunarga yo’naltirishga kreativ yondashish zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida muvaffakiyatli qo’llash, motivatsion, kognitiv, refleksiv va o’z-o’zini baholash kabi indikatorlar asosida pedagogik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o’rin tutadi.

Ta’limiy uchlik – «maqsad – jarayon - natija» ning o’rta bo’g’inida hozirda e’tibor kuchaygan bo’lsada, bir kator pedagog olimlar ushbu zanjirning boshi va oxiridagi xalkalarni chukur o’rganmokdalar[3,4].

Mazkur uchlikni ta’lim tizimida muvoffakiyatli joriy etishi uchun belgilangan maksadni aniklash, jarayonni nazorat kilish va kuzlangan natijaga erishish uchun ta’lim amaliyotida qo’llash, shuningdek, pedagoglarni innovatsion ta’lim texnologiyalarning nazariy asoslari bilan kurollantirish va pedagoglarning kasb mahoratini yanada takomillashtirish shu kunning dolzarb muammosidir.

Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi o’qituvchining individual mahsuli bo’lgan pedagogik mahoratning uch atamasi ya’ni pedagogik faoliyat, pedagogik muloqat va shaxs xarakterining dars jarayonidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Bizga ma’lumki, mahoratli o’qituvchi deganda, o‘quvchilarga dars berish jarayonida uning so’zamolligi, ijodkorligi, tashabbuskorligi, tadbirkorligi, o’quv mashg’uloti jarayonida mavzuga o’quvchi diqqatini torta oladigan, mavzu mazmuniga mos didaktik materiallar va ko’gazmalar qurollar tayyorlab, undan o’rinli va unumli foydalana oladigan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars

jarayonida qo’llash va axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ustalik bilan foydalanuvchi, shuningdek, bola qalbiga yo’l topishda hushyorligi kabi qator ijobiy hislatlari bo’lgan, har bir dars mavzusiga bolaning qiziqtira oluvchi muallimni tushinamiz.

O’qituvchining pedagogik mahorati uning pedegogik foliyatida o’z aksini topadi. Mahoratli o’qituvchi o’z faoliyati jarayonida o’z fikrini sodda, ravon va tushunarli bayon eta olish salohiyatiga ega bo’lishi zarur. Dars jarayonini tashkil etishda, mavzuni bayon etishda fanning eng yangi ma’lumotlari ham mavzu uchun tayyorlangan dars ishlanma(konspekt)da o’z aksini topgan bo’lishi kerak.

Bir so’z bilan aytganda, mahoratli o’qituvchi tayyorlagan dars ishlanmasi besh bahoga loyiq qilib tayyorlanishi kerak. Buning uchun o’qituvchi mavzuga aloqador bo’lgan so’ngi yillardagi fan yangiliklarini darslik, o’quv qo’llanmalar, uslubiy tavsiyanoma va ko’rsatmalar, ommaviy ahborot vositalari va internet materiallaridan olib boyitadi va ushbu tayyorlangan dars ishlanma yordamida o’quv mashg’ulotini tashkil qiladi.

Dars jarayonini tashkil qilishda o’qituvchi sinf honasini o’quv mashg’ulotiga tayyorligini nazorat qilishi, mavzuga tegishli didaktik material va ko’rgazmali qurollar, ahborot kommunikatsiya texnologiya vositalaridan foydalanishga tayyorlab qo’yilishi va dars jarayonini innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanib bayon etishiga tayyor bo’lishi lozim.

Mohir o’qituvchi dars o’tish metodikasini doimo takomillashtirib boradi u muammoni qo’yar ekan, o’quvchida muammoni yechimni topishda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan ziddiyatlarni ovoz chiqarib mulohaza yuritib o’z fikrlarini bayon qiladi va ularni muhokamaga qo’yadi. Sodir bo’lishi mumkin bo’lgan e’tirozlarni oldindan bartaraf qiladi, haqiqatni tajribada (namoyish qilish yoki olimlar o’tkazgan tajribalar asosida) isbotlaydi.

O’quvchilarni faolligi va izlanuvchanligini oshirishda, muammoli o’qitishni qo’llashda mohir o’qituvchilar o’quvchilarga beriladigan savollar va topshiriqlar tizimini o’ylab topadilar. Ular tuzgan savollar qisqa, lo’nda va aniq bo’lishi kerak.

Shu tartibda o’quvchilarni qiziquvchanligi va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiribgina qolmasdan, balki, ularni ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar.

O’qituvchi o’quvchilarga o’zining hatti-harakati, o’qituvchilar jamoasidagi o’rni, turmush tarzi, tashqi qiyofasi va imidji bilan na’muna ko’rsatishi, madaniyati, hakgo’yligi va ma’naviy sifatlari bilan ta’lim muassasasi jamoasi oldida o’rnak bo’lishi lozim. Shuning uchun ham o’qituvchi qaysi fandan dars berishidan qat’iy nazar, o’quvchilar ko’z oldida ma’naviyatli, kompetentli murabbiy siymosida shakllanishi va taqlid uchun yuksak na’muna bo’lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik mahorat o’qituvchining pedagogik faoliyati, pedagogik muloqati va pedagogning individual hususiyatlari birligidan iborat ekanligini e’tiborga olsak o’qituvchining pedagogik faoliyati quyidagicha izohlanadi.

Pedagogik faoliyat - bu o’qituvchining o’quvchilarga ta’lim va tarbiya berish jarayonida pedagogik ta’sir o’tkazish vositalari bilan amalga oshiriladigan kasbiy faolligidir.

Mahoratli o’qituvchi pedagogik faoliyati bevosita yoki bilvosita o’qitish va tarbiyalash vazifalarini bajarishga qaratilgan bo’lib, o’quvchini o’qitadi, tarbiyalaydi, yo’l-yo’riqlar ko’rsatadi, mustaqil bilim olishini muntazam nazorat qilib boradi.

Pedagogik muloqat demokratik, avtoritar va liberal shaklda o’z aksini topadi. Pedagogik muloqotda qanday o’ziga xos qiyinchiliklar mavjud?

Pedagogik muloqatning qiyinchiliklarni bartaraf etishi uchun, o’qituvchi pedagogik mulaqot usullarni takomillashtirib borishi, muloqotning barcha vazifalarini aniqlab olishi, muloqot vositalarini muntazam boyitib borishiga asoslangan dasturini tuzib olishi muhim rol o’ynaydi.

Buning uchun mahoratli o’qituvchi boshqa kishining sub’ektiv qarashlarini aniqlab olishi va bu odam bilan muloqotda oqilona hal qilinishi zarur bo’lgan vazifalarni aniqlashning eng maqbul vositalari majmuasini belgilashi, muloqotda

boshqa kishining javobini oldindan bilishi mumkin bo'lgan muloqotlarning bir nechta variantiga ega bo'lish, shuningdek, boshqa odamlarni tinglay olishi, ularga hamfikr va hamdard bo'lishi hamda muloqot natijalarini baholashi va ularni foydalanilgan vositalari bilan taqqoslay olishni bilishi kerak.

Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot xarakteri o'qituvchi shaxsi, uning qarashlarida, nuqtai nazarlarida, hulqida namoyon bo'ladigan g'oyaviy - siyosiy saviyasi, kasbiy tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan uzviy bog'liq. Bu asosiy xislatlardan tashqari o'qituvchining umumiy va boshqaruv qobiliyati, uning moyilligi, xarakteri, muvaqqat psixologik holatlari, shuningdek, to'plangan tajribasi muhim ahamiyatga ega.

Hulosa qilish mumkinki, o'rganilgan nazariy ma'lumotlar, ta'lim muassasalarida olib borilgan amaliy tajriba-sinov natijalari ko'rsatadiki, pedagogik mahorat o'qituvchining individual hususiyatlarining mahsuli bo'lgan pedagogik mahoratning uch atamasi ya'ni pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot va shaxs harakteri dars jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligi o'rganildi, ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini ortishi va o'quvchilar bilimini yanada yuqori darajaga ko'tarilishida asosiy omil sifatida e'tirof etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh. M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.–T.: "O'zbekiston", 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz" – T.: "O'zbekiston", 2017.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.

4. 2018 yil 25 yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-sonli Farmoni.

5. M.M.Axmedov, I.Solijonov, N.Nosirov. Rol kompetentsiy v sozdanii innovatsionnoy sredы obucheniya.// Mirovaya obщestvennaya nauka. Nauchno-prakticheskiy jurnal. Moskva. 3. 2018 g.

JISMONIY MADANIYAT YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Valixanov Saidbek Shoxobidinovich
ADU Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Jismoniy tarbiya yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni, avvalo, maqsadning qo'yilishi, vazifalar va tamoyillar bilan belgilanadi. Ushbu jarayon asosida ta'lim mazmuni yotadi.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, jismoniy madaniyat yo'nalishi, ta'lim jarayoni, davlat ta'lim standarti, o'quv reja, integratsiya, ixtisoslik va umumkasbiy fanlar.

Bugungi kun talablariga javob bera oladigan, zaruriy sifatlar, bilim va ko'nikmalarga ega kompetentli mutaxassisni tayyorlash ilmiy asoslangan mos o'qitish tizimini yaratmasdan mumkin emas.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida shunday psixologik-pedagogik sharoitlar yaratilishi kerakki, unda talaba bilish va bo'lajak mehnat faoliyatining to'laqonli sub'yekti sifatida harakat qilishi kerak, ya'ni shaxs o'z kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida maqsadni qo'yish va uni amalga oshirishga qobiliyatli, ichki va tashqi motivlarga faol sifatida namoyon bo'lishi kerak.

O.V. Xovovning fikriga ko'ra, kasbiy kompetentlik - bu nafaqat malaka, ya'ni faoliyat tajribasi, ko'nikma va bilimlar sifatida kasbiy malaka haqidagi, balki kasbiy faoliyatda mustaqillikni ta'minlovchi ijtimoiy-kommunikativ va individual qobiliyatlar haqidagi tasavvurlardan iborat [3].

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi faoliyatga intilsa (hohlaydi), unga tayyor bo'lsa (bajara oladi), o'z ishini mas'uliyatli va yuqori kasbiy darajada bajarsa (bajarmoqda) shu vaqtda, u kompetentli mutaxassis hisoblanadi. Demak, faoliyat

sub’yektining kompetentligi quyidagi uchta tashkil etuvchi orqali tavsiflanadi: «hohlaydi», «bajara oladi», «bajarmoqda» [2].

Kompetentlikning «hohlaydi» tashkil etuvchisi individning faolligi va uning yo’naltirilganligini rag’batlantiruvchi ichki yoki tashqi sharoit va ko’rsatmalar majmuasiga bog’liq bo’lgan shaxsning motivatsion sohasiga bog’liq. Kompetentlikning «bajara oladi» tashkil etuvchisi sub’yekt ma’lum turdagi faoliyat uchun zarur va yetarli «uskunalar» ga egaligi bilan aniqlanadi. Bularga quyidagilar kiradi: bilim, ko’nikma, malaka, tajriba, ma’lum holatda qanday harakat qilish haqida tasavvurga egalik, ushbu faoliyatga qobiliyatning mavjudligi, uning individual-psixologik xususiyatlari (asab tizimlari xususiyatlari, sog’ligi, yoshi va boshqalar) faoliyatni muvaffaqiyatli o’zlashtirish va uni yuqori darajada olib borish, muvaffaqiyatga erishish.

Kompetentlikning «bajarmoqda» tashkil etuvchisi o’qituvchi shaxsiy imkoniyati va faoliyatining amalga oshirilishini bir butunga birlashtiradi. Keng bilimlarga, shakllangan malakaga ega, mas’uliyatli hatti-harakatlarga tayyor bo’lib ham real holatda o’z psixik holatini boshqara olmasligi va o’z imkoniyatini amalga oshira olmasligi ham mumkin. Shu bilan birga o’z-o’zini nazorat qilish mexanizmi shakllangan, ammo faoliyat uchun zarur bilimlar yoki faoliyat motivi mavjud bo’lmagan mutaxassisni ham kompetentli deb bo’lmaydi.

Kasbiy faoliyat uchun zarur bo’lgan JM yo’nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlikning barcha ketma-ket bosqichlarida amalga oshishi lozim. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish ta’lim mazmuni hamda talabaga qo’yiladigan malakaviy talablar bilan ta’minlanadi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish obyektlari bo’lib quyidagilar hisoblanadi: ta’lim jarayoni; o’qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari; ta’limning nazariy masalalari; o’qitish metodikasi; loyihalashtirish asosida o’quv jarayonini boshqarish texnologiyalari; ma’ruza, amaliy mashg’ulotlarni loyihalashtirish hamda tashkil etish jarayoni; shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni; maktabdan tashqari ta'lim mu’ssasalari ta’lim-tarbiya jarayoni; ta’lim sohasidagi

muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta’limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish; mos ixtisoslik bo’yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma’naviy-ma’rifiy targ’ibot ishlari jarayonlari.

Jismoniy madaniyat sohasi bo’lajak mutaxassislarini tayyorlash sohadagi kuzatilayotgan o’zgarishlarning mantiqiy davomiyligi, shuningdek, uning rivojlanish tendensiyalari, jamiyatdagi sohaga doir olib borilayotgan ishlar asosida qurilishi lozim. Talabalar o’zgarishlarni oson va mamnuniyat bilan qabul qilishga masuliyatli va moslashuvchan bo’lishi zarur. Bu natijalarga erishish uchun tegishli ta’lim yo’nalishining davlat ta’lim standarti va o’quv rejalari zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqilishi talab etiladi.

Jismoniy madaniyat yo’nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini umumkasbiy fanlar integratsiyasida rivojlantirish eng optimal variantlardan biri hisoblanadi. Ixtisoslik va umumkasbiy fanlar kasbiy ta’limda talabalarning o’qishga qiziqishlari va ehtiyojlarini to’liq hisobga olish imkonini beradi, shuningdek kasbiy mavqeini belgilash, o’zini rivojlantirish va mustaqil ta’limga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, ixtisoslik va umumkasbiy fanlar tadqiq qilinayotgan kasbiy kompetentlikni shakllantirish, jismoniy tarbiya va sport sohasida tizimli umumlashgan bilimlarni shakllantirishning muhim vositasi bo’lib xizmat qiladi.

Talabalarning kasbiy tayyorgarligining mavjud darajasini va ularning faoliyati natijalarini belgilangan standartlarga muvofiq, shu jumladan kasbiy o‘sish va rivojlanish vositasi sifatida aniqlashga qaratilgan tizimli jarayon sifatida qaraladi.

Jismoniy madaniyat bakalavriat ta’lim yo’nalishining malaka talablarida ushbu yo’nalish talabalarining kasbiy kompetensiyalari etib quyidagilar belgilab qo’yilgan [1]:

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o’z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

inson organizmi, yosh fiziologiyasi, psixologiyasi va morfologiyasining salomatligiga oid bilimlarga ega bo’lishi;

bolalar va turli yoshdagilarni jismoniy tarbiyasida jismoniy mashqlarni to’g’ri tanlash, me’yorlash va ulardan samarali foydalanish usullari va metodlarini bilish;

ta’lim muassasalarida va mahallalarda ommaviy jismoniy tarbiya va sport sog’lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish hamda o’tkazishga doir bilimlarga ega bo’lishi;

jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishga oid dastlabki ma’lumotlarga ega bo’lishi;

sport turlaridan mashg’ulotlar tashkil etish va o’tkazishga doir bilimlarga ega bo’lishi;

sport inshootlari va jihojlarining turlari, ulardan to’g’ri foydalanishga doir bilimlarga ega bo’lish;

sog’lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati yuzasidan yetralicha amaliy malakalarga ega bo’lish;

mahallalarda ayollar va xotin-qizlar sog’lom turmush tarzini tashkil qilish haqida nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo’lishi kerak.

Jismoniy madaniyat talabalarining kasbiy kompetentligi muammolari fenomenining murakkabligi shundaki, kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyat egallangan zarur bilimlar va kasbiy muhim sifatlarni shakllantirish bilangina erishilmay, balki talaba o’zining kasbiy bilimlarini doimiy yangilab borganda egallanadigan fikrlash va motivatsion intilishlar orqali orqali rivojlanadi.

Jismoniy tarbiya yo’nalishi talabalarining kasbiy kompetentligi – bu uning keying kasbiy faoliyatida omilkorlikning eng muhim shartidir. Kasbiy kompetentlik yosh kadrga o’zining funksional vazifalarini bajarishga, o’zining bilimlari va tajribasidan doimiy ravishda foydalanishga, nostandart vaziyatlarda o’zini-o’zi nazorat qilish va ish uslubini o’zgartirishga, o’z bilimlarini nazorat qilish va takomillashtirishga, jamiyat va dunyoda bo’layotgan voqealarga o’z munosabatini bildirish va moslashishga yordam beradi.

Shunday ekan, jismoniy tarbiya yo’nalishi talabalarining kasbiy kompetentligi masalasi kasbiy pedagogikada muhim hisoblanadi, binobarin, kasbiy kompetentlik

muvaffaqiyatli faoliyatning zaruriy shartidir. Bu, o’z navbatida, ushbu kompetentlikning tarkibiy qismini ochib berishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jismoniy madaniyat bakalavriat ta’lim yo’nalishining malaka talablari. T., 2023.

2. Вербицкий А.А., Ильязова М.Д. Инварианты профессионализма: проблемы формирования. - М.: Логос. 2011. - 288 с.

3. Ховов О.В. Компетентность профессиональная // Энциклопедия профессионального образования: В 3-х т. - М.:АПО. - 1998.-Т.1. -С.454-455.

O‘QITUVCHI SHAXSI VA UNING KASBIY XUSUSIYATLARI

N.A.Valixanova

AVPYMO’MM dotsenti , p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Inson faoliyatining muhim turlaridan biri bu o‘qituvchining kasbiy faoliyati. Bu yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega, chunki u insoniyat tomonidan to‘plangan tajriba almashinuvini ta’minlaydi, bolalarni insoniyat madaniyati qadriyatlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

Kalit so’zlar: o’qituvchi shaxsi, ta’lim va tarbiya, pedagogik fazilatlar va qobiliyatlar, pedagogik mahorat.

O‘qituvchining ishi sharafli va talabchan. Uning harakatlari tufayli mamlakatning kelajagi ko‘p jihatdan bog‘liqdir. O‘qituvchining o‘rni va uning vazifalari, o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e’tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi aniqlanadi. Mamlakatimizda “Ta’lim tog‘risida”gi Qonunni hayotga tatbiq etish jarayonida o‘qituvchining yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishida jamiyat oldida javobgarligi yanada ortib boraveradi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning maktab oldiga qo‘yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to‘g‘ri hal qilish vazifasi o‘qituvchiga bog‘liqdir.

Zamonaviy maktab o‘qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O‘qituvchi – sinfdagi o‘quv jarayoni tashkilotchisidir. O‘qituvchi o‘quvchilar uchun dars paytida, qo‘shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar borishda bilimlar manbaidan biridir. Ko‘pchilik o‘qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo‘lib hisoblanadilar.

Zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixolog bo‘lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yo‘lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. O‘qituvchi maktabning pedagog jamoa a’zosi sifatida maktab, hayoti faoliyatini uyutirishda bevosita ishtirok etib, turli fan o‘qituvchilari va sinf rahbarining metodik birlashmalarida ishlaydi, topshiriqlarni bajaradi. Har bir o‘qituvchi o‘quvchilarning ota-onalari va jamoatchilik oldida ma’ruzalar o‘qib, suhbatlar olib borar ekan, demak, u pedagogik bilimlar targ‘ibotchisi hamdir, vazifalarning shu qadar ko‘pligi uchun ham jamiyatning o‘qituvchilar oldiga qo‘yadigan talablari tushunarlidir.

Ma’lumki, pedagogik faoliyat – kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablardan eng muhim o‘qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog‘liq xislatlariga qaratilgan.

O‘qituvchi jamiyat tomondan qo‘yilgan talablar bilan bir qatorda o‘z faoliyatida tevarak-atrofidagi kishilar, maktab ma’muriyati, hamkasblari, o‘quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim.

O‘qituvchining o‘z ishidan nimanidir kutayotganligining o‘ziyoq muhim ahamiyatga egadir, mana shu tariqa kuzatish, garchand jamiyat tomonidan o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablarga kelsada, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Lekin bu talablar hamma vaqt ham bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha xalq ta’limi bo‘limlari va maktab direktorlari o‘qituvchining ayrim xislatlari naqadar muhimligini har xil baholaydilar. Jumladan, xalq ta’limi bo‘limlarining mudirlari o‘quvchidan birinchi

navbatda o‘z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o‘zlashtirishini talab qilsalar, maktab direktorlari o‘qituvchiga qo‘yiladigan bunday talablarni uchinchi o‘ringa qo‘yadilar. Shu bilan birga xalq ta’limi bo‘limlarining mudirlari o‘qituvchilarning o‘quvchilar va ota-onalar, maktab hammasi bilan qanday muloqotda bo‘lishini bilishini naqadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e’tibor bermaydilar, maktab direktori esa bunday xislatlarni o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar ichida birinchi o‘ringa qo‘yadilar.

O‘qituvchi o‘zining barcha ta’lim tarbiyaviy ishlarini rejali ravishda, uni asosiy maqsad – “o‘zida ma’naviy boylikni, axloqiy poklikni va jismoniy kamolotni garmonik holda mujassamlashtirgan yangi odamni tarbiyalash” maqsadiga kun sayin bo‘ysundirgan holda olib boradi [2].

O‘qituvchi o‘quvchi shaxsining shakllanishi faqat darslarda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlardagina boshqarib qolmaydi. O‘qituvchi o‘zining shaxsiy namunasi tashqi qiyofasi va xatti-harakati bilan o‘zining ichki ma’naviy sifatlari bilan ba’zan o‘zi sezmagan xolda o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatadi. Ularning ideali bo‘lib qoladi. Kishi ko‘pincha o‘zi eng yaxshi ko‘rgan o‘qituvchisining ta’siri ostida o‘z hayot yo‘lini tanlab oladi.

Ulug‘ rus pedagogi, bolalar psixologiyasini chuqur bilimdoni K.D.Ushinskiy bunday deb yozgan edi: “Tarbiyachi shaxsining yosh qalbga ta’siri shunday bir tarbiyaviy kuchni tashkil etadiki, uning o‘rnini na darsliklar, na axloqiy va’z-nasihatlar, na jazolash, na rag‘batlantirish sistemasi bosa oladi”.

Maktab ishi amaliyotiga ta’limning texnika vositalari tobora ko‘proq joriy qilinayotgan hozirgi bir davrda, o‘qituvchining o‘quvchi shaxsini shakllantirishdagi roli xech bir kamaymaydi. Akademik M.M.Lavrentev bu haqida juda yaxshi gapirgan. Undan, ertangi kun o‘qituvchisini qanday tasavvur etasiz, deb so‘raganlarida, u bunday deb javob bergan: “Avvalo o‘qituvchini tasavvur qilaman, lekin mashinani emas. Ishonamanki, kibernetika inson uchun hozirgi kunda mumkin bo‘lmagan baxt-saodat keltiradi, uni insonga yarashmaydigan juda ko‘p bir xildagi mashg‘ulotlardan ozod qiladi. Shubxasiz, u o‘qituvchining ishini ham chetlab

o‘tmaydi. O‘qituvchining odat bo‘lib qolgan qator vazifalari, jumladan, sermashaqqat daftar tekshirishlar, vaqt o‘tishi bilan, albatta, mashinaga o‘tadi. Lekin mashina, u qanchalik takomillashgan bo‘lmasin, murabbiy va tarbiyachilik rolini bajara olishga sira ham ishona olmayman” [3].

O‘quvchi shaxsi rivojlanishini boshqarishi va unga rahbarlik qilish uchun, o‘z shaxsiy namunasi bilan unga ta’sir etish uchun o‘qituvchining o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi, o‘qituvchi o‘zi tarbiyalamoqchi bo‘lgan sifatlarga ega bo‘lishi kerak.

O‘qituvchining ma’naviy qiyofasi boy va o‘ziga xosdir. O‘qituvchi haqida faqatgina u o‘z ishini hamda bolalarni sevadi deyishining o‘zi kamlik qiladi. U faqat o‘qituvchi, yosh avlodning murabbiysigina emas, balki u teng huquqli qurilishining aktiv ishtirokchisi hamdir.

O‘qituvchiga faqat bolalargina emas, balki ularning ota-onalari, umuman ko‘mak, va maslahat olmoqchi bo‘lgan hamma kishilar ham murojaat qiladilar. Buning sababi shundaki, o‘qituvchi yuksak o‘qimishliligi bilan birga ijtimoiy va shaxsiy hayotda kamtarlik, insonparvarlik, sofdillik, rostgo‘ylik va oddiylik kabi axloqiy normalar o‘qituvchi ma’naviy qiyofasining ajralmas sifatlari bo‘lib qolgan [1].

O‘qituvchi jamoadan tashqarida, uning o‘ziga xos bo‘lgan. Har doim va har ishda o‘z hamkasblariga yordam berishga intilishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘qituvchi – zarur paytda o‘z tajribalarini o‘rtoqlari bilan birgalikda baham ko‘radigan, o‘z maktab jamoasining muvaffaqiyati uchun, mamalakatimizda bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning umumiy ahvoli uchun jon kuydiradigan jamoadir.

O‘quvchilarga muvaffaqiyatli ravishda ta’lim va tarbiya berish uchun o‘qituvchi har bir kishiga xos bo‘lgan yuksak axloqiy sifatlar bilan birga, alohida pedagogik fazilatlar qatoriga, avvalo, pedagogik qobiliyatlarni, shuningdek aql, xissiyot va irodaning ba’zi bir o‘ziga xos xususiyatlarini kiritish mumkin.

Biz o‘qituvchi uchun tipik bo‘lgan shaxsiy qobiliyatlarni shakllantirish to‘g‘risida gapirganimizda, faoliyatning hal qiluvchi rolini e’tirof etishga

asoslanamiz. Xech qaysi bir pedagog, hatto talantli bo‘lsa ham, tayyor o‘qituvchilik mayllari va xislatlari bilan tug‘ilmaydi. O‘qituvchi shaxsining hamma yaxshi xislatlari, uning pedagogik mahorati, avvalo pedagogik faoliyatiga tayyorlanish jarayonida keyinchalik esa bolalar bilan olib boradigan ta’lim-tarbiyaviy ishlari jarayonidagi mashaqqatli mehnat natijasida hosil qilinadi.

N.D. Levitov o‘zining bolalar psixologiyasi pedagogik-psixologiya dori qo‘llanmasida muhim pedagogik qobiliyatlar sifatida quyidagilarni keltiradi [4].

1. O‘qituvchilarga bilim berish qobiliyati, bunga avvalo, materialni aniq, qisqa va qiziqaril bayon qilish yo‘li bilan erishiladi.

2. O‘quvchini tushunish.

3. Tafakkurning mustaqilligi va ijodiyligi.

4. Xozirjavoblik yoki tez va aniq faxmlash.

5. Vaqtni aniq rejalashtirish va undan to‘g‘ri foydalanish, o‘quvchilarni doimo nazorat qilish, sinf faollarini ajrata olish va uyushtirish, sinf jamoasining jipslashtirish ko‘nikmalarida ifodalanadigan tashkilotchilik qobiliyatlari.

Fanga va bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq o‘z bilmlarini boshqalarga berishga intilish va bolalarni samimiy ravishda sevish kabilarning garmonik holda uyg‘unlashuvigina o‘qituvchi shaxsining – pedagogik ishi ustasining qiyofasini ko‘rsatishi mutloqa ravshan.

Har bir o‘qituvchining aql-faoliyatdagi individual farqlari ko‘p jihatdan uning qobiliyatlari, qiziqish va mayllari, ehtiyojlarining ijtimoiy ahamiyati bilan belgilanadi. Tashabbuskor o‘qituvchi qiziqishlarining kengligi va sevimli ishiga berilganligi o‘z vazifalarining muhimligini tushunish, o‘z bilimlarini va ta’lim-tarbiyaviy ish metodlarini tinmay takkomillashtirib borishi bilan faqatgina erishgan muvaffaqiyatlari bilan kifoyalanib qoladigan demak, pirovardida hayotdan orqada qoladigan dakki o‘qituvchidan ajralib turadi. Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchida eng yaxshi individual xususiyatlari rivojlanishini taminlaydigan asosiy shartlardan biri uning o‘zi ustida ishlashi, tinmay o‘z malakasini oshirib borishidir. Psixologiya

kursini o‘rganish, o‘qituvchiga o‘z yutuq va kamchiliklarini anglab yetishda katta yordam berishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T., O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

2. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma’naviy-axloqiy fikr rivoji. – T., Falsafa va huquq instituti, 2009.

3. Лаврентьев М.М. Виртуальный формат интелектуального труда – М., 2013 г.

4. Левитов Н.Д. Психологическая лаборатория и школьная практика – М., 1960 г.

II-SHO‘BA. O’QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY DARSLIKLARNING O’RNI

O’QUVCHILAR NUTQINI OSHIRISH VA MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA NUTQNING AHAMIYATINI YANGI AVLOD DARSLIKLARI MISOLIDA KO’RAMIZ

Ashurova Husnora Ilhamovna
Andijon viloyat Jalaquduq tumani 37-umumiy o’rta ta’lim maktabi boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Nutq ta’sir ko’rsatish vositasi bo’lib xizmat qiladi. Ta’sir ko’rsatish-biz nutqimizni kimga qaratayotgan bo’lsak, shu kishida biz istagan hislar, intilishlar va harakatlarni tug’dirish, ularning fikrini biz istagan tomonga burish, ularni o’zimiz xohlaganimizcha o’ylashga majbur etish, ularni ishontirish demakdir. Ma’lumki, nutq yordami bilan boshqalarda xursandlik, qo’rquv, g’azab, ruhlanish hislarini tug’dirish mumkin, boshqalarda biz istagan intilishlarni, harakatlarni kuzatishimiz mumkin.

O’qituvchi va tarbiyachi so’z orqali ta’sir ko’rsatish yo’li bilan o’quvchilarda muayyan intizom va xatti-harakat vujudga keltiradi. Ta’sir ko’rsatish vositasi bo’lgan nutq ta’lim-tarbiyaning asosiy qurolidir.[1]

Shunday ekan ta’lim-tarbiya jarayonlarida yangi avlod darsliklaridan foydalanishda xususan o’qish savodxonligi darsliklarida berilgan matnlarda uchraydigan ayrim so’zlarni, ma’no jihatidan turlarga ajratish, mazmunini to’la ochib berish, ularning ma’nosini tushuntirish orqali o’zbek tilining qay darajada boy va sermazmun ekanligini, uning mag’zini ochib berishimiz va shu orqali o’quvchilarda lug’at boyligini oshirishimiz, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishimiz, og’zaki nutqini o’stirishimiz mumkin.

Misol uchun:

1. *“Hamrohlari xonaga kirib kelishganda, Ravshan o’zida yo’q* ***xursand*** *edi.”*

Omonim: Shakldosh so’zlar

Xursand-ism

Xursand-psixologik holat, his tuyg’u kechinma

(M.E.Toirova “O]qish savodxonligi” Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, I qism. /M.E.Toirova-Toshkent:”Novda Edutainment”,2023-80 b. 30-bet.” Toshbag’ir” Jabbor Razzaqov . 29-bet)

2.*“Shifokor kasallarni davolaydi, o’qituvchi o’quvchilarga ta’lim beradi, haydovchi haydovchilik qiladi, sartarosh odamlarni* ***chiroyli*** *soch turmagi bilan* ***xursand*** *qiladi.”*

Sinonim: Ma’nodosh so’zlar

Osmon-falak, gardish, ko’k, samo.

(M.E.Toirova “O]qish savodxonligi” Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, I qism. /M.E.Toirova-Toshkent:”Novda Edutainment”,2023-80 b. “Opa-singillar” Internet tarmog’idan olingan. 14-bet)

3. *Yomonlarning ko’nglin chog’ etar,*

Yaxshilarni yo’ldan chalg’itar.

[1] M.E.Zufarov “Umumiy psixologiya” Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2010. 195-bet

Zid ma’noli so’zlar

Yaxshi-yomon

(M.E.Toirova “O]qish savodxonligi” Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, I qism. /M.E.Toirova-Toshkent:”Novda Edutainment”,2023-80 b.” Chin va yolg’on”. Po’lat Mo’min. 22-bet)

Boshlang’ich sinf darsliklarida berilgan matnlar, she’r va maqollarda shu kabi so’zlarni juda ko’plab uchratishimiz mumkin. Shunday vaziyatlarda o’quvchilarni kichik guruhlarga ajratgan holda, **“So’zni top”** interfaol o’yini o’tkaziladi. Buning uchun har bir guruh alohida so’zlarning ma’no jihatdan turlarga bo’lib, bir guruh ma’nodosh so’zlarni, ikkinchi guruh shakldosh so’zlarni, uchinchi guruh zid ma’noli so’zlarni matndan topib ma’nosini izohlashi talab etiladi. Ushbu jarayonda **4-K** dan ham bevosita foydalanib o’tamiz albatta. O’quvchilarda uchraydigan xato va kamchiliklarni o’qituvchi muntazam ravishda to’ldirib boradi. Natijada esa o’quvchilarda o’qituvchi meni aytganim-aytgan, deganim-degan yo’sinda emas, o’quvchilarning mustaqil fikrlashlari va mustaqil faoliyat olib borishlari uchun qulay sharoit yaratgan holda, darsni tashkil etishi va o’quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi, o’quvchilar nutqini o’stirishi, so’z boyliklarini oshirishi kabi maqsadlarga erishishi mumkin.

Shuningdek fanlararo integratsiyalashuvni ham amalga oshirgan bo’lamiz

Bizga ma’lumki odamning nutqida uning fikrlari va xilma-xil his-tuyg’ulari, ichki kechinmalari mujassam bo’ladi. O’quvchilar shu kabi kechinmalarini atrofidagi insonlarga to’g’ri va munosib tarzda aks ettirishida so’zlarning ma’nosini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi kabi jarayonlarda faol ishtirok etish orqali esa o’quvchi o’z fikrini mustaqil va erkin bayon etishi mumkin bo’ladi. Kundalik hayotda ham atrofidagilar bilan erkin muloqotga kirishadi. Hayotda o’z maqsadlari sari olg’a intilishiga turtki bo’ladi va o’ziga bo’lgan ishonchi ortadi, o’z menini ilgari suradi.

Zero bugungi kunda o’sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalash, har bir pedagogning asosiy maqsadidir. Ushbu maqsad

yo’lida hamjihat bo’lib hamkorlikda faoliyat olib borishimiz, bir bilgan yangilik va ma’lumotni barcha bilan baham ko’rishimiz juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan yangi avlod darsliklari bilan ishlash va ularni amaliyotga tadbiq etish borasida ham birgalikda faoliyat olib borishimiz, XXI asr ko’nikmalarini o’quvchi yoshlarda shakllantirish, yangi avlod darsliklari bilan ishlash borasida olib borilayotgan jarayonlarda loqayd bo’lib qolmasligimiz kerak.

Bugun maktab partasida o’tirgan bola ertangi kun egasi, har birimizning kelajagimiz poydevori demakdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish omillari.

Ashurova Ma’mura Norboyevn
Marhamat tumani 5-umumiy ta’lim maktabi o’qituvchisi

Annotatsiya; Tezisda bolalarda muloqot madaniyatini shakllantirish, til bilishga oid tushunshalar, bilim, ko’nikma, malakalarini rivojlantirishga oid yo’l - yoriqlar ko’rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: globallashuv, mafkuraviy, muloqat, tafakkur, siyosiy.

Muloqotni rivojlantirish, ya'ni muloqotni rivojlantirish - bu bolalarning kattalar bilan va tengdoshlari bilan muloqotida kommunikativ kompetentsiyadir. Shuni inobatga olish kerakki, boshlang'ich maktab yoshida kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish bolaning ta'lim faoliyatini rivojlantirish jarayonida vositachilik qiladi. Tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlar makonida kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish muammosi biz tomonidan tizim-faoliyat yondashuvi va aloqa va shaxslararo munosabatlar nazariyasi (MI Lisina, EO Smirnova) doirasida ko'rib chiqildi.

M.I.ga ko'ra. Lissin, bu o'zi va boshqa odamlarning bilimidir.

Kommunikativ kompetensiya - samarali muloqot qilish qobiliyati, muayyan vaziyatlarda samarali muloqotga erishish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi (V.N. Kunitsyna).

Qobiliyat yilda zamonaviy psixologiya bilim, tajriba va inson qobiliyatlarining kombinatsiyasi sifatida tushuniladi (G.A. Tsukerman).

Ya'ni kommunikativ kompetensiya, kommunikativ ko'nikmalardan farqli o'laroq (madaniyatda mavjud bo'lgan maqsadlarga erishish vositalari va usullaridan foydalanishda mashq qilish orqali o'rgatilishi mumkin bo'lgan fazilatlar), insonga o'z aloqa maqsadlariga erishish vositalarini va usullarini mustaqil ravishda yaratishga imkon beradigan fazilatlar mavjudligini nazarda tutadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tengdoshlari bilan muloqotda kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish uchun bir qator zarur shartlar mavjud.

Kommunikativ kompetentsiya old shartlarga asoslanadi, ularning asosiylari yosh xususiyatlari rivojlanish (aqliy rivojlanish xususiyatlari va kattalar bilan va tengdoshlari bilan aloqa qilish xususiyatlari) va bolaning o'ziga xos xususiyatlari (bolaning individualligi va bolaning individual tajribasi).

Jahonda roʻy berayotgan - XXI asr boshlarida kechayotgan geosiyosiy jarayonlar, dunyoning maʼnaviy-mafkuraviy olamini oʻzgartirib, oʻzgacha tafakkur va yuksak salohiyatlilarni, chuqur bilimlilarni, oʻtkir iqtidorlilarni shakllantirishni talab qilmoqda. Oʻzbekistonda bugungi kunda rivojlantiruvchi taʼlim amalga oshirilmoqda. Rivojlantiruvchi taʼlimning bosh maqsadi ham bevosita ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda faol, fanlarni puxta biladigan, jahon maydonida oʻz bilimi orqali raqobatlasha oladigan barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat. Oʻzbekiston Respublikasi taʼlim tizimi barchv taʼlim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat taʼlim standartlari asosida bilim berilishida ham mazkur maqsadlar koʻzda tutilgan. Kompetensiyalar fanga doir hamda tayanch kompetensiyalardan iborat boʻlib, ular orasida kommunikativ kompetensiya turli taʼlim texnologiyalari, interfaol metodlar, oʻyin mashqlarining qoʻllash usullarini amalga oshirish barobarida oʻquvchilarni mustaqil fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish, ogʻzaki nutqini oʻstirish ,muloqot madaniyatini rivojlantirish,horijiy tilda soʻzlashishlariga erishishga qaratilgan taʼlim- tarbiya meʼzonidir.Mazkur meʼzonga boshlangʻich sinf oʻquvchilariga mos holda taʼlim -tarbiya beruvchi

pedagog – tarbiyachi yosh avlodga kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida, eng avvalo, ularning o‘zlari og‘zaki nutqini o‘stirishga doir bilim, malaka, ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, har bir mashg‘ulotga puxta tayyorgarlik ko‘rishi talab qilinadi.Zero,bolalarda turli yosh bosqichlaridagi nutq rivojini ko‘ra olish va tushunish qobiliyatini shakllantirish;

-bola nutqiga ta’sir ko‘rsatishning eng samarali yo‘lini to‘g‘ri tanlash va bolaning nafaqat yoshini, balki uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zaro birgalikda harakat qilish hamda olingan natijani tahlil qilish;

-bolalar nutqining turli jihatlarini rivojlantirish, aniq uslublari va usullari xaqidagi bilimlar o‘zlashtirilishini hamda ularning didaktik nutqini o‘stirish.

Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida texnika vositalaridan, o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari, interfaol metodlar, shakl va vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan**,“**Kichik guruhlarda ishlash”, “Davra suhbati”, “Bahs-munozara”,“Konseptual jadval”, T – sxema”, “Tushunchalar tahlili”, SWOT – universal tahlil**, “**Rolli o‘yinlar” metodlari orqali bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, bolaning har tomonlama rivojlanishidauning bilimlari, qobiliyativa madaniyatining saqlovchisi bo‘lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko‘p asrlik tajribasini o‘zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi.Bu tajribani faqat insoniy muloqotning eng muhim vositasi-tilorqaligina berish mumkin.Til–hayotimizning ajralmas qismi bo‘lib, biz unga o‘z-o‘zidan bo‘lishi shart bo‘lgan narsa sifatida qaraymiz.Aslida til nutq birligi, aloqa vositasi,so‘zlashuv qurolidir.Ana shu quroldan foydalanib qanday so‘zlaymiz, qanday o‘rganamiz, qanday muomala qilamiz degan savollarga nutq o‘stirish –kommunikativ kompetensiyalar boshlang‘ich bosqich sifatida alohida fan bo‘lib,boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish ,mustaqil fikrlash, muomala madaniyatiga erishish, chiroyli so‘zlash malakalariga ega bo‘lishida muhim manba hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.M.Abduraimova. Ona tili ta’limida yangi pedagogic texnologiya T., 2001

2. Q.Xusanboyeva. O’qitishning zamonaviy metodlari va adabiy ta’lim // Til va adabiyod ta’limi.-2003, 2-son

BOLALAR SHE’RIYATI VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalaraga o’rgatish milliy markazi o’qituvchisi
Asqarova Gullola Abdufattox qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni o’zbek she’riyati orqali ma’naviy axloqiy tarbiyalash hamda sheriyat orqali bolalarda vatanga bo’lgan mehr va muhabbatini oshirish xaqida gap boradi.

Kalit so’zlar: Quddus Muhammadiy, Shukur Sa’dulla, Qudrat Hikmat, Tursunboy Adashboyev va Anvar Obidjon, Boyqush, Xorijiy.

Аннотация: В данной статье говорится о духовно-нравственном воспитании детей дошкольного возраста через узбекскую поэзию, а также о воспитании у детей привязанности и любви к Родине через поэзию.

Ключевые слова: Куддус Мохаммади, Шукур Садулла, Кудрат Хикмат, Турсунбой Адашбоев и Анвар Обиджон, Бойкуш, Хорижий.

Abstract: This article talks about spiritual and moral upbringing of children of preschool age through Uzbek poetry, and about increasing children's affection and love for the motherland through poetry.

Keywords: Quddus Mohammadi, Shukur Sadulla, Qudrat Hikmat, Tursunboy Adashboyev and Anvar Obidjon, Boykush, Khorizhiy.

Yosh avlodni go‘zallikni sevishga o‘rgatish, unda tabiatga bo‘lgan mehrni uyg‘otish barobarida Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbatni, sadoqatni shakllantirish ham bolalar adabiyotining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek bolalar she’riyati namoyandalaridan Quddus Muhammadiy, Shukur Sa’dulla, Qudrat Hikmat, Tursunboy Adashboyev va Anvar

Obidjonlar ham Ona-vatan, kindik qoni to‘kilgan yurt ta’rifu tavsifiga bag‘ishlab bir qator she’rlar yaratganlar. Fikrimiz tasdig‘ini Q.Hikmatning “Men tug‘ilgan o‘lka” she’rida ko‘rish mumkin:

Men tug‘ilgan hur o‘lka –
Ozod SHarqda nur o‘lka.
Ko‘rkam qishloq, shahari,
SHod o‘tar har mahali.
Metall berar Bekobod,
Farhod gesdan el obod.
Nur olar har xonamiz,
Gullagan Farg‘onamiz.
Xalqqa ust-bosh pillasi,
Bebaho oq tillasi.
Mevazor bog‘u bo‘ston,
Serquyosh O‘zbekiston.

She’rda lirik qahramon (shoir) yashayotgan o‘lkaning go‘zalligi va boyligi shu qahramon tilidan shunday ta’riflanganki, yosh kitobxon uning shu o‘lkaga bo‘lgan cheksiz muhabbatini sezib turadi va undagi Vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ulari uning ham qalbiga o‘tadi. Buni biz she’rning tantanavor ohangida ham, shu ohangning avj olishiga xizmat qilgan qofiyalarda, hur o‘lka – nur o‘lka, shahari – mahali, xonamiz – Farg‘onamiz, pillasi – tillasi kabi “kuychan” so‘zlarning qofiyalanishida ham ko‘ramiz. Bu she’rda qofiyalar yorqin va jarangdor so‘zlardan tarkib topgan bo‘lishi bilan birga ma’no talabi bilan yuzaga kelganki, bu shoirning yutug‘idir.

Adabiyotshunos Izzat Sulton yozganidek, “ma’noning talabi bilan yuzaga kelgan qofiyagina shoir asarini bezay oladi. Faqat yangilik yaratish uchungina qofiyada yangilikka intilish poeziya aslahaxonasini boyitmaydi, balki ma’nan puch, esda qolmaydigan asarlarning ko‘payishiga olib keladi”[2].

Q.Hikmatning shogirdi T.Adashboyev ijodida ham Ona-vatan madhiga bag‘ishlovlar, uning go‘zalligini tarannum etuvchi satrlar bisyordir. Muallif Ona-vatanning go‘zalliklarini shunday mehr-muhabbat bilan tasvirlaydiki, she’rni o‘qigan kitobxonda bu go‘zallikni asrab-avaylash, o‘z tug‘ilgan go‘shasiga bo‘lgan mehr-muhabbat kabi nozik his-tuyg‘ularning shakllanishi muqarrardir. Bunday asarlarni yaratishdan asosiy maqsad esa o‘sib kelayotgan yosh avlodni Ona-vatanga, ota-bobolar ruhiga mehr-muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ular qalbida munosib avlod, farzand bo‘lish tuyg‘ularini shakllantirishdir.

T.Adashboyevning “Qiyosi yo‘q” she’ri insonning tug‘ilgan yurtiga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbati, undagi har qarich erning muqaddas ekanligini o‘zida to‘liq mujassamlashtirgan:

Qutlug‘ xona.
Aziz diyor,
Pok ostona.
So‘lim o‘lka
Kesh, Farg‘ona,
Qadim Urganch,
Shu durdona.
Ko‘rkam Toshkent,
Asal-qandim.
O‘sh, Buxoro,
Samarqandim.
Qiyosi yo‘q,
Bu yagona.
Senu menga
Vatan – Ona.
SHunday go‘zal
Ulug‘ yurtkim,
Tuprog‘ini

Ko‘zga surtgin.

Bu satrlar vatanning ona kabi yakka-yu yagonaligini, bu tuproqning “qutlug‘ xona”, “aziz diyor”, “pok ostona” kabi sifatlashlari esa yosh kitobxon qalbida ona-vatan muqaddasligi tushunchasini shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Vatan tuprog‘ini ko‘zga surtish (tavof qilish) shunchaki gap emas, o‘zini ushbu tuproq farzandi deb hisoblaydigan har bir kishining dastlabki insoniy burchi ekanligini ta’kidlaydi.

O‘zbek bolalar she’riyatining yetakchi namoyandalaridan Anvar Obidjon ijodida ham ona-Vatan tarifiga, uning betakror go‘zalliklari tasviriga bag‘ishlangan she’rlarni uchratamiz. “Ona Yer” she’rining xayolparast qahramoni raketasiga o‘tirib olib, barcha sayyoralarni kezadi:

Raketamda g‘izillab,
Parvoz qildim men Oyga.
Insonlar yuz ming yillab
Orzu qilishgan joyga.
Keyin o‘tdim Saturn,
Mars hamda Yupiterga.
O‘xshatmadim hech birin
Baxt bergan ona Yerga!

– deydi. Teranroq e’tibor bersak, she’r qahramoni dovyurak, davr bilan hamnafas, zamon yangiliklaridan boxabar bo‘lish barobarida hatto xayolida ham ona-Vatanga mehribon, sadoqatli, vatanparvar inson. U hamma ko‘rishni orzu qilgan sayyoralarga borsa-da, unga o‘z tug‘ilgan vatani, kindik qoni to‘kilgan yurt barchasidan aziz va mo‘’tabardir. Bu she’r yosh kitobxonlar qalbida vatanparvarlik tuyg‘usining yanada jo‘sh urishiga, o‘z tug‘ilgan go‘shasini dunyodagi boshqa “vatan”lardan ustun qo‘yish hissining shakllanishiga xizmat qiladi.

Ma’lumki, Vatan mavzusi, zamon va makon tanlamaydi. Bu she’r o‘zining mazmuni bilan hozirgi kunning dolzarb masalalarini ham o‘z ichiga qamrab olganday taassurot qoldiradi. Xorijiy davlatlarga turli bahonalar bilan ketayotgan

yoshlarimizga o‘z vatanlariga sodiq bo‘lish, xorijda orttirgan bilim va tajribalarini Ona-vatan ravnaqi yo‘lida sarflash lozimligini yorqin ranglarda tasvirlab beradi. Anvar Obidjonning “Vatan” she’ridagi boyqush ham vayronada yashasa-da, o‘z vataniga ega. Vatanining qanday bo‘lishidan qat’i nazar unga mehr-muhabbat qo‘ygan, chunki bu makon uning uchun azizu mukarramdir:

– Senga bitta savol bor,
Menga quloq sol, hoy, qush.
Vayronada yashaysan,
Noming esa naq Boyqush.
Ayt-chi, nahot sen boysan?
– Asl boylik neligin,
Tushunmaysan, chamasi?
Bu – vayrona bo‘lsa ham,
O‘zimniki hammasi.

Shuning uchun men boyman “Vatan” she’ri biri moddiy va ma’naviy boylikni bir-biridan ajrata oladigan, ikkinchisi uning farqiga bormaydigan ikki xil qarama-qarshi toifaning dialogiga qurilgan. Tashlandiq bir vayronada yashayotgan qushning nomi nima sababdan aynan Boyqush ekanligini tushuna olmagan “noma’lum” taraf, o‘zining naqadar ma’naviy qashshoqligini, Boyqushning javobidan so‘ng anglasa, ajab emas. Bu she’r tagma’nosida o‘zbek xalqining purma’no hikmatga ega bo‘lgan “O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l” maqoli to‘laligicha aks ettirilgan.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek bolalar she’riyatining yuqorida tahlilga tortilgan barcha namunalari o‘zining qaysi davrda, qayerda, kim tomonidan yaratilishidan qat’i nazar yurtimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlod tarbiyasida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etib, ularda ona-vatanga mehr-muhabbat, sadoqat, vatanparvarlik kabi muqaddas histuyg‘ularning shakllanishida muhim omillardan biri sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Obidjon A. Ona Yer. – T.: Yosh gvardiya, 1974. – B. 6.
2. Oila pyedagogikas. Prof. O.Xasanboyeva umumiy tahriri ostida. – T.: Aloqachi, 2007. – 384 b.
3. Obidjon A. O‘g‘irlangan pahlavon. – T.: CHo‘lpon, 2006. – B. 25
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B. 337
5. Tulenov J., G’ofurov Z. Falsafa. – T.: O’qituvchi, 1997.
6. Hikmat Qudrat. Mening yuragim. – T.: YOsh gvardiya, 1986. – B. 7
7. Xusanboyeva O.U., Tojiyeva M.X. va boshqalar.

Kommunikativ kompetensiyalarni oshirishda sintaksisni o’rganishning muhimligi .

Ibragimova Nodira-
Oltinko’l tuman
14- maktab o’qituvchisi

Annotatsiya:o’quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarni oshirishda sintaksisni o’rganishning muhimligi haqida kerakli bilimlar ushbu tezisda keltirilgan .

Kalit so’zlar: sintaksis ,gap, so’z birikmasi ,moslashuv, gap bo’laklari

Bugungi kunning dolzarb maqsadlaridan biri yosh avlodning nutqiy kompetensiyalarini oshirish , muloqot madaniyatini shakillantirish , chiroyli o’rinli so’zlash malakalarini kuchaytirish uchun ona tili darsi , tilshunoslikning sintaksis bo’limini o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki , Sintaksis termini *grek.* ***sintaxis*** *«tuzish»*demakdir. Gap va uning tuzilishi, turlari so‘z birikmasini o‘rganuvchi grammatikaning bir bo‘limi smtaksis deyiladi.

Ma’lumki, kishilar bir-birlari bilan fikr almashadilar, aloqa qiladilar. Bu esa gap orqali ro‘yobga chiqadi. Gap o‘z navbatida so‘zlarning turli sintaktik munosabatlari asosida tuziladi. Ana shu fikr almashuv vositasi bo‘lgan gap va so‘z birikmasini o‘rganish sintaksisning asosiy vazifasidir.

Shunga ko‘ra sintaksisning o‘rganish sohasi bir necha turlarga bo‘linadi.

So‘z shakl sintaksisi har bir gapda ma’lum bir shaklda ishtirok etadigan mustaqil so‘zlarni ya'ni gap bo‘laklarini o‘rganadi. Masalan: ***Oftob olamni yoritadi*** (gapida *oftob* - ega, *olamni* - to‘ldiruvchi, *yoritadi* - kesim) kabi.

So‘zbirikmasi sintaksisi o‘zaro sintaktik bog‘lanib, tushuncha ifodalovchi birliklarni o‘rganadi. Masalan: *rektorning buyrug‘i, quyoshning tafti, odamlarning fikri, talabaning kitobi.*

Gap sintaksisi o‘zaro sintaktik bog‘lanib, fikr ifodalovchi birliklarni - sodda va qo‘shma gaplarni o‘rganadi. Masalan: ***Bahor keldi*** (sodda gap). ***Bahor keldi, gullar ochildi*** (qo‘shma gap).

Matn sintaksisi mazmuniy yaxlitlikni tashkil etgan oliy darajadagi kommunikativ butunliklarni o‘rganadi. Masalan: ***Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug‘imiz - bu umimiiy xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlar aro va fuqarolar aro totuvlikdir(I. Karimov).***

Sintaksisning asosiy birliklari quyidagilar:

l. So‘z (leksema) - leksik, so‘z shakl - grammatik birlik, ma’lum grammatik shakldagi so‘z (so‘z shakl) gapda ma’lumsintaktik vazifa bajaradi, sintaktik birlik bo‘ladi va gap bo‘lagi vazifasini bajaradi;

2. So‘z birikmasi - so‘zlar o‘zaro sintaktik bog‘lanib, tushuncha ifodalovchi birlik so‘z birikmasini hosil qiladi.

3. Gap-so‘zlar sintaktik bog‘lanib xabar bildiruvchi, fikr ifodalovchi birlik yuzaga keladi.Sintaksisni o’rganishda so’z birikmasi alohida o’rin tutadi

Tushunchalar orasidagi munosabatlarni ifoda qilish uchun ma’no va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘lanib kelgan ikki va undan ortiq mustaqil so‘z, so‘z birikmasi deyiladi. Masalan: *a'lochi talaba, keksa bog‘bon, tovushdan tez, oppoq qor, Shohistaning kitobi.*

So‘z birikmasi kamida ikkita mustaqil so‘zning o‘zaro grammatik jihatdan bog‘lanishidan hosil bo‘ladi. So‘z birikmasi erkin birikma hisoblanadi va turg‘un birikmalardan farq qiladi. Turg‘un birikmalar tarkibidagi so‘zlar o‘rnini almashtirib bo‘lmaydi va ular bir gap bo‘lagi vazifasini bajaradi. Erkin birikma tarkibidagi

so‘zlar o‘rnini almashtirish mumkin va birikma tarkibidagi har bir so‘z alohida gap bo‘lib kela oladi. Misollarni solishtiramiz:

Anvarning bu gaplardan keyin hafsalasi pir bo‘ldi (hafsalasi pir bo‘ldi - kesim, turg‘un birikma). ***Anvarning onasi uyga keldi*** (Anvarning - aniqlovchi, onasi - ega, erkin birikma). So‘z birikmasi nutq birligi va nutq jarayonida yuzaga keladi; turg‘un birikma esa til birligidir. So‘z birikmasini gap va qo‘shma so‘zlardan ham farqlash kerak. So‘z birikmasi teng bo‘g‘langan so‘zlardan ham farq qiladi. Qiyoslash uchun misollar: chiroyli ko‘ylakli qiz (so‘z birikmasi) chiroyli qizni ko‘rdim (gap), yeryong‘oq (qo‘shma so‘z), chiroyli (so‘z), janoblar va xonimlar(teng bog‘lanish) va boshqalar.

Sintaktik aloqalarni ifodalovchi vositalarning turlari va xususiyalari:

1) So‘z shakl. Bir so‘zning boshqa so‘zga bog‘lanishini ko‘rsatadi, grammatik ma’noni bildiradi. Bu esa shakliy-grammatik vosita sanaladi, qo‘shimchalar orqali yuzaga keladi:

a) kelishik qo‘shimchalari***:-ga, -ning, -ni, -da, -dan*** kabi. Masalan, *dalaga bormoq, Sanobarning kitobi, uyni supurmoq;*

b) egalik qo‘shimchalari, ***-im, -ing, -ingiz***: *Mening uyim; sening kitobing;ularning ishi;*

c) tuslovchi shakl - son (shaxs-son)qo‘shimchalari***; - m, -k, -ing, -ingiz;****men oldim; biz o‘qidik; siz keldingiz* va boshqalar.

2.Yordamchi so‘zlar. Kelishik qo‘shimchalarida o‘xshash vazifani bajaradi, otni fe’lga bog‘laydi, leksik- grammatik vosita sanaladi:

*a)*ko‘makchilar – ***bilan, uchun, kabi, singari,*** *sevinch bilan kutmoq, bolalar uchun atamoq, tong kabi musaffo;*

b)bog‘lovchilar uyushiq bo‘laklar va gaplarni bog‘laydi:

3.So‘z tartibi: So‘zning sintaktik vazifasi maxsus ko‘rsatkichlar bilan ifodalaganda tartib bosh rolni o‘ynaydi; masalan, qizil olma (birikma), Olma qizil (gap), yaxslii odam (birikma), Odam yaxsli (gap).

4.Ohang. To‘xtamning o‘zgarishi birikmaning bog‘lanishini o‘zgartiradi. Masalan: *Besh bolali (yigitcha Besh). Bolali yigitcha. Otabek akam, muhandis bo‘ldi. Otabek, akam muhandis bo‘ldi. Otabek akam muhandis bo‘ldi* va boshqalar.

Voqelikni va unga bo‘lgan munosabatni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan shakllangan, ohang va mazmun jihatdan nisbiy tugallikka ega bo‘lgan so‘z yoki so‘zlar bog‘lanmasi gap deyiladi. Ma’lumki, kishilar o‘zaro fikr almashadilar, aloqa qiladilar, bunday aloqa aralashuv faqat gap orqali yuzaga keladi. Shuning uchun gap fikrni ifoda etuvchi nutq birligidir.

Umuman olganda so‘zlovchi tinglovchiga o‘z fikrini bayon qilish uchun o‘z oldiga turli maqsadlarni qo‘yadi, ya’ni biror voqea haqida ma’lumot olishni istaydi, yo tinglovchini biror ishni bajarishga undaydi, yoki shu haqda istak bildiradi. Demak, so‘zlovchining bunday istagi ifoda maqsadiga ko‘ra gaplar uch turga bo‘Iinadi: darak gaplar, so‘roq gaplar, buyruq gaplar.

Har qanday gapning tuzilish jihatidan turlarini uning grammatik asosi belgilab beradi. Gapning grammatik asosini bosh bo‘laklar: ega va kesim tashkil etadi. Gap tarkibidagi grammatik asos (ega va kesim) ning ishtirokiga ko‘ra gaplar tuzilish jihatidan ikki turga bo‘linadi: sodda gaplar va qo‘shma gaplar.

Gap tarkibini tashkil etuvchi bo‘laklar gap bo‘laklari deyiladi. Gap bo‘laklari: bosh bo‘laklar va ikkinchi darajali bo‘laklardan iborat.

Gapning grammatik asosini tashkii etuvchi va predikativ markaz hosil qiladigan bo‘laklar bosh bo‘laklar deyiladi.

Gapda bosh bo‘laklarning mazrnunini to‘ldirib, aniqlab keladigan bo‘laklar ikkinchi darajali bo‘laklar deyiladi. Bosh bo‘laklar ega va kesimdan , ikkinchi darajali bo‘laklar to‘ldiruvchi, aniqlovchi, holdan iborat.

Xulosa qilib aytadigon bo’lsak, tilshunoslikning Sintaksis bo’limini, ya’ni gap, uning qurilishi, tuzilishi, ifodalanishi, bo’laklari, maqsadga ko’ra turlari, vazifalari haqida chuqur o’rganishning o’quvchilar hayotida muloqot madaniyatini rivojlanishida muhim ahamiyati bor.

Foydalanilgan adabiyodlar:

1. AxmedovaL.T. Rol I mesto pedagogicheskix texnologiy v professionalnoy podgotovke studentov. – Tashkent, 2009.
2. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006.

O’quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda maqollarning o’rni

Karimova Gavharoy Xasanboyevna-
Ulugnor tuman 10-umumiy
talim maktabi o’qituvchisi

Annotatsiya; *Ushbu maqolada o’quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodining o’rni va bugungi kundagi ahamiyati to’g’risida tavsiyalar berilgan.*

Kalit so’zlar*: Folklor,metod, zamonaviylik, milliy istiqlol interfaol, an’anaviy dars, milliy g’oya, maqol,*

Yurtimiz kelajagi bo’lgan yoshlarni dono,zukko, bilimli, iste’dodli, keng tafakkurli, yuksak salohiyatli qilib tarbiyalashda xalq og’zaki ijodini o’rganishning o’rni beqiyosdir. O’quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, ayniqsa, maqollarning o’rni kattadir.Folklorda bir qator kichik janrlar bor: maqollar, matallar, topishmoqlar va askiyalar. Bulardan biz maqol haqida to‘xtalib o‘tamiz. Maqol xalq og‘zaki ijodining ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo‘lgan janrlaridan biri bo‘lib, u xalqning ko‘p asrlik hayotiy kuzatishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelgan. Maqollar o‘zlarining ijtimoiy-g‘oyaviy funksiyalariga ko‘ra, asosan keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa ba’zi ijtimoiy tabaqa yoki guruhlarning dunyoqarashini ifodalaydi. Har bir maqol kishilarning uzoq yillar mobaynida hayotiy tajribalari hamda turmush sharoitlarida tnecha martalab sinovlardan o‘tadi. Har bir maqolning xalq orasida tarqalishi ham uning yaratilishi kabi sekinlik bilan amalga oshadi. Maqollar fikrni lo‘nda, aniq va obrazli bayon etishda nutqimiz uchun zaruriy vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham V.G.Belinskiy xalq maqol va matallarini “poeziyaning mohiyati” deb hisoblagan edi. Maqollarda o‘z ifodasini topgan izchil sinfiy poeziya beqiyos mantiqiy o‘tkirlik haqida hayratlanib u shunday yozgan edi:

“Juda soz, juda yaxshi! Ana shulardan yozuvchilarimiz o‘rgansalar ekan, bir jumla bilan chilparchin qilib tashlaydi-ya.” Tarixiy manbalarda ham, xalq orasida ham xalqimizning oforistik ijodi turli-tuman atamalar bilan nomlanib keladi, maqol, matal, naql, masal, zarbulmasal, hikmatli so‘z, matoyixlar so‘zi va boshqalar ana shunday atamalardandir. Bu terminlar ko‘pchilik hollarda hozirgacha ham umuman aforistik ijodga nisbatan aralash ishlatilib, birining o‘rniga ikkinchisi qo‘llanib kelmoqda, ammo ularni qo‘llashda ma’lum chegaralarni belgilash, aniqlik kiritish zarurga o‘xshaydi. Maqol termini arabcha “qavlun”(aytmoq, gapirmoq) so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida u xalq donoligining namunasi bo‘lmish aforistik janrlardan birining atamasiga aylangan va ma’qul aytilgan so‘z, gap yoki ibora ma’nolarini anglatadi. XIX asrning ulkan tadqiqotchisi V.Daldir. U o‘zining mashhur “Poslovitso‘ russkogo naroda” to‘plamining kirish qismida shunday yozgan edi: “Matal xalqning ta’rificha, g‘uncha, maqol esa, meva; bu ta’rif juda ham to‘g‘ri”. Uning fikricha, maqol to‘liq, tugal mazmun, hukm anglatuvchi gap bo‘lsa, matal ko‘chma ma’no ifodalovchi ibora; u maqolning yarmidir. “Matal” so‘zi turkiy xalqlar orasida turlicha ma’nolarda qo‘llaniladi. U topishmoq, hikmatli so‘z, ertak, masal, umuman hikoya qilish, naql qilish, sifatida o‘zbek folklorshunosligida paremalarning bir turini ifodalash jihatidan differensiyallashib bormoqda. SHuning uchun ham u turli lug‘atlarda turlicha izohlangan. Xullas, maqol mustaqil folklor janri sifatida qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu xususiyatlar uni boshqa aforistik janrlardan, xususan, matallardan keskin farqlab turadi.

Farqlar esa quyidagilardan iborat:

1. Maqol hamma vaqt aniq, tugal fikr anglatadi, bu fikr esa qat’iy, lo‘nda xulosa sifatida ifodalanadi.

2. Maqol uchun ma’lum bir fikrni mantiqiy izchillikda va qat’iy qutbiylikda ifodalash xarakterlidir. Qaysi bir maqolni olmang, u voqelikni mudom yo keskin salbiy nuqtai nazardan baholaydi.

3. Maqol asosida ibratomuz tugal fikr yotsa, matal asosida chiroyli, obrazli, ammo tugal bo‘lmagan ifoda yotadi. Binobarin, matal, ixcham, bir komponentli kompozitsiyaga ega bo‘ladi.

4. Maqollar o‘z ham ko‘chma ma’nolarida qo‘llana olish imkoniyatiga egadir. Bu xususiyat maqolllarning tematik doirasini, qo‘llanish chegarasini kengaytiradi.

5. Matal nutqda ko‘rsatish vositasi bo‘lsa, maqol dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Aksariyat xalq maqollarida insonni kamol toptiruvchi, uning turmushini farovonlashtiruvchi asosiy vosita mehnat ekanligi lo‘nda ifodalanadi va ularda tekinxo‘rlik, bekorchilik hamda dangasalik keskin qoralanadi. Masalan, “Bekorchidan xudo bezor” maqoli fikrimizning tasdig‘idir. Maqol tarixan ancha qadimiy bo‘lganligi uchun ham unda dangasa, ishyoqmasdan oddiy insonlargina emas, hatto maqol yaratilgan davr ideologiyasiga ko‘ra butun mavjudotning yaratuvchisi xudo ham bezor degan mazmun anglashiladi. Xalq maqollarida ona-Vatanga muhabbat va vatanparvarlik mavzui yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Chunki mehnatkash xalq hamma vaqt o‘z vatanini sevgan, uni ardoqlagan va vatan dushmanlariga, unga xiyonat qiluvchilarga, chet el bosqinchilariga qarshi keskin kurash olib borgan.

Maqolning janr atamasi va poetik tabiati

Maqollar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, ommalashgan janridir. Maqollarda shu xalqning hayotiy tajribalari, iztirob va quvonchlari, falsafiy qarashlari zuhur topadi. SHarq xalqlari maqolni “so‘z san’atining guli”, yunonlar va rimliklar “fikrlar hukmdori”, italyanlar “xalqning maktabi”, ispanlar “qalb shifokori”, nemislar “xalq donoligi” deb ataganlar. Maqollarda xalqning tabiati va uning hodisalariga, o‘z ajdodlarining ijtimoiy va tarixiy tajribalariga munosabati, estetik ideali, dunyoqarashi, ma’naviy axloqiy qiyofasi aks etadi. Maqol va matallarda ayrim odamlarning mulohazalari emas, xalqning qarashi, muayyan voqealarga munosabati, donishmandligi ifodalanadi. Ko‘pchilikning fikri, his-tuyg‘ulari orqali qabul qilinmagan qarashlar va xulosalar barqaror bo‘lmaydi, hayotiy jarayondan

tushib qoladi. Maqollar jonli nutqda mavjud bo‘ladi hamda o‘zida muayyan g‘oya, fikrni aks ettiradi. Asrlar davomida yaratilgan va avloddan avlodga o‘tib kelgan maqol va matallar xalq hayotining qonuniyatlari asosini mustahkamlab borgan, xalqning ruhiy va ma’naviy olamini shakllantirib kelgan. Maqollar xuddi har bir oddiy inson hayotini tartibga soluvchi qonun-qoidalar, mezonlar majmuidir. Maqollarda ko‘p asrlik xalq tomonidan yig‘ilgan tajribalar asosidagi fikr-xulosalar namoyon bo‘ladi. Maqollar o‘git, ta’lim beradi, lekin har doim ham hukmfarmo bo‘lavermaydi. Biroq, har bir maqoldan kelib chiqadigan xulosani e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Hayot o‘zgarishi bilan maqol va matallarning yangi-yangilari paydo bo‘lgan, eskilari unutilgan, lekin keyingi asrlar uchun ham ahamiyatli bo‘lib qolavergan, mazmun qiymatini yo‘qotmagan turlari qat’iy o‘rinlashgan. Maqollarning keng tarqalishi va umrboqiyligining sabablaridan biri ularning bir qismi o‘z ma’nosini yo‘qotib, faqat ko‘chma ma’noda qo‘llanishidir. Masalan, “O‘tgan kuning unutma, eski chorig‘ing quritma” maqolining ikkinchi qismi dastlab o‘z ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, bugungi kunda faqat ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Lekin shunday maqollar ham bo‘lganki, ular yaratilgan davrdayoq ko‘chma ma’noda tushunilgan. “So‘z chumchuq emas, Og‘izdan chiqsa, tutib bo‘lmas” yoki “Er-avra, xotin-astar” kabi maqollarni o‘z ma’nosida tushunmaganlar, balki hayot hodisalarining turfa ko‘rinishlariga tatbiq etganlar. Maqollar qaysi mavzuda yaratilmasin, hamisha umumlashma ma’no kasb etadi. Maqollar real hayotning obrazli in’ikosi, turfa hayot hodisalariga estetik munosabat, bahoning ifodasidir. Shu bois ham maqollar turli pafos, mazmunda : quvnoq yoki g‘amgin, taskin beruvchi yoki zaharxanda kulgi, achchiq kinoya va boshqa ohanglarda yaratilgan. Xulosa qilib aytganda ,xalq donishmandligining majmui hisoblangan maqol va matallarning lug‘aviy ma’nosi, atamalik (istilohiy) ma’nosi va poetik tabiati haqida qanday ta’rif va izohlar mavjudligini, ilmiy izohini , maqol janrining evolyutsiyasi, funksiyasi, poetik tabiati, analogik va aynan bir xil turlarini tasniflashni har bir o’qituvchi bilishi ,ularni dars jarayonlarida o’qvchilar ongiga singdirishi ,maqolalarning inson

hayotidagi o’rni haqida tushuntirisHI maqollarni yodlash kerak bo’lgan joyda ishlatish orqali nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishi maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyodlar:

1.Sh.Mirziyoyev erkin va farovon ,demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz Uzbekistan

2.Adabiyot darsligi =.5-6-7 sinflar. 2021-yil.

O`quvchi shaxsini rivojlantirishda hamkorlikda ishlashning ahamiyati.

Majidova Xilola Odiljonovna
Izboskan tumani 33-maktab.

Annotatsiya; Ushbu tezisda o`quvchi shaxsini rivojlantirishda hamkorlikda ishlashning ahamiyati to’g’risida ko’rsatmalar berilgan

Kalit so’zlar: Samaradorlik zamonaviy metodlar, interfaol metodlar, tafakkur, kreativ

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o’qitishning zamonaviy metodlari keng qo’llanilmoqda. O’qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o’qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasi o’sishiga olib keladi.

“Shu nuqtayi nazardan qaraganda - deb yozadi Yurtboshimiz - zaminimizda yashab o’tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, betakror ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g’urur bilan ta’kidlash lozim.”

Komil inson g’oyasi – ham milliy, ham umuminsoniy mohiyatga ega bo’lgan, odamzodga xos eng yuksak ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulika undaydigan olijanob g’oyadir. Komil inson haqidagi yuksak g’oyalar Abu Nasr Farobiy, Imom Buxoriy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniqsa, o’zining teran ifodasini topgan.

O’quvchi shaxsini komil inson darajasiga etkazish tamoyillari, ijodiy qobiliyatini o’stirish, yangi g’oya va fikir bera olishga, tafakkuriga ta’sir etish uchun ta’lim maqsadlari, prinsiplari uni tashkil etish shakllari, mazmuni, metodlari, vositalari natijalarini maqsadli yo’lga qo’yish kutilgandek natija beradi.

O’quvchi shaxsini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini belgilash har bir faning vazifasi. O’quvchi shaxsini rivojlantirish uchun zarur bo’lgan eng yangi axborot hamda tushunchalar tizimini o’zlashtirish imkonini beradigan ko’nikma malakalarini shakllantirishdan ham iboratdir.

O’quvchi shaxsini rivojlantirishda maktab va oilaning ahamiyati juda kattadir.Bu mavzu ko’p va ho’b takrorlansa-da, bugun ba’zi qirralarini yoritish orqali fikrimizni yanada jonlantirmoqchimiz. Zero, farzandlarimizni kundan-kunga dunyo qarashi o’sib bormoqda.

Kattalar hamisha o’z farzandlarini o’ylab yashaganlar, mehnat va ijod bilan shug’ullanganlar. Bu jarayon ularda bola va uning taqdiri to’g’risida qayg’urish majburiyatining toboro chuqurlashuvi tarzida kechib, talay qo’shiqlarning to’qilishiga sabab bo’lgan. Onalar ana shu murakkab mas’uliyatni zimmalariga olganlar, o’tkir zakovat, tadbirkorlik beqiyos insoniy mehribonlik evaziga o’zlari goho tushinib, goho tushinmay “bolalarni tarbiyalab yetishtirganlar”. Bu yo’lda qo’shiq ularda madadkor bo’lgan: bolalarni qo’shiq bilan uxlatganlar, yig’lasa, kuylab ovutganlar. Ona o’z bolasining kamolotini talaydi, jismoniy kuch-quvvat, aqliy barkamollik, ezgulik kishisi bo’lib yetishishi, ota-ona, xalq va vatanga fidoiy bo’lish kabi fazilatlar ularning yetakchi g’oyalaridir. Huddi shunday o’quvchi ustoz ham o’quvchi shaxsini komillik g’oyalari sari yetaklaydi. Agar ustoz va ota-ona hamkorligi mustahkamlansa, o’quvchi shaxsini mukammalashuviga olib keladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o’zaro muloqotda, o’zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir.Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o’quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o’rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O’qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o’quv muassasasining o’quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o’qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo’lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo’llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo’lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo’lgan o’qish-o’rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag’batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
- ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo’llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o’rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o’qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o’ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o’rganish va amalda qo’llash o’quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to’g’ri yechimini topishlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. O’quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o’quvchi-talabalarning bilim, ko’nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyodlar:

1. Abduqodirov A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yangi axborot

texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta’lim jurnali, 2002. № 4, 60-73 betlar.

2. Abduraimova M. Ona tili ta’limida ilg‘or pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2005. 3-26 betlar.

3. Abdullaeva Sh. Ta’limda o‘qituvchi shaxsi va o‘quvchi faoliyatini uyg‘unlashtirish texnologiyalari. // Molodoy uchyonыy, 2016 yil. 9-son.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish-davr talabi.

Mutallipova Nigora Isroiljonovna -
Baliqchi tumani 39-umumiy ta’lim maktabi o’qituuvchisi

Annotatsiya;O’quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri ekanligi, uning ahamiyati, yosh avlodning ma’naviy kamol topishidagi o’rni va kitobxonlikni rivojlantirish yo’l- yo’riqlari ko’rsatilgan

Kalit so’zlar: kitob, hamkorlik, milliy hususiyatlar, kutubxona,fond

Ma’lumki, oqituvchi va oquvchi munosabatlarida , ta’lim –tarbiya jarayonlarida kitobning, ayniqsa, maktab kutubxonasining o’rni beqiyosdir. Maktab kutubxonasi fondining tarkibi va nashrlarning nusxasi maktabda ta’lim qaysi tilda amalga oshirilishi, qanday xorijiy tillarning o‘rgatilishi, o‘quvchi va pedagogik jamoaning tarkibi, milliy xususiyatlari, har bir maktabning o‘z oldiga qo‘ygan vazifasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Maktab kutubxonalarining har birida mustaqil respublikamizning ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid adabiyotlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev asarlari, davlat gerbi, milliy bayrog‘i, madhiyasi mazmunini ochib beruvchi, respublika siyosati, iqtisodi va madaniyatiga oid adabiyotlar bo‘lishi zarur.Biroq , bugungi kunda maktab kutubxonalari fondida asosiy o‘rinni badiiy asarlar egallab kelmoqda. Ma’lumki, badiiy asarlar insonni har tomonlama rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Badiiy asarlar mazmuni o‘zbek va jahon klassiklari asarlari, xalq og‘zaki ijodi, hozirgi zamon mashhur yozuvchilarining asarlari, she’riy to‘plamlar, ilmiy-fantastik, sarguzasht, geografik kashfiyotlar tabiat va unga muhabbat, hayvonot dunyosi, bolalar va o‘smirlar hayoti

haqidagi adabiyotlardan tashkil topishi zarur. Badiiy asarlar, asosan “Maktab kutubxonasi”, “Jahon bolalar adabiyoti kutubxonasi”, “Xalq kitoblari”, “Ajoyib kishilar hayoti” kabi turkumlarda chiqqan nashrlardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda tabiiy-ilmiy adabiyotlarning ahamiyati kattadir. O‘quvchilarda fan asoslari, uning tarixi, tabiatshunos olimlarning hayoti va ijodi haqidagi adabiyotlar katta qiziqish uyg‘otadi.

O‘quvchilarning umumtexnikaviy dunyoqarashini kengaytirish, texnik ijodkorligini o‘stirish uchun kutubxona fondida texnikaga doir adabiyotlar ham to‘planishi maqsadga muvofiqdir. Bu adabiyotlar jumlasiga yosh matematiklar uchun adabiyotlar, tuproq, o‘simliklar va daraxtlarni o‘stirish, hayvonlarni boqish va boshqalar haqidagi nashrlar kiradi.

Tasviriy san’at, musiqa, me’morchilik, teatr, kino, fotografiya, aktyorlar va san’atkorlar hayoti va ijodi, shuningdek, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlarimizni tiklash haqidagi asarlar o‘quvchilarda badiiy-estetik didni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktab kutubxonasining ish faoliyatida vaqtli matbuot asarlari fondi ham katta ahamiyatga egadir. Mamlakatimiz va chet ellardagi yangiliklar, ijtimoy-siyosiy o‘zgarishlar, muhim voqea va hodisalar kundalik ijtimoiy-siyosiy gazeta va jurnallarda qayd etib borilsa, ilm-fan yutuqlari, pedagogika va xalq ta’limi sohasidagi ilmiy izlanishlar, kashfiyot va yangiliklar, ilg‘or ish tajribalari, yangi badiiy asarlar ilmiy-ommabop, uslubiy gazeta va jurnallarda chop etiladi. O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda tabiiy-ilmiy adabiyotlarning ahamiyati kattadir. O‘quvchilarda fan asoslari, uning tarixi, tabiatshunos olimlarning hayoti va ijodi haqidagi adabiyot¬lar katta qiziqish uyg‘otadi. Kutubxona fondida yuqoridagi masalalar bo‘yicha ilmiy-ommabop adabiyotlar hamda mashhur fan arboblari haqidagi nashrlar bo‘lishiga katta еътibor berilishi lozim. Bunday adabiyotlar o‘zbek tilida kamroq chop etilganligi sababli rus tilida chop etilgan asarlardan ham foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda eng og’riqli muammolardan biri bo’lgan o’quvchilarning telefonga bog’lanib qolganligi, kitobxonlik darajalari pasayib ketganligi, hatto o’qituvchilarning o’zlarida ham kutubxonalarga munosabatlari oqsoq holda ekanligi ta’lim-tarbiya jarayonida samaradorlikga jiddiy ta’sir ko’rsatmoqda.Bu borada yangicha tizim, yangicha yondashuv, innovatsion g’oyalar, tashviqot va targ’ibot usullari bilan keng ko’lamli faoliyat amalga oshirilishi muhim, dolzarb masaladur.

Foydalanilgan adabiyodlar:

1.Sh.Mirziyoyev erkin va farovon ,demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz Uzbekistan

2. Каримов И.А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат: Ўзбекистон Респ.Олий кенгаши XI сесс.сўзлаган нутқи (1992 й. 8 ва 10 декабрь).-Т.: Ўзбекистон, 1992.-62 б.

3. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли.- Т.: Ўзбекистон, 1992.-78 б

O‘QUVCHILARNING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA YOZMA ISHLARNING AHAMIYATI

Qosimbekova Muazzam Akmalovna
Qo‘rg‘ontepa tuman Qorasuv shahar
51-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. O‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yozma ishlarning ahamiyati katta. Dars jarayonida yozma ishlarning turlicha bo‘lishi o‘quvchilarning yozuvga bo‘lgan muhabbatini oshiradi va taraqqiy ettiradi. Turli xildagi yozma ish bolalarning tafakkurini, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi hamda o‘quvchilarning bilimini mustahkamlaydi, takomillashtiradi.

Kalit so‘zlar: savodxonlik, og‘zaki va yozma nutq, yozma ish, diktant, insho.

Bugungi globallashuv jarayoni ta’lim sohasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqdaki, ta’limning rivoji o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodkor bo‘lishi, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirib borishini taqozo etmoqda. Shunday ekan, ta’lim jarayonida yoshlar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi har bir ustoz va murabbiy o‘quvchilarni barkamol inson qilib yetishtirish uchun ularni xalqimiz insonparvarligi chashmalaridan hamda

umumbashariy qadriyatlaridan bahramand bo‘lishlariga e’tibor berib, urf-odatlarimizni, milliy qadriyatlarimizni, buyuk mutafakkirlarimizning ma’naviy merosini yaxshi bilishi va ularni darslarga tadbiq etishi lozim. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning faoliyatini pedagogic jihatdan to‘g‘ri taqsimlash g‘oyat muhimdir.

Bugungi kunga kelib butun dunyo miqyosida ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish jarayoni kechmoqda. Ona tili ta’limining bosh maqsadi o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini hosil qilish, shuningdek, aniq va teran fikrlash, o‘z fikrlarini ixcham tushunarli bayon qilish bilan birga to‘g‘ri va chiroyli yozish malakasini tarkib toptirishdan iboratdir.

Demak, ona tili ta’limi jarayonida asosiy diqqatni so‘z boyligini oshirish bilan birga to‘g‘ri va xatosiz yozish hamda harflarni to‘g‘ri bog‘lash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratish zarur.

O‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yozma ishlarning ahamiyati katta. Dars jarayonida yozma ishlarning turlicha bo‘lishi o‘quvchilarning yozuvga bo‘lgan muhabbatini oshiradi va taraqqiy ettiradi. Turli xildagi yozma ish bolalarning tafakkurini, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi hamda o‘quvchilarning bilimini mustahkamlaydi, takomillashtiradi. Yozma ishlarning quyidagi turlari o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish uchun samarali xizmat qiladi: diktant, bayon, insho va ko‘chirib yozish.

Yuqoridagi yozma ishlarning eng soddasi ko‘chirib yozishdir. Lekin ushbu yozma ishlarning barchasi o‘quvchilarda orfografik malakalarini shakllantirishga, mustahkamlashga, ularning ongli yozishlarini ta’minlashga va ish qobiliyatlarini o‘stirishga qaratilgan bo‘ladi.

Matnni ko‘chirib yozishni orfografik, grammatik, uslubiy topshiriqlar bilan birgalikda olib borish maqsadga muvofiqdir. Yozma ishning ko‘chirib yozish turida gapdagi tushirib qoldirilgan so‘z yoki bo‘g‘inni qo‘yib ko‘chirish, matnda berilgan so‘zni o‘zgartirish, berilgan namuna yoki grammatik topshiriq asosida matn yoki so‘z shaklini o‘zgartirish, so‘zlardan gap tuzish, berilgan namunaga o‘xshash gap

tuzish, savollarga javob berish, so‘zlar ustiga qaysi grammatik shaklda ekanligini yozish, o‘qilgan va tahlil qilingan matn bo‘yicha savollarga javob berish kabilar kiradi. Ko‘chirib yozush turi ham bir necha xil bo‘lishi mumkin. Masalan, doskadan, jadvaldan yoki kitoblardan ko‘chirib yozish.

Yuqorida qayd etilgan yozma nutqni o‘stirishning asosiy va samarali, shu bilan birga katta ahamiyat kasb etadigan turi bu diktantdir.

1-11-sinflarda diktantlar, asosan, ikki maqsad uchun o‘tkaziladi. Biri grammatika, orfografiya va puktuatsiyadan o‘tilgan qoidalarni puxta bilib olishga yordam beradigan, mustahkamlaydigan, takomillashtiradigan ta’limiy diktant bo‘lsa, ikkinchisi, grammatika, orfografiya va punktuatsiyadan o‘tilgan qoidalarini o‘quvchilar qanday o‘zlashtirganliklarini sinash, tekshirishga imkon beradigan nazorat diktantdir.

Ta’limiy diktantning yana bir nechta turi mavjud:

- eslatish diktanti;
- o‘z diktant yoki yoddan yozish;
- saylanma diktant;
- erkin diktant;
- grammatik topshiriqli diktant;
- tushuntiruvchi diktant;
- ijodiy diktant;

Quyida biz ta’limiy diktant turlarining ayrimlari xususida to‘xtalamiz.

O‘z diktant yoki yoddan yozish diktanti 4-7-sinflarda o‘tkaziladi. Bu diktant o‘quvchilarga grammatika va orfografiyadan olgan bilimlarni mustahkamlashga yordam berishi bilan birga og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishga ham katta ahamiyatga ega. O‘z diktant o‘tkazish uchun o‘tilgan mavzu qoidasiga va sinf o‘quvchilarining saviyasiga mos keladigan kichik bir parcha yoki she’riy asardan bo‘lak, yoki to‘rtlik tanlanadi. Tanlangan parchani o‘qituvchining o‘zi bir necha marta o‘qib beradi. O‘quvchilar matn yoki she’rni yodlab olgach, matn bekitiladi va o‘quvchilar yodlab olganlarini daftarga yozadilar. O‘quvchilar diktantni yozib

bo‘lganlaridan keyin doskadagi matn ochiladi. O‘quvchilar yozganlarini doskadagi matn bilan solishtiradilar va xatolarini tuzatadilar.

Erkin diktant – bayonning soddaroq bir ko‘rinishi bo‘lib odatda boshlang‘ich maktablarning 3-4-sinfida o‘tkaziladi. Erkin diktantda o‘quvchilar so‘zlarni va grammatik shakllarni o‘zgacha, erkin ishlata oladilar. Ushbu diktant turi o‘quvchilarning qanchalik tushunganliklarini aniqlashga yordam beradi. O‘qituvchi matnni bir marta o‘qib eshittiradi. So‘ngra bo‘limlarga bo‘lib o‘qiydi. Agar o‘qituvchi 3 ta gap o‘qisa, o‘quvchiuni ko‘paytirib yozishi kerak bo‘ladi: erkin diktant o‘quvchilarni o‘qilgan matnni yaxshiroq esga saqlab qolishda, atrofdagilar nutqini diqqat bilan tinglashda nutqni o‘stirishda, yozma nutqni o‘stirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Erkin diktant o‘quvchilarning orfografik, punktuatsion va uslubiy xatolarini kamayib borishiga yordam berish bilan birga, o‘quvchilarning bayon, insho yozishga o‘rgatadi. O‘quvchilarning yozma nutqi rivojlanadi.

Ijodiy diktant – o‘tilgan qoidalarni puxta o‘zlashtirishga yordam berishdan tashqari o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini ham o‘stiradi. Ijodiy diktantda matn o‘qib berilmaydi. O‘quvchilar o‘zlari berilgan so‘zlar bilan mustaqil ishlaydi. Shu jihatga ko‘ra ushbu diktant bayonga juda yaqin turadi. O‘quvchilar diktantning bu turida so‘zlarni to‘g‘ri yozishga, ularni o‘z o‘rnida ishlata bilishga va kichik-kichik matn tuzishga, ya’ni ijod qilishga o‘rganadilar. Bu turdagi diktant yuqori sinfda bayonni osonlik bilan yozishga zamin hozirlaydi.

Diktant, umuman yozma ishlarning barcha turi ma’lum qoidalarning mustahkamlanishi bilan birga o‘quvchilarni har bir gapga, so‘zga, so‘z birikmasiga diqqat bilan qarashga o‘rgatadi. Shu bilan birga matndagi gaplardan kerakli so‘zni, grammatiks haklni tezroq topa olishga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedova R., Abduqodirova A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T.: 2008.

2. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2005.

3. Qosimova K. va boshqalar, Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA NUTQ O'STIRISH FAOLIYATINI SAMARALI USULLAR YORDAMIDA TASHKIL ETISH

Andijon viloyati Baliqchi tumani
4-DMTT Tarbiyachisi
Sobirjonova Gulshoda Nazirjon qizi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'stirish madaniyatini to'g'ri tashkil etish va nutq mashg'ulotlarida zamonaviy metodlar qo'llash bo'yicha ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy faoliyat, aqliy tarbiya, innovatsion metodlar, mashg'ulotlar samaradorligi, ona tilini o’rgatish jarayoni, xotira, tasavvur, xayol…

Bolalarning katta yoshli odam bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyojining qondirilmasligi ular o‘rtasida emotsional jihatdan begonalashuvga olib keladi. U turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: ba’zi bolalar indamas, hurkak, arzimagan narsaga ham yig’lab yuboruvchi bo‘lib qoladilar; boshqalari esa – negativizm, tajovuzni namoyon qilishadi. Bola hayotining to‘rtinchi yilida tengdoshi uning uchun eng avvalo, birgalikdagi amaliy faoliyat (rasm chizish, narsa yasash, tuzish va h.k.) ishtirokchisi, o‘yindagi sherik sifatida qolaveradi. Bola tengdoshiga eng oddiy talablar, iltimoslar bilan murojaat qiladi va tengdoshining harakatiga baho beradi. Besh yoshli bolalar tengdoshlarining hadeb u yoki bu narsani so‘rab, jonga tegishini salbiy baholaydi.

Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti to‘laqonli ijtimoiy rivojlanishning muhim shartidir. Shundan kelib chiqqan holda, bolada muloqotga intilish, muloqot bo‘yicha sheriklarining talabiga javob berish, ijtimoiy jihatdan o‘zini tutishga moslashuvchanlik va xushmuomalalilik kabi xislatlarni tarbiyalamoq zarur.

Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasida ko‘tarilgan ulug‘vor vazifalaridan biridir. Bu tizimning asosiy maqsadi bolalarni sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlash, erta yoshlikdan o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otib, tizimli o‘qishga tayyyorlab borishdan iborat. MTT ning asosiy maqsadi bolalarni maktabdagi o‘qishga tayyorlash barkamol rivojlangan mustaqil shaxs bo‘lib shakllantirish va qobiliyatlarni ochib berish tizimli ta’limga bo‘lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Bundan tashqari Prezidentimiz bu haqda shunday degan edi: “Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb – hunarlarga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat”

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni har tomonlama, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tomondan tarbiyalashdek, maqsadni o’z oldiga qo’ygan. Bu maqsad esa, bolalarga ona tilini o’rgatish jarayonida amalga oshiriladi. Bog’chada og’zaki nutqni o’stirish natijasida bola aqlan rivojlanib, uning umumiy madaniy saviyasi oshadi. U tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib boradi. Bolada nutqning rivojlanishi uning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi.

Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek, nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo, bolalardagi intellekt, ya'ni ruhiy jarayonlar (xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va hokazo) shunchaki bola organizimining o’sib borishi va takomillashishi bilangina paydo bo’lmay, balki nutqining rivojlanishi bilan paydo bo’ladi va takomillashadi.

Agar bola kichik yoshidan boshlab to’g’ri gapirishga (so’zlashishga) o’rgatib borilsa, u vaqtda bunday bola meyoriy holatda rivojlanadi, ya'ni avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, xayol qilish qobiliyati paydo bo’ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi. Bolalarda intellekt bilan barobar ravishda iroda kabi ruhiy jarayon ham takomillashib boradi.

Ko’pgina tajribalar shuni ko’rsatadiki, nutqi rivojlanmagan bola to‘liq shaxs sifatida kamol topmaydi. Demak, tarbiyachi har doim shuni esda tutishi kerakki, nutq bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda barcha ruhiy jarayonlar rivojlanishiga ko’maklashuvchi vositadir. Bolaga ona tilini o’rgatish bilan bir vaqtda, uni maktabda muvaffaqiyatli o’qishi uchun zamin tayyorlanadi, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o’rgatiladi. Bolalar bog’chasining barcha tarbiyaviy-ta'limiy ishlarida bolalarga ona tilini o’rgatish orqali ularning nutqi o’stiriladi. Ayniqsa, nutq o’stirish mashg’ulotlarida har bir bolaning nutqinio`stirish bo’yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg’ulotlarning mazmuni faqat ona tili orqali singdiriladi.

So’z boyligi barcha mashg’ulotlarda beriladigan bilimlarni tez va puxta o’zlashtirib olish va bu bilim, tushunchalarni nutq orqaliifodalash imkonini beradi. Bu o’z navbatida bola kamoloti uchun ham keng yo’l ochadi. Bilimlarni puxta egallashga, uni sekin hayotga tatbiq etishga ham o’rgatadi. Ona tili aqliy tarbiyaning manbai va vositasi hamdir.

Ona tili bolalarda vatanparvarlik, baynalmilal tuyg’ularni o’stirib borishda, bolalarning madaniy saviyalarini oshirib borishda qudratli vosita bo’lib xizmat qiladi. Demak, ona tili bolalarni axloqiy tomondan tarbiyalash vositasidir.

Bola kuzatish va nutq orqali dunyoni, borliqni bilib oladi: tevarakatrofdagi narsa va buyumlarning, voqea va hodisalarning nomini, sifatlari va belgilarini, xususiyatlarini, o’xshash va farqli tomonlarini aytishga o’rganadi.

Ona tili orqali bolalar o’z ajdodlarining tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini bilib oladilar, xalq og’zakiijodiyoti, badiiy adabiyot, san'at bilan tanishadilar.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo’lgan bolalar nutqinio`stirishga doir mashg’ulotlarni didaktik o’yinlar, ermak o’yinlar, sahna ko’rinishlari shaklida o’tkazish tavsiya qilinadi. Ular nafaqat ko’ngilochar tusga, albatta, ta’lim tusiga ega bo’lishi lozim.3 yoshdan 5 yoshgacha bo’lgan bolalar nutqini o`stirish emotsional tusga ega bo’lishi lozim. Bunda ko’rgazmaviylik, o’yin

usullari va didaktik o’yinlarni keng qo’llash zarur. 5 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan bolalar nutqinio`stirishga doir mashg’ulotlar muayyan vazifaga ega – ya’ni, u bolalarni maktabda o’qishga tayyorlashni ko’zda tutadi.

Mashg’ulotlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o’quv faoliyatini yo’lga qo’yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e’tiborli bo’lish, pedagog topshirig’ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr yurita bilish, tengdoshining javobiga baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi.

To’g’ri ta’lim berilgan taqdirda yetti yoshga kelib bola og’zaki nutqniegallaydi hamda:

- ✓ katta yoshli, yaqinlari va tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirisha oladi;
- ✓ dialogda tashabbus ko’rsatib fikr bildiradi, suhbatdoshie’tiborini o’ziga jalb qilish, unga so’z, harakat va so’zsiz usullar bilan javob bera olishni biladi; fikrlarini to’liq va noto’liq oddiy gaplar, qisqa matnlar shaklida ifodalay oladi;
- ✓ tanish ertaklarni hikoya qilib berish, multfilmlar, kitoblar mazmunini aytib berish hamda biron-bir voqeani to’qib chiqarishga qiziqa boshlaydi;
- ✓ fikr bildirishlarda nutqning turli qismlarida tashbehlar, qiyoslashlar va sinonimlarni qo’llaydi;
- ✓ nutqqa tanqidiy munosabat bildira boshlaydi, grammatik jihatdan to’g’ri so’zlashga intiladi, shu tufayli so’z to’qish barham topadi, agrammatizmlar soni kamayadi;
- ✓ ona tilidagi barcha tovushlarni to’g’ri talaffuz etadi.

Shunday qilib, ona tili maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ruhiy jihatdan o`stirishda, ularning madaniy saviyasini oshirishda, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib olishlarida, maktabda muvaffaqiyatli o’qishlari uchun zamin yaratishda, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o’rgatishda, aqliy va axloqiy tarbiyani amalga oshirishda, dunyoni,

borliqni bilib olishda, xalqimiz madaniy merosini o’rganishlarida asosiy vosita bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ergasheva G. «Дидактические требования к занятиям математикой в дошкольных учреждениях» //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
2. Эргашева Г. Б., Раджабова И. Х. «Дидактические требования к занятиям математикой в дошкольных учреждениях»//Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
3. Эргашева Г. Б., Хожиева М. У. Одаренность детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 1-5. – С. 31.
4. Эргашева Г. Б., Рахматова Г. Б. К. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 1 (46).
5. Эргашева Г. Б., Ахмедова Н. М. Беседа как метод формирования диалогической речи для детей дошкольного возраста //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 11-2 (98). – С. 76-77.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining nutqiy rivojlanishida xalq og‘zaki ijodinining o'rni

Sobirova Dilnoza Avazbek qizi-
Shahrixon tuman 61- umumiy o’rta ta’lim maktabi o’qituvchisi.

Annotatsiya; Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodini o‘rganishning ahamiyati, me’yoriy asoslari, metodik jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so’zlar: kompetentsiya, tarbiya vositasi, nutq birligi.

O’zbek xalqi og‘zaki ijodining xalq, millat qadriyatlari qatorida tutgan o‘rni beqiyosdir. Xalq og‘zaki ijodi- namunalari mahorat , aqliy , fikriy kashfiyot namunalarining badiiy ifodasi.

Xalq og’zaki ijodini o‘qitishda matnni qismlarga bo‘lib o‘rganish, qahramonlarning shaxsiy fazilat va qusurlari, ichki kechinmalari, turli hayotiy vaziyatlarni tahlil

qilishga o’rgatishda ixcham fikr va badiiy ifoda uyg‘unligiga e’tibor qaratish lozimligi, bunda qofiya, vazn kabi badiiy unsurlarning ahamiyatini ochib berish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining onggiga folklordagi bir qator kichik janrlarni: maqollar, matallar, topishmoqlar va askiyalar, qo’shiqlar, laparlar va boshqalarni singdirish orqaligina ular og’zaki nutqinngi o’sib borayotganini kuzatish mumkin. Maqollarni o’rgatish haqida to‘xtalib o‘tamiz. Maqol xalq og‘zaki ijodining ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo‘lgan janrlaridan biri bo‘lib, u xalqning ko‘p asrlik hayotiy kuzatishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelgan. Maqollar o‘zlarining ijtimoiy-g‘oyaviy funksiyalariga ko‘ra, asosan keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa ba’zi ijtimoiy tabaqa yoki guruhlarning dunyoqarashini ifodalaydi. Maqollarning ko‘p asrlik hayotiy tajribalar asosida yuzaga kelganligi o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir maqol kishilarning uzoq yillar mobaynida hayotiy tajribalari hamda turmush sharoitlarida tnecha martalab sinovlardan o‘tadi. Har bir maqolning o’quvchilar orasida tarqalishi ham uning yaratilishi kabi sekinlik bilan amalga oshadi. Zero, muayyan maqolni qabul qilishi uchun o’qituvchidan katta pedagogik mahorat talab etiladi. Maqol termini arabcha “qavlun”(aytmoq, gapirmoq) so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida u xalq donoligining namunasidir. Uni orgatishda “G’alaba cho’qqisi”, “ Ikki qarsak”, “Men kimman” kabi didaktik o’yinlardan “,” Kichik guruhlarda ishlash “, “Trening”, ”Binar” usullaridan foydajanish ijobiy natija beradi. Maqol to‘liq, tugal mazmun, hukm anglatuvchi gap bo‘lsa, matal ko‘chma ma’no ifodalovchi ibora; u maqolning yarmidir.“Matal” so‘zi turkiy xalqlar orasida turlicha ma’nolarda qo‘llaniladi. U topishmoq, hikmatli so‘z, ertak, masal, umuman hikoya qilish, naql qilish, sifatida o‘zbek folklorshunosligida paremalarning bir turini ifodalash jihatidan differensiyallashib bormoqda . Aksariyat xalq maqollarida insonni kamol toptiruvchi, uning turmushini farovonlashtiruvchi asosiy vosita mehnat ekanligi lo‘nda ifodalanadi va ularda tekinxo‘rlik, bekorchilik hamda dangasalik keskin qoralanadi. Masalan, “Bekorchidan Xudo bezor” maqoli

fikrimizning tasdig‘idir. Maqol tarixan ancha qadimiy bo‘lganligi uchun ham unda dangasa, ishyoqmasdan oddiy insonlargina emas, hatto maqol yaratilgan davr g’oyasiga ko‘ra butun mavjudotning yaratuvchisi Xudo ham bezor degan mazmun anglashiladi.Boshlang’ich sinf o’quvchilarida xalq maqollari ona-Vatanga sadoqat va vatanparvarlik , mehnatkashlik, halqini ardoqlagan va vatan dushmanlariga, unga xiyonat qiluvchilarga keskin kurasha oladigan ,fikri tinilikni tarbiyalaydii.

1. “Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni”.
2. “Ona yurting omon bo‘lsa, rangi-ro‘ying somon bo‘lmas”.
3. “Vatan gadosi-kafan gadosi”.
4. “Vatan gado bo‘lguncha, kafan gado bo‘l”.
5. “Begona tuproq-devona tuproq”.
6. “Mehnat, mehnatning tagirohat”.
7. “Odob bozorda sotilmas”.
8. “Insofli oshini yer, insofsiz-boshini”.Xalq og‘zaki ijodi - mehnatkash omma ijodi, xalq san'atining boshqa, ya'ni musiqa, teatr, raqs, o‘yin, tasviriy va amaliy san'at kabi turlaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og‘zaki so‘z san'atidir.Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng xalq og‘zaki ijodi maktablarda, o‘rta maxsus kasb- hunar ta’limi muassasalarida alohida e’tibor bilan o‘qitila boshlandi. Bu narsa yosh avlodni xalqimiz tarixi, madaniyati, urf-odatlari, ma’naviyati haqida yana ham chuqurroq bilim olishlari uchun yana bir imkoniyat va yurtboshimizning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan hurmati namunasidir.

Rivoyat, hikoya, qo‘shiq, lirika o‘zida ichki kechinmalarni ifodalash xususiyati bilan bolalar ongiga tez yetib boradi. Chunki bunday asarlarda bosh maqsad sodir bo‘lgan hayotiy voqeani emas, balki ana shu voqeaga nisbatan munosabat tarzida ifodalanuvchi ruhiy taassurotlarni ifodalashdan iboratdir.

Xalq og’zaki ijodga oid allalarda yoki maktab yoshidagi farzandlar sevib kuylaydigan «Boychechak», «Oq terakmi, ko‘k terak» kabi qo‘shiqlarning ham bolalar tarbiyasida muhim ahamiyati bor.

Umuman olganda, xalq og’zaki ijodi boshlng’ich sinf o’quvchilarida

—umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik;

— Xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

— Insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;

—vatanparvarlik

Fan asoslarini o‘rgatish bilan birga ularning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish kabi muhim ma’rifiy jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyod:

1. Umumiy o‘rta maktablarning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili va adabiyot // o‘zR Xalq ta’limi vazirligining axborotnomasi. – 1999, 1-maxsus son.
2. A.G‘ulomov, O‘.Ne’matov. Ona tili ta’limi mazmuni. – T.: o‘qituvchi, 1995.

.

Организация математического развития ребенка как способ реализации «Концепции непрерывного образования в системе дошкольного и начального образования»

Султонова Мавлуда Эркиновна
учитель математики средней образовательной школы №2 Ходжаабадского района

Математика сегодня — это одна из жизненно важных областей знания современного человечества, необходимая для существования человека в цивилизованном обществе. Широкое использование техники, в том числе и компьютерной, требует от индивида определенного минимума математических знаний и представлений.

Существуют различные взгляды на объем и качество этого необходимого для социализации минимума. Проблема создания оптимального курса математики для общеобразовательной школы более чем актуальна.

На сегодняшний день существует не менее пятнадцати учебников по математике для начальных классов, и почти все они рекомендованы Министерством образования и науки РФ к использованию в учебном процессе.

Последнее десятилетие XX в. характеризуется значимыми изменениями в подходах к определению целей начального математического образования. Эти изменения были порождены *сменой приоритетных целей обучения:* их

обусловленностью на современном этапе проблемой воспитания личности ребенка на *основе личностно-ориентированного деятелъностного подхода.*

Рассмотрим эти изменения. С этой позиции целесообразным будет тот курс математики для младших школьников, который позволял бы *средствами данного предмета реализовать идею развивающего обучения,* и в то же время обеспечивал усвоение соответствующих знаний и умений, готовил и позволял бы уже с первых шагов творчески использовать их при решении разнообразных задач как практического, так и теоретического характера.

Базовым положением упомянутой выше концепции является положение о том, что начальное звено в системе школьного образования обладает своей собственной непреходящей ценностью, и поэтому обязано предоставить ребенку возможность и условия самореализации в тех видах деятельности, которые являются ведущими в этом возрасте. Полагая учебную деятельность ведущим видом деятельности в этом возрасте, необходимо при построении системы (содержание, методы, средства, формы организации обучения) предусмотреть возможность самореализации ребенка при изучении конкретного содержания. Иными словами, ребенок младшего школьного возраста должен всегда видеть и понимать применимость своих знаний и умений в значимой *для него* практической деятельности.

Иными
словами, *на данном этапе жизни ребенка образовательная система обязана предоставить ему возможность и условия самореализации в тех видах деят ельности, которые являются ведущими в этом возрасте.*

В «Концепции непрерывного образования детей дошкольного и младшего школьного возраста» обозначены общие цели:

- воспитание нравственного человека;
- охрана и укрепление физического и психического здоровья детей;
- сохранение и поддержка индивидуальности ребенка, физическое и психическое развитие детей.

Знания, умения и навыки рассматриваются в системе непрерывного образования в качестве важнейшего *средства* развития ребенка.

В интервью с академиком А.А. Леонтьевым, приведенном после текста «Концепции», особо отмечено то, что «Концепция» не имеет целью обозначать чему и как учить, а призвана обозначить, что *именно в развитии ребенка должно обеспечить образование* и каким мы ожидаем видеть ребенка на пороге начальной, а затем средней школы.

Поскольку «Концепция» не уходит от содержательной характеристики образования, целесообразнее было бы предположить, что средством развития ребенка должно стать это содержание, а усвоение знаний умений и навыков — следствием достижения ребенком определенного уровня развития познавательной деятельности.

Применяя свои знания и умения в различных видах значимой для него деятельности, ребенок будет самоутверждаться и самореализовываться как *личность***.** А задача педагога — сделать этот процесс успешным для ребенка, т. е. таким образом организовать условия этой деятельности, чтобы ребенок сумел справиться со всеми ее проблемами, используя свои знания и умения. При этом, чем выше методическое мастерство педагога, тем незаметнее для ребенка становится его помощь в преодолении возникающих трудностей. Именно в этом случае возможно достижение ребенком эмоционального благополучия, стимулирование активности детей в различных видах деятельности, развитие компетентности в сфере отношений к миру, к людям, к себе; будут решаться обозначенные в «Концепции» **приоритетные задачи** непрерывного образования детей на ступени начальной школы:

- осознанное принятие ценностей здорового образа жизни и регуляция своего поведения в соответствии с ними;
- готовность к активному взаимодействию с окружающим миром (эмоциональная, интеллектуальная, коммуникативная, деловая и др.);

- желание и умение учиться, готовность к образованию в основном звене школы и самообразованию;
- инициативность, самостоятельность, навыки сотрудничества в разных видах деятельности;
- совершенствование достижений дошкольного развития (на протяжении всего начального образования); специальная помощь по развитию несформированных в дошкольном детстве качеств;
- идивидуализация процесса обучения, особенно в случаях опережающего развития или отставания.

Все обозначенные выше цели создания системы непрерывного образования на дошкольной и начальной ступени требуют глубокой аналитической исследовательской деятельности от специалистов, разрабатывающих проблему преемственности между дошкольным и начальным звеном, поскольку вопросы формирования умений учиться как психологических новообразований в дошкольном возрасте являются практически не разработанными в теории дошкольного воспитания. Отсутствие преемственности между дошкольным и начальным школьным образовательным звеном в этом вопросе порождает как для ребенка, так и для учителя начальных классов сложнейшую проблему адаптации ребенка к условиям школьного обучения в первом классе. Многие психологи и специалисты коррекционного обучения полагают, что негативные последствия адаптационного стресса могут в дальнейшем оказать влияние на весь процесс обучения ребенка в начальной школе. То же самое можно сказать об уровне разработки одной из сложнейших на сегодняшний день проблем процесса организации обучения — его индивидуализации (как на дошкольном, так и на школьном этапе), особенно в случаях опережающего развития или отставания.

Содержательный объем начального математического образования ребенка определяется не столько количеством (перечнем) понятий и способов

действий с ними, определенным программой обучения, сколько той ролью, которую может и должно сыграть это содержание в развитии личности ребенка в этот период. Традиционно учитель всегда был более озабочен процессов формирования знаний и умений младшего школьника. На это нацеливали программы, непременно снабженные перечнями четко обозначенных знаний и умений школьников на всех этапах обучения. На это всегда были негласно ориентированы требования преемственности обучения, понимаемой как наличие, главным образом, предметных знаний и умений школьников при переходе в среднее звено. И сегодня, на вопрос: «Что вы хотите от выпускника начальной школы?» абсолютное большинство предметников-математиков отвечает: «Умения считать, знания таблиц сложения и умножения, письменных алгоритмов действий и умения решать арифметические задачи». К сожалению, могут пройти еще годы и годы, пока новая образовательная парадигма будет осознанна и принята педагогами всех ступеней образования.

Как же на сегодня формулируются цели начального образования в общем и начального математического образования в частности в рассматриваемой Концепции и насколько это соотносится с традиционными требованиями средней школы к уровню математической подготовки выпускника начальной школы?

В Концепции отмечается, что начальное образование имеет свои характерные особенности, резко отличающие его от последующих этапов систематического школьного образования.

Во-первых, это первоначальное формирование учебно-познавательной деятельности детей и, в частности, познавательной мотивации.

Во-вторых, это становление самосознания и самооценки ребенка как субъекта новой для него деятельности («Я — ученик, школьник»).

В-третьих, это особое значение начального образования как базы всего последующего обучения применительно ко всем образовательным областям.

Без овладения чтением, письмом, счетом и т. д. невозможно образование на следующих этапах.

В-четвертых, предполагается, что в начальной школе закладываются основы обобщенного и целостного, представления о мире, человеке, его творческой деятельности, которые развиваются и дифференцируются в основной школе.

Специфика начальной школы как самоценного звена общей системы образования проявляется и в том, что каждый компонент его содержания способен «обслуживать» различные образовательные области и предметы, их составляющие, вносит свой вклад в развитие ребенка и его подготовку к дальнейшему образованию. Таким образом, содержание начального образования, выполняя одну из важнейших функций — *формирование готовности к дальнейшему образованию и самообразованию,* — может рассматриваться как пропедевтическое по отношению к содержанию образования в основной школе.

Исходя из сказанного, авторы Концепции считают, что нельзя прямо проецировать в содержание начального образования систему образовательных областей, принятых в основной школе. Применительно к начальной школе целесообразно говорить не об образовательной области, а о введении в образовательную область. Такое уточнение оправданно, так как, *во-первых,* определяет целевую направленность образования в начальной школе на общее развитие ребенка, *во-вторых,* подтверждает его непрерывность и преемственность с основной школой, *в-третьих,* подчеркивает специфику начального образования и необходимость ее учитывать при отборе содержания образования.

В таблице (с. 10) показана предлагаемая в Концепции преемственность между конкретным Введением в образовательную область, предложенным для начальной школы, и конкретной Образовательной областью, изучаемой в основном звене школы. Следует иметь в виду, что пропедевтическая роль

каждого компонента начального образования по отношению к другим образовательным областям отражается на уровне содержания образования.

Рассматривая математику как образовательную область, прежде всего следует определить вклад данной образовательной области и развитие умения учиться как основного новообразования младшего школьника в результате его обучения в начальной школе.

Применительно к математическому содержанию формирование умения учиться, помимо рефлексии как центрального механизма,

Введение в образовательную область (начальная школа)		**Образовательная область (основное звено школы)**
Словесность		Филология
Математика		Математика
Человек и окружающий мир		Естествознание Обществознание Технология
Искусство и художественный труд		Искусство Технология
Физическая культура		Физическая культура

лежащего в основе изменений мышления, деятельности, коммуникации и самосознания, предполагает ***развитие:***

- интуитивного и логического мышления и соответствующего им математического языка;
- элементарных мыслительных операций (анализа, синтеза, сравнения, сериации, классификации и др.);
- умений оперировать знаково-символическими средствами, выражать содержание (объекты, явления, признаки, отношения, действия,

преобразования) в разных знаково-символических формах, переходить от одного языка к другому, отделять содержание от формы его представления;

- начал творческой деятельности (пространственного воображения, способов решения задач, представления информации и др.).

В соответствии с этими целями развития проектируется предметное содержание учебной деятельности. *Образовательные цели* обучения математике младших школьников, достижение которых должно одновременно обеспечить перечисленные цели развития, могут быть сформулированы следующим образом:

1) овладение определенной системой математических понятий и общих способов действий по двум ведущим содержательным линиям: «Число и вычисления» и «Пространственные отношения. Геометрические фигуры. Измерение геометрических величин»;

2) овладение первоначальными представлениями о ведущем математическом методе познания реальной действительности — математическом моделировании;

3) формирование общего умения решать задачи.

Содержательная линия ***«Число и вычисления»*** дает учащимся возможность получить представления о натуральном числе как результате счета и измерения величин, понять особенности построения натурального ряда чисел, освоить принцип позиционной системы записи чисел, овладеть арифметическими действиями С натуральными числами и величинами.

Реализация в обучении второй линии ***«Пространственные отношения. Геометрические фигуры. Измерение геометрических величин»*** предоставляет школьникам возможность осознать геометрические формы как образы предметов окружающего мира; познакомиться с различными геометрическими фигурами, открыть некоторые их свойства через преобразование, конструирование, изображение, выполнение простейших дедуктивных умозаключений и измерений.

В процессе освоения данного содержания дети не только получают первоначальные представления о математическом моделировании, о структуре задачи и этапах ее решения, но происходит и развитие их логического мышления, мыслительных процессов, умений оперировать знаково-символическими средствами.

Математика изучается в течение всех четырех лет обучения в начальной школе, в базисном учебном плане она обозначена как часть федерального компонента. Нетрудно заметить, что первая из указанных образовательных целей определяет содержательное наполнение программы, а вторая и третья — характеризуют виды деятельности с математическими понятиями, включенными в программу.

Таким образом важнейшим итогом начальной математической подготовки ребенка является не только и не столько накопление определенного запаса предметных знаний и умений, сколько ***умственное развитие ребенка, формирование у него необходимых специфических познавательных и умственных умений,*** которые являются базовыми для успешного усвоения в дальнейшем математического (и любого другого) содержания.

Рассмотренные тенденции изменения взглядов на цели и задачи начального математического образования порождают ряд проблем, которые становятся актуальными как для педагогов-практиков, так и для методической науки. Эти проблемы связаны с разработкой теоретических концепций, лежащих в основе построения обучающих курсов, с отбором их содержания, методов и форм организации деятельности детей в процессе их изучения.

Литература

1. Актуальные проблемы методики обучения математике в начальных классах // Под ред. М.И. Моро, А.М. Пышкало. М., 1977. Лмонашвили ША. Здравствуйте - дети! М., 1997
2. Бугрименко ЕА., Ветер АЛ. Готовность детей к школе. Диагностика психического развития и коррекция его неблагоприятных вариантов. М., 1992.

3. Гуткина НИ. Психологическая готовность к школе. М., 2000
4. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. М., 1995.
5. Истомина Н.Б. Методика обучения математике в начальных классах. М., 1997.
6. Кумарина Г.Ф. и др. Коррекционная педагогика в начальном образовании. М., 2001.
7. Маркова А.К., Лидере А.Г., Яковлева ЕЛ. Диагностика и коррекция умственного развития в школьном и дошкольном возрасте. Петрозаводск, 1992.
8. Марцинковская ТД. Диагностика психического развития детей. М., 1997.

O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY DARSLIKLARNING O‘RNI

Turakulova Okila Amirkulovna,
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili ta’limi fakulteti dotsenti
shahrizodf@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarning nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda zamonaviy darsliklarning o‘rni, ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tadbiq etilishi, xususan, dasturdan umumiy o‘rta ta’limda o‘zbek tilini o‘qitishni rivojlantirish konsepsiyasi asosida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ayrim masalalari yoritib berilgan.
Tayanch so‘zlar: O‘zbek tili, darslik, ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, davlat ta’lim standarti, zamonaviy.

O‘zbek tilini nafaqat xalqaro miqyosda, balki davlat va jamiyat hayotida ham tutgan o‘rnini mustahkamlash, uning rivojlanishini ta’minlash, obro‘-e’tiborini yuksaltirish, davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, o‘zbek tilini o‘rganilishi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining dolzarb masalasiga aylangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida o‘zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi ta’siri va nufuzini oshirish bo‘yicha vazifalarni sanab o‘tdi: “O‘zbek tilining qo‘llanish doirasini kengaytirish, mamlakatimizda yashayotgan turli millatlarga mansub vatandoshlarimizning davlat tilini o‘rganishlari uchun

tegishli sharoit yaratib berish, yurtimizda va xorijda o‘zbek tilini o‘rgatadigan o‘quv markazlarini ko‘paytirish zarur. Shu maqsadda yangi darsliklar, qiyosiy va turli sohalarga oid lug‘atlar, ish yuritish va so‘zlashuv qo‘llanmalari nashr etish, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini takomillashtirish, bu tizimga to‘liq o‘tish bo‘yicha hali ko‘p ish qilishimiz kerak”.[3]

Ta’lim tizimini rivojlantirish va o‘quvchilarning sifatli ta’lim olishlari maqsadida davlat boshlig‘i va hukumat tomonidan bir qancha hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 2020 – 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmonida o‘z aksini topdi.

Prezidentning 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” farmoniga ko‘ra 2021-yil 1-martga qadar malakali pedagog, ilmiy xodimlar, psixolog va xorijiy ekspertlar (shu jumladan, Finlyandiyaning malakali mutaxassislari)ni jalb qilgan holda Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu farmon ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori qabul qilindi. Unga muvofiq tayanch umumta’lim muassasalari belgilandi va 2021 – 2022-o‘quv yilidagi ta’lim jarayonida ushbu dastur tajriba-sinov tariqasida joriy qilindi. Ta’kidlash kerakki, Milliy dasturda nazariyadan amaliyotga o‘tish jarayoni tadbiq etilib, nazariya 50%ni, amaliyot 50%ni qamrab olmoqda. Ushbu Milliy ta’lim dasturi asosida esa zamonaviy dizayn va mazmunga ega darsliklar bosqichma-

[3] Shavkat Mirziyoyev o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqidan

bosqich ishlab chiqilishi koʻzda tutilgan. Xususan, dasturdan umumiy oʻrta taʼlimda oʻzbek tilini oʻqitishni rivojlantirish konsepsiyasi oʻrin olgan boʻlib, ushbu konsepsiya ham bir necha boblardan tashkil topgan. Masalan, oʻzbek tili fanining oʻquv-metodik taʼminotini takomillashtirish boʻyicha bir qator tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilib, unga koʻra "Oʻzbek tili" darsliklarining har bir sinf oʻquvchilarida muayyan maʼnaviy sifatlarni shakllantirish koʻzda tutilgan holda yaratilishini yoʻlga qoʻyish; oʻzbek tili boʻyicha barcha sinflar uchun darslik, oʻqituvchi uchun metodik qoʻllanma, darsliklarning multimediali ilovasi kabi oʻquv-metodik yigʻmalar ishlab chiqish va muntazam yangilab borish belgilandi.[4]

Shuningdek, taʼlim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tadbiq etib borilayotganligi tufayli umumiy oʻrta taʼlim soʻngida oʻquvchilarda oʻzbek tili faniga oid nutqiy (passiv – oʻqib tushunish, tinglab tushunish hamda faol – yozish, gapirish) va lingvistik (grammatika, leksika) kompetensiyalar shakllangan boʻlishi lozim. Shunday ekan, zamonaga mos, oʻquvchilarning yosh, ruhiy va jins xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olgan holda yaratilgan, oʻquv materiallarini oʻrganish jarayonida ularni ishlash, izlanish, mustaqil fikrlashga undaydigan darsliklar yaratish muhimdir.

Darslik – davlat taʼlim standarti, oʻquv dasturi uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol gʻoyasi singdirilgan, muayyan oʻquv fanining mavzulari toʻliq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal oʻzlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh taʼlim yoʻnalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr. Biror-bir taʼlim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan oʻz darsliklari boʻladi. Darslikda nazariy maʼlumotlardan tashqari, amaliy-tajriba va sinov mashqlari boʻyicha zarur koʻrstamalar beriladi.

Hozirgi vaqtga qadar ham oʻquv kitobining mazmuni va uni qurish tamoyillari haqidagi munozaralar davom etmoqda. A. A. Korchinskiy darslik toʻgʻrisidagi bunday munozaralar uning vazifasi va asosiy maqsadi – oʻquvchilarni "turli

[4] Umumiy oʻrta taʼlimning milliy oʻquv dasturi loyihasi. Toshkent, 2021.

sivilizatsiyalar tomonidan tarixiy retrospektiv yaratilgan bilim, tajriba va madaniyat xazinasi bilan tanishtirish” bo‘lgani bilan bog‘laydi.

V. P. Juravlyev nazarida darslik – muayyan vazifalar, mazmunli va tashqi tuzilishga ega bo‘lgan nashrning turi. Darslikning turi esa qo‘llanma darslik, amaliy darslik h.k. shaklida konkretlashadi.

Bu shuni anglatadiki, darslikning maqsadi va ta’lim jarayonida texnologik vosita sifatidagi uning roli, ta’lim tamoyillari va qonuniyatlarini amalga oshirishi uning tipologik xususiyatlarini belgilaydi, keyinchalik esa didaktik yondashuv va o‘qituvchilar tomonidan tanlangan o‘qitish usuli bilan aniqlashtiriladi.

O‘zbek tili ta’limi o‘zga til o‘quvchilarini o‘zbek tilini o‘rganish, anglash, fikrini shu tilda og‘zaki va yozma bayon etishga qiziqtirish orqali o‘zbek xalqining madaniyatini o‘rgatish, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, unda ezgu ma’naviy sifat va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etar ekan. Buning uchun yoshlarni milliy va jahon madaniyatining eng sara asarlari bilan tanishtirish orqali ularda badiiy asar qahramonlaridagi turli ma’naviy-axloqiy sifatlarlarga faol hamda asosli mantiqiy va hissiy munosabat uyg‘otishimiz lozim.

Bugun ta’lim tizimida darsliklar yangilandi. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda yangi yaratilgan darsliklarda quyidagi omillarga alohida ahamiyat qaratilgan.

- O‘quv dasturida berilgan mavzular bo‘yicha bilim,ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga ;
- O‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasi;
- Mashq va topshiriqlarni bajarish orqali nazariy bilimlarni mustahkamlash va nutqni o‘stirish.

O‘zbek tili – millatning ma’naviy qiyofasi va ruhiy qudratining ifodasi, ma’rifiy takomili, o‘zbek tili imkoniyatlarini namoyon qiladigan va uning boyliklarini saqlab qoladigan hamda boyitadigan vositadir. O‘zbek tilini o‘qitish o‘quvchilarda bilish, kommunikativ, go‘zallik va ezgulikni his etish, undan zavqlanish va yomonlikdan nafratlanish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi. Bu hol

umumta’lim maktabi o‘quvchilarida to‘la ma’nodagi barkamol shaxs sifatlarini shakllanishiga olib keladi.

Ta’lim jarayoninig muhim bo‘lagi va ajralmas qismi hisoblangan darsliklar, ularga qo‘yiladigan talablar ham bugungi shiddatli davrga mos va xos bo‘lishi zarurdir. Umumta’lim maktablarining 2-4-sinf o‘quvchilari uchun jahon talablariga to‘laqonli javob beradigan, o‘zbek tilini o‘rganishga qiziqish uyg‘otadigan, o‘quvchilarda muayyan kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan darsliklarni yaratilishi o’quvchilarning nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni
2. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi loyihasi, 2021yil.
3. O‘zbek tili 2 Metodik qo‘llanma [Matn]: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / D. A. Xidoyatova [va boshq.] - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.- 96 b.
4. Ibragimov X.I., Tayloqov N.I. Yangi avlod darsliklarini yaratishning didaktik tamoyillari. // Uzluksiz ta’lim jur. - 2004. – № 1. – B. 9-15.

O’quvchilar nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning dolzarbligi.

Umarov Go’yibjon Muqimovich-
Shahrixon tuman 52-maktab o’qituvchisi

Annotatsiya:Ushbu tezisda bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo’lgan o’quvchilar nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirish bo’yicha uslubiy ko’rsatmalar berilgan

Kalit so’zlar: pedagogik faoliyat, nutq, kompetensiya, kreativ,tafakkur

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyat samarali bo‘lishining shartigina emas, balki jihatdan o‘qituvchining muvaffaqiyatli ishlashining natijasi hamdir. Shu munosabat bilan, o‘qituvchining o‘zida pedagogik qobiliyatlarining aniq maqsadni ko‘zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta rol o‘ynaydi. Tajriba va maxsus tadqiqotlar buning batamom haqiqiy narsa ekanligini ko‘rsatmoqda, masalan, shaxs

perspektiv xusiyatlarining eng muhim elementi bo‘lgan kuzatuvchilik o‘qituvchiming pedagogik tajriba hosil qilishiga ham, uning maxsus kuch-g‘ayrati natijasida ham rivojlanadi, takomillashadi. O‘qituvchi o‘zining sotsial psixologik kuzatuvchanligini, ya’ni o’qituvchilar turli xarakter xususiyatlari va mayillarini payqab olish qobiliyatinigina emas, shu bilan birga ularning paydo bo‘lish vaziyatiga muvofiq baho berish mahoratini va boshqa hususiyatlarini rivojlantirishga qodirdir. Agar o‘qituvchida o‘quvchilar bilan munosabatlarniig ishonch asosida qurilishiga yo‘l-yo’riqlar bo’lsagina, bunday muloqot ro‘y beradi. Tarbiya tajribasida bunday yo‘l-yo‘riqni amalga oshirish qiyin ishdir, lekin bunga bugun erishish mumkin. Albatta, katta yoshdagi kishining bolalar muhitiga uzviy ravishda qo‘shilib ketishi nihoyatda qiyin narsa. Lekin bu muhitga u yaqinlasha oladi, ancha yaqinlashib boradi. Pedagogda bolalar bilan o‘zaro ishonch va do‘stlik munosabatlari vujudga kelgandagina bunga erishish mumkin.

Nutq, madaniyati va texnikasi

Tabiat kuchlarini bilish va egallashda juda qisqa vaqt maboynida g‘oyat katta muvaffaqiyatlarga erishuvchi odamning boshqa jonzotlar hayvonlardan farqli tomon ularda tilning mavjudligidir. O’zining ongi-tili va nutqi bilan inson hamma narsadan ustun turadi. Til jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi kuch va millatning mavjudligini ko’rsatuvchi belgilardan biri hamdir.

Barcha rivojlangan davlatlarda bo‘lganidek, bizda ham o‘z milliy tilimizni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. O’zbek tili bizda davlat tili ,deb e’lon qilintan va shunga amal qilinmog‘da.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev o‘z nutqlarida chet tillarni o‘rganishning ahamiyati muhimligini kursatish bilan birga yana shunday deydi: "Ammo shunga alohida urg’u berishimiz zarurki, chet tillarni o‘rgagish, minbad ona tilini esdanchiqarish hisobiga bo‘lmasligi lozim.”

O‘z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go‘zal va lo’nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin"

Til aloqa vositasi yoki qurolidir, nutq, esa aloqa jarayonining o’zidir. Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy - tarixiy tajribani o‘zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o’rnatish yoki o‘z harakatlarini rivojlantirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir

Nutq qanchalik chiroyli, mazmundor bo‘lsa ,kishilarni o‘ziga shunchalik jalb etadi. Bu masalaga kishilar qadimdan qiziqib kelishgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratilgan. Notiqlik san’at darajasiga ko‘tarilgan. Ularda yetuk inson bo‘lish uchun notiqlik san’atini egallashlari shart bo‘lgan. 335 yilda Aristotelning "Ritorika"si yaratiladi. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda ham va’zxonlikka katta e’tibor berilgan. Buyuk allomalar Beruniy, Forobiy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg’ariy, Zamaxshariy, Kaykovus va boshqalar tilga, mantiqshunoslik va notiqlikka oid asarlar yaratdilar. Kaykovus o‘zining "Qobusnoma" asarida farzandini yoqimli, muloyim, o‘rinili so’zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. "Xalq oldida gapirganda ,so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening so‘z bilan baland darajada ekanligingni bilsin, chunki kishining martabasini so‘z orqali biladilar...", deb yozadi alloma. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg’u bilig" asarida ham til odobi va notiqlik madaniyati haqida juda qimmatli fikrlar bayon etiladi. U qisqa so‘zlash, so’zlar, iloji boricha, ko’proq ma’no yuklash haqida gapiradi. Til insonning qadr-qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban ham ketishi mumkin, deydi adib.

Omonlik tilasang agar sen o’zing, Tilingdan chiqarma yaroqsiz so‘zing. Alisher Navoiy o‘z ijodi bilan o’zbek adabiy tiliga asos soldi. Bu tilning boyliklarini namoyon etdi. Navoiyning "Muhokamat-ul – lug’atayn", "Mahbub-ul qulub", "Nazmul javohir" asarlari o‘zbek tilida nutq tuzilishining go’zal namunalari bo‘lishi bilan birga uning yuksalishiga ham katta hissa qo‘shdi. "Mahbub-ul qulub" asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq madaniyati haqida muhim fikrlar beriladi. Tilshunoslik bolalar nutqni kattalarga taqlid qilish yo’li bilan egallab olishlarini isbotlab beradi. O‘qituvchi nutqi o‘quvchilar uchun namuna va ularga ta’sir etish vositasidir. Kichik sinf o’quvchilarining nutqlari uncha rivojlanmaganligi sababli

kattalar nutqidagi yaxshi jihatlariga ham, yomon tomonlariga ham bir xilda taqlid qilaveradilar. O‘qituvchi nutqining xususiyatlari va nuqsonlari tarbiyalanuvchilar nutqining xususiyatlari va nuqsonlariga aylanib qoladi. Shuning uchun o‘qituvchilar nutqiga g’oyat katta talablar qo‘yiladi. O‘qituvchining nutqi adabiy til mezonlariga javob berishi va bolalarning yoshiga mos, ularga tushunarli bo‘lishi kerak, o‘qituvchi o‘z nutqida ko‘prok sinonimlardan, antonimlardan,maqollardan foydalanish kerak.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish vositasi, asosan, ona tili va adabiyot fanini o‘qitish orqali amalga oshirladi. O‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun ko‘proq ertak, hikoya, she’r, rasmga qarab so’zlash yo‘li bilan erishiladi. Hulosa qilib, aytganda o’qituvchi, tarbiyachi kommunikativ ,nutqiy madaniyatni egallamasa, hech vaqt o‘z ishining chinakam ustasi bo‘la olmaydi, yomon ma’nodagi eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o‘tmaydi. Zero, o’quvchilarning nutqiy mahoratini oshirish uchun o‘qituvchidan tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratiga ega bo’lishlik talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyodlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O`zbekiston 2017.- 76b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelejagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O`zbekiston 2017.- 488b.

Мактабгача ёшдаги болаларда компентентликни ривожлантиришда халқ оғзаки ижоди намуналаридан фойдаланишнинг афзалликлари .

Андижон вилоят педагогларини янги методикаларга ўргатиш миллий маркази мактабгача, бошланғич ва махсус таълим кафедраси ўқитувчиси Гулнорахон Усмонова

Анотация: Ушбу мақолада мактабга тайёрлов гуруҳи 6-7 ёшли болалар компетентлигини ривожлантиришда халқ оғзаки ижоди намуналаридан

фойдаланишнинг афзалликлари табиий –илмий билимлар интеграциясига амал қилган ҳолда ташкил қилиниши ёритилган.турли нутқий вазиятларда ўз фикрини эркалама овутмачоқлар орқали билдириш боладаги компетентлини *ривожланишига олиб келиши ҳақида илмий фикрлар билдирилган.*

Калит сўзлар: интеграция, психологик ва ижтимоий жиҳат, компетентлик,лаёқат, лаёқатлилик, ижтимоий маданий мухит.

Мактабгача таълим жараёнида болалар нутқини ўстириш уларнинг ҳар томонлама ривожланиш кўрсаткичларига эга бўлишга ёрдам бериб, узлуксиз таълимнинг илк босқичларида таълим-тарбия жараёнининг табиий-илмий билимлар интеграциясига амал қилинган ҳолда ташкил қилинишига олиб келади. Бу эса болада атрофдаги воқеликка тўғри, яхлит қараш, мушоҳада қилиш, муносабат билдириш, турли нутқий вазиятларда ўз фикрини баён қилиш билан боғлиқ нутқий компетентликни шакллантиришга имкон беради. Зеро, мактабгача таълим тизимининг муҳим жиҳати ҳам шундаки, унда айнан мактабгача таълим жараёнининг қуйи босқичидан юқори босқичига қараб ўқитиш воситалари, ўқитиш усули ҳам, таълим олувчи ҳам босқичма-босқич такомиллашиб боради. Ўзбекистон Республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги қонунида айтилганидек: “Мактабгача ёшдаги болаларнинг соғлом, ҳар томонлама камол топиб шаклланиши, ўқишга интилиш ҳиссини ошириш, мунтазам таълим олишга тайёрлаш, узлуксиз таълимнинг кейинги бўғинларида ўқишни давом эттириши учун замин ҳозирлаш, қолаверса, мустақил фикрлаш ва ўз фикрини эркин баён этиш кўникмасини шакллантиришда мактабгача таълимнинг роли муҳим. Зеро, мактабгача бўлган ёш бола шахсининг жисмоний, психологик ва ижтимоий жиҳатдан шаклланишининг асосий давридир. Шунинг учун ривожланган мамлакатларда инсонни интеллектуал ва маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш, тафаккурини ўстириш, фикр маҳсулини эркин баён эта олиш қобилиятини ривожлантиришга эътибор боланинг илк ёшларидан бошлаб назоратга олинади. Айниқса боланинг нутқи унинг тафаккури билан бирга

тараққий эта боради. Бу жараён ўз вақтида тўғри ташкил этилса, унинг учун махсус шароит ва муҳит яратилса, боланинг ҳар томонлама ривожланишига замин ҳозирлайди. Шарқнинг буюк алломалари ҳам фарзанди комил тарбиясига жуда эрта ва мақсадли киришиш лозимлигини илгари сурганликлари манбаларда келтирилади. Шунингдек мактабга тайёрлов гуруҳи ёшидаги 6-7 ёшли болаларда компетентликни ривожланитиришда халқ педагогикасининг халқ оғзаки ижоди намуналаридан самарали фойдаланиш алохида ахамият касб этади.

Чунки ҳар бир миллатнинг ўз урф-одат, анъана, қадриятлари бўлиб, ўтмишдан дарак бериб турадиган, халқнинг ўзлигини англашга ёрдам берадиган халқ ижодиёти мероси мавжуд. Аксарият ҳолларда педагог олимлар бирор бир миллат ўзагини, келиб чиқиш этнографияси, қадим турмуш даражаси, ижтимоий шаклланиш босқичлари, умуман олганда таълимий тарбиявий жараёнларни ўзида намойиш этадиган восита сифатида айни шу халқ оғзаки ижоди намунасига мурожаат этиб ўрганадилар. Бу жараён силсиласидан ўзбек халқи ҳам четда қолмаган. Асрлар давомида аждодларимиз томонидан севиб куйланиб келинган, оғиздан-оғизга, авлоддан-авлодга, устоздан-шогирдга ўтиб келган ва барчамизнинг қон-қонимизга сингиб кетган халқ оғзаки ижоди намуналари шакллана бориб, санъат даражасига кўтарилган ва шу қаторда тарбияшуносликда, янги кўринишда бугунги кундаги мактабгача ёшдаги болаларни компетентлигини оширишда эркалатма –овутмачоқлар,айтим-олқиш қўшиқларидан фойдаланиш ўзига хос ўринга эга бўлди. Миллий тарбияшуносликда хал оғзаки ижодидан фойдаланиш азалдан одат тусига айланган. Хусусан, ўтмиши минг йиллик тарихга бориб тақалувчи ва даврлар ўзгариши натижасида юзага келган инсонлар дунёқараши, орзу –умидларини ўзида намоён этадиган халқ оғзаки ижодининг болаларбоп жанрлари оғзаки айтишув, маросимларда ижро этиладиган ашулаларнинг бари ўзбекнинг қадим ўтмишидан, менталитетидан хабар берувчи бебаҳо бойлик бўлиб ҳисобланади ва мактабгача ёш даврининг

мактабга тайёрлов даврида болаларда жасурлик, ўзига ишонч, қаҳрамонлик, ватанпарварлик, умуминсоний туйғулар каби юксак фазилатлар улуғланади. Айнан шу жараёнда халқ оғзаки ижоди намуналаринингболалар томонидан айтилиши, ўз ўрнида нафақат болаларнинг балки уларнинг ота-оналарининг руҳиятига ижобий таъсир кўрсатади.

Ёш авлодни маънавий тарбиясини мукаммал қилиш, уларнинг қалбида ватанга бўлган муҳаббат, меҳр-оқибат каби инсоний фазилатларни шакллантириш, ҳар томонлама етук қилиб тарбиялашда халқ оғзаки ижоди намуналарининг муҳим жихатлари: айтишувлар, эркалама –овутмачоқлар, мақол ва тез айтишларнинг ўрни беқиёсдир. Халқ оғзаки поэтак ижоди, санъатнинг бошқа (мусиқа, театр, рақс, тасвирий ва амалий) турларидан ўзига хос хусусиятлари билан ажралиб турадиган оғзаки сўз санъатидир. Ҳар бир халқнинг асрлар давомида акс эттирган бой оғзаки сўз санъати бўлганидек, ўзбек халқининг ҳам оғзаки сўз санъати оғзаки адабиёти мавжуд. Меҳнаткаш оммавий халқ томонидан оғзаки яратилиб, халқнинг талантли вакиллари ижросида сайқал топиб, авлоддан-авлодга ўтиб келаётган бадиий асарлар ўзбек халқ поэтак ижодини ташкил этади. Халқ оғзаки ижодига кирувчи терминлар: достонлар, мақоллар, эртаклар, термалар, топишмоқлар, латифа ва лофлар, афсона ва ривоятлар, лирик қўшиқлар, меҳнат қўшиқлари, мавсум-маросим қўшиқлари ва бошқалар халқ оғзаки ижоди намуналари ҳисобланади.

Кейинги йилларда узлуксиз таълим тизимининг барча бўғинларида “компетенция”, “компетенциявий ёндашув”, “компетенциявий таълим”, “компетентлик” каби тушунчалар фаол қўллана бошлади. Компетенцияга йўналтирилган таълим таълим олувчининг эгаллаган билим, кўникма ва малакаларини ўз шахсий, касбий, ижтимоий фаолиятида амалий қўллай олиш имкониятини ривожлантиришга асосланади.

“Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари”да эса: бола компетенцияси — маълум бир ёш даврига хос бўлган вазифаларни мақсадли бажариш учун

етарли бўлган боланинг билими, кўникмаси ва малакалари ҳамда қадриятлари” тарзида шарҳланади. Таърифлардан кўриниб турибдики, айнан таълим соҳасида компетенция“лаёқат”, компетентлик эса “лаёқатлилик” маъноларини англатиб, компетенциявий ёндашув — “эгалланган билим, кўникма ва малакаларни ўз шахсий, касбий ва ижтимоий фаолиятларида амалий қўллай олиш лаёқатларини шакллантиришга йўналтирилган таълим йўналиши”га нисбатан ишлатилади . Агар эътибор қилинса, санаб ўтилганларнинг деярли барчасида бола учун нутқ – мулоқот муҳим рол ўйнайди. Аслида ҳам инсон учун оламни англаш воситаси ҳам, мулоқот воситаси ҳам тилдир. Бола дунёга келиши билан маълум ижтимоий маданий муҳит таъсирида мулоқотга киришиш ва атрофдаги нарсалар, воқеа-ҳодисаларни англаш кўникмаси шакллана боради. Кўп ҳолларда бола номи луғатида бўлмаган тушунча, нарсаларни ўзи номлашга, бўшлиқни мустақил тўлдиришга уринади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Ўзбекистон Республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги қонуни. 2019 йил 16 декабрь, ЎРҚ-595-сон/ https://lex.uz/docs/4646908

2.Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талабларини тасдиқлаш ҳақида. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирининг 2018 йил 18 июндаги 1-МҲ-сон буйруғи. https://lex.uz/docs/3805404

3.Илк қадам. Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури. Тошкент — 2018 йил.

4.Юлдашева Д. М. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. Научный журнал. Москва, 1–2 февраля, 2013г., с.83–84.

5.Основные термины (генерируются автоматически): бола, дошкольное образов Станиславский К. С. Моя жизнь в искусств. — Москва: Искусство, 1965.

Мактабгача ёшдаги болаларда масъулият ҳиссини тарбиялаш орқали улардаги ижтимоий ҳиссий компетентликни ривожлантириш.

К.Усмонова- Избоскан туман мактабгача таълим ташкилоти директори

Анотация: Мақолада “масъулият” тушунчасининг ижтимоий-педагогик талқини, мактабгача ёшдаги болаларда масъулият ҳиссини тарбиялашнинг мазмуни ва ташкилий масалалари, оиланинг тарбияланувчиларда масъулият ҳиссини тарбиялашдаги имкониятлари ёритилган.

Калит сўзлар: Масъулият, масъулият ҳисси, шахс, оила, жавобгарлик, тарбиялаш,ўйин, ўқиш, меҳнат фаолияти.

Ўзбекистон Республикаси ижтимоий тараққиётини таъминловчи устувор йўналишларидан бири таълим соҳаси эканлиги барчамизга маълумдир. Устувор соҳа бўлган таълим тизимини тубдан янгилаш, уни мазмунан бойитиш, таълим тизимига илғор педагогик технологияларни тадбиқ этиш ва уни жаҳон таълими даражасига кўтариш мамлакатда олиб борилаётган таълимий ислоҳотларнинг асосий ғоялари саналади. Ўқувчиларда масъулият ҳиссини тарбиялашга бошланғич таълим давриданоқ эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқдир. Бинобарин, бу даврда ўқувчи хулқ-атворида ҳосил бўлган сифатлар узлуксиз таълим тизимининг кейинги босқичларида мустаҳкамланиб боради. “Масъулият” тушунчаси араб тилидан таржима қилинганда “жавобгарлик”, “ҳисоб бермоқлик” маъноларини англатиб, бирор иш, хатти-ҳаракат оқибати, натижаси учун жавобларликни англатади. Ўзбек тилида “масъулият” тушунчасининг муқобили сифатида “жавобгарлик” тушунчаси бевосита қўлланилади. Масалан, давлат жавобгарлиги, ҳуқуқий жавобгарлик, маъмурий жавобгарлик ва ҳоказо... «Тарбия» энциклопедиясида «масъулият» тушунчасининг ижтимоий-фалсафий, педагогик ва психологик моҳияти очиб беришга уринилган. Ишда дастлаб «масъулият» тушунчасига

таъриф берилган. Яъни, масъулият — хатти-ҳаракатлар ҳамда уларнинг оқибатлари натижаси учун бўлган жавобгарлик . Айни ўринда берилган таъриф юзасидан қуйидаги фикрни билдириб ўтиш лозим: оқибат ва натижа тушунчалари моҳиятан бир хил ҳодисани, яъни хатти-ҳаракат, воқеа-ҳодиса, жараён, вазиятларнинг якуний ҳолатини ифодалайди. Шу сабаби “оқибатларнинг натижаси” иборасини эмас, балки фақатгина “оқибат” тушунчасининг ўзини қўллаб, “оқибат учун жавобгарлик” дея талқин этиш кифоя эди. Келтирилган таъриф тўлиқ ҳолда қуйидагича ифодаланган бўларди: масъулият — хатти-ҳаракатлар ҳамда уларнинг оқибатлари учун жавобгарлик”. Манбада “масъулият” тушунчаси негизида акс этувчи шахс фаолияти, хатти-ҳаракатларининг ғоявий ва амалий жиҳатлари шундай ёритилган: масъулият ғоявий тарбия (бу ўринда “ижтимоий тарбия” ибораси қўлланилиши зарур эди) мезонларидан бири бўлиб, одам (шахс)нинг ҳар бир амалий фаолияти маҳсулини тўлиқ тасаввур қилган ҳолда унинг ўзи ва ўзгалар учун ним наф келтиришини англай олиш қобилиятидир. Масъулият бола ҳаётининг илк йилларидан тарбияланади. Ота-оналар болага топширилган ишни у қандай бажараётганига эътибор қиладилар (вақтида ва тўлиқ бажаряртими ёки йўқми), унга ёрдам берадилар, қилган ишлари учун жавоб беришга, ҳар бир ҳаракати қандайдир оқибатга олиб келиши тўғрисида фикрлашга, ўз хатти-ҳаракатини таҳлил қилишга ўргатадилар. Мактабгача ёш давридаги болаларда масъулият унинг ахлоқий тарбияланганлиги даражасини кўрсатувчи барқарор хусусиятга айланиши лозим. Ҳар қандай фаолиятни ташкил этишнинг асосий шартларидан бири болалар томонидан уни муваффақиятли амалга оширилишидир. Шу билан бирга бола топшириқни муддатида ва охиригача бажарганлигини кузатиб бориш, шунингдек, фаолиятини ўзи режалаштириш ва назорат қилишга ўргатиш керак. Болалар катталар ва дўстлари олдида ўз ишлари натижаси учун масъулият ҳиссини сезишга интилишлари зарур. Болаларда масъулиятни тарбиялашда ота-оналар нуфузи ва шахсий намунаси муҳим аҳамиятга эга. Оиланинг турмуш тарзи,

ундаги ахлоқий муҳит, ота ва она ўртасида ҳамда ота-она билан фарзандлар ўртасидаги ўзаро муносабатлар, болаларга мадад бериш, уларни ўз-ўзини назорат қилишга ўргатиш, болаларнинг уйда ва мактабгача тапълим ташкилотидаги ишларига қизиқиш масъулият тарбиясининг янада муваффақиятли бўлишига ёрдам беради” . Бизнинг назаримизда, масъулият муайян хатти-ҳаракат, касбий ёки ижтимоий фаолиятни бажариш, шунингдек, маълум гуруҳ ёки шу гуруҳ аъзолари олдидаги бурчини тўла англаш учун жавобгарликни ҳис этишдир. Шунга кўра масъулият турлича кўринишда намоён бўлади бўлади: – Маълум хатти-ҳаракатни амалга оширишдаги масъулият. – Муайян касбий фаолиятни бажариш бўйича шахс зиммасидаги масъулият. – Маълум гуруҳ ёки унинг аъзолари бўлган кишилар олдидаги масъулият – Жамият фуқаросининг ижтимоий фаолиятни амалга оширишдаги масъулияти Шундай қилиб, масъулият шахс томонидан муайян хатти-ҳаракат, касбий ёки ижтимоий фаолиятни ташкил этишда, шунингдек, маълум гуруҳ ёки шу гуруҳ аъзолари олдидаги бурчни тўла англаган ҳолда жавобгарликни ҳис этишдир. Шунингдек, масъулият шахснинг ўз-ўзини бошқариш шакли эмас, аксинча, унинг хатти-ҳаракатлари ҳамда атрофдагиларга нисбатан ёндашуви бўлиб, индивидуаллик ва ижтимоийлик хусусиятини касб этади. Масъулият ҳиссига эгалик шахс ҳаётини, хатти-ҳаракатларини муайян тартибда амалга оширилишини ҳам таъминлайди. Турли ёш даврларида шахс муайян фаолият жараёнида масъулият ҳиссига эгаликни намоён этади. Тарбияланувчиларининг масъулият ҳиссига эгаликлари ўзига хос хусусиятларни намоён қилади. “Болаларда таълим олишга масъулият ҳиссини тарбиялаш тарбиявий ишни уч босқичга бўлиб амалга оширишни тақозо этади ва жараён самарадорлигини таъминлайди: 1-босқич — болалар билан ўзаро яхши, мақбул ҳурмат муносабатларини ўрнатиш. 2-босқич — болалар билан ўқув фаолияти негизида мўътадил ишчанлик руҳидаги ўзаро муносабат ўрнатиш, болаларда ўқишга бўлган қизиқишни ривожлантиришни йўлга қўйиш. 3-босқич — болалар билан ўқув фаолиятида мустаҳкам ҳамкорлик

қилиш ва бу ҳамкорлик орқали аста-секин мустақил равишда ўқув вазифаларини бажариш, болаларга ўқишга бўлган масъулият ҳиссини машқ қилдириш йўлларини ўргатиш”.

Ўйин мактабгача ёшдаги болалар фаолиятининг муҳим таркибий қисмларидан бири ҳисобланади. Ўйинни ташкил қилиш ва унда иштирок этиш болаларда жамоа бўлиб ҳаракатланиш, жамоа олдида у ёки бу мажбуриятни бажариш, жамоанинг обрўси учун курашиш, гуруҳдошлари ёки тенгдошларига ёрдам бериш, вазиятни тўғри баҳолай билиш, муваффақият қозониш учун интилиш каби сифатларнинг тарбияланишида алоҳида аҳамиятга эга. Ўйинда иштирок этиш ихтиёрий характерга эга бўлганлиги учун кўп ҳолатларда иштирокчи масъулияти стихияли тарзда шаклланади ва у томонидан орттирилган ҳаётий тажриба, ҳосил бўлган маънавий-ахлоқий сифатлар элементлари, тасаввур, қарашлари, борлиқни англаш даражаси, шунингдек, психологик хусусиятлари негизида намоён бўлади. Тарбияланувчиларида «масъулият ҳиссий-шахсий хислат сифатида ибтидоий характерга эга. Бу ёшда ушбу хислат фақат шаклланади. Қатъий ишончга айланиб улгурмайди.... Таълим олишга бўлган масъулият ҳисси кўпроқ тақлидий характерга эга бўлади. Болаларда ўрганишга масъулият ҳиссининг намоён бўлиши, таълимнинг ижтимоий ва шахсий аҳамиятини тушуниб етган ҳолда эмас, балки ота-оналар ва тарбиячиларнинг талаблари ана шундай бўлганлиги учундир» Тарбияланувчиларда ўйин масъулияти бир қадар барқарорлашган бўлиб, унинг тобора мустаҳкамланиб бориши учун педагогик қаров тақозо этилади. Шу сабабли дидактик ҳамда тарбиявий характерга эга ўйинлардан фойдаланишда тарбиячи тарбияланувчиларнинг ўйин чоғида унга нисбатан масъулиятли ёндошаётганликларини назорат қилиб боришлари лозим. Бу ўринда тарбиячилар томонидан қуйидагилар эътибор бериш муҳим саналади: тарбиячиларнинг ўйинни бошлашдан аввал болаларга улар зиммасига юклатилган вазифаларнинг бажарилишига масъулият билан ёндошишлари муҳим эканлигини таъкидлаб кўрсатишлари. Имкон қадар ўйин

мақсади ва вазифаларининг тўла бажарилишига эришиш, иштирокчилар эътиборини ана шуларга қаратиш. Уларнинг якуний натижасига эришиш сари ҳаракат қилишга руҳлантириш, рағбатлантииш ҳам яхши натижалар беради. Ўйин фаолиятини ташкил этишда тарбияланувчиларининг масъулият ҳиссига эга бўлишлари уларда меҳнат, шу жумладан, билиш фаолиятига масъулиятли ёндошувни қарор топишига катта ёрдам беради. Шу сабабли тарбиячиларнинг ўйинни бошлашдан аввал тарбияланувчиларга улар зиммасига юклатилган вазифаларнинг бажарилишига масъулият билан ёндашишлари муҳим эканлигини таъкидлаб кўрсатишлари кўзланган мақсад сари қўйилган қадам саналади. Ташаббускорлик элементлари; Ўртоқлари билан ҳамкорлиги; Фаолият натижаларини олдиндан хис қила олишини ривожлантириш ташкил этади.

Адабиётлар:

1. Баратов Ш. Ўқувчи шахсини ўрганиш усуллари. — Т.: Ўқитувчи, 1995. — 53 б.

2. Иномова М. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. — Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 1999. — 152 б.

3. Олий таълим (луғат-маълумотнома) /Акад. С.Ғуломовнинг умумий таҳрири остида. Тузувчилар: М. Х. Саидов, Л. В. Перегуров, З. Т. Тоҳиров. — Тошкент: Молия, нашриёти, 2003. — 456 б.

4. Тарбия /Ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия. Тузувчи: М. Н. Аминов. Масъул муҳаррир: А.Мажидов. — Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010.- 528 б.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Иккинчи жилд. Е — М. — Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. — 671 б.

6. Ўқувчиларда ўқув фаолиятига масъулият ҳиссини тарбиялаш (Оилада ва синфдан ташқари вақтларда) //Тузувчилар: М. Ш. Алламуратова, Г.Жўрабоева. — Т.: ЎзПФИТИ, 1990. — 37 б.

7. Ўзбекистон энциклопедияси, 2009. Муродов М., Эгамов Х., Ашрафхўжаев Х. Халқ ижодиёти анъаналари ва маданий-маърифий муассасалар. — Тошкент: Фан, 1989. Муродов М., Эгамов Х.

8. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. — Тошкент: Ўқитувчи, 1990. Муродов М., Махмудова К. Ўзбек фольклор этнографик ансамбллари. — Тошкент:, 1989.

KICHIK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHNING METODIK ASOSLARI.

Xaydarova Ra'noxon
Marxamat tumani 3-MTT tarbiyachi

Bola nutqining taraqqiyotidagi kichik yosh davrning xarakterli belgisi shundan iboratki, bola aytib bera oladigan so‘zIar miqdori juda kam bo‘ladi. Chunki uning aktiv Iug‘ati juda sekinlik bilan boyib boradi. Bola kishilar nutqini tushunish qobiliyatining o'chishi yo‘Iidan boradi.

Bola o‘ziga qarata aytilgan so‘zIarni yaxshiroq tushunadigan bo‘Iadi, ya'ni uning passiv lug‘ati boyib boradi, lekin gapira olmaydi, boshqalarning so‘zIarini kuo'proq eshitadi va nutq materiallarini singdirib borib shu materiallardan keyinchalik o‘z nutqida foydalanadi. Madomiki, shunday ekan pedagog — tarbiyachining vazifasi bolalar idrok qiladigan nutq materiallarining mumkin qadar boy rang — barang va to‘g‘ri bo‘Iishga g‘amxo‘rlik qilishdir.

Nutqning o'sishidagi ikkinchi davr odatda bola bir yarim yoshga to‘lgandan keyin boshlanadi. Bu davr asosan aktiv Iug'atning tez o‘sishi bilan xarakterlanadi. Bola aytadigan so'zIarning miqdori birdaniga ortib ketadi. Bolaning katta odamlarnutqiga taqlid qilishi yangi so'zIarni bilib olishga juda muhim rol o‘ynaydi. SHuni aytish kerakki, bola dastlabki 5o zlarni ham taqlid qilib o‘rganadi. Lekin endigi taqlid xarakteri ke5kin o‘zgardi.

Ilgari bola ko‘p jihatdan ko‘r — ko‘rona, ya'ni ongsiz ravishda taqlid qilar edi. Endi bolaning taqlidi aktivroq hamda mustahkamroq bo‘la

boradi. Ilgari bolayangi so‘zni anchagina qiyinlik bilan o'zlashtirgan bo‘Isa, endi o‘z Iug‘atini osonlik bilan boyitib boradi. lkki yoshga to‘Iish oldidan bolaning nutqi ma'noIi bo‘Iib boradi. Ilgari bolaning so‘zlari asosan uning ehtiyojlarini ifodalagan bo‘lsa, endi nutqning nom berishi funksiyasi tobora kuchayib boradi. Narsalarning o‘z nomi borligiga bola tajribada ko‘rib ishonadi.

Bolaning o'ta sinchkovligi “bu nima?” “nomi nima?” degan savollarida yaqqol ko‘rinadi. Bundan tashqari bolaning miyasida narsa bilan uning nomi ya'ni so‘z o'rtasida yangi assotsiatsialar paydo bo‘Iadi. Birinchi va ikkinchi signallar sistemalarining o‘zaro bog‘Ianishalri tobora mustahkamlanib boradi bog'chaga tarbiya yoshida bola nutqining grammatik tomoni ancha o‘zgaradi. Dastlabki paytlarda narsalarning nomini bildiradigan otlar ko‘proq ishlatiladi.

Bog‘chagacha tarbiya yoshining oxirigacha borib tevarak atrofdagilarning nutqini tobora mukammalroq tushunadigan bo‘Iadi. Katta yoshli I‹ishiIarning aytib bergan hikoyalarini kichik she'rlarni, ashulla va ertaklarni jon—dili bilan tinglaydilar. Bola o‘ziga berilgan savollarni tushunib, ularga javob beradi. Bolaning o‘zi ham kattalrga tobora ko'proq savol beradigan bo‘Iadi.

Shunday qilib kattalarning ma'quIIashi, maqtashi, koyishi va taqiqlashiga to‘g‘ri munosabatda bo‘la boshlaydi. Bola bog'cha yoshiga etgach, so‘z boyligining ancha ortishi bilan birga ayrim jumlalarni grammatik jihatdan to‘g‘ri ishlata boshlaydi. Agar 2 yashar bolaning so‘z zapasi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo‘lsa, 7 yashar bolaning so‘z zapasi 4000 tadan SOOO tagacha bo‘Iadi, uch yashar bolaning so'z zapasi 1000 tadan 1200 tagacha bo‘Iadi.

Demak, bog'cha yoshidagi davrda bolaning so‘z zapasi juda tez ortadi . Bu yoshda bolaning nutqi faqat miqdor jihatdangina ortib bormay balki sifat jihatidan ham ancha takomillashadi. Masalan: yasli yoshidagi bolalar ancha so'z zonasiga ega bo'lishlarig qaramay, ayrim tovushlarni r, l, y,sh, z kabi yaxshi farqlay olmaydilar va shu tufayli so'zlarni noto'g'ri talaffuz etadilar. Bundan tashqari, bog'cha yoshidagi

bolalar o'z ona tillarining grammatik tuzilishini amaliy tarzda o'zlashtira boshlaydilar.

Bog'cha Yoshida bolalar nutqni faqat og'zaki nutqni juda tez egallaydilar. Shuning uchun ular o'z ona tillarining grammatik tuzilishini ham faqat og'zaki tarzda o'zlashtiradilar. Biroq Shuni aytib o'tish kerakki, bog'cha yoshidagi bolalarning o'z ona tillari grammatikasini ayrim tomonlarini o'zlashtirishlari maktab bolalarining o'zlashtirishlaridan batamom farq qilõg!.

Bog'cha yoshidagi bolalar grammatik qoidalarni o'qib o'rganib yodlarida saqlab qolmaydilar. Ular ot, fe'l, sifat, olmosh, suffiks, kelishik kabi grammatik kategoriyalarning borligini ham, nima ekanligini ham bilmaydilar. Shuning uchun ular grammatikaning juda ko'p qo'llaniladigan eng sodda qoidalarini kattalarning nutqlari orqali mazmunli o'yinlarda taqlidiy yo'llar bilan amaliy ravishda o'zlashtira boradilar.

Ma'lumki nutqning o'sishi jarayonida bolalar so'z turkumlaridan otlarni tez o'zlashtiradilar. Bunga asosiy sabab shundaki, bolalar narsalarning nomlarini otlarini o'z nutqlarida ko lproq ishlatadilar. Bog'cha yoshidagi bolalar so'z zapaslarining asosiy ko'pchiligi otlardan iborat ekanligi ajablanarli hol emas.o'r ta va katta yoshdagi bog'cha bolalari otlarni ko'plik, birlik, bo'lishli, bo'lishsiz shakllarida va turli kelishiklarda to'g'ri ishlata oladigan bo'ladilar.

Tarbiyachi — pedagog bolalar nutqining rivojlantirish bilan shug'ullanar ekan, bog'cha olmasliklarini unutmaslik kerak. Bundan tashqari bog'cha yoshidagi bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir biridan farq qilish qobiliyati xali to'la takomillashmagan bo'ladi. Shuning uchun bog'cha yoshidagi ba'zi bolalar ayrim nutq tovushlarini buzib talaffuz etadilar. Odatda bunday bolalarni tili chuchuk bolalar deb ham yuritiladi. Tili chuchuklik nuqson emas. Buni asta — sekin tuzatish mumkin. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri bola bilan to/la va to'g'ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.

Tarbiyachi buni ota — onaga ham tushuntirishi kerak. Chunki, odatda ayrim ota onalarga o'z bolalarini ortiq darajada erkalab, ular bilan bolalarcha, ya'ni bolaga

o'xshab tilini chuchuklantirib gaplashadilar. Tili chuchuk bolalarning "tili shirin" deb uning talaffuziga moslashishga harakat qiladilar. Bunday qilish aslo yo'l qo'yib bo'lmaydigan xatodir. Chunki, bolalar talaffuzidagi nuqson maktabga borgunlaricha to'g'rilanmasa, bu narsa bolalar nutqining umumiy o'sishiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Tili chuchuk bolalar nutqidagi bu nuqsonni tugatmay maktabga chaqirilsa, boshqa bolalar ularga "soqov" deb laqab qo'yadilar.

yoshidagi bolalar ba'zi hollarda o'z nutq apparatlarini to'la idora eta

Natijada bunday laqabni xadeb eshita bermaslik uchun bunday bolalar kam gapiradigan, o'zlarini chetga olib yuradigan bo'lib qoladilar. Bog [l]cha yoshidagi bolalarning nutqi yasli yoshidagi bolalar nutqiga nisbatan ancha taraqqiy etgan bo'lsa ham xali ularning gaplashishlariga qarab turib nihoyat darajada so'z etishmayotganini payqash oson. Kichik va o'rta yoshdagi bog'cha bolalarining jumlalarida "anaqa", tanu' nima' 'indin' "keyin" kabi' noaniq iboralar juda ham ko [l]p bo'ladi. Katta guruh bolalarida esa bunday iboralar kamroq uchraydi. SHuni ham e'tirofdan chetga qoldirmaslik kerakki, nutq faqat boshqa odamlar bilan amalga oshiriladiganaloqa vositasigina bo'lib qolmay, balki u bolalar uchun hulq — atvorlarini boshqarish vositasi hamdir.

Turli yoshdagi bog'cha bolalari o'z hulq — atvvorlarini, ya'ni ma'lum ijtimoiy sharoitda o'zlarini qanday tutishlarini tafakkur orqali o'ylab idora qiladilar. Bunda nutqning roli birinchi darajali ahamiyatga egadir. Odatda kichik yoshdagi bog'cha bolalarining nutqlari ikkinchi bir odamga emas, balki o'zlariga qaratilgan bo'ladi. Masalan: "Anvar uxlaydi", "Anvarning qorni ochdi” deb gapiradilar.

Bolalarning ana shunday o'zlariga qaratilgan nutqlarni egotsentrik nutq deb yuritiladi. Katta yoshli bog'cha bolalarida egotsentrik, ya'ni o'z — o'ziga qaratilgan nutq tugallanib normal holga keladi.

Shunday qilib asosiy aloqa vositasi bo [l] lgan nutq bola psixikasining taraqqiyotida benihoya katta rol o'ynaydi. Bog'chada va oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim — tarbiya va xususan, bog'chada ona tilidan o'tkaziladigan maxsus mashg'ulotlar tufayli bola nutqini normal o'stirish mumkin. Bola bog'cha yoshining

oxirgi bosqichiga kelganda og'zaki nutqning hamma turlaridan erkin foydalana oladigan bo'ladi. Bola nutqining bunday keyingi taraqqiyoti maktabda o'qish protsessida amalga oshiriladi.

III-SHO‘BA. PEDAGOGNING INNOVATSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Zamanoviy dars-zamonaviy o’qituvchi va unga qo‘yiladigan talablar

Abdihamidova Dilrabo Mahamadaliyevna-
Andijon tumani 29-IDUM

Annotatsiya; Ushbu maqolada zamonaviy o’qituvchi faoliyatiga qo’yiladigan talablar, zamonaviy dars usullari,metodikasi haqida ko’rsatmalar berilgan. Uslubiy tavsiyalar kasb- hunar maktablari, akademik litseylar, umum ta’lim maktablari o’qituvchilari uchun faoliyatida xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Fan asoslari,metod, zamonaviylik, milliy istiqlol interfaol, an’anaviy dars,

Mustaqil yurtimiz keng ma’lumotli, fan asoslaridan xabardor, milliy istiqlol ruhida tarbiya topgan, o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini ishlab chiqarishga tadbiq etishga qodir kishilarni talab qiladi. Ularni tarbiyalashda dars asosiy o‘rin tutadi. Unga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ilmiylikdir. Darslarda o‘rganiladigan bilimlar mazmunini o‘zbek tilshunosligining ilmiy yutuqlarini aks ettirishi, ta’lim jarayonining maqsaiga va bolalarning bilim saviyasiga mos bo‘lishi lozim. Ta’limda bularning birontasiga amal qilinmasa, darslarning mashg‘ulotlarining samaradorligi yaxshi bo‘lmaydi. Dars ijodiy jarayon bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy faolligiga bog‘liq. O‘quvchi topshiriqlarni ishlash sirlarini o‘rganish orqali, unda ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi. Bu esa o‘quvchida euristik layoqatni o‘stiradi. Darslarni ijodiy tashkil etish, vaqtdan ratsional foydalanish, mashg‘ulotlarni operativ o‘tkazish o‘qituvchidan yuksak mahoratni talab etadi. Dars sinf jamoasining mehnat jarayonidir. Bunda mustaqil ishlar asosiy o‘rin tutib, o‘quvchilarda tashabbuskorlik, o‘z kuchiga ishonch va dadillikni tarbiyalaydi.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o’qitishning zamonaviy metodlari keng qo’llanilmoqda. O’qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o’qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasi o’sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko’p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo’llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko’p bo’lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo’llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to’g’ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag’batlantirib turilishi, o’quv materialini kichik-kichik bo’laklarga bo’lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo’naltiruvchi matn, loyiha, rolli o’yinlar kabi metodlarni qo’llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Fan-texnika asri va jadal rivojlanayotgan ijtimoiy-siyosiy hayot o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘ymoqda.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o‘qituvchisi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmuni anglashiladi. Zamonaviy o‘qituvchi

qanday bo‘lishi zarur?

O‘qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunining 5-moddasi

3-bandiga muvofiq ta’lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy isloho tlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

3. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik

xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

6. O‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi shart.

O‘qituvchining sohaviy bilimi va kasbiy mahorati dars jarayonida namoyon bo‘ladi**.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv yili davomida sinflar va fanlar kesimida tashkil etiladigan ochiq darslar va o‘zaro kuzatuv darslari o‘qituvchi kasbiy mahoratini oshirib borish, o‘zaro tajriba almashish imkoniyatini yaratuvchi muhim jihatlardan biri nisoblanadi va bu jihat uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish mazmunining asosini tashkil etadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, metodik xizmatning pirovard natijasi o‘qituvchi faoliyati-yu, o‘quvchi bilim darajasida ko‘rinadi. Bu esa bevosita dars mashg‘ulotlari samaradorligi bilan bog‘liqdir. Mashg‘ulotlar samaradorligini oshiruvchi vositalardan biri – bu darslarni kuzatish va atroflicha tahlil asosida to‘g‘ri yo‘llanma berishdir.

Xulosa qilib aytganda , bu borada O‘zbekiston Respublikasisining Prezidenti Sh.Mirziyoyev quyidagilarni qayd etgan edi: «Tarbiyachi — ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql — idrokini o‘stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro sifatida etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak».

Foydalanilgan adabiyodlar:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O`zbekiston. 2017y
2. O`zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi T. 2017 yil

ZAMONAVIY O‘QITUVCHI, ZAMONAVIY DARS JAMIYAT TAYANCHI

Abdullayeva Sofiya Ne’matovna-
Asaka tumani 51 -umumiy o‘rta ta’lim maktab

Annotatsiya; Ushbu tezisda zamonaviy o’qituvchi, zamonaviy dars jamiyat tayanchi haqidaligi bayon qilingan .

Kalit so’zlar: mustaqil fikrlash, ilg‘or tajriba, pedagogik ishlar, zamonaviy texnologiyalar, AKT, interfaol ta’lim metodlari, didaktik materiallar,

Ulkan islohatlar jadallashib borayotgan jarayonlarda ta’lim tizimida ham boshqa sohalar kabi tezkor rivojlanish, axborot almashinishlar tez suratlarda o‘sishi kuzatilmoqda . Zero, yosh avlod ongini ham ko‘plab axborot oqimlari qamrab olgan . Bu sharoitda,albatta, ta’lim tarbiya tiziimda jiddiy o‘zgarishlar, ulkan islohatlar amalga oshirilayotgani maktab ta’limida yaqqol namoyon bo‘lmoqda . Ko‘rinib turibdiki, yosh avlodni mustaqil fikrlash , o‘zini va o‘zgalar

fikrini nazorat qilish , jamiyat taraqqiyoti bilan birga jadal qadam tashlashlari uchun bugungi kunda ona tili va adabiyot fanini o‘qitish o‘qituvchidan pam boshqa fan mutaxassislaridanda ko‘proq katta mahorat, yuksak salohiyat, chuqur bilim, ilg‘or tajriba, ulkan iste’dod talab qilinadi. Darsni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi hamda ona tili va adabiyot fani darslariga quyidagi talablar belgilangan.

Ta’lim-tarbiya tizimidagi dolzarb vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan o‘qituvchi shaxsiga bog‘liqdir. Ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadga erishish, o‘quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish,ularni bilimli, odobli,e’tiqodli, mehnatkash,ishbilarmon, barkamol inson qilib o‘stirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan.Xalqimizning kelajagi, O‘zbekistonning

istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchiga,uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq . O‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirishda O‘quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o‘quv materialini tanlash, uni analiz va sintez qila olish, ilmiy materiallarni qayta ishlab, o‘quv materialiga aylantira olish, ma’lum murakkab matnlarni va o‘quv materialini o‘zlashtira olish ko‘nikmasini shakllantirib borishi lozim. O‘qituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashi zarur. Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarf qilib, katta natijalarga erishadi, o‘z ishining natijasi bilan mo‘‘jizalar yaratadi, ijodkor bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat bo‘lishi mumkin. Pedagogik faktlar va ularning tahlili shundan dalolat beradiki, muallim o‘quvchilar bilan muomalada ma’lum axloqiy talablar, mezonlarga amal qilishi zarur.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.
2. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z

ustida tinimsiz izlanishi lozim.

3.O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohatlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri ,asosli ma’lumotlarni bera olishi kerak.

4.O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan olish imkoniyatiga ega

5.O‘qituvchi ijodkor,tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi shart.

6.O‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur,uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to‘g‘riligi;

b) nutqning aniqligi;

v)nutqning ifodaviyligi;

g)nutqning sofligi

d) nutqning ravonligi;

j)nutqning boyligi

7.O‘qituvchi kiyinish madaniyati

8.O‘qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o‘rnak bo‘la olishi shert. Shunda ko‘rinib turibdiki,ona tili va adabiyot o‘qituvchisi aql –idrokli, xotirasi mustahkamligi, notiqligi bilan o‘quvchilarni o‘ziga jalb qila oladigan, so‘zi bilan ortidan ergashtira oladigan , muloqot madaniyatiga ega bo‘lgan shaxsdir. U o‘zining odob ahloqi ,ibratli hayoti, kiyinish madaniyati , qalbining pokligi, yurish - turishi , hulq atvori, tashabbuskor va tadbirkorligi , nutqning jozibadorligi bilan boshqa fan o‘qituvchilaridan ajralib turadi.Zamonaviy texnologiyalar, AKT, interfaol ta’lim metodlari, didaktik materiallar, mul’tmedia va audio – vedio texnik ko‘rsatmalar bilan qurollangan o‘qituvchi darsning muqaddas ekanligini teranroq xis qiladi, o‘z vazifasini sidqidildan bajaradi.

Foydalanilgan adabiyodlar:

1. Abduqodirov A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida yangi axborot

texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta’lim jurnali, 2002. № 4, 60-73 betlar.
2. Abduraimova M. Ona tili ta’limida ilg‘or pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2005. 3-26 betlar.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992.
4. Azizxo‘jaeva N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faol ta’lim olishda “Keys- Stadi” ish shaklidan foydalanish.

Abdullayeva Surayyo
Marxamat tuman 2 MTT tarbiyachisi

Annotatsiya: *Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etishdagi muxim vazifalar ochib berilgan.Bundan tashqari ta’limiy faoliyatni tashkillashtirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sifat-samara,innovatsiya,texnologiya, “keys- stadi”,amaliy,ta’limiy.*

Xalq ta’limining boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirishda o‘ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarliklar bilan kutib olish vaqti keldi. CHunki maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirish umumiy xolatda keng ma’noli tushuncha bo‘lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta’lim muassasasi binosining xolati, shuningdek muassasani har bir jamoasi jumladan tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda tarbiyalanuvchilarning DTlari hamda “Ilk qadam” tayanch dasturi asosida bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirib borishda pedagogik-psixologik, metodik, bolalar, badiiy adabiyotlar soni va sifati, muassasani har bir yosh guruxini bolalar yoshiga mos va xos adabiyotlar bilan boyitib borish, tarbiyalanuvchilarning o‘ynab turib o‘ylashga undovchi muammoli vaziyatlarni o‘yinlarida aks ettiruvchi faollik markazlari tashkil etish va ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalb qilinishi va boshqa shu kabi omillarga bog‘liqdir.

Maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirishda, ta’limning sifat va samaradorligiga erishishda Davlat talablari “Ilk qadam” tayanch dasturi, mazkur dasturlar asosida yaratilgan metodik tavsiyalar, qo‘llanmalar asosida bolalarning kundalik faoliyatni mazmunli va qiziqarli tashkil etish, bo‘sh vaqtlardan unumli foydalanish, bolalarni qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab bolaga ijodiy yondashish, bolalar uchun o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar va manbalarni tarbiyalanuvchilar va jamiyat extiyojlariga javob beradigan xolatga keltirish maqsadida ratsional va tizimli taxlil qilishni ko‘zda tutadi.

Buning uchun innovatsion texnologiyalardan biri bo‘lgan **“keys- stadi”** texnologiyasidan maktabgacha ta’lim tizimida ham foydalanish tarbiyalanuvchini faol ta’lim olishiga undaydi. Bu usulni qo‘llash orqali tarbiyachi, bolani berilgan savolga to‘g‘ri javob berishga qaratadi.

Keys asosida o‘quv mashg‘ulotlarida tarbiyalanuvchilar faoliyatini turli shakllarda tashkil qilish imkoniyati mavjud. Masalan, taklif etilayotgan vaziyat saxnalashtirilishi hamda “Aqliy hujum”, baxs-munozara, muammoli vaziyatni yuzaga keltirish va uning yechimini izlash, turli musobaqa o‘yinlari orqali tarbiyalanuvchilarni fikrlashga, fikrini to‘liq nutqida ifodalashga o‘rgatish bilan birga, o‘zlarining ishtirokini ta’minlash, ularni qiziqtirish, ruxiy ko‘tarinkilik uyg‘otish imkoniga ega bo‘ladi. Keyslarning bir nechta turi bo‘lib, maktabgacha ta’lim tizimida amaliy va ta’limiy keyslardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki maktabgacha yoshdagi bolaning bolaligini o‘g‘irlamagan xolda faol ta’lim olishlari uchun amaliy keyslar orqali turli vaziyat yoki xodisa aks ettirilsa ya’ni tabaitni asrash, gullarni parvarishlash, qushlarni sevish, ularga don berish, suvni tejab ishlatish, uni iflos qilmaslik, ekologik muammolarni xal etishda, tabiatni sevish va asrashga o‘rgatish –bu real xodisa xisoblansa, ta’limiy keyslarda esa tarbiyalanuvchilarga ta’lim berish asosiy vazifasi bo‘lib, mashg‘ulot mavzusining dolzarbliligi, tanlangan matn mashg‘ulotning maqsadiga mos kelishi, mavzu asosidagi muammoni hal etish uchun axborotning yetarli bo‘lishi, muammoni

tarbiyalanuvchilar jamoasida muhokama qilish, ularni fikrlashga chorlash, ta’lim oluvchilarning emotsional xolatlarini boshqarishga aloxida axamiyat qaratiladi.

Keysni bajarish jarayonida tarbiyalanuvchilarda quyidagi ko‘nikmalar rivojlanadi:

1. Axborotni qabul qilish va qayta ishlash (matnni taxlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini o‘rnatish, muammolarni hal etish yo‘llarini o‘yin tarzida qidirish).
2. Kommunikativ(suhbat yuritish, boshqalarni ishontirish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, o‘rtoqlarini hulq-atvorini baholash, o‘zini nazorat qilish).
3. Refleksiv ko‘nikma(o‘zining va boshqalarning fikrini taxlil qilish).

Keys matni

Suvni iflos qilmaslik, uni tejab ishlatish, suv xaqida topishmoqlar, tez aytishlar, rivoyatlardan o‘z o‘rnida foydalanish orqali tarbiyalanuvchilarning ekologik muammolarni xal qilishlarida dastlabki ko‘nikmalar xosil qilinadi.

Mashg‘ulotdagi muammo

1. Ichimlik suvini kamayib borayotganligi
2. Suvlarning ifloslanishi

Muammoning yechimi

1. Ichimlik suvlarini extiyot qilish, oqib turgan kranlarni jo‘mragini burab, to‘xtatib qo‘yishda faollik ko‘rsatish.
2. Suvga tupurmaslik, turli po‘choqlar, axlatlarni suvga to‘kmaslik, ularni iflos qilmaslik kabilardir.

Mazkur ish shakli “Ilk qadam” dasturidagi mavzularni o‘rgatishda, ya’ni tabiat bilan tanishtirish, ekologik bilimlar berish va badiiy adabiyot mashg‘ulotlarini tashkil etishda ko‘proq qo‘l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. T.: 2018
2.“Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. T.: 2022.
3. M.N.A’zamova. M.Fayzullaeva. M.Rustamova. ”Tejamkorlik saboqlari” Toshkent- 2015.

4.O.Hasanboeva,H.Jabborova,Z.Nodirova”Tabiat bilan tanishtirish metodikasi”T-2006.

PEDAGOGLIK KASBINING IJTIMOIY AHAMIYATI

Abduvaliyeva Saodatxon Kosimovna
Qo‘rg‘ontepa tuman Qorasuv shahar 51-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Pedagoglik kasbi – bu o‘qituvchi-tarbiyachining shunday shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o‘z o‘quv fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida, o‘quvchi-yoshlarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topib, amaliy faoliyatga qo‘llashida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, pedagoglik kasbi, pedagogik jarayon, pedagogik mahorat.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta’limga qaratilayotgan e’tibor barcha pedagoglarning o‘z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o‘quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ta’lim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qo‘shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o‘z navbatida ta’lim muassasasi pedagoglar oldiga yanada yangi vazifalar qo‘yadi.

Ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining aksariyati pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o‘qituvchining asosiy vazifalari ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va nazorat qilish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarga o‘rganilishi rejalashtirilgan mavzu bo‘yicha zaruriy axborotlarni yetkazib berishdan iborat deb hisoblaydilar.

Bizning fikrimizcha, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonida pedagoglar tomonidan o‘ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

o‘quv dasturida o‘rganilishi rejalashtirilgan mavzuga mos ravishda ta’lim jarayonining ta’lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilash;

maqsadga muvofiq ko‘zlangan natijalarga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo‘nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini va qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarni tanlash;

vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilarning imkoniyatlarini oldindan aniqlashtirish va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni oldindan bashorat qilish asosida bajariladigan vazifalarni imkoniyatlarga ko‘ra taqsimlashni rejalashtirish; ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash;

pedagogik jarayonda o‘quvchilarning subyektivligini ta’minlash va faolligini oshiruvchi texnologiyalarni tatbiq etish jarayonlarini loyihalashtirish; pedagogik jarayonda foydalaniladigan didaktik vositalarni tanlash va oldindan tayyorlash; pedagogik jarayonlarda ilg‘or pedagogik tajribalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilish;

pedagogik jarayonlarning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlovchi chora-tadbirlarni belgilash; ta’lim muassasalari, oila va mahallaning o‘zaro aloqasini ta’minlash;

DTS va davlat talablarini amaliyotda qo‘llash va uning monitoringini olib borish; o‘quvchilar o‘rtasida anketa so‘rovlari va suhbat o‘tkazish asosida axborotlar to‘plash va tahlil qilish; o‘quvchilar faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo‘nalishida belgilangan vazifalarni qayta ko‘rib chiqish, yangilash;

DTS va DT asosida mustaqil ta’lim jarayonlarini tashkil etish; o‘quvchilarning mustaqil ta’lim jarayoni natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag‘batlantirish asosida innovattsion faoliyatni tashkil etish; o‘quvchilarning o‘quv, mehnat va o‘yin faoliyatlarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

Demak, ta’lim muassasalari pedagoglarining o‘z funksional vazifalarini amalga oshirish jarayoni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga yo‘naltirilgan vazifalarni amalga oshirish jarayoni bo‘lib, pedagogik jarayonlarda ko‘zlangan natijalarga erishish uchun belgilangan maqsadlar yo‘nalishidagi subyekt

(o‘qituvchi-o‘quvchi)lar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, pedagogik jarayonlarda bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatish orqali subyektlarning faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Pedagogning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi turli faoliyatlari davomida zaruriy pedagogik ko‘nikmalarining shakllanishi, kasbiy qobiliyatini namoyon etish jarayonida esa uning uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan intellektual qobiliyat, tasavvur va tushunchalari, tafakkuri rivojlanadi va ma’naviyati oshadi.

Ma’lumki, inson har doim o‘sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta’sir etuvchi omillarnig ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoalari to‘g‘ri tushunishlari lozim. Har bir pedagog, o‘z pedagogik faoliyatini turli xil sharoitlarda va jamoalarda insonlar ta’sirida amalga oshiradi.

Pedagogik mahorat fanining maqsad va vazifalarini to‘la amalga oshirish uchun, avvalo, pedagogik mahorat tushunchasining mohiyat-mazmunini bilish, uning barcha komponentlari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lib, ularning birligi, izchilligini ta’minlash lozim. Chunki ularning birini o‘zgarishi, tabiiy holda ikkinchisining o‘zgarishiga olib keladi. Natijada pedagogik mahorat to‘laqonli mazmunga ega bo‘lmay, uni egallash qiyin bo‘lib qolishi mumkin.

Pedagogik mahorat – bu o‘qituvchi-tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, xayrihohligi, insonparvarligi, mehribonligi, samimiyliligi, nazokati va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o‘z o‘quv fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida, o‘quvchi-yoshlarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo‘llarini izlab topib, amaliy faoliyatga qo‘llashida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo‘lish uchun o‘qituvchi o‘z o‘quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini mukammal o‘zlashtirishi hamda insoniylik, mehnatsevarlik va fidoyilik kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni o‘zida tarkib toptirishi lozim.

Shuni alohida qayd qilib o‘tmoq zarurki, pedagoglik kasbi murakkab va ma’suliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo‘lgan inson bilan muloqotda bo‘ladi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo‘ladi. Shuning uchun, o‘quvchi bilan doimo muloqotda bo‘lganda, unga ta’sir ko‘rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o‘rganib, o‘z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Pedagogik mahorat – pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jarayon esa kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yib, bo‘lajak mutaxassisni mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shuning uchun, pedagog shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo‘lishi lozim. Pedagogning shaxsiy fazilatlari sirasiga iymon – e’tiqodi, dunyoqarashi, ijtimoiy ehtiyoj va faolligi, odob – axloqi, fuqarolik burchlarini his qilishi, ma’naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat’iyligi va maqsadga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi va h.k.lar kiradi. Bular o‘qituvchiga kasbiy xususiyatlarni o‘zida tarbiyalab borishga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya.– T.: OPI, 2003.

2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.

3. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009

Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar interfaol metodlarning qo‘llanilishi

Axmedova Vasila Azamjonovna-
Marhamat tumani
22-umumiy o’rta ta’lim maktabi

Annotatsiya; Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar interfaol metodlarning qo‘llanilishi bo’yicha uslubiy tavsiyalar berilgan

Kalit so’zlar: zamonaviy texnologiya, interfaol metodlar, grammatik va leksik xususiyatlar

Kun sayin har sohada shiddat bilan rivojlanib borayotgan farovon yurtimizning kelajagi bo‘lgan farzandlarimizga Ona, Vatan, Tinchlik , Mustaqillik, Non, Odob, insoniy fazilatlar kabi so‘zlarda qanchadan – qancha ma’no mujassam ekanligini tushuntirishdan tashqari, ularning yozilishi, grammatik va leksik xususiyatlarini anglatish, shu bilan birga o‘quvchilarda vatanparvarlik, halqchillik , mehnatsevarlik, birodarlik, ota–onaga, yaqinlarga mehr-oqibatlilikka beva boshqa ko‘plab insoniy olijanob fazilatlarni singdirishda ona tili va adabiyot predmetining o‘qitilishi muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy hayotda muhim bo‘lgan mazkur fan o‘qituvchisiga bugungi –har tomonlama mukammallikka intilayotgan yosh avlod ongiga ona tili va adabiyotini singdirish hamda mukammal o‘rgatish , yuqori natijalarga erishish oson kechmaydi. Zero, buning uchun o‘qituvchi zamon bilan ham nafas bo‘lmog‘i, har bir darsga mukammal holda tayyorgarlik ko‘rmog‘i,o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari, interfaol usullari, shakl va vositalaridan foydalanishi zarur shartlardan biridir.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi. Kun sayin har sohada shiddat bilan rivojlanib borayotgan farovon yurtimizning kelajagi bo‘lgan farzandlarimizga Ona, Vatan, Tinchlik , Mustaqillik, Non, Odob, insoniy fazilatlar kabi so‘zlarda qanchadan – qancha ma’no mujassam ekanligini tushuntirishdan tashqari, ularning yozilishi, grammatik va leksik xususiyatlarini anglatish, shu bilan birga o‘quvchilarda vatanparvarlik, halqchillik , mehnatsevarlik, birodarlik, ota–onaga, yaqinlarga mehr –oqibatlilik kabi va boshqa ko‘plab insoniy olijanob fazilatlarni singdirishda ona tili va adabiyot predmetining o‘qitilishi muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy hayotda muhim bo‘lgan mazkur fan o‘qituvchisiga bugungi –har tomonlama mukammallikka

intilayotgan yosh avlod ongiga ona tili va adabiyotini singdirish hamda mukammal o‘rgatish , yuqori natijalarga erishish oson kechmaydi. Zero,buning uchun o‘qituvchi zamon bilan ham nafas bo‘lmog‘i, har bir darsga mukammal holda tayyorgarlik ko‘rmog‘i, o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari, interfaol usullari, shakl va vositalaridan foydalanishi zarur shartlardan biridir. Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda**“Bumerang”, “Aqliy hujum”,“FSMU”, “Venn” diagrammasi, “Baliqskleti”, “Elpig‘ich”, “Zanjir”,“Zinama-zina”, “Galereya”, “6x6x6”**kabi zamonaviy texnologiyalar va**“Kichik guruhlarda ishlash”, “Rollio‘yin”, “Ish bilarmonlik o‘yini”, “Refleksiya”, “Taqdimot”**kabi interfaol usullarning qo‘llanilishi yangi mavzuni o‘zlashtirish, olingan bilimlarni mustahkamlash, o‘tilganlarni takrorlash, bilimlarni o‘zlashtirishda amaliy yordam beradi. Shu ma’noda **“FSMU”TEXNOLOGIYASI**–munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda yoki mashg‘ulot yakunida yoki o‘quv rejasi asosida biror bo‘lim o‘rganib bo‘lingach, qo‘llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o‘quvchilarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkinfikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga va bahslashish madaniyatini o‘zida shakllantirishga o‘rgatadi.

Hozirgi zamon ta’limining asosiy maqsadlarilan biri o‘quvchining ta’limiy, tarbiyaviy, ma’naviy, ruhiy va jismoniy rivojlantirish hamda tez o‘zgaruvchan dunyoda hayotga moslashuvini ta’minlashdan iborat. Shunday ekan, zamonaviy o‘qituvchi qaysi fan mutaxassisi bo‘lishidan qat’iy nazar, ta’limning zamonaviy yondashuvlari bilan hamqadam bo‘lmog‘i darkor.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarga mavzuni singdirishda “Ming marta eshitgandan, bir marta ko‘rmoq afzaldir” degan naqlga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Zero, o‘qitishning zamonaviy texnologiya va interfaol metodlari ham

eshitish, ham ko‘rish hamda amalda qo‘llash imkonini beradi. YA’ni o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka, layoqat, tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Maqsad: ushbu texnologiya o‘quvchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib,tasdiqlovchi dalillar yoki inkoretuvchi fikrlarini bayon etishga yordam beradi.

FSMU texnologiyasi:

F-fikringizni bayon eting.

S-fikringizni bayoniga sababni ayting.

M-misol(dalil)keltiring.

U-fikringizni umumlashtiring kabi so‘zlardan tashkil topgan

10-sinflarda “Rustamxon” dostonini FSMU texnologiyasi asosida o‘rgatishda har bir bosqichda bir necha usullarni qo‘llash mumkin. Masalan, “Kichik guruhlarda ishlash” orqali fikrlarni jamlash, “Rolli o‘yin”lar orqali misollar keltirish, “Bahs-munozara” usuli bilan mavzu mazmunini to‘laqonli o‘zlashtirish amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi.

“Zinama zina” texnologiyasi orqali Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasini o‘rgatishda o‘quvchilarni rangli kartochkalar yordamida teng sonli kichik guruhlarga ajratiladi . Ularga sardorlar saylanadi va o‘qituvchi asar yuzasidan savollar to‘plamini beradi. Har bir guruh oltita o‘quvchidan tashkil topgan bo‘lsa, har bir o‘quvchi guruh sardorlari tarqatgan savollarga javob berishlari lozim bo‘ladi. To‘g‘ri javob uchun bir balldan to‘plab, besh ball yiqqan o‘quvchilar qaytadan guruhlanadi. Eng birinchi zinaga chiqqan o‘quvchilar o‘z topshiriqlarini ko‘rgazmali qurollar orqali namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyodlar:

1. Qosimova K., Matchonov S., G’ulomova X., Yo’ldoshova Sh., Sariyev Sh. Ona tili o’qitish metodikasi. –Toshkent, Noshir nashriyoti, 2009.
2. O’zbek bolalar adabyoti antologiyasi. I-II-jildlar. To’plovchi Safo Matjon. – Toshkent, Cho’lpon, 2006, 480-bet.
3.Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, O’qituvchi, 2005,272-bet.
4.Ziyomuhammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya: Zamonaviy o’zbek milliy modeli. – Toshkent, Lider-Prees nashriyoti,2009, 104-bet

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО МАРШРУТА БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Иминова Мухайё Асланбековна –
старший преподаватель кафедры методики дошкольного, начального и специального образования национального центра обучения педагогов новым методикам.

Аннотация: *в статье подведены итоги анализа деятельности выдающихся отечественных и зарубежных учёных по проектированию и внедрению в образовательный процесс индивидуальных образовательных маршрутов. Рассмотрены системный, аксиологический, личностно-ориентированный и компетентностный подходы как методологическая основа проектирования индивидуального образовательного маршрута будущего педагога начального образования.*

Ключевые слова*: проектирования, индивидуальный образовательный маршрут, системный подход, аксиологический подход, личностно-ориентированный подход, компетентностный подход.*

Развитие образования во всем мире идет по пути предоставления образовательных услуг непосредственно каждому индивидууму, учитывая его возможности, предпочтения и способности. Проблема индивидуализации обучения становится важной как для обучающихся, так и для педагогов, администрации, работодателей, всех участников образовательного процесса. Только при решении этой проблемы в высшем учебном заведении, существует возможность создавать условия для реализации в учебном процессе потенциальных возможностей каждого обучающегося.

Исследование проблемы индивидуализации обучения в учебных заведениях разного типа и уровня продолжаются давно. Но вопрос внедрения индивидуальных образовательных маршрутов остается, по нашему мнению, недостаточно раскрытым.

Предпосылками для разработки теоретических основ индивидуального образовательного маршрута являются:

– философские и психологические работы по проблеме индивидуальности (Б.Г. Ананьев, Г.С. Абрамова, А.Г. Асмолов, В.С. Мерлин, И.И. Резвицкий, А. Адлер, Ю. Хабермас);

– психолого-педагогические исследования проблемы проявления индивидуальности в образовании (Е.И. Исаев, В.И. Слободчиков, Е.С. Рабунский, И.Э. Унт).

В связи с этим, целью данной работы является рассмотрение основополагающих методологических подходов проектирования индивидуального образовательного маршрута будущего педагога начального образования.

Проблема создания индивидуальных образовательных маршрутов рассматривается в различных психолого -педагогических исследованиях (С.В. Воробьёва, А.Б. Воронцова, Е.И. Казакова, И.Е. Каньковского, Т.М. Ковалевой, Н.А. Лабунская, В.В.Лоренц, Н.Рыбалкина, А.В.Савицкая, А.П. Тряпицына, А.Н.Тубельский, А.В.Хуторской, Н.В.Чекалева). В них изложены различные подходы к трактовке данного понятия с позиций:

проблемно-рефлексивного подхода; деятельностного подхода; технологии педагогического сопровождения; психолого-дидактического подхода.

С точки зрения выбора жизненной позиции, мировоззрения, стиля и стратегии жизни индивидуальные образовательные маршруты рассматривались ведущими отечественными и зарубежными учёными: К.А. Абульханова-Славская, Р.А. Зобов, В.Н. Келасьев, А.А. Кроник, Э. Фромм.

Весомым стал вопрос индивидуализации практической подготовки будущего учителя, решение которого нашло своё отражение в психолого-педагогических исследованиях В.А. Кан-Калика, Н.В. Кузьминой, Е.Н. Пехоты, В.А. Сластенина.

Проанализировав деятельность учёных и педагогов по изучению проектирования и внедрения в образовательный процесс индивидуальных

образовательных маршрутов приходим к выводу, что создание технологии проектирования индивидуальных образовательных маршрутов требует изучения основополагающих методологических подходов, таких как: системный, аксиологический, личностно-ориентированный и компетентностный.

Конкретизируем особенности каждого методологического подхода.

Системный подход является основным методом в отрасли педагогических знаний — методологии педагогики. Появление и широкое теоретическое, практическое внедрение системного подхода обусловлено тем, что он является отображением и инструментом изменений, которые происходят в процессе осознания человечеством окружающего мира. Системный подход выступает как средство формирования целостного мировоззрения, в котором человек чувствует неразрывную связь с окружающим.

Системный подход в педагогике направлен на раскрытие целостности педагогических объектов, выявление и обоснование в них разнообразных связей, обобщение их в единую теорию. В нашем исследовании особое значение имеет положение, согласно которому педагогические объекты могут состоять или образовываться из самостоятельных элементов, которые можно рассматривать как самостоятельные системы или подсистемы в структуре большей системы [1].

Аксиологический подход в современных условиях является одним из методологических принципов профессиональной подготовки будущих педагогов.

Обращение к философской теории ценностей в педагогических исследованиях позволяет рассматривать содержание и структуру педагогического образования как сферу субъект-объектных и субъект-субъектных отношений, где учебная информация, преподаватели и

обучающиеся объединены в единое органичное целое, основанное на ценностном отношении к действительности.

Аксиологический подход – это своеобразная философско-педагогическая стратегия, которая основывается на идеи приоритета общечеловеческих ценностей и самоценности каждой личности и определяет перспективы дальнейшего совершенствования системы образования и оптимального использования педагогических ресурсов в соответствии с требованиями современного общества. В свою очередь, реализация аксиологического подхода в педагогическом процессе высшего образовательного учреждения предусматривает чёткое определение ценностей как основы его реализации [2].

Образовательный процесс является субъективным, а профессиональная деятельность совершается субъектами, поэтому личностные качества выступают важными аспектами в формировании будущего специалиста. Это касается и определённых личностных качеств будущих учителей начальных классов. В связи с этим является актуальным использование в экспериментальной работе личностно-ориентированного подхода (Б.Г. Ананьев, Ю.В. Васьков, А.В. Глузман, В.В. Сериков, К.С. Якиманская) в пределах реализации гуманистической парадигмы, предполагающей развитие личностных и профессионально значимых качеств будущего педагога начального образования.

Содержание личностно-ориентированного образования направлено на помощь студентам в становлении собственной личности, определении личностной позиции в жизни: выбрать значимые для себя ценности, овладеть определённой системой знаний, определить круг научных, жизненных проблем, овладеть способами их решения, раскрыть рефлексивный мир собственного «Я» и научится управлять им.

Критериями эффективности организации личностно-ориентированного обучения выступают параметры личностного развития.

Обобщая вышесказанное, можно дать такое определение личностно-ориентированному обучению: это личный тип обучения, согласно которому студент становится главной действенной фигурой всего образовательного процесса, его самобытность. самоценность, субъективный опыт сначала раскрываются, а потом согласовываются с содержанием образования [3].

Компетентностный подход в высшем образовании на современном этапе заключается в рассмотрении совокупности компетенций, описывающих особенности деятельности, общения, поведения человека в области социального взаимодействия и в профессиональной деятельности, что отмечено в ГОС ВО в виде требований к результатам освоения образовательных программ. Целевым ориентиром современного профессионального образования является формирование компетентной, конкурентоспособной личности, направленной на прогрессивное развитие, самореализацию, «образование в течение всей жизни», достижение успеха в профессиональной деятельности, личности, стремящейся строить карьеру.

Компетентностный подход рассматривается, как усиливающий практико-ориентированность подготовки студентов в профессиональном образовании (А.А. Вербицкий, Н.А. Глузман, Э.Ф. Зеер, И.А. Зимняя, А.В. Хуторской).

Опора на системный, аксиологический, личностно-ориентированный и компетентностный подходы обеспечит эффективность проектировании индивидуальных образовательных маршрутов будущих педагогов начального образования. Современные условия развития общества требуют нового видения задач, структуры и содержания высшего образования, непременно вносят коррективы в подготовку будущего учителя начальных классов. Содержание современного образования проявляется направлено на формирование профессионального компетентного специалиста, на максимальное раскрытие творческого потенциала каждой личности в современной социокультурной ситуации.

Список литературы

1. Юдин Э.Г. Системный подход и принцип деятельности. Методологические проблемы современной науки / Э.Г. Юдин. М.: Наука, 1980. С. 268.

2. Асташова Н.А. Концептуальные основы педагогической аксиологии /Н.А. Асташова // Педагогика. 2002. № 8. С. 13.

3. Васьков Ю.В. Личностно-ориентированное обучение - новая образовательная парадигма / Ю.В. Васьков // Современные педагогические технологии: учебно-методическое пособие. Ч. 1. Нежин: 2006. С. 63-64.

BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI VA UNING RAHBARLIK MAHORATI.

Karimova Feruzaxon Abdumo'minovna
Shaxrixon tumani 32-umumiy o'rta ta'lim maktabi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi

"Bizning asosiy maqdamiz- yoshlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish, ularning o'z qobilyati va istedodini ro'yobga chiqarishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat".

Sh.M.Mirziyoyev.

Annotatsiya. *Bu maqolada boshlang'ich ta'limning samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik mahorati muhim ahamiyat kasb etishi, shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang'ich ta'limni tashkil etishni nazarda tutgan holda o'qituvchining shaxsiy sifatlari, kasb mahorati hamda bilim darajasini tashxislash asoslari ishlab chiqilishi zarurligi, tashxislash natijalari asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ular malakasini uzluksiz oshirish mazmuni va texnologiyalari takomillashtirlishi lozimligi haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar. *Samaradorli, o'qituvchining shaxsiy sifatlari, pedagogik mahurat, zamonaviy ta'lim,o'quv-tarbiya jarayoni boshqaruvchisi,shaxsga yo'naltirilgan, kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan,tashxislash, uzluksiz ta'lim.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос о важности личностных качеств и педагогического мастерства учителя в обеспечении*

эффективности начального образования, необходимости разработки основ диагностики личностных качеств учителя, профессионального мастерства и уровня знаний, предусматривающих организацию начального образова ,,,ния на основе личностно-ориентированного и компетентностного подхода, подготовки, переподготовки учителей начальных классов на основе результатов диагностики, повышения их квалификации, повышения квалификации, повышения квалификации, повышения квалификации, повышения квалификации и непрерывное увеличение содержание и технологии должны быть улучшены.

Ключевые слова. *Эффективное, личностные качества педагога, педагогическая компетентность,современное образование,руководитель учебно-воспитательного процесса, личностно-ориентированное,основанное на компетентностном подходе, диагностическое, непрерывное образование.*

Boshlang’ich ta’limning samaradorligini ta’minlashda o’qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang’ich sinf o’qituvchisi barcha pedagogik-psixologik vositalarni qo’llagan holda, o’quvchilarda yaxlit tarzdagi o’quv faoliyatini shakllantira olishi va rahbarlikni amalga oshirishi kerak.

Zamonaviy ta’lim nazariyasida o’qituvchining mavqei o’quv-tarbiya jarayonining boshqaruvchisi sifatida tavsiflangan. Demak, o’qituvchi, shu jumladan, boshlang’ich sinf o’qituvchisi peadgogik jarayonni to’g’ri boshqara bilishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetentsiyaga ega bo’lishi lozim. O’qituvchi ko’p jihatdan o’quvchi uchun o’rnakdir. SHuning uchun ham, u birinchi navbatda, ularni o’ziga jalb eta olishi kerak.

Shaxsga yo’naltirilgan hamda kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang’ich ta’limni tashkil etishni nazarda tutgan holda o’qituvchining shaxsiy sifatlari, kasb mahorati hamda bilim darajasini tashxislash asoslari ishlab chiqilishi zarur. Tashxislash natijalari asosida boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ular malakasini uzluksiz oshirish mazmuni va texnologiyalari takomillashtirlishi lozim.

O’qituvchining kasbiy madaniyati va yetukligini ko’rsatuvchi muhim omillardan biri uning kiyimi hisoblanadi. Pedagog kiyimining to’g’ri

tanlanishi o’quvchilarda yoqimli tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi. CHunki o’qituvchining kostyumi uning kasbiy yetukligi va shaxsiy sifatlari: tartibliligi, shaylanganligi, jiddiyligi, ozodaligi, tarbiyalanganligi, madaniyatliligini ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa uning kasbiy faoliyatini amalga oshirishda qulaylik tug’diradi. SHuning uchun ham o’qituvchilarning kiyinish qoidalariga qat’iy rioya qilishlarini ta’minlash lozim.

Zamonaviy o’qituvchining imiji uning kasbiy muvaffaqiyatlarini ta’minlashda muhim o’rin egallaydi. O’qituvchining imiji uning xatti-harakatlari, tashqi qiyofasi, odatlari, gapirish maromi, mentaliteti asosida o’quvchilar, kasbdoshlari, umuman atrofdagilarning hosil qilgan tasavvurlari demakdir. Boshlang’ich sinf o’qituvchisining tashqi qiyofasida quyidagilar yaqqol namoyon bo’lishi kerak: o’quvchilarni sevishi, o’z ishiga qiziqishi, o’z sezgilariga asoslangan holda ongli tarzda kasbiy faoliyat modellarini tanlay olishi, o’quvchilarning ehtiyojlarini bilishi, mazkur ehtiyojlarni munosib baholay olishi, o’z o’quvchilari va atrofdagilar bilan samarali aloqa va hamkorlik o’rnata olishi, ular bilan do’stona munosabatda bo’lishi, zarur vaziyatlarda o’quvchilarni qo’llab-quvvatlashi, o’quvchilar bilan dialog va muloqotga kirishish yo’llarini yaxshi bilishi, o’ziga ishonishi va faoliyati natijalarini yuqori darajada baholay olishi, o’quvchilarga va atrofdagilarga mehribon bo’lishi, ularni qadrlay olishi, ijtimoiy-shaxsiy mas’uliyatga ega bo’lishi lozim.

Hozirgi davr boshlang’ich sinf o’qituvchisi pedagogik jarayonni to’g’ri boshqara olishi uchun chuqur bilimva kasbiy kompetentsiyagaegabo’lishi lozim. U O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni mamlakatimiz ta’lim tizimida, xususan, boshlang’ich ta’limda olib borilayotgan keng qamrovli ijobiy o’zgarishlar haqida batafsil ma’lumotlarga ega bo’lishi lozim.

Bugungi kunga kelib, an’anaviy o’qitish o’rnini shaxsga yo’naltirilgan yondashuvlar egallamoqda . SHu nuqtai nazardan, o’quvchilarning egallagan bilim, ko’nikma va malakalarini muntazam nazorat qilib borish, o’quvchilarning olayotgan bilimlaridagi bo’shliqlarni o’z vaqtida to’ldirib borish, iqtidorli

o’quvchilardagi intellektual potentsialning muntazam rivojlanishiga shart-sharoit yaratish, kattalar bilan hamkorlikda faoliyat ko’rsatishga qiziqtirish, ularning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va tajribalarni boyitish, sinfdan tashqari pedagogik tadbirlar rejasini ishlab chiqish, o’quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan hamda pedagogika fanining ilg’or yutuqlaridan muntazam foydalanish ya’ni ta’lim jarayoniga axborot-kommunakatsiya texnologiya elementlarini olib kirish, ulardan samarali foydalanish boshlang’ich sinf o’qituvchilaridan o’ziga xos ish usulini talab qiladi. Bunga javoban boshlang’ich sinf o’qituvchilari o’z utida tinmay ishlashlari va izlanishlari lozim bo’ladi..

Zamonaviy o’qituvchining imidji uning kasbiy muvaffaqiyatlarini belgilaydi. O’qituvchining imidji – uning hatti-harakatlari, tashqi qiyofasi, odatlari, gapirish maromi, mentaliteti asosida o’quvchilar, kasbdoshlari, umuman atrofidagilarning hosil qilgan tasavvurlari demakdir.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ АМАЛИЙ КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР

Mamadaliyeva Нигора Xamidovna,
Baliqchi tumani, 40-umumta’lim maktabi
boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Аннотация. *Бу мақолада бошланғич синф ўқувчиларининг амалий кўникмаларини ривожлантириш, бунда инновацион ўйин технологияларининг тутган ўрни Технология дарслари мисолида ёритиб берилган.*

Калит сўзлар. *амалий кўникмалар, инновация, инновацион технологиялар, ўйин технологиялари, сенсомотор, майда моторика.*

Таълимни ривожлантириш инновациялар орқали амалга оширилиши мумкин. Инновацион фаолият деганда янгиликни яратишга, излашга, ўзлаштиришга, фойдаланишга ва уни ҳаётга тадбиқ этишга қаратилган фаолият тушунилади. Замонавий таълимни ривожлантиришда инновацион йўналишлар хилма хил, бунда таълим технологияларининг ўрни беқиёс.

Ўқувчиларнинг амалий кўникмаларини ривожлантиришга хизмат қиладиган кўплаб педагогик-психологик омиллар орасида ўзаро субъект-субъект муносабатлари билан бир қаторда, уларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олиш ҳам алоҳида ўрин эгаллайди.

Бошланғич синфларда дарслар ва дарсдан ташқари фаолиятда ўйин технологиялари орқали таълим бериш асосий ўринни эгаллайди.

Ҳозирги кунда кўплаб педагогик технологиялар мавжуд, аммо бошланғич таълим жараёнида энг катта эътибор ўйин технологияларига қаратилган бўлиши лозим. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг ҳали бола эканлигини ва уларнинг психологиясини ҳисобга олиш лозим. Ўйин технологиялари ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ўйин шаклига кўра ўзаро мулоқотига боғлиқ. Бунда ҳар бир ўйин ўзига хосдир ва турли функцияларни ўз ичига олади.

Ҳар бир ўйин тури соғлом инсон ва соғлом шахс сифатида боланинг ривожланишига ёрдам беради. Ўйинларни тўғри танлаш орқали сиз боланинг нормал ривожланиши ва ижтимоийлашувини режалаштиришингиз, бунинг учун мос шароитларни яратишингиз мумкин. Таълим жараёнини қизиқарли қилиш, ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш ҳақидаги тадқиқотлар натижасида инновацион ғояларни лойиҳалаш ва ўрганиш бошланди.

Буни бошланғич синфларда Технология дарслари мисолида ўрганиб чиқадиган бўлсак, дарсларда ўйин технологияларини қўллаш ўқувчиларнинг дарс вақтини мароқли ўтказиши ва уларнинг фаол бўлишини таъминлайди. Технология фанининг асосий вазифаси ўқувчиларнинг амалий кўникмаларини фаоллаштиришдан иборат бўлиб, бунда уларга тайёр намуна ва кўргазмаларни кўрсатиб, худди шундай топшириқни уйга вазифа қилиб бериш яхши самара бермайди.

Биринчидан, бу ўқувчиларни тайёр намуна асосида ишлайдиган роботларга айлантиради;

Иккинчидан, бошланғич синф ўқувчилари учун кўпгина топшириқлар ҳали мураккаблик қилади ва кўп ҳолларда буни улар ўрнига ота-оналари ёки ака-опалари бажариб беришади;

Учинчидан, улар уйда кимдир томонидан худди намунага ўхшатиб бажарилган ишни олиб келиб, мактабда яхши баҳо олишади ва бунга кўникишади;

Тўртинчидан, Технология фанидан ҳам уйга вазифа берилиши кичик мактаб ёшидаги ўқувчилар учун дарслардан ва уй вазифаларидан тез безиб қолиши учун сабаб бўлиши мумкин;

Бешинчидан, ўқувчи учун энг қизиқали фанлардан бирига айланиши керак бўлган фанда у фикрлашни тўхтатади.

Аслида, ўқитувчилар ўқувчида билимга эмас билим олишга қизиқишни уйғота олишлари муҳим ҳисобланади. Ўқувчилар билим олишдан ўзлари манфаатдор бўлишни ўрганишлари зарурдир. Бунинг учун эса тайёр намуна асосида топшириқ беришни, ўқувчи ёшига мос бўлмаган, аммо кимдир томонидан бажариб берилган уй вазифалари учун баҳолашни бас қилиш зарур. Ўқувчига Технология дарси давомида изланишга, фантазиясини ривожлантиришига, ўз имкониятларини рўёбга чиқаришига ва бу орқали ўз-ўзига ишончи ортишига имкон бериш лозим. Бунда ўйин технологияларининг аҳамияти катта.

К.Д.Ушинский шундай деб ёзган эди: “*Болалар учун энг яхши ўйинчоқ – бу қум уюмидир*!”.

Қум билан ўйнаш болаларнинг энг севимли машғулотларидан биридир. Аммо қум билан ўйнаш бу шунчаки вақтни бекор ўтказиш эмас. Бу жуда кўп янги ҳис-туйғуларни ривожлантирувчи ўйинлардир. Боланинг ўзи қумга талпинади, бунга ижодий йўналиш бериш керак холос ва оддийгина қум титиш қизиқарли таълим жараёнига айланади. Қум билан ўйнаш кичик мактаб ёшидаги ўқувчининг сенсомотор кўникмаларини ривожлантиради. Қумда расм чизиш (*sand-art*) ва қумдан шакллар ясаш (*sand-play*) дарс

бошидаўқувчиларнинг билиш фаолликлари ва нутқини фаоллаштириш ва кучайтириш учун қўлланиши мумкин. Ўқувчиларнинг кўпчилик бўлиб, гуруҳларда бирон-бир каттароқ обьектни ясаши учун топшириқ бериб, уларга вақт бериш керак (қаср, чорраҳа, уй). Намуна кўрсатиш мумкин, аммо ҳудди шундай ясашни талаб қилиш мумкин эмас, бу билан ўқувчиларнинг хаёлотини чегаралаб қўйган бўламиз. Дарс охирида эса, ўқувчиларнинг фаоллигини баҳолаш, уларга тавсиялар бериш, бажарилган "санъат асари" учун рағбатлантириш мумкин.

Бундай мароқли дарс ўқувчиларнинг чарчоғини олади, фанга ва айниқса таълим олишга бўлган қизиқишини оширади, диққатини оширади, майда моторикасини ривожлантиради. Майда моторикаси яхши ривожланган ўқувчиларнинг ҳуснихати ҳам жуда чиройли бўлади. Амалий кўникмалари ривожланади, мантиқий фикрлаши ва ижодий тафаккури уйғонади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Сафарова Р., Неъматов Ш. ва б. Ўқув предметлари мазмунини аниқловчи асосий параметрлар. Т.: Фан ва технология, 2011. – 159 б.
2. Ксензова Г.Ю. Перспективные школьные технологии: Учеб.-метод. пособие. - М: Пед. общество России, 2001. - 224 с.
3. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания, опыт педагогической антропологии. 1 том –М.: Литература, 1965. -115 с.

MAKTABDA FILOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Mamasoliyeva Zebiniso Bo'riboy qizi
Shahrixon tumani
68 – umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya;Maktabda filologik ta'lim jarayonida innavatsion yondashuvning o'ziga xos xusisayatlari haqida ko'rsatmalar uslubiy tavsiyalar berilgan

Kalitso'zlar:ta'lim shakllari, SWOT texnologiyasi, innovatsiyalar,ilg'or texnologiyalar ,interfaol metodlar.

O'zbekistonning yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida band bilan e'tibor berilishi,kelajak egalari

bo‘lgan yosh avlodni jahon andozalari talablariga mos ravishda tarbiyalash borasida qat’iy vazifalarni belgilanishi bugungi kun pedogog xodimlari zimmasiga katta ma’suliyat yuklaydi .Zero, mustaqil mamlakatimizning bugungi yoshlari o‘qitishning zamonaviy yondashuvga asoslangan innovatsiyalar , ilg‘or texnologiyalar ,interfaol metodlar orqali ta’lim –tarbiya berilishiga munosib dunyo qarashga, salohiyatga egadirlar, hartomonlama axborotlar oqimidan xabardor, intiluvchan, talabchan yoshlardir. Bu esa o‘qituvchidan innovatsion pedogogik madaniyatga - ya’ni ilg‘or pedogogik texnologiyalardan ,AKT dan, fan yangiliklaridan ,xorijiytillardan ,xalqaro siyosiy maydon holatidan, ta’lim turlari,shakl va vositalaridan to‘liq bilimga ega bo‘lish lozim.

Shu ma’noda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi misolida an’anaviy va noan’anaviy dars o‘tishda ta’lim shakllari, usullari va ulardan kelib chiqadigan natijaga fikrini qaratish lozim.

Badiiy asar tahlilini o‘tkazish uchun o‘qituvchi innovatsion yondashuvga asoslanishi kerak. ”SWOT”- universal tahlil metodi asarni to‘liq tahlil qilish imkonini beradi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar “ asaridagi Zaynab obrazini “SWOT” – universal tahlil qilish quyidagicha:

S- Chiroyli, sabrli, toshkentliligi, xonadon bekasi, sadoqatli,zodagon oilada, qaynona	W-rashkchi, xudbin, sevilmaganligi laqma, pismiq, uquvsiz, Arazchi
O- qaynona–qaynotasi u tomonda, nikohdagi xotin, Otabek yonida	T-Xush ro‘yning gapiga kirish, Kumushga zahar berishi, xonadondan ketishi, sevilmaganligi

S-kuchlitomonlar

W- kuchsiztomonlar

O- oportyunites

T- sred

SWOD- ingilizcha so‘zlarning bosh harflari qisqartmasidan iborat , Stronis,wikness, opportyunites, tchred –so‘zlarining bosh harflari qisqartmasidan iborat.

Badiiy asardagi birgina Zaynab obrazini didaktik tahlil qilish orqali butun bir asar mazmuni yoritib beriladi. O‘quvchilar 4-guruhga bo‘linib, berilgan asar yoki obraz nihar tomonlama tahlil qilib beradilar.

Asar mazmunidan kelib chiqib, obraz xarakteri ochib beriladi.”Zinama –zina” texnologiyasi ham o‘quvchilarda bilimlarni mustahkamlash , mustaqil fikrlash orqali nutqni o‘stirish, o‘zaro munosabatlarda muloqot madaniyatiga erishish kabi ko‘nikmalarni hosil qiladi, rivojlantiradi.

Osondan murakkabga tomon yo‘naltirilgan savollar bilan murojaat qilinadi, o‘quvchilar o‘z javoblarini og‘zaki yoki yozma bayon qilishlari mumkin.

“Xotira mashqi”, “Nuqtainazaring bo‘lsin”, “Rolli o‘yinlar”, “Binar” usullarini qo‘llash o‘qituvchi uchun darsning samaradorligiga erishish mezoni hisoblanadi.

“Xotiramashqi” usulida 10 nafar o‘quvchi ishtirok etadi, mavzu tanlanadi. “Bahor” mavzusi berilganda, har bir o‘quvchi bahor haqida 1ta gapni aytadi, 2- o‘quvchi bir gapni aytib, avvalgi gapni takrorlaydi va shuningdek o‘n nafar o‘quvchi o‘nta gapni takrorlaydilar. 2-martazanjirulanadi. 20ta gap ijod qilinadi. Natijada matn hosil bo‘ladi. Partada o‘tirgan o‘quvchilar yozib boradilar.

Xulosa qilib aytganda, maktabda filologik yondashuvni barcha xususiyatlari o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish – ya’ni ularga kompetensiyani kamol toptiradi, muloqot madaniyatini shakllantiradi, muomala odobidan saboq beradi.

Foydalaninganadabiyodlar:

1.Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratikO‘zbekiston davlatini Birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O‘zbekiston, 2016.-56 b.

2.Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib – intozom va shaxsiy javobgarlik – har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent, O‘zbekiston, 2017.-104 b.

3 Mirziyoyev

SH.M.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini

ta’minlash – yurt taraqiyoti va xalq farovonligini garovi. Toshkent,

O‘zbekiston, 2017.-48 b.

INTERNET TARMOG‘IDAN ONA TILI VA ADABYOT FANIGA OID TA’LIM SAYTLARI, PORTALLARI VA O‘QUV RESURSLARINI IZLAB TOPISH HAMDA ULARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH.

Mavlonova Oyjamol Kozimjon qizi –
izboskan tuman 4- maktab o`qituvchisi.

ANNOTATSIYA:ushbu maqolada internet tarmog`idan ona tili va adabiyot faniga oid t`lim saytlari, portallari va o`quv resurslarini izlab toppish hamda ulardan dars jarayonida foydalanish haqida uslubiy tavsiyalar berilgan.

KALIT SO`ZLAR: www,server,brouzer,Veb-Sayt,e-mail,modem, provayder, Veb-portal

Kompyuterlarni tarmoqqa birlashishi qimmatbaho asbob uskunalar katta hajmli disk, printerlar, asosiy xotiradan birgalikda foydalanish, umumiy dasturiy vositaga va ma’lumotga ega bo‘lish imkonini beradi. Global tarmoqlar tufayli olisdagi kompyuterlarni qurilma resurslaridan foydalanishi mumkin, bunday tarmoqlar millionlab kishilarni qamrab olib, axborot tarqatish va qabul qilish jarayonini butunlay o‘zgartirib yubordi, xizmat ko‘rsatishning eng keng tarqalgan tarmog‘i elektron pochta orqali axborot almashuvini amalga oshirish hisoblanadi. Tarmoqning asosiy vazifasi foydalanuvchining taqsimlangan umumtarmoq resurslariga oddiy, qulay va ishonchli kirishni ta’minlash va ruxsat berilmagan kirishdan ishonchli himoyalangan holda axborotdan jamoa bo‘lib foydalanishni tashkil etish. Shuningdek, foydalanuvchilar tarmoqlar o‘rtasida ma’lumotlarni uzatis hning qulay va ishonchli vositasini ta’minlash imkoniyatlarini yaratadilar. Umumiy axborotlash davrida katta hajmdagi axborotlar lokal va global kompyuter tarmoqlarida saqlanadi, qayta ishlanadi va uzatiladi. Lokal tarmoqlarda foydalanuvchilar ishlashi uchun ma’lumotlarning umumiy bazasi tashkil etiladi. Global tarmoqlarda yagona ilmiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy axborot makoni shakllantiriladi. Ma’lumotlar ba’zasiga uzoq masofadan turib kirishda, umumiy ma’lumotlarni markazlashtirishda, ma’lumotlarni ma’lum masofaga uzatishda va

ularni taqsimlab qayta ishlash borasida ko‘’gina vazifalar amalga oshirilgan. Bularga bir-qancha misolar keltirish mumkin: Bank va boshqa moliyaviy tuzilmalar; bozorning ahvolini aks ettiruvchi tijorat tizimi ("talab-taklif"); ijtimoiy ta’minot tizimi; soliq xizmati; oraliq masofadan turib kompyuter ta’limi; aviachi’talarni zaxira qilib qo‘yish tizimi; uzoqdan turib tibbiy tashhezlash; saylov tizimi. Ko‘rsatilgan ushbu barcha qo‘shimcha ma’lumotlarni to‘planishi, saqlanishi va undan foydalana olish, (kirish) noto‘g‘ri ma’lumotlar bo‘lishidan va ruxsat berilmagan kirishdan himoyalangan bo‘lishi kerak. Ilmiy, xizmat, ta’lim, ijtimoiy va madaniy hayot sohasidan tashqari global tarmoq millionlab kishilar uchun yangi xil dam olish mashg‘ulotini yaratib bermoqda. Tarmoq kundalik ishni va turli sohadagi kishilarning dam olishini tashkil etish quroliga aylanib bormoqda.

Kompyuterlarni bir-biri bilan bog‘lash

Kompyuterlar orasida ma’lumot almashish va umumiy masalalarni birgalikda yechish uchun kompyuterlarni bir-biri bilan bog‘lash ehtiyoji paydo bo‘ladi. Kompyuterlarni bir-biri bilan bog‘lashda ikki xil usuldan foydalaniladi:

Kabel yordamida bog‘lash. Bunda kompyuterlar bir-biri bilan *koaksial*, *o‘ralgan juftlik kabeli* (UTP) yoki *shisha tolali kabellar* orqali maxsus tarmoq plata yordamida bog‘lanadi.



Simsiz bog‘lanish. Bunda kompyuterlar bir-biri bilan simsiz aloqa vositalar yordamida, ya’ni radio to‘lqinlar, infraqizil nurlar, **WiFi** va **Bluetooth** texnologiyalari yordamida bog‘lanadi

Tarmoq tushunchasi va uning ahamiyati

Tarmoq-kompyuterlar, terminallar va boshqa qurilmalarning ma’lumot almashishni ta’minlaydigan aloqa kanallari bilan o‘zaro bog‘langan majmui. Kompyuterlararo ma’lumotlarni almashishni ta’minlab beruvchi bunday tarmoqlar **kompyuter tarmoqlari** deb ataladi.

Tarmoq-axborotlarni uzatish, alohida foydalanilayotgan kompyuterlarni birgalikda ishlashini tashkil qilish, bitta masalani bir nechta kompyuter yordamida yechish imkoniyatlarini beradi.



Tarmoq orqali taqdim etiladigan xizmatlar

Kompyuter tarmoqlari axborotlarni elektr signallari ko‘rinishida uzatish va qabul qilishga ixtisoslashgan muhit. Tarmoq xizmatlariga quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin:

- ✓ **Fayl server xizmati.** Bunda tarmoqdagi barcha kompyuterlar asosiy kompyuterning (server) ma’lumotlaridan foydalanish yoki o‘z ma’lumotlarini asosiy kompyuter xotirasiga joylashtirish mumkin;
- ✓ **print server xizmati.** Bunda tarmoqdagi barcha kompyuterlar o‘z ma’lumotlarini xizmat joriy qilingan kompyuter boshqaruvi orqali qog‘ozga chop qilishi mumkin;
- ✓ **proksi server xizmati.** Bunda tarmoqqa ulangan barcha kompyuterlar xizmat joriy qilingan kompyuter boshqaruvi orqali bir vaqtda Internet yoki boshqa xizmatlardan foydalanishi mumkin;

- ✓ **Kompyuter va foydalanuvchi boshqaruvi xizmati.** Bunda tarmoqqa ulangan barcha kompyuterlarning va ularda qayd qilingan foydalanuvchilarning tarmoqda o‘zini tutishi hamda faoliyat yuritishi belgilanadi va nazorat qilinadi.

Ko`pgina foydalanuvchilar uchun zarur bo‘ladigan dasturli vositani doimiy saqlash imkoniyati: U yagona nusxada fayl-server diskida bo‘ladi. Shuni qayd etamizki, dasturli vositani bunday saqlash foydalanuvchi uchun ilk ish usullarini buzmaydi. Ko‘’gina foydalanuvchilar uchun zarur bo‘lgan dasturli vositaga avvalo matn va grafik taxrirlovchi, elektron javallar, ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi va boshqalar kiradi. Ko‘rsatilgan imkoniyatlar orqali quyidagi ishlarni bajarish mumkin: Ishchi stansiyalarining lokal diskni, dasturlangan vositalarni saqlashdan ozod qilish hisobiga tashqi xotiradan unumli foydalanish; tarmoq operasion tizim himoya vositasi bilan dasturli mahsulotlarni ishonchli saqlash; dasturli mahsulotlarni ishlashga layoqatli ahvolda ishlab turishni va ularni yangilashni soddalashtirish, chunki ular fayl-serverda bir nusxada saqlanadi.

Global tarmoqlar - o‘ziga butun dunyo kompyuterlarini, abonentlarini, lokal va mintaqaviy tarmoqlarini telekommunikasiya (kabelli, simsiz, sun’iy yo‘ldosh) aloqalari tarmog‘i orqali bog‘lagan yirik tarmoq. Global tarmoqlar - butun dunyo bo‘yicha tarmoqlardan foydalanuvchilarni qamrab oladi va ko‘pincha bir-biridan 10-15 ming kilometr uzoqlikdagi EHM va aloqa tarmoqlari tugunlarini birlashtiruvchi yo‘ldosh orqali aloqa kanallaridan foydalaniladi

http://tanlov.uz	yoshlarni, yosh mutaxassislarni va O`zbekistonda faoliyat ko`rsatuvchi shaxslar va korxonalarni qo`llab quvvatlash maqsadida, Respublika va dunyo miqyosida o`tkazilayotgan tanlovlar, grantlar, stipendiyalar, aksiyalar, tadbirlar to`g`risida ma’lumotlarni taqdim etuvchi sayt.
http://exam.uz	Loyihaning asosiy maqsadi O‘zbekiston abiturientlariga Real Online tizimida o‘z bilim darajalarini tekshirish imkoniyatin iyaratishdan iboratdir.
http://www.infolib.uz	Respublika Axborot-kutubxona markazi, umumdavlat universal tashkilotdir, Markaz xududlardagi axborot-kutubxona faoliyatini fan,

ta'lim, milliy va jahon madaniyati sohasiga bo‘lgan e'tiborini yanada rivojlantirish ishlarini olib boradi.

http://www.terabyte.uz Dasturlash tillari haqida kitoblar, dasturlash muhitlari, darslar, vertual ko‘maklar, namunalar -bularning barchasi yosh dasturchilar uchun

http://baho.uz Onlayn testlar orqali bilimlarni sinab ko‘rish sayti.

http://uMail.uz bepul elektron pochta xizmati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.A.Abduqodirov.Axborot texnologiyalari. Toshkent,“O‘qituvchi”, 2001-y.

2. N.Azizxo‘jayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat., 2002-y.

ZAMONAVIY PEDAGOG TIMSOLI VA UNGA QO’YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Andijon viloyati buloqboshi tumani
10-umumiy o’rta ta’lim maktabi
Boshlang’ich ta’lim o’qituvchisi
Mirhaydarova Umida Oqyulovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida o’qituvchi va pedagoglarga qo’yiladigan talablar hamda bugungi zamonaviy hayot jarayonida yangicha pedagog qanday bo’lishi lozimligi haqida fikrlar aks etgan.

Kalit so’zlar: Al Forobiy, Ibn Sino, Nosiriddin Tusiy, Kiyinish madaniyati, nutq qobilyati.

O’qituvchining maxsus kasbiy va ijtimoiy xizmatlari, har doim eng xolis sudyalar – uning o’quvchilari, manfaatdor ota-onalar, keng jamoatchilik diqqat markazida bo’lish zarurati o’qituvchining shaxsiyati va axloqiy fazilatlariga qo’yiladigan talablarni kuchaytiradi. O’qituvchiga qo’yiladigan talablar-bu pedagogik faoliyat muvaffaqiyatini belgilaydigan kasbiy fazilatlarning imperativ tizimi.

“... O`qituvchi – deydi Al Forobiy, - aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo`lishi va o`quvchilarga aytmoqchi bo`lgan fikrlarini to`la va aniq ifodalay olishni

bilmog`i zarur.” U o`z fikrini davom ettirib: “O`qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o`xshaydi, shu sababli o`qituvchi eshitgan va ko`rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo`lishi, o`qituvchilarga aytmoqchi bo`lgan fikrlarini to`la va aniq ifodalab berishni bilmog`i lozim. Shu bilan birga o`z nomusini qadrlashi, adolatli bo`lmog`i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo`ladi va baxt cho`qqisiga erishadi,” – deb ta`kidlaydi.

Abu Ali Ibn Sinoning fikricha, “... O`qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo`y va bolani tarbiyalash metodlarini, ahloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo`lmog`i lozim. O`qituvchi o`quvchining butun ichki va tasjqi dunyosini o`rganib, aql qatlamlariga kirolmog`i lozim.[5]”

Nosiriddin Tusiy o`zining “O`qituvchilarni tarbiyalash to`g`risida” degan asarida shunday deydi: “... O`qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo`lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o`z fikrlarining to`g`riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalanadigan bo`lishi lozim... o`qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo`pol yoki qattiq bo`lishi mumkin emas. Dars paytida o`qituvchining o`zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin...

O‘qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. U eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi darkor[6]. O‘quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to‘la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so‘zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o‘quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e’tirof etishi, ularning yana-da boyishiga ishonch bildirishi u bilan ijobiy munosabat o‘rnatishga imkon beradi. Muloqot jarayonida

[5] M. Davletshin. Zamonaviy maktab o`qituvchisining psixiologiyasi. Toshkent, 2003-yil.
[6] Амиркулович, Ҳ. У. (2021). ТАРИХ ДАРСЛАРИНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МИНИАТЮРАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЙЎЛЛАРИ. Scientific progress, 1(3).

o‘qituvchining so‘zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do‘stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lishi kasb etikasi nuqtayi nazaridan talab va qoidalarga kiradi. O‘qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

Pedagogning kasbiy imiji uchun zarur bo‘lgan xususiyatlar

•1. O‘quvchilar bilan ishlashda ishchanlik qobiliyati;- rejalashtirilgan vaqtda belgilangan ta’lim maqsadlariga erishish

•2. Ish faoliyati mobaynida o‘quvchilarga namuna bo‘lish nuqtai nazaridan o‘zini ko‘rsatishga moyillik va qo‘rqmaslik; -zamonaviy pedagogning talab etilayotgan imijiga qat’iy rioya qilish orqali erishiladi.

•3. Har qanday konflikt vaziyatlarni yecha olishi uchun;- o’qituvchida kompetentligining ekstrimal sifatlari shakllangan bo’lishi kerak.

•4. Oila, mahalla va ta’lim muassasalari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik o‘rnata olishi uchun o’qituvchidan tegishli bilim, ko’nikma va malakalar bo’lishi talab etiladi.

- 5.Maktab ma’muriyati, hamkasblari va o‘quvchilar bilan munosabat o’rnataolishda ya’ni; o’zaro hurmat, samimiylik, ochiqlik, mehrli, to‘g‘ri, teng, mulozamatli muomala qila olish qobiliyati talab etiladi
- 6. O‘quvchilar bilan munosabat o’rnataolishda; ularni ishontira olish, ko’nglidan joy olish, o‘zining ortidan ergashtiraolish, o‘zgalarga ta’sir o‘tkaza olishda insonparvarlik bilan yondashish talab etiladi
- 7. O’qituvchi o’quvchilarni xohishi va irodasini to’g’ri yo’naltirish san’atiga ega bo’lishi kerak.
- 8. O’qituvchi atrofidagi odamlarga, maktab ma’muriyatiga, hamkasblariga, o’quvchilariga va ularning ota-onalariga munosabatda optimist bo’lish talab etiladi

- 9. Kiyinish madaniyati, o’zining yurish turishi, hattiharakatlari, munosabati va muomalasi bilan elga va o‘quvchilarga o‘rnak ko’rsatish kerak[7].

Yuqoridagi kabi talablar asosida pedagogik mahoratga ega bo‘lish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlash garovi bo‘libgina qolmay, ayni vaqtda o‘qituvchining jamoadagi obro‘-e’tiborini ham oshiradi, o‘quvchilarda unga nisbatan hurmat hissi shakllanib boradi. Kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish – pedagogik faoliyatda yo‘l qo‘yilgan yoki qo‘yilayotgan xatolardan holi bo‘lish, o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

O’qituvchi amaliyotida barcha qobiliyatlar bir xil darajada muhimmi? Yo’q. So’nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar "yetakchi" va "yordamchi" qobiliyatlarni aniqladi. O’qituvchilarning ko’plab so’rovlari natijalariga ko’ra menejerlarga pedagogik hushyorlik (kuzatish), didaktik, tashkiliy, ekspressivlik kiradi, qolganlari yordamchi deb tasniflanishi mumkin. Shuning uchun biz mehnatsevarlik, samaradorlik, intizom, mas’uliyat, maqsadlarni belgilash qobiliyati, ularga erishish yo’llarini tanlash, uyushqoqlik, qat’iyatlilik, ularning kasbiy darajasini tizimli takomillashtirish, o’z sifatini doimiy ravishda oshirishga intilish kabi fazilatlarni tan olishimiz kerak. Ish, mehnatsevarlik va boshqalar o’qituvchining eng muhim kasbiy fazilatlari sifatida. Ushbu talablar orqali o’qituvchi ishlab chiqarish munosabatlari tizimida o’z vazifalarini bajaradigan xodim sifatida amalga oshiriladi.

O’qituvchi uchun majburiy sifat-bu insonparvarlik, ya’ni o’sib borayotgan odamga er yuzidagi eng oliy qadriyat sifatida munosabat, bu munosabatning haqiqiy ishda namoyon bo’lishi. Axloqiy munosabatlar talabaning shaxsiga qiziqish, talabaga rahm-shafqat, unga yordam berish, uning fikrini hurmat qilish, rivojlanish xususiyatlari holati, uning ta’lim faoliyatiga yuqori talablar va shaxsning rivojlanishi uchun g’amxo’rlikdan iborat. Talabalar bu ko’rinishlarni ko’rib, dastlab

[7] Azimova T. Pedagogik-psixologik tashxis va uning o‘quv jarayonidagi ahamiyati. – Toshkent. 2017.

ongsiz ravishda ularga ergashadilar va asta-sekin odamlarga axloqiy munosabat tajribasini to'playdilar[8].

Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini o'zida aks ettirgan yangi va o'z o'rnida xalqchil muhim yuridik hujjat bo'lib, mamlakatimiz ta'lim sohasining istiqboli uchun yo'llanmadir. Mazkur Qonun g'oyalarini amalga oshirish jarayonida pedagog kadrlar muhim rol o'ynaydilar. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiy ma'naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo'la olishi maqsadga muvofiq sanaladi. Qolaversa, bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan jamiyatda o'qituvchi va murabbiylarning obro'-e'tibori va maqomini ko'tarish, o'quv dasturlari va metodikasini to'liq qayta ko'rib chiqish, maktabni ta'limning keyingi bosqichlari bilan uzviy bog'lash, o'qituvchilarni ortiqcha qog'ozbozlikdan xalos etib, o'z ustida ko'proq ishlashi uchun sharoit yaratish va rag'batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma'naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari yuzasidan aniq vazifalar belgilab berilmoqda. Mamlakatimizda xususiy ta'lim muassasalariga keng sharoit yaratilayotgani bois eksperiment tariqasida kam quvvatda ishlayotgan maktablarni tanlov asosida salohiyatli talabgorlarga ishonchli boshqaruvga berish takliflarining bildirilayotganligi, shuningdek, ta'limning ushbu jarayoniga Davlat rahbari darajasida qaratilayotgan e'tibor – biz kabi bo'lajak pedagoglarga ham pedagog shaxsi va unga qo'yilayotgan talablarga mos tarzda sifatli ta'lim olib, o'z ustimizda tinim bilmay ishlashimiz uchun mas'uliyatli da'vat hisoblanadi. Zotan, yurtimizning kelajak avlod vakillarini ayni vaqtda biz kabi oliy ta'limda tahsil olayotgan yosh pedagoglar tarbiyalaydilar.

[8] Omonov, A. O. O., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA FRIGIYA PODSHOLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(5

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Davletshin. Zamonaviy maktab o`qituvchisining psixiologiyasi. Toshkent, 2003-yil.

2. Azimova T. Pedagogik-psixologik tashxis va uning o‘quv jarayonidagi ahamiyati. – Toshkent. 2017.

3. Амиркулович, Ҳ. У. (2021). ТАРИХ ДАРСЛАРИНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МИНИАТЮРАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЙЎЛЛАРИ. Scientific progress, 1(3).

4. Omonov, A. O. O., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA FRIGIYA PODSHOLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(5)

PEDAGOGLARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

Andijon viloyati Baliqchi tumani
4 - DMTT tarbiyachisi
Rahmatova Mahfuza Mirzapo’latovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari haqida so`z yuritilib, Pedagog o’z ustida tinmay izlanishi lozim ekanligi yoritildi.

Kalit so`zlar: kreativlik, zehni o’tkirlik, pedagog, psixologiya va pedagogika lug’atlari, kreativ (ustanovka) qurish,. kreativ yo’nalish,. kreativ ifodali akt;. kreativ o’z-o’zini boshqarish,. kreativ faollik,. kreativ intilishlar darajasi.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g’oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg’ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo’ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o’tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va Ozgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning O'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi.

Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o‘qituvchilar ushbu omillarni barataf etishga e'tibor qaratishlari lozim.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

1) o‘zini tavakkaldan olib qochish ,

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi ,

4) boshqalarga tobe bo‘lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

bolalarga kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo pedagokning o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib , o'quvchilarni kreativ fikrlashga rag‘batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: pedagokning o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, tarbiyalanuvchilar ham shunday bo‘la oladi.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari,tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yonaltiradi. Xalq ta‟limi tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini

tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, bo'lajak pedagoglarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy,izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Hozirgi zamon pedagogikasi yuqori malakali pedagogik kadrlarga ehtiyoj sezadi.Ushbu loyihani amalga oshirish quyidagilarni amalga oshiriladi:

1. Ma'naviy va moddiy rag'batlantirish sistemalarni tadbiq

etish;

2. Pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishda qo'yiladiagan talablarni yangilash;

3. Ularning malakasini oshirish;

4. Eng yaxshi o'qituvchilarning tajribalarni keng ommalashtirish.

Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. O'qituvchining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi va

yaxshilash hammaga ma‟lum narsalarni o‘zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo’lib bormoqda.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi O’zaro bir-biriga bog’liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratsh imkoni beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Ahloqiy (o’z-o’zini boshqarish);
3. Motevatsion (maqsadiy);
4. Emotsianal (his hayajonli).

Kretiv layoqat quyudagi o’zaro bir-biriga bog’liq bo’lgan qismlardan iborat bo’ladi:

1. Kreativlik maqsad;
2. Ijodiy intilish;
3. Kreativ (ustanovka) qurish,
4. Kreativ yo’nalish;
5. Kreativ ifodali akt;
6. Kreativ o’z-o’zini boshqarish;
7. Kreativ faollik;
8. Kreativ intilishlar darajasi.

Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o’z-o’zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo’ladi.Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo’naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog’liq. Pedagogning kreativ potentsiali an’anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g’oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o’ziga xoslik;

- tashabbuskorlik;

- noaniqlikka toqat qilish;

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo’lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e‘tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;

- yangi-yangi g’oyalarni yaratishda faollik ko’rsatish;

- ilg’or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o’rganish;

- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o’zini- o’zi rivojlantirishi va o’zini- o’zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog’liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo’lishlari pedagogic muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o’zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi. Pedagog o’z-o’zidan ijodkor bo’lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma‘lum vaqt ichida izchil o’qib-o’rganish, o’z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo’lgani kabi bo’lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo’lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo’yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o’zini-o’zi ijodiy faoliyatga yo’naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala echimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o’z oldiga muammoli masalalarni qo’yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo’lgan dalillar bilan to’qnash keladi. Buning natijasida o’z ustida ishlash, mustaqil o’qib o’rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Psixologiyada E.P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. E.P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi O’

zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

1) savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma‟lumotlarga e‟tiborsiz bo’lmaslik;

2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning echimini topishga intilish.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. I.A.Karimov. O`zbekiston: o`z istiqlol va taraqqiyot yo`ll. T., "O`zbekiston", l992.

2. A.K.Munavvarov. Oila pedagogikasi. - T., "O`qituvchi",2019.

3. UMahkamov. Axloq-odob saboqlari. - T., "Fan", 2017

4. O.To`raeva. Odobnoma. - T., "O`qituvchi", 2019.

5. J.Yo`ldoshev. Ta'limimiz istiqloli yo`lida. - T., "Sharq",2016.

6.R.Mavlonova, O.To`raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika. -T., "O`qituvchi", 2019.

7. www.gov.uz

8. **www.press-uz.info**

TA’LIM JARAYONIGA DIDAKTIK YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI

Rasulova Xilola Ma’rufovna
Qo‘rg‘ontepa tuman Qorasuv shahar
51-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ta’limning didaktik jihati, o‘qitish o‘rganishning birligida pedagog faoliyati va ta’lim mazmunida ijtimoiy tajribani o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish faoliyati sifatida namoyon bo‘lishi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: didaktik fikr, dididaktika, o‘qitish, o‘qish, didaktik tizim, ta’lim jarayoni, ta’lim metodlari, vositalari.

Ta’limning nazariy masalalari pedagogikaning didaktika sohasida ishlab chiqiladi. “Didacticos” bevosita ta’lim berishni anglatadi. Didaktika – ta’lim va

tarbiya haqidagi fan bo‘lib, o‘qitish maqsadi, mazmuni, usul va vositalarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Pedagogik adabiyotlarda ta’lim kategoriyasiga qator ta’riflar berilgan. Ta’lim - ma’lum bilim, ko‘nikma, ijtimoiy tajriba, shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan jarayon. Ta’lim – o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’siri jarayoni.

O‘qish, o‘rgatish, o‘rganish didaktikaning asosiy kategoriyalaridir va bular barchasi ta’lim jarayonini tashkil etishning asosidir. Bu tizimli ta’lim olishning eng ishonchli usuli hamdir. Ta’limni tashkil etishning har qanday turi yoki uning zamirida “o‘qitish va o‘rganish” yotadi.

O‘qitish – o‘qituvchining o‘quv axborotini o‘quvchiga uzatish, o‘quv va kognitiv faoliyatni tashkil etish, o‘quv jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelganda yordam berish, o‘quvchilarning qiziqishini, mustaqilligi va ijodkorligini rag‘batlantirish, ta’lim yutuqlarini baholashdagi faoliyatidir.

O‘qish – o‘quvchining bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish, mustahkamlash va qo‘llash bo‘yicha faoliyati; izlanish, ta’lim muammolarini hal qilish, o‘quv yutuqlarini o‘z-o‘zini baholashni rag‘batlantirish; madaniy qadriyatlar va inson tajribasi, atrofdagi voqelik jarayonlari va hodisalarining shaxsiy ma’nosi va ijtimoiy ahamiyatini anglash jarayoni sifatida qarash mumkin.

Didaktik nazariya va tushunchalar ta’lim jarayonining mohiyatini tushunishga asoslanadi. Didaktika tushunchasi ta’limning asosiy maqsadi talabalarga maksimal darajada ilmiy bilimlarni yetkazishdir. Mazmunni to‘liq o‘zlashtirish uchun o‘qituvchi tomonidan intensiv usullarni izlash va talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilish kerak (Y.A.Komenskiy, J.Milton, I.V.Basedov).

Muayyan o‘quv fanlaridan o‘quv materiali mazmunini tanlash muammosi muhim didaktik muammolardan hisoblanadi. Shuning uchun o‘quv materialini tanlash va tuzish prinsiplariga amal qilish, belgilangan talab va mezonlar, xizmat qiladigan qoidalar tizimini aniqlash kerak, bu esa o‘quv jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Ta’lim jarayonida qo‘llanadigan didaktik tamoyillar o‘quv jarayonining mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari, uning umumiy maqsad va qonuniyatlariga muvofiq belgilanadigan asosiy qoidalarni aks ettiradi.

N.V.Bordovskiyning so‘zlariga ko‘ra, “didaktika” – ta’lim tizimlari, pedagogikaning o‘quv jarayonini tashkil etishning tashkiliy shakllari, o‘qitish usullari, tamoyillarini o‘rganish va ochib berishga, shuningdek, yangi tamoyillar, strategiyalar, usullar, texnologiyalarni izlash va ishlab chiqishga qaratilgan bo‘limidir. Didaktikaning predmeti o‘quv jarayoni yoki didaktik tizimlardir [1].

Didaktik tizim – bu o‘qitishning maqsadi, mazmuni, shakllari, usullari va vositalarining tartiblangan to‘plami. Didaktik tizim sifatida o‘quv jarayonining asosi ta’lim faoliyati tashkil qiladi. Ta’lim faoliyati inson tomonidan butun umri davomida amalga oshiriladi. Har qanday didaktik tizim quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi: o‘qish, o‘qitish, o‘rganish maqsadi va vazifalari; ta’lim mazmuni; o‘qitish usullari va vositalari; o‘qitishni tashkil etish shakllari; ta’lim natijalari.

Ta’lim – bu o‘qituvchi va o‘quvchining maqsadli o‘zaro ta’siri jarayoni bo‘lib, ta’lim natijasida inson rivojlanishi amalga oshiriladi. O.S.Grebenyuk, o‘quv jarayoni ikki tomonlama aloqa jarayoni bo‘lib, u o‘qitish jarayonini va o‘rganish jarayonini o‘z ichiga oladi, deb hisoblaydi.

Shuningdek, formal ta’lim nazariyasi namoyondalari E.Shmidt, I.Pestalotsi, A.Dobrovolskiy ta’limni o‘quvchilarning qobiliyatlari va bilish qiziqishlarini rivojlantirish vositasi, deb hisoblaydi. “Ko‘p bilim aqlni o‘rgatmaydi” (Geraklit). O‘qitishning asosiy maqsadi – o‘quvchilarning fikrlashiga urg‘u berib, to‘g‘ri “fikrlashga o‘rgatish”.

Yan Amos Komenskiyning «Ona maktabi» degan maktabgacha tarbiya qo‘llanmasi va boshqa bir qancha kitoblari dunyo yuzini ko‘rdi. “Buyuk didaktika”da o‘qitish tabiiylikka bo‘ysunishi kerak deyilgan. Bolaning aqliy va jismoniy o‘sish jarayoni tabiatdagi o‘sish jarayoniga o‘xshash bo‘ladi. Shuning uchun pedagog bolani tarbiyalaganda, bog‘bon daraxtning biologik o‘sish qonuniyatini hisobga olgan kabi, undagi tabiiy bilish hususiyatini hisobga olishi

shart. Komenskiy o‘qishga hammaning tortilishini, hamma umumta’lim olishi kerakligini uqtiradi. U birinchi bo‘lib, sinf-dars tizimini ishlab chiqdi. “Buyuk didaktika” asarida o‘qitishning didaktik prinsiplari berilib, dars jarayonida o‘qituvchi ularga suyanishi kerakligi uqtiriladi [3].

Ta’lim o‘ziga xos xususiyatga ega. Uning didaktik jihati, o‘qitish o‘rganishning birligida pedagog faoliyati va ta’lim mazmunida ijtimoiy tajribani o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish faoliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’limning uslubiy jihati, ta’lim muayyan o‘quv predmeti bo‘yicha o‘qitish va o‘qitishni amalga oshirish shakllari to‘plami sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’limning pedagogik jihati esa, ta’lim faoliyat turi sifatida, uning maqsadi shaxsni ijtimoiy munosabatlar majmui bilan tanishtirish, buning natijasida u shaxs sifatida shakllanadi.

Ta’limning psixologik jihati, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro bog‘liq harakatlari majmui bo‘lib, natijada o‘quvchining intellekti boyib boradi, uning intellektual va shaxsiy rivojlanishi yuzaga keladi.

Ta’lim muassasalari pedagoglarining o‘z funksional vazifalarini amalga oshirish jarayoni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga yo‘naltirilgan vazifalarni amalga oshirish jarayoni bo‘lib, pedagogik jarayonlarda ko‘zlangan natijalarga erishish uchun belgilangan maqsadlar yo‘nalishidagi subyekt (o‘qituvchi-o‘quvchi)lar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, pedagogik jarayonlarda bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatish orqali subyektlarning faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Pedagogning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi turli faoliyatlari davomida zaruriy pedagogik va didaktik ko‘nikmalarining shakllanishi, kasbiy qobiliyatini namoyon etish jarayonida esa uning uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan intellektual qobiliyat, tasavvur va tushunchalari, tafakkuri rivojlanadi va ma’naviyati oshadi [2].

Tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, didaktik g‘oyalarning rivojlanish yo‘nalishlari ta’limni insonparvarlashtirish, individuallashtirish,

texnologiyalashtirish, kompetentsiyaviy yondashuv, hamda ta’limga qo‘yiladigan bugungi talablar asosida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бордовская Н.В. Диалектика педагогического исследования: Логико-методологические проблемы. – СПб.: Издательство РХГИ,2001.–512с.

2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005

3. Yan Amos Komenskiy Buyuk didaktika 1632.

Узлуксиз таълим тизимида педагогик жараёнларни бошқаришда инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш ва ўқувчилар рефлексив фаолиятини ташкил этиш.

Усмонов М. Ф. Андижон вилоят янги методикаларни ўргатиш миллий маркази бўлим бошлиғи.

Анотация: *У*злуксиз таълим ва кадрлар тайёрлаш тизими замон талабларига ҳамоҳанг равишда инновацион ривожланишида ҳал қилувчи ва муҳим омилга айланганлиги натижасида бугунги кундаги илмий-техникавий тараққиёт нафақат ишлаб чиқаришнинг кўп сонли тармоқларига, балки маданий, ижтимоий-гуманитар билимлар, таълим соҳасига ҳам инновацион технологияларни жорий этишни тақозо этаётганлиги, инновацион технологияларнинг сўнгги ютуқларига асосланган мукаммал таълим-тарбия тизимини, шунингдек, миллий педагогика ва инновацион педагогик технологияларнинг назарий ва методик асосларини яратиш ҳамда амалиётга татбиқ этиш зарурияти туғилганлиги, таълим бозорини яратиш ва рақобатбардош мутахассисларни тайёрлаш зарурлиги таъкидланган. Шунингдек ўқувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини ташкил этиш зарурлиги ҳақида фикрлар билддирилган.

Калит сўзлар: узлуксиз таълим ва кадрлар тайёрлаш тизими, илмий-техникавий тараққиёт, таълим бозорини яратиш, инновацион педагогик технология, рефлексив кўникмалар, таълим ва мустақил таълим олиш

Ўзбекистон Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Яна бир муаммони ҳал этиш ўта муҳим ҳисобланади: бу педагоглар таркибининг профессионал даражаси, уларнинг махсус билимларидир. Бу борада таълим олиш, маънавий маърифий камолот масалалари ва ҳақиқий қадриятларини шакллантириш жараёнларига фаол кўмак берадиган муҳитни яратиш зарур”. – деб айтган фикрлари аҳамият касб этади. Ўзбекистон Республикасида таълим ва кадрлар тайёрлаш тизимини ислоҳ қилиш, ҳамда уни ривожланган давлатлар даражасига кўтаришга давлат сиёсатининг устувор йўналиши сифатида катта эътибор бериб Ш.М.Мирзиёев “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”- деб таъкидлаган.

Ҳозирги кунда узлуксиз таълим ва кадрлар тайёрлаш тизими ҳар қандай давлатни замон талабларига ҳамоҳанг равишда инновацион ривожланишида ҳал қилувчи ва муҳим омилга айланганлиги ҳаммага маълум. Ҳозирги кундаги илмий-техникавий тараққиёт нафақат ишлаб чиқаришнинг кўп сонли тармоқларига, балки маданий, ижтимоий-гуманитар билимлар, таълим соҳасига ҳам инновацион технологияларни жорий этишни тақозо этмоқда. Ўзбекистон Республикаси тараққиётида халқнинг бой маънавий салоҳияти ва умуминсоний қадриятларга ҳамда ҳозирги замон маданияти, иқтисодиёти, илм-фани, техникаси ва инновацион технологияларнинг сўнгги ютуқларига асосланган мукаммал таълим-тарбия тизимини, шунингдек, миллий педагогика ва инновацион педагогик технологияларнинг назарий ва методик асосларини яратиш ҳамда амалиётга татбиқ этиш зарурияти миллий таълим тизимини ислоҳ қилиш, унинг салоҳиятини жаҳон миқёсига олиб чиқиш, таълим бозорини яратиш ва рақобатбардош мутахассисларни тайёрлаш керак.

Ўзбекистон Республикаси миллий ва маънавий-маърифий тараққиётининг муваффақиятларини белгилаб берувчи, бу туб вазифаларнинг бош ҳаракатлантирувчи кучи инновацион педагогик технологияларни амалиётга татбиқ этишдан иборат. Бунда авторитар педагогикадан воз кечиб, инновацион технологиясини қабул қилишимиз керак бўлади. Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда таълим ва тарбиянинг бош мақсади ва мазмуни тубдан янгиланди. Шу сабабли, Ўзбекистон Республикасида узлуксиз таълим тизимида инновацион технологияларни самарали жорий этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.Таълим муассасаларида инновацион таълим технологияларини бошқаришда ўқитувчи компетенцияси, бир-бирига боғлиқ бўлган талабларнинг бу мажмуи педагог-ўқитувчининг умумлаштирилган моделини ва асосий талабларни ифодалай олиши керак. - Ўқитувчининг таълим бериш маҳорати, тарбиялай олиш маҳорати, таълим олувчиларнинг билимларини холисона баҳолай олиш ва назорат қила олиш маҳоратини билиши керак; - Ўқув-тарбиявий жараённи ташкил этишда инновацион педагогик технологиялардан фойдаланишини билиши керак; Педагог-ўқитувчи ўз олдига қўйилган масъулиятли ва долзарб вазифаларни бажариш қарашларни шакллантириш ҳамда таълим-тарбия жараёнига бўлган янгича учун қуйидаги хислатларга эга бўлиши керак: замонавий илмий, маданий ва инновацион технологик тараққиётнинг моҳиятини чуқур тушуна билиши; дунё ва инсон ҳақидаги билимлар тизимини чуқур ва кенг нуқтаи назардан англаши;компьютерли таълим ва ўқитишнинг бошқа техник воситаларини таълим-тарбия жараёнига татбиқ этиши;интернет тармоғи тўғрисида тушунчага эга бўлиши ва ундаги ахборотли технология мазмунини теран таҳлил қила билиши;педагогик меҳнатнинг самарадорлигини таҳлил этиш усулларини билиши;умуминсоний ҳамда миллий маданият ва қадриятлар, миллий ғоя ва миллий мафкура ҳамда иқтисодий, маънавий-маърифий ислоҳотлар моҳиятини тўлиқ тушуниб етиши; инновацион педагогик технологиялар моҳияти ва тамойиллари ҳамда унинг анъанавий ўқитиш

жараёнидаги афзалликларини билиши, шахс ман-фаати ва таълим устуворлигини таъминлаш учун педагогик инновацияларни қўллай олиши;талабаларга ўз фани бўйича таълим беришда инновацион технологияларни қўллай олиши, ўқув жараёнини фаоллаштириш ҳамда ўқув материалларини ўзлаштиришнинг юқори даражасига эришиш ва талабаларни мустақил фикрлашга ва ўз фикрини эркин баён этишга ўргатиши; ўз фанининг моҳир устаси ва фидойи бўлишига эришиши;талабаларнинг баркамол инсон бўлиши учун уларга ўзининг изланишлари, ижодкорлиги орқали таълим-тарбия бериши ва ҳоказо. Замонавий таълим тараққиётида пайдо бўлаётган “Инновацион ёндашув”, “Инновацион фаолият”, “Инновацион педагогика” тарздаги тушунчалар эҳтиёжлар асосида келиб чиққан бўлиб, уларнинг мақсади таълим соҳасида ўқув-тарбия жараёни натижасини кафолатлайдиган ўзгариш, янгиланишлар киритишдан иборат.

Шунингдек халқаро педагогик амалиётда ўқувчиларда рефлексив кўникмалар шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини такомиллаштириш стратегияларини ишлаб чиқиш ва уни амалга ошириш механизмларини лойиҳалаштириш, шунингдек, рефлексив кўникмалар шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларининг ўзаро боғлиқлиги ва алоқадорлигини таъминлашнинг заруриятини ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан илмий асослаш муҳим ҳисобланади. Дарс ва дарсдан ташқари машғулотлар жараёнларини илмий асосда ташкил этиш ва самарадорлигини ошириш учун белгиланган мақсадларга эришишда ўқувчиларнинг мойиллиги, қизиқиши, эҳтиёжлари ва фаоллиги даражаси, имкониятлари, шахсий хислатлари, шунингдек, ёшларда рефлексив кўникмалар шакллантиришнинг мураккаб томонларини фаол ўрганиш асосида ўқувчиларда рефлексив кўникмалар шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини ташкил этиш зарур ҳисобланади. Ўқувчиларда рефлексив кўникмалар шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларида яратилган шарт-шароитлар ўқувчилар учун шахсий сифатларини мустақил ривожлантиришга имконият яратиши билан

бир қаторда, уларни рефлексив фаолият кўрсатишга ундовчи мотивлаштириш муҳити сифатида ҳам хизмат қилиши керак. Демак, ўқувчиларда рефлексив кўникмалар шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини ташкил этишда қуйидаги шарт-шароитларнинг яратилиши зарурияти инобатга олиниши муҳим: - ўқувчилар ўзини кўпроқ мустақил ва ўзини ўзи бошқарувчи субъект сифатида ҳис этиши, эркин сўзлаши ва фаол иштирок этиши; - ўз ўқув фаолиятини таҳлил қилиш ва янги маълумотларни ўзлаштириш жараёнларида улар етакчи ролни эгаллаши, ўзини ўзи ривожлантиришга интилиши; - келгусида ўзи қизиққан касб-ҳунарни эгаллаши учун таълим-тарбия манбаси сифатида хизмат қиладиган ҳаётий тажрибаларни эгаллаши; - таълим ва мустақил таълим олиш ва касб-ҳунар ўрганишидаги мавжуд сунъий тўсиқларни бартараф этиши учун муҳим ҳаётий муаммоларни ҳал этиш йўналишида амалиётни ўрганиши; - ўқиш, ўрганиш, мустақил таълим олиш ва касб-ҳунар ўрганиши учун юқори даражадаги тайёргарлик ва мотивацияга эга бўлиши; - ўқиш, ўрганиш, мустақил таълим олиш ва касб-ҳунар ўрганишнинг келажакдаги амалий аҳамияти ва заруриятини англаб етиши; - ўқиш, ўрганиш, мустақил таълим олиш ва касб-ҳунар ўрганишга юқори даражада интилиш ҳиссиётларининг вужудга келиши; - ўқиш, ўрганиш, мустақил таълим олиш ва ўзи танлаган касбни эгаллашнинг аҳамияти ва нуфузини тушуниб етиши; - рефлексив кўникмалар шаклланишида муҳим аҳамиятга эга бўлган шахсий сифатларни шакллантириши ва ривожлантириши; - ўз фаолияти натижалари ва имкониятлари даражасини объектив баҳолаши, рефлексив тафаккурининг ривожлантириши; - дарс ва дарсдан ташқари машғулотларга доимо ижобий муносабатда бўлишнинг аҳамияти ва заруриятини тушуниб етиши. Ўқувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини ташкил этишда мактаб ва мактабдан ташқари таълим жараёнларининг натижавийлиги аниқланиб, илғор педагогик тажрибалар ва замонавий ўқитиш воситалари, энг қулай ва самарали ҳисобланган методлар ва ёндашувларни амалиётга татбиқ этиш зарур ҳисобланади Ўқувчиларда

рефлексив кўникмалар шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларида уларнинг мустақил ва самарали фикрлашининг муҳим механизми сифатида рефлексив ёндашув ўзига хос аҳамият касб этади. Рефлексив ёндашув жараёнида ўқувчилар ўз фаолиятини ўзи таҳлил қилиши ва объектив баҳолаши (мустақил рефлексив фаолият кўрсатиши) учун, ўқитувчилар эса мавжуд таълимий вазиятларни ўз вақтида таҳлил қилиб бориши ҳамда ўқувчиларнинг ўз тушунчалари ҳамда хатти-ҳаракатларини фаол ўйлаб кўриши учун шарт-шароитлар яратилади. Ўқувчиларда рефлексив кўникмалар шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини ташкил этиш ва бошқаришда шахс-фаолият ёндашуви ҳам зарур ҳисобланиб, мазкур ёндашув ўқувчилар рефлексив фаолиятини ташкил этиш жараёнларида уларнинг фаоллигини таъминлаш ва аниқ мақсадларга кўра уларни мотивлаштириш воситаси сифатида вужудга келади. Ўқувчиларда рефлексив кўникмалар шакллантириш ва ривожлантириш жараёнлари самарадорлигини аниқ вазиятларга кўра баҳолаш ўзига хос аҳамиятга эга бўлиб, мазкур жараён самарадорлигини таъминлашда вақт ўтиши билан вужудга келаётган вазиятларга кўра ўқувчилар рефлексив фаолиятини мувофиқлаштириб бориш вазиятли ёндашувни ифодалайди. Вазиятли ёндашувда бошқарилувчи объект ҳисобланаётган рефлексив кўникмалар шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларининг аниқ шароитдаги ички ва ташқи вазиятига қараб ўқувчилар фаолиятини мувофиқлаштириш мазкур жараён самарадорлигини таъминлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар :

Махкамова М.А. Инновацион технологиялар бошқаруви. Монография. – Т.: Алоқа, 2011. 9. Махкамова М.А. Инновацион менежмент асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДТУ, 2009. 10. Махкамова М.А. Организация и управление инновационной деятельностью. – Т.: Иқтисодиёт, 2007. 11. Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент: Учебник. — М.: Бизнес-щкола Интел-Синтез, 2000. 5Маллаев О. Янги педагогик технологиялар. Т. 2000. Ўзбекистон

Республикаси «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». - Т.:Ўзбекистон, 1997. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Т.: ТГПУ им. Низами, 2003. Баубекова Г.Д., Халикова Г.М. Образование: опыт, проблему, перспективу. Т., 2001. Махкамова М.А. Инновацион менежмент. Ўқув қўлланма. – Т: Фан ва технология, 2013. Махкамова М.А. Инновацион технологиялар бошқаруви. Монография. – Т.: Алоқа, 2011. Махкамова М.А. Инновацион менежмент асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДТУ, 2009. Махкамова М.А. Организация и управление инновационной деятельностью. – Т.: Иқтисодиёт, 2007.

Педагогик жараёнларда ўқувчилар рефлексив фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш Турғунов С.Т. педагогика фанлари доктори, профессор, Хакимова Д.М. Қ.Ниёзий номидаги ЎзПФИТИ, 2018й

IV-SHO‘BA. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM TIZIMIDA TA’LIM VA TARBIYANING SIFAT VA SAMARADORLIGIGA ERISHISH YO’LLARI

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINING KITOBXONLIK MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Andijon viloyati Asaka tumani
12-umumta'lim maktabi
Boshlang‘ich ta’lim o'qituvchisi
Abdurahimova Odinaxon Maxammatsolijonovna

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida kitobga bo'lgan qiziqishni oshirish yo'llari, hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish xususidagi fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *o'qish darslari, hikoya janri, ertaklar, ma’naviy-ruhiy, axloqiy-estetik, adabiy-nazariy ma’lumotlar, kitobxonlik…*

Bugungi kunda jamiyatda kitobning ma’naviy hamda axloqiy ozuqa, madaniyat va til ravnaqi uchun asosiy manba, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan intellektual meros sifatida mavqeyi hamda ahamiyatini saqlash, hatto

tiklashga ehtiyoj sezilyapti. Avvalo, badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta’lim muassasalarini ta’minlash, milliy hamda jahon adabiyoti namoyandalarining asarlarini saralash, tarjima qilish ishlarini puxta o‘ylangan tizim asosida tashkil etish borasida ishlar olib borilmoqda.

Ma’lumki, badiiy adabiyot insonni ma’naviy-ruhiy, axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalashdek muhim masalani hal etishda asosiy tayanchdir. Shuning uchun ham, bizningcha, agar boshlang‘ich ta’limda badiiy adabiyot bilan tanishtirish masalasiga hozirgidan ham ko‘proq ahamiyat qaratilsa, yurtimizda salohiyatli yoshlarning o‘zgacha avlodi, ya’ni haqiqiy kitobxonlik madaniyatiga ega kelajagimiz sohiblari yetishib chiqishi hech shubhasizdir. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasida “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanining bir moduli sifatida o‘qish o‘qitish metodikasi o‘qitiladi. Vaholanki, “O‘qish” darslari boshlang‘ich ta’limda alohida fan sifatida o‘qitilar ekan, bu fanni o‘qitish metodikasi ham alohida fan sifatida ushbu soha bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash o‘quv rejasidan o‘rin olishi lozim. Hozirgi paytda kitobxonlik masalasiga jiddiy e’tibor qaratilayotganligi ham bu sohaga alohida ahamiyat qaratish lozimligini taqozo qilmoqda. Nima uchun o‘qish o‘qitish metodikasini chuqurlashtirilgan holda olib borish zaririyati haqida mulohaza yuritatyotirmiz degan savolga javobni ko‘pchilik pedagoglarimizning o‘qish darslarida darsni tashkil qilish yuzasidan duch kelayotgan muammolarini kuzatganimizda javob olamiz. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik sifatida taqdim qilingan va 2017-yilda nashr etilgan “O‘qish kitobi” darsligidan o‘rin olgan badiiy matnlar o‘quvchilarda milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega asarlardan tashkil topgan. Jumladan, “O ‘zbekiston Vatanim manim” deb nomlangan bo‘limda yozuvchi Normurod Norqobilning “Xarita” sarlavhali hikoyasi berilgan (1).

Hikoya janridagi asarlarni o‘qitish metodikasini puxta egallamagan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ikki qismga bo‘lingan bu matnni, avvalo, o‘zi o‘qib beradi. Keyin sinfdagi barcha o‘quvchilarga bu hikoyani bir xat boshi yoki ikki xat boshidan taqsimlab berib, ular tomonidan yana takror o‘qitiladi. Shundan so‘ng

hikoya boyicha darslikda berilgan savollarga javob beriladi. Xullas, hikoya muallifining asosiy maqsadi, ya’ni bolalarda vatan tuyg‘usini junbishga keltirish, bu muqaddas tuyg‘uni shu hikoya bilan tanishish jarayonida ich-ichdan his qilish, shu tarzda ona yurt ga muhabbatning shakllantirilishiga bu badiiy matnni xizmat qildirishdek ezgu niyati amalga oshmay qoladi.

Hikoyadagi o‘quvchilar hayotidan olingan tasvirlar tengdoshlarning bir-birlariga munosabatida juda jonli, ta’sirchan chizilgan. Muallif sinfdoshlar Samad va Rasul o‘rtasida bo‘lib o‘tgan bir voqea asosida bolalar ruhiyatining rangin jihatlariga diqqatni qaratadi. Samad chizgan xaritada ular yashayaotgan qishloq tasviri aks ettirilgan edi. U xarita tuzzish uchun “kalla kerak”ligini aytib, Rasulga “sening qo‘lingdan bu ish kelmaydi” degan manoda uni xafa qiladi. Bu narsa Rasuldagi o‘zi bilmagan qobiliyatlarni harakatga keltiradi. “Nega u qilgan ishni men amalga oshirolmas ekanman, yo‘q men ham harakat qilib ko‘raman” degan ishtiyoq Rasulning garchi rassom darajasida bo‘lmasa-da, bir yurt farzandi sifatida ona Vatan xaritasini mehr bilan chizishga muyassar bo‘lganligi kitobxonni befarq qoldirmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi badiiy matn tahliliga doir bilimlardan yetarli darajada xabaardor bo‘lsa, hikoya janridagi asarlarni o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qish-o‘rganish jarayonida muallif maqsadini, shuningdek, dars maqsadini to‘la amalga oshira oladi.Boshlang‘ich ta’limda dastlabki adabiy-nazariy ma’lumotlarni berish masalasi haqida ham metodik ko‘rsatmalar, tavsiyalar yaratish, bizningcha, davr ehtiyojiga aylanib ulgurgan. Bugungi kitobxon o‘quvchi kelajakda kitobxon ota va kitobxon ona bo‘lishi uchun mustahkam zamin hozirlashdek mas’uliyat, avvalo, boshlang‘ich ta’lim zimmasiga tushadi. Chunki bilimlar poydevori boshlang‘ich ta’lim davrida amalga oshiriladi. Mazkur darslikning “Istiqlolim – istiqbolim” deb nomlangan bo‘limida atoqli shoir Abdulla Oripovning “Iqboli buyuksan” sarlavhali she’ri berilgan. She’r maatnida shunday misralar bor:

Sen o‘zbek elining farzandi,
Istiqlol yurtining dilbandi…

Vataning g‘oyatda keng erur,
Barchaga barobar, teng erur.
Mehnatda qotsa ham suyaging,
Hech yerga tegmasin kuraging.
Chiniqtir, mayliga, sen tanni,
Unutma va lekin Vatanni… (2)

Darslikda matn oxirida “ She’rni ifodali o‘qib, mazmunini izohlang. Ona bilan Vatan tushunchalari nima uchun qiyoslanadi?” kabi savol va topshiriqlar berilgan. Bu matnning didaktik tahlilida nimalarga alohida diqqat qaratiladi? O‘qituvchi ikki bosqichli jarayonning dastlabki bosqichida, ya’ni o‘zi shu matnni alohida tahlil qilganida o‘quvchilarga nimani qanday anglatsa, dars maqsadiga to‘la erishishi mumkinligini oldindan rejalshtirib, keyin sinfga kiradi. Badiiy matn tahlilining ikkinchi jarayyoni davomida, ya’ni o‘quvchilar bilan birgalikda asar ustida ishlash asnosida oldingi jarayondagi rejalarini amalga oshira boradi. Agar pedagog o‘z ustida ishlamagan holda darsni o‘tkazsa, dars davomida she’r o‘qib berilgach, o‘quvchilarga takror-takror o‘qittirish bilan dars uchun ajratilgan vaqt ham yetib keladi va hech qanday maqsad amalga oshmaydi.

Bu she’r matnini kim qanday izohlashi mumkin? Agar pedagog AKTdan a’lo darajada xabardor bo‘lsa, yurtimiz sarhadlari aks ettirilgan videoroliklardan unumli foydalaangan holda, she’r mazmunini o‘quvchilarga ko‘rgazmalilik vositasida izohlaydi.

Milliy g‘urur, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantiruvchi misralarga alohida urg‘u beradi. Milliy o‘zlikni anglashni tarbiyalash masalasi bugungi globallashuv jarayonida, ayniqsa, muhim ahamiyatga egadir. Siyosatshunos olima Feruza

Madraximova o‘zining “Globallashuv va ommaviy madaniyat” nomli risolasida shunday yozadi: “Hozirgi davrda dunyoni standart holatga keltirish va shu asosda jahon tizginini o‘z qo ‘liga olishni istagan ayrim manfaatparast kuchlar o‘zlarining axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi, millatlar milliy madaniyatini yemirishga

va insonni ma’naviy begonalashishiga olib keluvchi jarayonlarni osongina mamlakat ichkarisiga kirgizish uchun, “ ommaviy madaniyat”ni niqob qilib olishgan”(3). Biz yosh avlodni mana shu xavfdan himoya qilishimiz uchun ham ularda badiiy adabiyotga muhabbat ruhini tarbiyalash ishiga muntazam ravishda e’tibor qaratib borishimiz lozim. Shuning uchun ta’limning barcha bosqichlarida, xususan, boshlang‘ich ta’limda bolalarni kitobxonlikka o‘rgatish, ularga o‘qitilayotgan har bir badiiy asar mag’zini tushunib yetishlari uchun imkoniyatlar yaratib berilishi maqsadga muvofiqdir.

Bugun mamlakatimizda kuzatilayotgan barcha sohalardagi rivojlanish va yangiliklar kelajak avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash vazifasini mukammal ado etishni taqozo qiladi.

Bugungi kunda maktablarimizda o‘qituvchilik faoliyatiga fidokorona yondashayotgan pedagoglarimizning ko‘pchilikni tashkil qilishi davlatimiz rahbariyatining, xususan, muhtaram Prezidentimizning oqilona ta’lim siyosatidan mamnun ekanliklari ifodasidir. Mana shu yuksak e’tibordan ilhomlangan pedagoglarimizning barchasi ijodkorlik qobiliyatlarini harakatga keltirsalar, nur ustiga nur bo‘lur edi.

Adabiyotlar:

1. S. Matchonov va b. O ‘qish kitobi. Umumiy o ‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. T., “Yangiyo‘l poligraf-servis”, 2017. 9-b
2. O’sha manba. B. 4-5.
3. F. Madraximova. Globallashuv va ommaviy madaniyat. T., “Chashma PRINT” nashriyoti, 2013. B. 13.

Ertalabki badan tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishga qo’yilgan talablar

Anarqulova Soliya Marxamat tuman
16- MTTtarbiyachisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ertalabki badan tarbiyani tashkil etishni ilmiy nazariy asoslarini o‘rganish va maxsus dastur asosida bolalarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so o‘**zlar**: Barkamol avlod, konsepsiya, motorika, ertalabki badan tarbiya, pedagogik texnologiya.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish borasida amalga oshirayotgan islohotlaridani kelib chiqib, bolalarni jisminiy tarbiya orqali yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib voyaga etkazish asosiy vazifalardan biri sifatida qaraldi.

Hamma sohalar shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tizimiga ham katta e’tibor qaratilmoqda.Yosh avlodni barkamol, sog‘lom, har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishda jismoniy tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola kun davomida tetik , xushchaqchaq, ruhan yengil bo‘lishida ertalabki badan tarbiya bilan shug‘ullanishi juda foydalidir. Bularni amalga oshirish uchun shart – sharoitlar yaratilmoqda.

Hozirg i davrda O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport yuqori rivojlanish bosqichiga ko`tarilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2019 yil 8- maydagi “ Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida’’gi PQ-4312- sonli Qarorida ham maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyani rivojlantirish quyidagicha belgilangan :

“Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun shart– sharoitlarni yaratish maktabgacha talim tashkilotlarida ta’lim– tarbiya jarayonini tashkil etishning hamda maktabgacha ta’lim xizmatlarni zamonaviy usullarini tashkil etishni talab qiladi”.

Oxirgi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish uchun ko‘p ishlar olib borilmoqda. . Bu olib borilayotgan islohotlar davlatimiz, millatimiz kelajagiga qaratilgan oily vazifalardir.

MTTlari uchun ishlab chiqilgan «Ilk qadam» tayanch dasturida bolani rivojlantirish uchun 5 ta soha asosiy bo‘lib, ulardan eng birinchisi ham bolalarni jismoniy rivojlanishiga qaratilgan, 4 soha ham jismoniy tarbiya bilan uzviy bog‘liq.Bolalarda jismoniy sifatlarini rivojlantirishda, aqliy faoliyatini oshirishda , estetik tarbiya berishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ertalabki badan tarbiya

mashg‘ulotlarida quyidagi ishlar amalga oshirib borilsa, mashg‘ulot sifatiga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi:

-Tarbiyachilarni jismoniy tarbiyaga bo‘lgan saviyasini yanada oshirish;

-Ertalabki badan tarbiya mashg‘ulotini o‘tkazish uchun yetarlicha shart – sharoit yaratish;

-Ertalabki badan tarbiya bola uchun kun davomidagi kayfiyatni ta’minlashga xizmat qilishini farzandini kechMTTga olib keluvchi ota– onalar o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib borish;

-Ertalabki badan tarbiya jarayoni musiqa jo`rligi asosida bajarilishini ta’minlash kerak;

-Ertalabki badan tarbiya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda bolalarga har xil yorqin rangdagi jihozlardan foydalanib mashqlar o‘tish bolada quvnoqlik, serharakatlik bag‘ishlaydi.

Ertalabki badan tarbiyaning mazmuni quyidagilardan iborat bo`lishi maqsadga muvofiqdir..Yurish mashqlari xilma-xil bo‘lishi kerak.Yurish sur’atini, yo‘nalishini o‘zgartirib, oyoq uchlarida, tovonlarda, oyoqlarning tashqi yon tomonlarida,tizzalarni baland ko‘tarib yurish, to‘siqlardan oshib o‘tib yurish va boshqalar ana shu mazmunga yo`naltiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan talablar jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilsa samarali bo`lishi quyida ko`rsatib o’tilgan.

3-4 yosh

Turli usul- lar bilan yuradi(to`g‘-ri, erkin, ko‘rsatilgan yo‘nalishda)

kolonna, doira bo‘lib saflana oladi;

muvozanatni saqlab yuguradi;

sport zinasida yuqori va pastga harakat-

lanadi;

bir joyda ikki oyoqlab sakraydi;

oldinga siljib sakraydi;

aylana yoyi tagidan emaklab o‘tadi; badan tarbiya vaqtida mashqlarni takrorlaydi;

uch oyoqli

velosipedda uchadi.

4-5 yosh

Oyoq uchida, tovonida, oyoq kaftlarining yon tomoni bilan va tizzalarini yuqori ko‘tarib yuradi;

arqon ustida muvozanat saqlab yuradi;

tizzalarini yuqori ko‘tarib yuguradi; past to‘siqlar ustidan sakrab o‘tadi;

arqonda sakrashga harakat qiladi; ertalabki badan tarbiya skameykasi ustida qo‘li bilan tortilib qornida suriladi; ertalabki badan tarbiya narvonida harakatlanadi; samokatda uchadi

5-6 yosh oyoqlarini uchidan tovoniga

almashtirib yuradi; to‘siqlarni aylanib yoki xatlab o‘tadi; ertalabki badan tarbiya skameykasida muvozanatni saqlagan holda, qadamba qadam yuradi:

qiya doska ustida to‘g‘ri va yoni bilan yuradi;

yugurishning har xil turlarini bajaradi (ilonizi, zigzag, mokisimon to‘siqlarni yengib o‘tib);

turli usullar bilan sakraydi;

bir necha predmet oralab emaklaydi: qornida yotib, qo‘llari bilan tortilib emaklaydi;

ertalabki badan tarbiya narvoniga urmalab chiqadi;

6-7 yoshbir, ikki to‘rtta bo‘lib saflanadi, doira bo‘lib, qator bo‘lib yuradi;

yurishda turli topshiriqlarni bajaradi;

yengi lyuguradi (shiddat bilan, to‘siqlarni yengib o‘tib, yo‘nalish va muvozanatni saqlagan holda);

bir joyda aylanib sakraydi, oyoqlarini o‘ngga va chapga almashtirib sakraydi; arqonda turli usullarda sakraydi; arqonli narvon, yug‘on arqonda yuqoriga ko‘tariladi; ikki oyoqli velosipedda uchadi;

Ertalabki badan tarbiya mashg‘ulotini tashkil etishda ertalabki badan tarbiya tayoqchalaridan, halqalardan va arg‘amchilardan tashqari boshqa jihozlardan ham foydalansa, syujetli o`yinlardan foydalanib ertalabki badan tarbiya tashkil etilsa, bola hatto dam olish kunlari ham bog‘chaga kelishni istaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqgan holda xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim– tarbiya berishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati juda ham kattadir. Hozirgi rivojlanayotgan davrda biz maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashqlarida va ertalabki badan tarbiya mashg‘ulotlarida pedagogik mahorat katta o‘rin egallaydi. Shu sababli ham pedagoglarning pedagogik texnologiyalardan foydalanishi, mashg‘ulotlarni zamonaviy pedagogik yondoshuvlar asosida olib borishi hozirgi kundagi eng muhim jarayondir.

Adabiyotlar:

1.Maktabgacha ta’lim muassasalarining ”Ilk qadam” davlat o`quv dasturi. Toshkent, 2018 yil.

2.Salomova R.S. «Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati» T.: 2014.

3.Maxkamdjonov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi T.: “Iqtisod-moliya”, 2008 .

BOSHLANG’ICH SINFLARDA LOYIHA METODLARIDAN FOYDALANISH – TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH OMILI SIFATIDA

Arslonova Shaxzodaxon Nasibovna
Izboskan tumani 36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada boshlang’ich sinflarda loyiha metodlaridan foydalanish uzluksiz ta’limning uzviyligini ta’minlash omili sifatida ekanligi o’z aksini topgan. Unda ta’lim jarayonida loyiha metodlarini qo’llash va shu asosda pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish, tahsil oluvchilarda tanqidiy, refleksiv, divergent fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishga yo’naltirilganligi haqida fikr bayon etiladi.*

Tayanch iboralar: *loyiha metodi, uzluksiz ta’lim, pedagogik shart-sharoit, takomillashtirish, tahsil oluvchilar, tanqidiy fikrlash, refleksiv tafakkur, rivojlantirish.*

Dunyo miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bugungi kunda bo’lajak mutaxassislar uchun jahon tsivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish

imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim mazmunini xalqaro standartlar asosida tashkil etish masalalari alohida dolzarblik va ahamiyat kasb etmoqda. Bunda innovatsion texnologiyalar qatoridan o’rin olgan loyihalash texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir.

“Har qanday pedagogik texnologiyaning o’quv-tarbiya jarayonida qo’llanilishi mashg’ulotlarni samarali tashkil etishga, yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o’z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o’z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi”. Shunday ekan, hozirgi davrda sodir bo’layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o’zlashtirish va o’zlashtirgan bilimlarini o’zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. SHuning uchun ham, pedagogik innovatsiyalar hamda interfaol usullar, yangi pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish talab etilayotgan paytda, o’qituvchilarning o’quv jarayonida loyiha metodlaridan foydalanish mexanizmi va texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish eng dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Uzluksiz ta’limning bir bo’g’ini bo’lmish umumiy o’rta ta’lim maktablarida texnologik yondashuv, o’quv jarayonini loyihalash, ta’lim texnologiyasi samaradorligini aniqlash va baholash orqali o’quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o’stirish masalalari D.Murodova, N. Sayidahmedov, F. Xodjieva, M. Usmonboevalarning tadqiqot ishlarida o’z aksini topgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’kidlash mumkinki, boshlang’ich ta’lim jarayonida loyiha metodlaridan elektron ta’limiy resurslar vositasida foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish muammosi maxsus tadqiq qilinmagan.

Nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish, umumiy o’rta ta’lim maktablarining o’qituvchilari faoliyatini o’rganish va tajribalarni analitik tahlil etish bilishning cheksiz imkoniyatlarini ezgulik tomon yo’naltirish, ilm pillapoyalaridan kamolga yetib borayotgan yosh avlodni ezgu g’oyalar asosida tarbiyalashning

samarali yo’llaridan biri- boshlang’ich ta’lim jarayonida loyiha metodlaridan foydalanish tizimini takomillashtirish ijtimoiy pedagogik zarurat ekanligini ko’rsatadi.

Boshlang’ich ta’lim jarayonida loyiha metodlaridan foydalanishning zaruriyligi hamda ushbu muammo pedagogik jihatdan to’liq tadqiq qilinmaganligi va bir qator yechimini kutayotgan muammolarning manbai bo’lib qolayotganligini ko’rsatadi.

Ma’lumki, **loyiha** - (lotin tilida: «proekt»- «oldinga tashlangan») insonlarning jamoaviy, tashkiliy, mustaqil izlanishga undovchi, muayyan maqsadga yo’naltirilgan faoliyat shaklidir. Loyiha: inshoot, jarayon, tadbir, stsenariy rejasi, muayyan hujjatning taxminiy matni bo’lishi mumkin.

Fikrimizcha, boshlang’ich ta’limda loyiha metodlarini qo’llash asosida o’quvchilarda o’quv-biluv motivatsiyasini oshirish; o’quvchilarda bilish faoliyatini rivojlantirish; tahsil oluvchilarning darsga tayyorgarligiga bo’lgan mas’uliyatni oshirish va keyingi o’quv faoliyatiga rag’bat sifatida namoyon bo’ladi

Loyiha metodi - muayyan natijani qo’lga kiritishga qaratilgan, o’quvchilar tomonidan mustaqil bajariladigan faoliyatni tashkil qilish yo’li.

«Loyihalash » atamasi ilk bor XX asrning birinchi yarmida paydo bo’ldi.

Loyiha metodi o’quvchi shaxsining intellektual, estetik, jismoniy qobiliyatlari va irodaviy, ijodiy sifatlarini rivojlantirishga qaratiladi

Loyiha texnologiyasi muammoning yechimini ketma-ketlikda izlashni talab qiluvchi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- muammo (vazifalar)ni aniqlash;
- maqsad (muammo bilan bog’liq bo’lgan aniq vazifa)larni shakllantirish;
- Muammo yechimini topishga qaratilgan vositalarni tanlash;
- Muammo yechimini topishda tadqiqotchilik faoliyati tashkil qilish;
- Ma’lumotlarni to’plash va tahlil qilish;
- Ma’lumotlar matn (rasm, chizma) shaklida shakllantirish:

- Ma’lumotlarni muhokama qilish va tuzatish;
- Kutilgan natijaning ifodasi.
- Loyihalash texnologiyasi muammoli o’qitish g’oyalarini rivojlantirish asosida o’qituvchi rahbarligida yangi g’oyani kashf etish va yangi fikriy mahsulani yaratishga qaratilgan, yangi mohiyat va mazmundagi ahamiyatga ega bo’lgan jarayon

Boshlang’ich ta’lim jarayonida loyiha metodlaridan foydalanishda e**sda saqlash**- eng muhim fikrlash jarayoni bo’lib, usiz o’quv jarayonini amalga oshirib bo’lmaydi, lekin u tanqidiy fikrlashdan tubdan farq qiladi. Компьуterning xotirasi har birimiznikidan anchagina yaxshiroq, lekin esda saqlash tanqidiy fikrlashni bildirmaydi. Bir qator olimlar (V.V. Guzeev, I. A. Zimnyaya, V. Bershadskiy, M.V. Alekseev) har qanday fikrlashdan ko’ra xotirani rivojlantirishni yuqoriroq qadrlaydilar, nazorat ishlari va imtihonlarda asososan o’quvchilar xotirasi ko’lamini tekshiradilar. Lekin, ta’lim jarayonida loyiha metodlaridan foydalanish tarafdorlari (B. Blum, L. Stross, B.Farberman) aqliy faoliyatning murakkabroq turlarini tahsil oluvchilarda shakllantirish uchun o’quv jarayoniga murakkab g’oyalarni singdirish maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydilar. Ta’lim jarayonida tushunish, ayniqsa, agar o’quv materiali qiyin bo’lsa, murakkab aqliy jarayon bo’lib hisoblanadi. Binobarin, boshlang’ich sinf o’quvchisi murakkab o’quv materialini tushunish uchun uning miyasida murakkab aqliy jarayonlar kechadi. O’zgalar fikrini tushunish uchun birinchi bosqichda shaxsiy fikrlash sust bo’ladi: bunda kimdir tomonidan yaratilganni idrok qilinadi.

Shunday qilib, loyiha metodlari asosida kam samara beruvchi verbal bilim o’zatish o’rniga loyiha metodi asosida tizimli bilim o’zlashtirish jarayoni hosil qilinadi. O’quv jarayonini loyihalashga keng imkoniyat yaratiladi, o’qituvchi va o’quvchi o’rtasida «sub’ekt-sub’ekt» munosabatlari qaror topadi va ta’limning kafolatlangan natijalariga erishiladi. Bunga misol tariqasida boshlang’ich sinflarining “O’qish” o’quv predmeti bo’yicha ”Har kim ekkanini o’rar” (1-chorak)

“Qor odamning sovg’asi”; “Tanbeh”(3-chorak), “Qodir bilan Sobir” (4-chorak) kabi mavzularda tashkil qilingan darslarni keltirish mumkin.

Shunday qilib, loyiha metodlaridan itnterfaol ta’limni ta’minlash omili sifatida foydalanish tahsil oluvchilarda nafaqat bilish faoliyatini rivojlantirish, balki qo’shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko’nikmalarini shakllantirishga zamin yaratadi. Tahsil oluvchilarda taqdim qilingan o’quv materialidagi eng muhim g’oyalarni saralash, tahlil qilish, qiyoslash ko’nikmalarini rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi va psixofiziologik va shaxsiy-individual qobiliyatlarining tarkib topishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO’YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.–T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz” – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi o‘quv dasturi // Boshlang‘ich ta’lim . – Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.
4. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi// Boshlang‘ich ta’lim, 2014.
5. 2017 yil 7 fevraldagi “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat Dasturi hamda “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947 sonli Farmoni
6. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi 187-sonli qarori
7. Adizov B.R. Boshlang’ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. diss... –T.: 2003. – 320 b.
8. Amonashvili SH.A. Obuchenie. Otsenka. Otmetka. 6-y izd.–M.: Znanie, 2009. – 96 s.
9. Andreev, V. I. Pedagogika tvorcheskogo samorazvitiya /V.I. Andreev. - Kazanь: izd-vo Kazanskogo un-ta, 2001. - 568 s.
10. Ananьev B.G. Izbrannыe psixologicheskie trudы: V 2-x t. T.I. – M.: Pedagogika, 2012. – 232 s.

11. Andreev V.I. Dialektika vospitaniya i samovospitaniya tvorcheskoy lichnosti. – Izd-vo Kazanskogo un-ta, 2010. – 238 s.

Dars samaradorligini oshirish omillari: interfaol metodlar.

Arziqulova Xilola Mahammadovna
Jalaquduq tuman 8- umumiy
talim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya;*Tezisda dars samaradorligini oshirish omillari va interfaol metodlardan foydalanish* ***usullari bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.***

Kalit so'zlar: *zamonaviylik, metod,pedagogik texnologiyalar, muayyan maqsadlar, interfaol metodlar.*

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda "aqliy hujum", "kichik guruhlarda ishlash", "bahs-munozara", "muammoli vaziyat", "yo'naltiruvchi matn", "loyiha", "rolli o'yin" kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o’zaro muloqotda, o’zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o’quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o’rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O’qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o’quv muassasasining o’quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o’qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo’lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo’llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo’lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo’ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo’lgan o’qish-o’rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag’batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
- ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo’llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o’rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o’qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o’ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o’rganish va amalda qo’llash o’quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to’g’ri echimini topishlariga ijobiy ta’sir

ko’rsatadi. O’quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o’quvchi-talabalarning bilim, ko’nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo’ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”), “Blist-so’rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va b.
2. Interfaol ta’lim strategiyalari.“Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va k. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q.
3. **Interfaol grafik organayzerlar**: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg’ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko’rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q.

Xulosa qilib aytganda interfaol ta’lim metodlarini ko’pincha turli shakllardagi o’quv mashg’ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo’llanmokda. Bu

metodlarni qo’llash mashg’ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O’zbekiston, 2017. – 76 b.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA TURLI YOSH GURUHLARIDA ERTAKLARNI SAHNALASHTIRISH VA BOLALARNI IJODIY FAOLIYATGA O’RGATISH.

Asqarova Gullola Abdufattox qizi
Andijon viloyati pedagoglarni
yangi metodikalarga o’rgatish milliy
markazi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotidagi bolalarni sahnalashtirish faoliyatiga o’rgatish, ushbu faoliyat orqali boalarni ijodiy qobilyatlarini namayon etish haqida hamda pedagoglarni bolalar bilan qanday ishlash ekanligi haqida gap boradi.

Kalit so’zlar: “Oltin tarvuz”, “Zumrad va Qimmat”,” “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak” (Anvar Obidjon), “Ko‘zacha bilan tulki”, “Olapar, Mosh, Musicha”

Аннотация: В данной статье рассказывается об обучении детей в дошкольных образовательных организациях выполнению деятельности, проявлении через эту деятельность их творческих способностей, а также о том, как педагоги работают с детьми.

Ключевые слова: «Золотой арбуз», «Изумруд и драгоценность», «Сказка о волке-целителе» (Анвар Обиджон), «Лисица с Козачей», «Олапар, Мош, Музица»

Annotation: This article talks about teaching children in preschool educational organizations to perform activities, showing their creative abilities through this activity, and how pedagogues work with children.

Key words: "Golden Watermelon", "Emerald and Precious", "The Tale of the Wolf as a Doctor" (Anvar Obidjon), "The Fox with Kozacha", "Olapar, Mosh, Musicha"

Maktabgacha ta’lim muassasalarining turli yosh guruhlarida ertaklarni sahnalashtirish. Bolalar ongiga milliy urf-odatlarimizni, an’analarimizni singdirishda, ularga shu aziz Vatan barchamizniki ekanligini uqtirish, har tomonlama ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda, tevarak-atrofda bo‘layotgan voqea hodisalarni, o‘zini odobidagi ahloqiy kamchiliklarini, tabiatni asrab avaylash, unga mehr uyg‘otishda qo‘g‘irchoq teatrlarini sahnalashtirish ahamiyati kattadir. Chunki sahnalashtirishda tomoshabinlar tomoshalarni faqat ko‘rib, tinglabgina qolmay balki unda mustaqil ishtirok etadi. Bolalar ertaklarni sahnalashtirishini ko‘rganlaridan so‘ng, qahramonlarning harakati, axloqi, odobini birgalikda muhokama qilish, bola qalbida ezgulikka, xayrli ishlar qilishga, odamlarga yaxshilik qilishga intilish to‘yg‘usini tarbiyalaydi.

Bolalar bilan birgalikda ertaklarni sahnalashtirish orqali ertak qahramonlarining (“Oltin tarvuz”, “Zumrad va Qimmat”) o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi, ularga mos xatti-harakatlarni ijroda qanday aks ettirish kerakligi haqida fikrlanadi, sahna nutqini (ifodali,aniq talaffuz), sahnada harakat erkinligi, so‘z va harakat uyg‘unligi tarbiyalanadi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning bolalarga ta’siri ham har xil bo‘ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she’riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she’r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoq predmet, voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikni taqqoslash orqali o‘zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko‘ra, turli janrdagi badiiy asarlarni

o‘qishda tarbiyachidan unga mos usullar tanlash talab etiladi. Xalq og‘zaki ijodidan ertak janri bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o‘qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta’sirchanligi, o‘tkirligi, ma’nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko‘pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo‘shilib ketadi. Ertakning o‘tkir maroqli syujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g‘oyaviy yo‘nalishi, unda ezgulik kuchining - yaxshilikning doimo g‘alaba qilishi bolalarni o‘ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so‘z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta’sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir.

Ertakda qatnashuvchilar ko‘pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo‘lgan yovuz, baxil, ochko‘z obrazlarga bo‘linadi. Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, bolalar unda to‘g‘rilik, halollik g‘alaba qilganidan, kambag‘al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya’ni yaxshilik, ezgulik ro‘yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo‘lishini istaydilar. Masalan, «Halollik» ertagida asosiy fikr kambag‘allarga yordam ko‘rsatish, o‘z mehnati bilan hayot kechirish bo‘lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g‘oyasi ilgari surilgan. Bunday g‘alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan. Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko‘nikmasini o‘stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g‘alaba qozonishiga ishonch uyg‘otadi. Bolalar ertakni tahlil qilish jarayonida «Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?) Nima uchun?», «... nima uchun jazolandi? (yoki rag‘batlantirildi?)», «Nima uchun ertakdagi ba’zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba’zilaridan yuz o‘giradi?)» kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar. Maktabgacha ta’lim muassassalarida hayvonlar haqidagi ertaklar ko‘proq tanishtiriladi. «Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak» (Anvar Obidjon), «Ko‘zacha bilan tulki», «Olapar, Mosh, Musicha» kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida

o‘qitiladi va tahlil qilinadi. Ertak matni ustida ishlashda savollarga javob berish, bolalarning o‘zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar harakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktabgacha ta’lim tajribasidan ma’lumki, kichik yoshdagi bolalar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo, o‘zaro munosabatlarini ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xattiharakati to‘g‘ri tasavvur etishga yo‘naltiriladi. Bunda tanlab o‘qish va qayta hikoyalashning ahamiyati katta. Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Tarbiyachi, bolalar rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq - atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo‘lib o‘qiydilar. «Davlat» ertagi oddiy turmushga tegishli hodisalarni tasvirlovchi ertakdir. Ertakni o‘qishga tayyorlash uchun ota-bobolarimiz atrofni, tabiatni, borliqni qanday tasavvur etishlari haqida suhbat o‘tkaziladi. Bunday suhbat ertakdagi badiiy obrazlarni, ularning o‘zaro munosabatlarini, xulqatvorlari, harakterlarini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. «Davlat» ertagi matni ustida ishlash jarayonida bolalar «Dehqonning xonadoni qanday hayot kechirar ekan?», «Nima uchun Davlat dehqonning xonadonidan ketishni istamaydi?» kabi savollarga javob topish orqali ertak qahramonlarini baholaydilar, ahil va inoq bo‘lib, halol mehnat qilish lozim degan xulosaga keladilar. Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o‘qib berishga, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitadi. Bolalarni ertak tilidan erkin foydalanishga o‘rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni tarbiyachi aytib berishi mumkin. Bola ertak mazmunini o‘zlashtirib olgandan so‘ng, uning tili ustida ishlashga alohida

ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda bolalarning o‘z nutqida til vositalaridan o‘rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur. Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g‘oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo‘li bilan bog‘lanishli nutqni o‘stirish, nutqning ta’sirchanligini oshirish lozim. Masalan, «Rostgo‘y bola» ertagida bola o‘z rostgo‘yligi bilan podshoga ma’qul bo‘lganligi hikoya qilingan. Ertak g‘oyasiga mos xulosa esa «Boshingga qilich kelsa ham to‘g‘ri gapir» maqoli bilan ifodalangan. Bolalar ushbu maqol mazmunini tushunib olishsa, o‘zlari ham yuqoridagi kabi ertak tuzib, hikoya qilib berishlari mumkin.

Soya teatrlarini sahnalashtirish - qo‘g‘irchoq sahnalashtirishning o‘ziga xos turlaridan hisoblanadi. Unda qo‘g‘irchoqlar emas balki shakllardan iborat o‘yinchoqlar o‘ynaydi. Tomosha qiluvchilar sahna ro‘parasida o‘tirib, ekranda yorug‘lik orqali harakatlanayotgan soyalar: odamlar, hayvonlar va qushlar soyasini ko‘rishi mumkin. Soya teatrlarini sahnalashtirish uchun odam va hayvon soyalarini bolalarning o‘zlari chizib, qirqa oladilar. Bolalarga shakllarni boshlari dumlarini qimirlatadigan qilishni o‘rgatish kerak, buning uchun detallarni simlar bilan biriktirib, spiral holatda aylantirib qo‘yiladi.

Harakatlanuvchi qismlar qattiq simdan tayyorlanadi. Bunday o‘yinchoqlarni shablon yordamida yoki o‘zlari o‘ylab, siluet chizadilar. Bolalar detallarni qirqib olganlaridan so‘ng figuraga ko‘zini yasash kerakligi taklif etiladi. Tarbiyachi ko‘z o‘rnini o‘tkir asbob bilan teshib beradi, bolalar qalam yoki mo‘yqalam tayoqchasi bilan teshikchani kengaytiradi va yaltiroq qog‘oz bilan ko‘zini yelimlaydi. Bolalar yelimga qora bo‘yoq aralashtirib ko‘zini chizib qo‘yishlari mumkin. Teatrni ko‘rsatishlari uchun tarbiyachi ekranni yupqa matodan yoki kalka qog‘ozidan 2x1,5 metrli ramkagaqoplama tayyorlaydi. Ishni boshlash uchun 100 voltli lampa kerak bo‘ladi. Chiroq quti ichiga joylashtiriladi, ichini qora rangga bo‘yaladi. Tarang qilib qoplangan matoga qog‘ozdan dekoratsiya jihozini applikatsiya qilib qo‘yish

mumkin. Bolalar o‘zlari tayyorlagan figuralarni ekranda ko‘rib, shodliklari beqiyos bo‘ladiki, ularning kichik shakllari mo‘jiza bo‘lib ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1.Inomova M. Oilada bolalarning-ma’naviy axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. –T.: Fan 1995 yil

2.Ibragimov X. Oila tarbiyasida milliy xususyatlarini xisobga olish. Xalq ta’limi. –T.: 2004 y. №5

3.Yo‘ldosheva R. O‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. – T.: O‘qituvchi, 1992. – b.

4.Munavvarov A. Oila pedagogikasi. – T.: O‘qituvchi, 1994. – 150 b.

5. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. – T.: O‘qituvchi, 1999. – 200 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OLIMLARNING ILMIY PEDAGOGIK QARASHLARI

Axmatova Xolisxon Yuldashevna
Qo‘rg‘ontepa tuman Qorasuv shahar
51-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang’ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Inson faoliyati – uning rivojlanishi uchun zarur sharoit, ana shu sharoit jarayonida hayotiy tajribaga ega bo‘ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o‘zlashtiradi, malaka va ko‘nikma hosil qiladi. Maqolada boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda olimlarning ilmiy pedagogik qarashlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, o‘quvchi, obyekt, subyekt, faoliyat, ta’lim sifati, o‘quvchining ruhiy holati.

Inson faoliyati ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, hayotning ijtimoiy sharoitlari bilan belgilanadi. Inson o‘zini faol subyektga, o‘zi munosabatga kirishgan tabiat hodisalarini esa o‘z faoliyatining obyektiga aylantiradi.

Har qanday faoliyat maqsad, usul, natija va jarayonlardan iborat bo‘ladi. Faoliyatning ongli ravishda amalga oshirilishi uning asosiy xususiyatidir. Zero, faoliyat bir tomondan jismoniy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan

esa aqliy harakat vositasida ongda sodir bo‘ladi. Mehnat inson faoliyatini amaliy va nazariy shakllarining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Inson faoliyatining boshqa turlari (o‘yin, o‘qish va boshqalar) ham genetik jihatdan mehnat bilan bog‘liqdir.

Ijtimoiy – tarixiy rivojlanish jarayonida mehnat asosida maxsus ijtimoiy – zaruriy nazariy faoliyat sifatida aqliy mehnat paydo bo‘lgan. Faoliyatning ham moddiy, ham ma’naviy o‘zilmasining tahlili uning mazmunini tashkil qiladigan quyidagi asosiy elementlarni aniqlab beradi: faoliyat undovchi sabablar; maqsadga yo‘naltirilgan natijalar; faoliyat yordamida amalga oshiriladigan vositalar. Shunga muvofiq ravishda subyektning borliq bilan o‘zaro harakat jarayonining o‘zida muayyan tarzda yaxlit motivlashtirilgan faoliyat, uning tarkibida maqsadga qaratilgan harakat va nihoyat, mazkur harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismlari-operatsiyalar ajralib chiqadi.

Psixolog olimlar: A.N.Leontev S.L. Rubinshteyn va boshqalarning tadqiqotlariga ko‘ra turli xil psixik jarayonlarning o‘tishi va rivojlanishi faoliyatlarining mazmuni va tuzilishi, uning motivlari, maqsadlari va amalga oshirish vositalariga bevosita bog‘liq. Shuningdek, P.Ya.Galperin, B.D. Elkoninlar o‘z tadqiqotlarida tashqi moddiy ta’sir asosida ularning izchil o‘zgarishlari orqali aqliy jihatdan sodir etiladigan va insonni atrof-olamga har tomonlama mo‘ljal olishini ta’minlaydigan ichki ideal harakati shakllanadi, – degan fikrni ilgari suradilar. Harakat davomida faoliyat bolaning psixofiziologik imkoniyatlarining o‘sishi, uning hayotiy tajribalarining ortishi munosabati bilan o‘zgarib turadi, zarur paytda atrofidagi odamlarning murakkabroq talablarini bajaradi. Bola rivojlanishining har bir yosh bosqichida muayyan faoliyat (masalan, maktabgacha yoshda o‘yin, maktabda o‘qish) yangi psixik jarayonlar hamda shaxs xususiyatlarining shakllanishida yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Insonning hayotda namoyon bo‘lishining muhim shakli uning atrof-olamga bo‘lgan faol munosabatidir. Faoliyatga inson turli ehtiyojlar sababli majbur bo‘ladi. Bu ehtiyojlar uning ongida unga tegishli bo‘lgan obyektlar, uning ehtiyojlarini qondirilishiga olib keladigan harakatlarning obrazi tarzida ifodalanadi. Faoliyat

motivatsiyalar xarakteriga ko‘ra ko‘p jihatdan uning bajarilishidagi harakatga shu bilan birga maqsadga erishishdagi natijaga bog‘liq. Faoliyatning motivi va maqsadi inson hayotining ijtimoiy sharoiti va uning individual rivojlanish darajasi bilan ham belgilanadi. Individ tomonidan ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish faoliyatning individual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Faoliyat bar qator o‘zaro ichki bog‘langan harakatlar orqali amalga oshiriladi. Biroq yaxlit holda har bir faoliyat ongli xarakterga ega bo‘ladi. Ongli maqsad qonun sifatida inson harakatining usul va xarakterini belgilab beradi. U istalgan natijaga erishish yo‘lida paydo bo‘ladigan to‘siqlarni faol yengib o‘tishga undaydi. Inson faoliyatining asosiy turi, yuqorida ta’kidlaganimizdek, uning jismoniy va aqliy mehnati hisoblanadi. Jismoniy, unumli mehnat jamiyat va har bir inson hayoti uchun zarur bo‘lgan moddiy boyliklar yaratishga qaratilgan. Aqliy mehnat borliqni o‘rganishga, ilmiy nazariyalar yaratishga, adabiy, badiiy va boshqa ma’naviy boyliklar yaratishga yo‘naltirilgan. Inson faoliyatining muhim turi – o‘rganishdir.

Inson faoliyati – uning rivojlanishi uchun zarur sharoit, ana shu sharoit jarayonida hayotiy tajribaga ega bo‘ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o‘zlashtiradi, malaka va ko‘nikma hosil qiladi. Ana shular yordamida faoliyatning o‘zi ham rivojlanadi. A.Leontev, S.Rubinshteyn, B.Teplov va boshqalarning tadqiqotlaridan ma'lumki, faoliyat va psixik jarayonlar rivojlanadi, insonning aqliy, emotsional va irodaviy sifatlari, uning qobiliyati va fe'l-atvori shakllanadi.

Falsafiy jihatdan ta'riflaganda faoliyat – subyektning obyekt bilan o‘zaro harakati jarayonidagi vazifasini xarakterlaydigan tushuncha. Faoliyat – atrof-muhit bilan o‘ziga xos aloqa inson bilan muhit o‘rtasida vosita, uni tartibga soladigan, nazorat qiladigan o‘zaro munosabat. U insonda ruhiy holatning mavjudligini ko‘zlaydi va shu bilan birga uning paydo bo‘lishining asosiy shartini tashkil etadi hamda rivojlanishida harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

Ma’lumki, inson biologik va sotsial (ijtimoiy) jihatdan rivojlanadi. Uning biologik jihatdan rivojlanishi go‘daklik, bolalik, o‘smirlik, o‘spirinlik, yoshlik, qarilik davrida namoyon bo‘ladi va o‘ziga xos tabiiy xususiyatlari bilan farq qiladi.

Insonning biologik xususiyatlari negizida uning ijtimoiy sifati va xususiyatlari-nutqi, yurish-turishi, moddiy ne'matlardan foydalanishi ko‘nikmalari, xulq- atvor me’yorlarining tarkib topishi, bu me'yorlarga rioya qilishi mehnat faoliyati va kasb-hunar, bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilishi ongli intizom kabilar shakllanadi.

Rivojlanishni L.S.Vigotskiy talim jarayoni bilan birgalikda qaraydi. Lekin ta’lim va tarbiya bola rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lsa ham, ammo hech qachon bir-biri bilan teng va parallel holda sodir bo‘lmaydi. Ular bevosita bir-biriga bo‘ysunmagan holda dinamik tarzda sodir bo‘ladiki, buni bir xil ta’riflash mumkin emas.

Bolaning rivojlanishida yuqori psixik xususiyatlar ikki holatda paydo bo‘ladi: birinchisi, jamoaviy, ijtimoiy faoliyat, ikkinchisi esa, individual, bolaning ichki tafakkuri usuli sifatida. Birinchisi, bolada qator ichki rivojlanuvchi jarayonlarni qo‘zg‘atib, uni rivojlanishga undaydi.

Ikkinchisi esa bolaning ichki tafakkuri usuli sifatida individual tarzda paydo bo‘ladi.

Demak, ta’limda rivojlanish yo‘llanma bo‘lib, bolani hayotga tayyorlaydi. Ichki rivojlanish jarayonlarini harakatga keltiradi, shunga ko‘ra ta’lim rivojlanish emas; lekin to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim bolalarda aqliy rivojlanish va hayotda ta’lim tarbiyasiz amalga oshirib bo‘lmaydigan jarayondir. Xullas, ta’lim bolaning rivojlanish jarayoning eng muhim pallasi sanaladi. Psixologlarning ta’kidlashicha, an’anaviy boshlang‘ich ta’lim tizimi – o‘quvchilarning to‘liq rivojlanishini ta’minlay olmaydi, balki ularda maktabgacha ta’lim davridan boshlab hissiy kuzatuvlar, empirik tafakkur amaliyotga tayyorlaydi xolos.

Shuning uchun ham V.V.Davidov tomonidan fikrlash faoliyatiga asoslangan ta’lim mazmuni ishlab chiqildi. D.B.Elkonin tomonidan esa kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda nazariy bilimlarni o‘rganish jarayonida tahlil qilish, rejalashtirish, refleksiya, o‘quv faoliyati nazariyasi va uning subyekti masalalari asosida rivojlanishi masalalari tadqiq etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Выгоцкий Л. С.Собр.соч., 2-том, М.,1982.

2. Do‘stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar, 2013.

3. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.

4. G‘oziyev E. G‘. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2014.

UMUMIY O`RTA TA‘LIMDA AXBOROT-OMMUNIKASION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH SAMARADORLIK OMILIDIR.

Azizova Moxiniso Qambaraliyevna
Xo`jaobod tumani 24-maktab
Informatika vat fani o`qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola umumiy o`rta ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini ochib beradi. Ta'limdagi AKT vositalari qanday vazifalarni hal qilishga qaratilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan umumiy ta'limda foydalanishning asosiy yo'nalishlari.*

Kalit sozlar: *intellektual, DTS (Davlat ta`lim standarti), metodlar, universal, didaktik, integrasiya, global.*

Аннотация: *В статье раскрывается эффективность использования информационно-коммуникационных технологий в общем среднем образовании. Какие задачи направлены на решение инструментов ИКТ в образовании. Основные направления использования информационных и коммуникационных технологий в общем образовании.*

Ключевые слова: *интеллектуальный, ГСО, методика, универсальный, дидактический, интеграционный, глобальный.*

Ta‘lim inson tafakkurini kengaytiradi va o‘z navbatida inson hayoti ravnaqiga ham ijobiy ta‘sir qiladi. Bu borada-kishilik jamiyati madaniyati va taraqqiyoti insondagi yashirin imkoniyatlar, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etish, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, tashabbuskorliklarda voyaga yetib kelayotgan yoshlarimizning bugungi hayotidagi faol ishtirokiga bog‘liq.

Bugungi intellektual salohiyat uchinchi ming yillikning birinchi asrini «intellektual asr‖ deb atashni taqozo etayapti, chunki XXI asr jahonda fan-texnika

rivoji misli ko‘rilmagan darajada tezkor rivojlanish asri bo‘lmoqda. Bunda ta‘lim-tarbiya, fan, san‘at, adabiyot, sanoat, ishlab chiqarishni hamda ma‘naviyatni ham axborotlashtirishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi, chunki axborotlashtirishni XX asrning so‘nggi o‘n yilligida butun kishilik jamiyati rivojlanish resursi deb tan olindi. Bunday fikrni bildirishga olimlarimiz tomonidan oldindan qilingan bashoratomuz fikrlar ham mavjud edi. Xususan bu borada akademik V.M. Glushkovning quyidagi fikri ham ahamiyatlidir: ―XXI asrda texnik rivojlangan davlatlarda axborotlarning asosiy qismi qog‘ozsiz –EHM xotirasida saqlanadi. XXI asr boshlarida ushbu axborotlardan foydalana olmagan kishi XX asr boshidagi o‘qishni bilmaydigan kishiga o‘xshab qoladi‖.

Mamlakatimizdagi bugungi taraqqiyot darajasiga e‘tibor beradigan bo‘lsak Respublikamizda axborotlashgan jamiyat qurish yo‘lidagi asosiy vazifa axborot maydonining barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirish va undagi boshqaruv subyektlari faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqish hisoblanadi.

Demak, XXI asrda bo‘lajak pedagogik mutaxassislarga bo‘lgan talab fan-texnika va ayniqsa informasion texnologiyalar rivojiga mos ravishda kun sayin o‘sib bormoqda.

Shu sababli ham bo‘lajak pedagogik mutaxassislarni tayyorlash DTS ga qo‘shimcha qilib quyidagi talablarni qo‘yish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

 mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqqan holda jamiyat va davlatning zamonaviy talablarini qondirish, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning ilg‘or yutuqlaridan kadrlar tayyorlashda uzluksiz va uzviy foydalanishga erishish;

 kelgusida, ya‘ni ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar uchun ham javob beradigan kadrlar tayyorlash siyosatining ustivorligiga erishish, ta‘limda ijobiy sifat o‘zgarishlariga hamda yuqori samaradorlikka erishish borasidagi ilmiy-texnikaviy va informasion ma‘lumotlar bazasini yaratish;

 DTS (Davlat ta`lim standartlari)dagi sifat ko‘rsatgichiga va samaradorlikka erishishning ilmiy uslublarini ishlab chiqish, bu sohadagi optimal variantlarni tanlashga istiqbolli ilmiy-uslubiy ishlanmalarni tayyorlash zarur;

 ta‘lim shakllarini muntazam ravishda optimallashtirish vazifasini har – bir o‘qituvchining kundalik kasbiy faoliyatiga aylanmog‘i zarur va buning natijasida texnik va inson resurslari hamda ularning o‘zaro ta‘sirini hisobga olib, butun o‘qitish, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish va ularni amaliyotda qo‘llash tizimini yaratish va shu kabilar.

Ta‘lim jarayoni o‘ziga xos ko‘p variantli dinamik jarayondir va uni boshqarish esa yetarli darajadagi ijodkorlikni talab etadi. Bugungi kunda ta‘lim metodlari, usullari va texnologiyalari zamon bilan hamnafas bo‘lib kengayib bormoqda. Ayniqsa ta‘limda axborot texnologiyalarini joriy qilish shu kunning dolzarb va istiqbolli muammolariga aylanmoqda. Bu texnologiyalarni amalda joriy etishda qaralayotgan ta‘lim yo‘nalishidagi o‘quv rejasining fanlar bloklari va ularning aloqadorligini hamda tayanch fanlar bilan integrasiyasi e‘tiborga olinsa, mazkur soha bo‘yicha istiqbolli pedagogik samaralar qo‘lga kiritiladi.

Hozirgi paytda umumiy o`rta ta‘limda axborot-kommunikasion texnalogiyalarni joriy etish jadal sur‘atlarda amalga oshmoqda. Kompyuter auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv mashg‘ulotlarida o‘quv ishlarini bajarilishini ta‘minlovchi universal didaktik qurilma hisoblanadi. Bu esa, umumiy o`rta ta‘lim ishini tashkil etishga an‘anaviy yondashuvlar va foydalaniladigan ta‘lim texnologiyalarini qayta ko`rib chiqish zarurligini keltirib chiqaruvchi, ular ish faoliyati sharoitidagi global o‘zgarishlarga olib keladi. Bu davr taqozasi hamdir. Bunga sabab AKT dan foydalanish sharoitida kompyuter texnikasining mavjud dasturiy va texnik ta‘minotini doimiy ravishda modernizasiyalash, o‘quv jarayoniga AKT ni yaratish va undan amaliy faoliyatda foydalanish sohasida umumiy o`rta ta‘lim o‘qituvchilari va mutaxassislari malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, o‘quv jarayonini boshqarishni takomillashtirish

imkonini beruvchi axborotlashtirilgan ta‘lim muhiti (ATM)ni mazmunli va texnologik jihatdan rivojlantirish hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hamma vaqt ham har qanday o‘qituvchi o‘zida mujassam qila olish imkoniyatiga ega bo‘lavermaydi. Bunday hollarda o‘rganilayotgan fanning o‘quv-uslubiy ta‘minotini kompyuterlashtirilgan holda tayyorlash juda katta ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘qituvchi birinchidan, o‘zining fani bo‘yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lgan bo‘lishi kerak bo‘lsa, ikkinchi tomondan ZAT(zamonaviy ta`lim vositalari) va tizimlarini ham yuqori darajada bilishligini talab etiladi. Buning natijasida o‘qituvchi muayyan fan bo‘yicha axborotlashtirilgan ta‘lim muhiti (ATM)ni yarata oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ashurova D., Yuldoshev Z. Ta‘lim tizimida innovasion va axborot texnologiyalarini qo‘llash // Xalq ta‘limi.–Toshkent: 2006. – №1. – B. 15-19

2. Jaloliddinov Z. Axborotlashtirilgan ta‘lim muhitida pedagogik faoliyatiga qo‘yilgan talablar // Xalq ta‘limi.–Toshkent: 2007.-№4. – B. 18 – 21.

3. Jo‘rayev R.H., Toyloqov N.I. Axborotlashtirilgan ta‘lim muhiti – o‘qitish samaradorligini oshirish vositasi // Uzluksiz ta‘lim. – Toshkent: 2004. 5–7.

4. Rashidov X.F., Saloxutdinov R.Z., Razilova M.M. Pedagogik diagnostikada kvalimetrik metodlaridan foydalanishda kompyuter texnikasini qo‘llash. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: 2006. – 42 b.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA ONA TILI FANINI O‘QITISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINNING O‘RNI.

Bektemirova Nafosat Xamidullayevna
Oltinko’l tumani
49-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi.

Annotatsiya;Tezisda boshlang’ich sinflarda ona tili fanini o’qitishda ta’lim texnologiyalarining ahamiyati, ularni qo’llash usullari, turli metodlar haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: texnologiya, metod, interfaol, usullar, mafkura.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning odilona siyosati hamda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli xalqimiz ma’naviy hayotidagi

boshqa ko‘plab masalalar qatori til masalasi ham kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi.Ayniqsa, ona tilimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori va nufuzini yuksaltirish, mamalakatimizning jahon kommunnikatsiya tizimida integratsiyalashuvni ta’minlash , farzandlarimiz uchun axborot texnologiyalarini har tomonlama puxta egallash borasida qulay imkoniyatlar yaratish kabi bir- biridan muhim vazifalar kun tartibiga qo‘yildi va jarayonlar bugun ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

O‘tkir Hoshimov yozganidek : ”Qancha ko‘p tilni bilsangiz , shuncha yaxshi, biroq odam ona tilida yig‘laydi...O‘limi oldidan onasini ona tilida tush ko‘radi ,ona tilida yo‘qlaydi...”Anglashiladiki, ona tili insonning mavjudligi asosi, tamal toshidir. Inson ona tilisi bilan tirik.Shu bois, maktab, akademik litsey va kollej o‘quvchisida ,oliy o‘quv yurti talabasida lingvistik kompetentlikni shakllantirish, avvalo, ona tilini muqaddas, uning mo‘tabarligini , azizu mukarramligini uqtirishdan boshlanmog‘i va uni ta’lim oluvchining yosh xususiyatiga ko‘ra rivojlantirib borilmog‘i kerak.Ta’kidalash joizki, universitet va pedagogika institutlarining nafaqat filologiya,balki barcha yo‘nalishlarida kasbiy kompetentlikning uzviy qismi sifatida lingvistik kompetentlikka xos malaka va ko‘nikmalarni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish lozim.

O‘qituvchining kasbiy mahorati,o‘quvchilarning ongi, bilimi dunyoqarashini o‘stirish, faolliklarini oshirish orqali ta’lim samaradorligiga erishish bilan bog‘liq masalalar majmuini ifodalaydi.Bir- biriga bog‘liq bo‘lgan talablarning bu majmui o‘qituvchining umumlashtirilgan modeli va unga asosan quyidagi asosiy talablarni ifodalaydi :

-Ta’lim berish mahorati ;

-Tarbiyalay olish mahorati;

-Ta’lim oluvchilarning bilimlarini holisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Demak, pedagog o‘z oldiga qo‘yilgan ma’suliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish hamda ta’lim - tarbiya jarayoniga bo‘lgan yangicha qarashlarni shakllantirish uchun qator xislatlarga ega bo‘lish kerak.

Pedagogik texnologiyalar mohiyati va tamoyillari hamda uning an’anaviy o‘qitish jarayonidagi afzalliklarini bilish, shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligini ta’minlash uchun pedagog innovatsiyalarni qo‘llay olish ;

O‘quvchilarga o‘z fani buyicha ta’lim berishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olishi ,o‘quv jarayonini faollashtirishi hamda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning yuqori darajasiga erishishi va o‘quvchilarni mustaqil fikrlash , o‘z fikrini erkin bayon etishga o‘rgatishi;

O‘z fanining mohir ustasi va fidoyisi bo‘lishga erishishi lozim.

Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda “FSMU” texnologiyasini qo‘llash orqali ularda mustaqil fikrlash ,o‘zgalar fikrini hurmat qilish, o‘z -o‘zini va o‘zgalarni nazorat qilish,tasavvurlarni ijodiy yoritib berish,fikrlarni umumlashtirish ,xulosalash ko‘nikmalari shakllantiriladi.

“Insert “ va “Blits- so‘rov” usullarini qo‘llashda o‘quvchilarning kitobxonlik darajasini orttirish samarali o‘qish tizimini shakllantirish ,savodxonligini oshirish ,lug‘at boyligini o‘stirish ,nutq madaniyatiga erishish malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Asosiy innovatsion usullardan biri “Aqliy hujum “ hisoblanadi .”Aqliy hujum “ usuli va termini amerikalik olim A.F.Osborn tomonidan tavsiya qilingan .Hozirgi kunda uning bir necha qo‘llanish usuli ishlab chiqilgan bo‘lib,undan maqsad g‘oyalarni yig‘ish, muammoli masalalar yuzasidan har tomonlama fikr almashishdir.

Mazkur usulning asosiy tamoyili va qoidasi – ishtirokchilar taklif qilgan g‘oyani umuman tanqid qilmaslik,turli hazil,e’tirozlarni rag‘batlantirish,ularni fikrlashga undashdir.

“G‘alaba cho‘qqisi” didaktik o‘yini har bir mavzuni mustahkamlash jarayonida qo‘llanilishi mumkin .O‘quvchi o‘yin faoliyati jarayonida o‘zi bilmagan holda fanni egallab borayotganini namoyish qiladi.

“Matn yaratish texnologiyasi “ o‘quvchi lug‘at boyligini oshirishdan tashqari ijodkorlik qobiliyatini shakllantiradi, ,savodxonligini yuzaga chiqaradi.

“Bumerang” texnologiyasini qo‘llash o‘qituvchidan yuksak maxorat talab kiladi Bu texnologiyani qo‘llash bilan o‘tilgan darslarni 90%ni takrorlash va mustahkamlash orkali bilimlar orttiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki,ona tili darslari noan’anaviy dars usullaridan ,ta’lim texnologiyalaridan foydalanish asosida tashkil etilsa, o‘quvchi – o‘qtuvchi (ob’ekt –sub’ekt)munosabati o‘rnatiladi.Yani,bu har bir o‘quvchini yangilik sari etaklaydi, uning mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, faolligi, o‘qishga mas’uliyatini oshiradi. O‘quvchining bilimlari mustahkamlanadi , puxta o‘zlashtirishga erishiladi va dars samaradorligi kafolatlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 5-jild, 613-bet.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: “O‘ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.– 2-jild, 582-b.
3. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim strategiyasi muammolari va ta’lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo‘llari/ R. Safarova, U. Musaev, P. Musaev, F. YUsupova, R. Nurjanova. – T.: Fan, 2005. – 217-218-betlar.

INNOVATSION YONDOSHUVLAR YORDAMIDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI

Bo’ronova Saida Isroiljonovna,
Oltinko’l tumani 49- umumta’lim maktab
Boshlang'ich sinf o`qituvchisi

Annotatsiya; Ushbu tezisda innovatsion yondoshuvlar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari bayon qilingan.

Kalit so’zlar: zamonaviy o’qituvchi, innovatsion yondoshuv, interfaol Respublikamizda ta'limning umumiy maqsadi- ijodiy va mustaqil fikrlovchi hamda yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash. Bu esa har bir fanning maqsad va vazifalarini belgilab olishni taqozo etadi. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturida ta'lim o'quvchining ongli va faol ravishda o‘z malaka va konikmalarini shakllantirishiga qaratilgan. Demak, ta'lim usuli, mazmuni hamda ta'lim vositalari ana shu vazifalarning aniq va puxta bajarilishiga yonaltiriladi. Zamonaviy ta‘limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan.

Ta‘lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta‘lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo’llaniladigan an‘anaviy kategoriyalar bo’lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma‘lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo’yicha o’quv tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo’naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil jarayonning vazifasini bajaradi.

Zamonaviy o’qituvchi dars jarayonida “aktyor” emas, aksincha “rejissyor” bo’lishi kerakligini bo’lg’usi o’qituvchilar auditoriyadanoq anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta‘lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba, interaktiv metodlar, innovatsion yondoshuvlar asosida o’quvchilarni bilimli, etuk malakaga ega bo’lishliklarini ta‘minlaydi.

Innovatsiya-inglizcha so’z bo’lib, ‘yangilik kiritish’ degan ma‘noni anglatishi barchamizga ma‘lum. Innovatsiya - ijtimoiy madaniy ob‘ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub‘ektlarning xarakat tizimi bo’lib, kutilayotgan

natijalarga olib keladigan yangiliklar tizimini tashkil etadi.

Zamonaviy o’qituvchi ta‘lim– tarbiya jarayonida innovatsion yondoshuvlardan foydalana bilishi va amalga oshira olishi lozim. Bu jarayonda bo’lajak o’qituvchilarga quyidagi talablarni qo’yiladi:

- ta‘limda innovatsiya tushunchasini, uning mazmun mohiyatini bilishi;

- innovatsion texnologiyalarning ta‘lim maqsadini amalga oshirishdagi o’rni va rolini bilishi;

- innovatsion texnologiyalarni fanlar bo’yicha qo’llash tamoyillarini bilishi;

- o’quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta‘minlash yo’llarini bilishi;

- ilg’or pedagogik texnologiyalarni qo’llab, na‘munaviy imitatsiya o’quv mashg’ulotlarini o’tishi;

- ta‘lim-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi va egallashi kerak.

Uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to’liq foydalaniladi. O’qitishning interfaolligi-o’quvchining bilish faoliyatini faollashtirish va o’zaro ta‘sir asosida tayyorgarlik samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biridir. Interfaol mashg’ulot-o’qituvchi va o’quvchilar o’zaro faol ishtirok etadigan mashg’ulot; jarayon hamkorlikda kechadi. Interfaol metodlarni o’quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo’lmasin, qayerda o’tkazilmasin darsda o’qituvchi bilan o’quvchining hamkorlikda ishlashini va natijada o’zlashtirishlarini ta‘minlashi lozim. Bunda o’qituvchi faqat fasilitator (yo’l-yo’riq ko’rsatuvchi, kuzatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi.

Ushbu metodlar orqali o’quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

Interfaol metodlarda o’qitishning mohiyati quyidagicha:

- ✓ o’rgatuvchi ham o’rganuvchi ham ma‘lumotlar bilan faol ishlashi;
- ✓ o’quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi va o’rgatishi;
- ✓ o’qituvchiga ‘o’quvchilarni fikrlashga o’rgatish uchun’ xizmat qilsa, o’quvchilarga esa, ‘fikrlashni o’rganishlari uchun’ xizmat qilishi;

Interfaol usullardan foydalanish shakllari:

1. Individuallashtirish;

2. Kichik guruhlarga ajratish;

3. Tabaqalashtirish:

4. O’rgatish va o’rganish jarayonida demokratik, do’stona muhitni yaratish;

5. O’zaro muloqot, hamkorlikni tashkil etish.

Demak, interfaol metod-ta‘lim jarayonida o’quvchilar hamda o’qituvchi o’rtasidagi faollikni oshirish orqali o’quvchilarning bilimlarini o’zlashtirilishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlarni qo’llash-dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta‘limnig asosiy mezonlari norasmiy bahs-munozaralar o’tkazish, o’quvchilar tashabbus ko’rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, sinf jamoasi bo’lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo’lib, ular ta‘lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o’ziga xos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyodlar;

1.Azizxo‘jayeva N.N.Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006 y. 200b

2.Tolipova J.O.Pedagogik texnologiyalar – do’stona muhit yaratish omili - T.: YuNISEF,2005.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O’QUVCHILARNI KITOBXONLIKKA O’RGATISH

Ergasheva Ra’noxon Yo’ldashevna
Qo’rg’ontepa tuman 21-umumta’lim maktabining boshlang’ich sinf o’qituvchisi Xalq ta’limi a’lochisi .

Har gal sinf xonasiga kirib borar ekanman, menga umid, ishonch, hayrat nigohlari bilan boqayotgan ko’zlar oldida ulkan mas’uliyatni anglayman.

Bolalar dunyodagi eng toza, eng beg'ubor, eng buyuk mavjudoddirlar. Ularning buyukligi shundaki, ular ertangi kun yaratuvchilaridir.

O'quvchining ongi-yu, qalbi toza daftarga o'xshaydi. Biz unga nimani yozsak, shu bilan boyib boradi. Ma'naviy sog'lom farzand jamiyatning bebaho boyligidir. Chunki inson ma'naviy sog'lom bo'lsa, iste'dodi, aqli va g'ayrati bilan vataniga, xalqiga, umuman jamiyatga xizmat qiladi.

Yurtboshimiz aytganlaridek, ''Har tomonlama sog'lom avlodga ega bo'lgan xalqni hech qachon yengib bo'lmaydi''. Kichik maktab yoshidanoq o'quvchi yoshlarni ma'naviy boy qilib tarbiyalashda kitobning o'rni beqiyosdir. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika asrida bolalarni ,,Kitob o'qing'' degan da'vat bilan mutaolaga, kitob o'qishga jalb etish qiyin.

Kitob- tafakkur gulshani, aql qayrog'i, bilim manbayi, baxt-saodat kaliti, sodiq do'st, ishonchli hamkordir. Kitobga mehr-nurli kelajakka qo'yilgan poydevordir. Bir donishmandning ,,Odamlar kitob o'qishdan to'xtasalar, fikr yuritishdan ham to'xtaydilar'' degan fikrlari haqiqatdir.

Bugun davlatimiz rahbari kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishni davlat siyosati darajasiga olib chiqdi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan olg'a surilgan ,,5 tashabbus''ning to'rtinchi yo'nalishi ham kitobxonlik madaniyati ni oshirishga qaratilgan.Respublika miqyosida o'tkazilayotgan ''Yosh kitobxon'' ko'rik tanlovi ham buning dalilidir.

Xo'sh, mana shunday qizg'in pallada biz ustozlar qanday ishlarni amalga oshirishimiz darkor? Keling, ta'lim sohasining 30 yillik zahmatkashi sifatida o'z tavsiyalarimni bayon etsam.

1-ish. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni savod o'rgatish bosqichi jarayonida badiiy kitobga oshno qilishni boshlaymiz. Turli, rangli-rasmli ertak kitoblarni sinfdan tashqari dars daqiqalarida o'qib, mazmunini tushuntirib, rasmlarni tomosha qilishga beramiz. Shubhasiz, bola rangli berilgan, ertak asosida chizilgan rasmlarni qiziqib ko'radilar, kitoblarni zavq bilan varaqlaydilar. Kitoblarga mehr bilan boqadilar.

2-ish. Bolalarning savodi chiqdi. Ular hijjalab o’qiy boshladilar. Ular bilan suhbat o’tkazaman.

–Bolalar aytingchi ota-onangiz bozorga ketayotsa, bozordan nima olib kelishini iltimos qilardingiz? Bolalardan biri ‘‘Shirinlik’’ desa, yana biri sevimli o’yinchog’ini, yana biri ‘‘kelin ko’ylak’’ va hokazolarni aytadilar. Men esa ularga “Men sizning o’rningizda bo’lganimda, Onajonim yoki dadajonim, mehribonim! Men sizlarni juda yaxshi ko’raman. Agar pulingiz ortib qolsa menga 1ta ertak kitobi olib keling ,iltimos, degan bo’lar edim”. Insonning ko’ngli mehrga to’la “sehrli so’zlar”dan hamisha iyadi. O’quvchilarga shu tariqa “sehrli so’zlar” bilan murojaat qilishni ham biz ustozlar o’rgatishimiz kerak. Farzandidan shunday so’zlarni eshitgan har qanday ota-ona farzandiga albatta ertak kitoblar sovg’a qiladi, olib beradi.

3-ish. Bola ota-onasi olib bergan kitobni uyda qiziqib o’qidi, hech yo’q varaqlab ko’rdi. Maktabga olib bordi. Partasini ustiga qo’yib, bizni e’tiborimizni kutyapti. Jur’atlisi “Qarang menga ertak kitob olib berdilar” deb aytadilar. Har qancha ishimiz ko’p bo’lsa ham bu jarayonga befarq qaramaymiz. Bu kitobning kelishini bayramga aylantiramiz. “Qarang, Zahroning onasi qanday zo’r kitob olib beribdi, bu juda qiziq ertak bo’lsa kerak. O’qidingizmi? O’qib bo’lgach, o’rtoqlaringizga ham bering, ular ham o’qib chiqishsin” deymiz. Bu kitob sinfda shu kuni qo’lma- qo’l bo’ladi. Mana endi kitob oldirayotgan o’quvchilar soni ko’payadi. Har safar yangi kitobning sinf xonaga kirib kelishi (2-3minut) nishonlanadi. O’quvchilarga ertak kitobingizni o’qib bo’lgach, o’rtoqlaringizga ham bering, almashtirib o’qing, so’ng kitob javoningizga ehtiyot qilib olib qo’ying. O’qiganingizni sinfdan tashqari o’qish darslarida so’zlab berasiz. Har chorak ta’tilidan so’ng “Eng yaxshi kitobxon” tanlovi o’tkazamiz. Kitoblaringizni shunda sanaymiz degan topshiriqlar beriladi.

4-ish. Unutmaylik, hamma ota-ona ham bolaga kitob olib kelib bermaydi. Ularning qalbiga yo’l topish ham biz ustozlar zimmasida. Qanday qilib deysizmi? Ota-onalar majlisida “Hurmatli ota-onalar! Farzandingiz taqdiri siz uchun qanchalik

muhim bo’lsa, bugun men uchun, davlatimiz uchun ham shunchalik muhim. Farzandingizni oqil, dono, fikrlash olami keng, so’zga usta, ochgan eshigini muvofaqqiyat bilan yopishini istaysizmi? Unda ularni kitobga oshno qilib tarbiyalaylik. Siz hayot tashvishlari, kundalik ikir-chikirlardan ortib aytaolmagan juda ko’p masalalar, insoniy tuyg’ularni ular kitobdan o’rganadilar. Onani, vatanni sevishni, do’stni qadrlashni, mehr-oqibatni, yaxshilik va yomonlikni bir-biridan ajratish, oriyatli shiddatkor bo’lish va hokazo…Shu kabi fazilatlar badiiy kitob o’qish orqali bola ongiga singadi”.Va yana “O’zimdagi barcha yaxshi xislatlarim uchun kitobdan minnatdorman” degan edi birr us yozuvchisi. Keling, qariganimizda ko’zimizga nur, belimizga quvvat bo’luvchi, bizning ertamiz, kelajagimiz bo’lgan aziz farzandimizni kitob bilan do’st qilaylik. Ularga har xil badiiy kitob olib beraylik.

Ota-onaga da’vatimiz samarasiz qolmaydi, albatta. Endi o’quvchilarimiz qo’lida turli janrdagi turli kitoblar, sinfdan tashqari o’qish darslarimizda kitoblar bayrami go’yo…

5-ish. Bolalar kitoblar oldirdilar. O’qib boryaptilar. Hech kim so’ramasa, qiziqmasa, qiziqishlari so’nadi. Shuning uchun o’qish darslarining tashkiliy qismlarida har bir bo’limga mos topshiriqlar berish. Masalan, “Maqollar musobaqasi”, “Topag’onlar bellashuvi”, “Shu ertakka o’xshash yana qanday ertaklar bilasiz”? degan mazmundagi topshiriqlar berilsa, mustaqil o’rgangan she’r, topishmoq, hadis, hikoya, rivoyat, tez aytishlar ham mustahkamlash daqiqalarida so’rab turilsa, rag’batlantirilsa, maqsadga muvofiq bo’ladi.

6-ish. Sinfdan tashqari o’qish darslarida imkon darajasida ko’zda tutilgan asar o’qitilib, maqsadlar amalga oshgach,mustaqil o’qilgan asarlar, yod olingan she’r, maqollarni so’rash va rag’batlantirish.

7-ish. Ta’tilga chiqish oldidan o’quvchilarga badiiy kitoblar o’qish, eslab qolish va ta’til tugagach o’qishning birinchi kuni darsdan so’ng “Eng yaxshi kitobxon” tanlovi bo’lishi e’lon qilinadi. Bu ish har chorakda o’tkaziladi. Ta’til tugab, o’qish boshlangan kun. Sinfga kirsangiz, partalar ustida turli-tuman, juda

ko’p kitoblar, hamma bir-birini kitobini ko’rayotgan, o’qiyotgan, sanayotgan… Bu eng ajoyib daqiqalar… O’quvchilarning bu jarayondagi kayfiyatini yana ham ko’targan holda iliq fikrlar aytiladi va kitoblar

yig’ishtiriladi. Shu kuni o’quvchilar dars tugab, tanlov boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar. Tanlovda eng ko’p kitob o’qigan o’quvchilar aniqlanadi. Eng ko’p kitob o’qigan 5 nafar o’quvchi aniqlanib, o’qigan kitoblarini olib sahnaga chiqadilar. Ularning kitoblari orasidan uchtasini oralatib o’qituvchi tanlaydi va bu kitobdan nimani o’qiganligini so’raydi. Agar o’quvchi har uchta kitobdan o’qiganlarini aytib

berolsa, uning o’qiganligiga ishonch hosil qiladilar. Kitoblar sonining ko’pligi va o’qiganlarini so’zlab bera olganligiga qarab o’rin belgilanadi. Ularga maktab ma’muriyati tomonidan “Faxriy yorliq” va o’qituvchi tomonidan badiiy kitoblar sovg’a qilinadi. Ota-onalariga ham “Tashakkurnoma”lar beriladi. Qolgan o’quvchilar ham g’olib o’quvchilarga havas qilib, yana ham ko’p kitoblar o’qishga intiladilar.

8-ish. Biz bolajonlarimizning qalbini kitobga oshno qilib ulgurdik. Ular endi kitoblarni qadrlaydilar, eng qimmatbaho narsa sifatida ehtiyotlaydilar. Bo’sh qoldi degunlaricha “Sinf kutubxonasi”, “Maktab kutubxonasi”dan kitoblar olib o’qishga oshiqadilar. Mana biz erishgan natija… Sevimli yozuvchimiz Tohir Malikning “Odamiylik” qissasida shunday fikrlar bor. “Bola kitob o’qimayaptimi, demak, ota aybdor. Ota o’zi kitob o’qimay turib qanday qilib bolani kitob o’qishga o’rgatishi mumkin?”

Men bu fikrlarga qo’shimcha qilib, “Agar bola kitob o’qimasa boshlang’ich sinf o’qituvchisi ham aybdor” degan bo’lar edim… Chunki, bolani yangi dunyoga – maktab hayoti, bilimlar olamiga olib kiradigan boshlang’ich sinf o’qituvchisining mahorati, fidoiyligidadir. . Boshlang’ich sinf o’qituvchilarining shu tariqa ish olib borishi natijasida o’quvchilarimiz bilimlari o’qish fanidan DTS talablariga javob berishlari bilan birga PIRLS (inglizcha-Progress in International Reading Literacy

Study) – Boshlang’ich sinflarda matnni o’qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro Tadqiqotlarga ham tayyor bo’lib boradi.

Kitob qalb chirog’i, tafakkur qanotidir. Buni yoshlikdan bolalar ongiga singdirish o’qituvchilar zimmasidagi mas’uliyatli vazifalardan biri ekanligi hech qachon esimizdan chiqmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shu.Mirziyoyev. "O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik". Toshkent
2. Tohir Malik "Odamiylik qissasi" Toshkent
3. Ona tili o‘qitish metodikasi.
4. Boshlang‘ich ta’lim jurnali 2022.

O‘yin faoliyatining bola shaxsining shakillanishi va rivojlanishida o‘rni

G’ofurova Ziyodaxon.
Izboskan tuman 30- MTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Maqolada bolaning rivojlanishida o‘yin texnologiyasining ahamiyati yoritilib,amaliy faoliyat namunalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs,tamoyil,iroda,qobiliyat,predmetli,kostruktorli.

Jamiyatning ma’naviy takomili unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog‘liqdir. Shu boisdan ham ta’limdagi yangilanishni, Respublikamizda amalga oshirilayotgan maktabgacha ta’lim tizimiga doir isloxotlarni pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samarali kechishini ta’minlash zaruriyatini yuzaga keltirdi.

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bo‘lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin doimo hayotni aks ettiradi. SHuning uchun uning mazmuni ijtimoiy voqelikda o‘zgarib turadi. O‘yin — maqsadga qaratilgan o‘ylangan jarayondir. O‘yin jarayoni asosida o‘quv faoliyati rivojlanadi. Bola yoshligida qancha ko‘p o‘ynasa, bu maktabda yaxshi o‘qishiga va keyinchalik mehnat faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalar atroflaridagi kattalar uchungina mansub bo‘lgan, xali o‘zlarining kuchlari xam, akllari ham yetmaydigan juda kup narsalarni faqat o‘yin faoliyati orqali o‘zlashtiradilar.O‘yin orqali voqe’likdagi narsa va xodisalarni biladilar. O‘yin tevarak atrofdagi narsalarni bilish vositasigina emas balki, qudratli tarbiya vositasi hamdir. O‘yin orkali Bolaning ijtimoiy foydali,ya’ni yuksak insoniy

xislatlarini ham tarbiyalash lozim. O‘yin mashg‘ulotlarni rejalashtirayotganda har doim maqsadni, hamda mashg‘ulotdan kutilayotgan natijalarni aniqlab olish zarur bo‘ladi. SHundan so‘ng maqsadga erishish uchun qaysi o‘yin, topshiriq yoki mashqdan foydalansa yaxshiroq samaraliroq bo‘lishi aniqlab olinadi.

O‘yin-mashg‘ulotlarning qator tamoyillari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari deb,o‘yinlarda erkin ishtirok etish,o‘zaro hurmat,o‘yin qoidalarini anglab olish,refleksiyani aytish mumkin.

Agarda biz bolalarning o‘yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o‘yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga ko‘proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi,temperamenti) yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘ramiz. SHuning uchun bolalarningo‘yin faoliyatlari, ularning individual ravishda o‘rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o‘zlari yolg‘iz o‘ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o‘yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o‘zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli-rolli o‘yinlarda bolalar, asosan, o‘zlari har kuni ko‘rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o‘yini asta-sekinlik bilan jamoa shaklida bo‘lib boradi.Bolalarning individual hususiyatlarini, xususan, ularning jamoa o‘yinlari orqali kuzatish qulaydir Bu o‘yinlarda bolalar kattalarning faqat predmetlarga munosabatini emas, balki ko‘proq o‘zaro munosabatlarini aks ettiradilar. SHuningdek,jamoa o‘yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar.Ma’lum rollarga bo‘lingan jamoa o‘yin, bolalardan qat’iy qoidalarga bo‘ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. SHuning uchun bolalarning bunday jamoa o‘yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. CHunki, bunday o‘yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o‘yin qoidalariga, tartib-intizomga bo‘ysunish va shu kabi boshqa ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi. Professor Ye.A.Arkin bog‘cha yoshidagi bolalar o‘yinining taxminiy klassifikatsiyasini bergan bo‘lib, bunda bolalarning ma’lum psixik jarayonlarni takkomillashtirishga

qaratilgan,texnikaviy,hayotiy va ijtimoiy-siyosiy,xarbiy va dramatik o‘yinlarga ajratgan.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning intellektual rivojlanganligi fikrlash, umumlashtirish, taqqoslash, ularni guruhlashtirish, xulosa qilish jarayonlarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Bolaning obrazli, fazoviy tasavvuri, nutqi va bilish faolligi rivojlangan bo‘lishi muhim. Intellektual rivojlanganlikni aniqlashni psixik jarayonning ajralmas qismi bo‘lgan xotira jarayonini tekshirishdan boshlash mumkin. Mexanik xotira – 10 ta ixtiyoriy so‘zlar qatori (olma, kitob, qalam, daraxt, suv, oyna, yomg‘ir, mashina, samolyot, bahor) aytiladi va, bir muddat o‘tgandan keyin boladan ana shu so‘zlarni qaytarishi so‘raladi. Ko‘rish xotirasining rivojlanganligi, ko‘rganini yodda saqlash va uni so‘z orqali yoki amalda ifodalash, ko‘rsatish – rasmlar yordamida so‘zlarni eslab qolish vazifasi beriladi:-bola har bir so‘z yoki iboraga o‘zi tushunadigan rasm chizishi kerak bo‘ladi va 1-1,5 soatdan keyin chizgan rasmlarini qo‘liga oladi va har bir rasm qaysi so‘z uchun chizilganini eslaydi.

Mantiqiy tafakkurning rivojlanganligini aniqlash uchun “Xar doim, ba’zida,xech qachon,” o‘yin turidan foydalanish mumkin.Tarbiyachi bolalarga rangli kartochkalar tarqatadi va gap aytadi.Qor qish faslida yog‘adi.xar doim degan javobga bolalar yashil kartochka ko‘taradi.Ba’zida demoqchi bo‘lgan bolalar sariq kartochkalarni,xech qachon demoqchi bo‘lgan bolalar qizil kartochkani ko‘taradilar. Baxorda qor yog‘adi,Yozda bolalar ariqlarda cho‘miladi kabi gaplarni bolalarni o‘zlari xam tuzishlari mumkin.

Bolalarning gap tuzish bo‘yicha malakalarini shakillantirish va oylik yoki xaftalik mavzular bo‘yicha egallagan bilimlarini mustaxkamlashga karatilgan “Akvarium” o‘yini ham juda qiziqarli va bolani xar tomonlama rivojlanishini ta’minlashida xizmat qiladi. O‘yinda bolalar doira bo‘lib turishadi.O‘rtaga 2 yoki 3 ta stul qo‘yiladi.Bolalarga biror kalit so‘z yoki mavzu beriladi.SHu so‘z yoki mavzuga tegishli gap tuzish va tuzgan so‘z yoki gapni faqat doira o‘rtasida turgan stulga o‘tirgan vaqtda aytish sharti uqtiriladi.Doira atrofidagi bolalar har bir aytilan

gapga e’tiborli bo‘lishi, diqqat qilishi, takrorlamasligi va doirada turgan holda tuzgan gapini aytish mumkin emasligi bu shartlar buzilsa o‘yindan chetlashtirilishi bolalarga tushintiriladi.Masalan “O‘lkamizda bahor fasli” mavzusida gap tuzish topshirig‘i berilishi mumkin.

Bolalar bilan o‘tkaziladigan “Ko‘zgu” o‘yini bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantiradi.

Tarbiyachi: “Menimcha, har biringizning uyingizda ko‘zgu bo‘lsa kerak, shundaymi? Ko‘zgusiz ko‘rinishimiz qandayligini bilish qiyin kechadi. Xo‘sh agar qo‘l ostingizda ko‘zgu bo‘lmasa nima qilish kerak? Kelinglar, bugun sizlar bilan ko‘zgular o‘yinini o‘ynaymiz. Hozir har biringiz o‘zingizning juftingizni topib, bir-biringizga qarab turib olasiz. Kim odam, kim ko‘zgu rolini bajarishini aniqlab oling. Keyin esa rollaringiz bilan almashasiz. Ko‘zgu odamning har bir harakatini aniq takrorlasin. CHunki noaniq harakat qiluvchi ko‘zgular bo‘lmaydi. Tayyormisiz? Qani bir harakat qilib ko‘raylikchi! ”.

Tarbiyachi o‘ziga sherik topib o‘yinni qanday o‘ynash kerakligini bolalarga ko‘rsatadi. SHundan so‘ng bolalar mustaqil harakat qila boshlaydilar. Tarbiyachi esa bolalarning harakatlarini kuzatib boradi.Qiynalayotgan juftliklarga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I.V.Grosheva ,Djanpeisova G.E. va b.”O‘yin orqali ta’lim olish.” Metodik qo‘llanma . Toshkent – 2020.

2.Sh.Toshpulatova”Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”T.,2013yil

3.R.Ishmuhamedov va boshq. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog–o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste’dod, 2008.

AQLI ZAIF BOLALAR PSIXOLOGIYASINI O‘RGANISH OMILLARI

G. Imomova- Andijon shahar 50-sonli ko‘p tarmoqli maxsus maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi

Nuksonli bolalar ichida akli zaif bolalar ruxiyati nisbatan mukammal o‘rganilgan tarmoqdir. Ammo, bu tarmoq xam normal bolalar ruxiyatiga nisbatan birmuncha keng, atroflicha o‘rganilmagan.

Aqli zaif bolalarni o‘rganishning mumkinligi va zarurligi, ularni o‘qitish, tarbiyalash kerakligi, tibbiyot, xususan psixiatriyaning rivoji bilan uzviy bog‘liq. SHuni eslatib o‘tish joizki, aqli zaiflar ta’lim-tarbiyasi masalalari dastlab, asosan aqliy nuqsoni og‘ir darajadagi bolalar ustida boshlangan. Nisbatan engil darajadagi aqli zaif bolalarni o‘rganish, davolash, tarbiyalash birmuncha keyinrok, X1X asrning ikkinchi yarmidan keyin yuzaga keldi. 1858 yilda chet el rus pedagogik adabiyotlarida N.A.Dobrolyubov tomonidan aqli zaif bolaning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Uning ko‘rsatishicha, “faollikning pastligi”, “sekin idrok qilish”, “quruq yodlashning ustunligi”, “bir xildagi harakatlar”, “yangi sharoitlarga yomon moslashish”, “bilimlarini to‘g‘ri ishlata olmaslik” – aqli zaif bolalarga xos xususiyatlar ekan.

X1X asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Rossiyada aqli zaif bolalarni o‘rganuvchi, davolovchi, tarbiyalovchi, bilim beruvchi qator davolash, tarbiyalash muassasalari ochila boshlandi. (Riga, Peterburg, Moskva, Kiev shaxarlarida). 1910 yilda Moskvada aka-singil Postovskiylar boshlang‘ich bilim yurti qoshida aqli zaif bolalar uchun yordamchi sinflar ochdilar. Hamda bolalarni o‘rganish uchun eksperimental psixologik kabinet tashkil qildilar.1911 yilda shifokor-psixiatr, professor G.I.Rossolimo Moskvada bolalar psixologiyasi va nevropatologiyasi institutini ochdi. Bu erda akli zaif bolalar ruxiyatining uziga xos tomonlari urganila boshlandi. 1920 yillardan boshlab maxsus psixologiya, xususan aqli zaif bolalar psixologiyasi mustaqil fan sifatida ta’lim tizimiga kiritildi. SHu davrdan boshlab bu muammo davlat axamiyatiga ega bo‘lgan ishlar tizimiga kiritilib, aloxida e’tibor berila boshlandi. 1925 yilda Moskvada eksperimental defektologiya instituti tashkil etildi. L.S.Vigotskiy (1896-1934) raxbarligida muntazam, izchil akli zaif bolalarni urganish boshlab yuborildi. Etuk psixolog L.S. Vigotskiy maxsus psixologiya

soxasida juda katta nazariy meros koldirdi. Hamda xaqli ravishda oligofrenopsixologiyaning asoschisi xisoblanadi.

Mamlakatimiz va ilg‘or chet el defektologlarining nazariy tekshirishlari, hamda yordamchi maktab ilg‘or tajribalarining ko‘rsatishicha, aqli zaif bolalar maxsus ta’lim sharoitida potensial rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘lar ekan. Aqli zaif bolalarning ruxiy taraqqiyot xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari hamda ularning bilim egallash xususiyatlarini bilmaslik, defektologlar uchun kundalik ishlarida katta qiyinchilik, tushunmovchiliklarga olib keladi.

Oligofrenopsixologiya boshqa fanlar singari turli fanlar bilan uzviy bog‘liq. Oligofrenopedagogika, psixiatriya, fiziologiya, logopediya, umumiy va bolalar psixologiyasi va boshqa fanlar shular jumlasiga kiradi. Aqli zaif bolalar ruxiyatining o‘ziga xosligi xozirgi zamon ilg‘or fan yutuqlarining natijalari bilan bog‘lab o‘rganiladi. Normal va nuqsonli bola taraqqiyoti umumiy, yagona qonuniyatlar asosida kechishini xisobga olsak, normal bolalar psixologiyasi fani akli zaif bolalar psixologiyasi uchun ilmiy asos rolini o‘taydi. Ammo, aqli zaif bolalar taraqqiyoti o‘ziga xos yo‘sinda amalga oshadi. Umumiy va ijtimoiy psixologiya ma’lumotlariga asoslanib, aqli zaif bolalar psixologiyasi ish yuritadi. Aqli zaif bolalar psixologiyasi yosh davrlar psixologiyasi yutuqlariga ham suyanadi. Qaysi yoshda, qaysi ruxiy xolatlar, qay darajada o‘sishini, rivojlanishini bilib ish yuritadi. Pedagogik psixologiya ham aqli zaif bolalar psixologiyasi uchun etarli ma’lumotlar beradi.

Ijtimoiy va biologik omillar birligi nazariyasini ochib berar ekan, aqli zaif bolalar psixologiyasi, oligofreniya klinikasi, nevropatologiya, fiziologiya fanlarining yutuqlariga asoslanadi.

Oligofreniya klinikasi aqli zaiflikning etiologiyasini ochib berishga yordam beradi. Nevropatologiya aqli zaif bolalar markaziy asab tizimining anatomik va organik buzilishlari xaqida bilim beradi. Fiziologiya esa, markaziy asab tizimining funksional buzilishlari xaqida axborot beradi. Bularning barchasi aqli zaif bola ruxiyatining nuqsoni xaqidagi bilimlarimizni yanada kengaytiradi. Aqli zaif bolalar

psixologiyasi, markaziy asab tizimining egiluvchanligi xaqida I.P.Pavlovning fiziologik ta'limotiga asoslanadi. Sog'lom qolgan markaziy asab tizimining ayrim qismlari maksimal rivojlanishi, kompensatsiya qilinishi aqli zaif bolalar taraqqiyotidagi yutuqlardandir. Aqli zaif bolalar psixologiyasi psixiatriya yutuqlaridan ham to'la foydalanadi. G.E.Suxareva, M.S.Pevzner aqli zaif bolalarni klinik o'rganish ishlariga juda katta xissa qo'shdilar. Ular tomonidan aqli zaif bolalar etiologiyasi, patogenezi, davolash ishlari, kasallik natijalari, kasallikning ikkilamchi asoratlari atroflicha o'rganildi. Aqli zaif bolalarning o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi, ularning taraqqiyot dinamikasi o'rganildi. Aqli zaiflarga xos, o'xshash tomonlar o'rganilib bayon etildi. Psixiatr, pedagoglar tomonidan hamkorlikda tekshirishlar olib borilishi natijasida aqli zaiflikni pedagogik, psixologik diagnostika, tashxis kilish mezonlari yaratildi. Ayniksa, aqli zaif bolalar psixologiyasi oligofrenopedagogika fani bilan uzviy boglik. Akli zaiflik sabablari, darajasi qanday bulishidan kat'iy nazar, akliy tarakkiyot davom etadi. Xatto, kasallik og'irlashib borganda ham. Bosh miya zararlanishi darajalariga ko'ra taraqqiyot davom etadi. Aqli zaif bolalar psixologiyasi fanining tuzilishi quyidagicha:

Birinchi qismda umumiy psixologiyada bo'lmagan ma'lumotlar joylashgan. Bunda "aqli zaiflik" tushunchasi, aqli zaif bolalar ruxiyatining rivojlanish xususiyatlari, maxsus maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalar tarkibi, aqli zaif bolalar markaziy asab tizimining kasalliklari, aqli zaif bolalarni eksperimental-psixologik tekshirish usullari xaqidagi ma'lumotlar bayon etiladi. Ikkinchi qismda aqli zaif bolalar shaxsi, uning shakllanish xususiyatlari xaqidagi bilimlar o'rin olgan. Uchinchi qismda aqli zaif bolalar bilish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Keyingi yillarda akli zaif bolalar ruxiyatining rivojiga oid tasavvurlar yangi ma'lumotlar bilan boyidi. S.L.Rubinshteynning yozishicha, "a'zo tuzilishi bilan, uning funksiyasi orasidagi bogliklik bir tomonlama emas, funksiya a'zo tuzilishiga boglik bulib kolmasdan, balki a'zo tuzilishi xam uning funsiyasiga boglik"dir.

Akli zaif bolalar psixologiyasi fanining maksad va vazifalari shu toifa bolalarning ruxiy xususiyatlari xaqidagi bilimlar bilan defektologlarni, oligofrenopedagoglarni qurollantirishdan iborat. Aqli zaif bolalar ta’lim-tarbiyasini, korreksiyasini to‘g‘ri tashkil qilish uchun bu bolalarning xususiyatlari xaqidagi bilimlar juda zarur. Aqli zaif bolalar psixologiyasi ma’lumotlari defektologlarda, oligofrenopedagoglarda ob’ektiv dunyoqarashning shakllanishida juda katta axamiyatga ega. Ruxiy jarayonlarni ilmiy jixatdan to‘g‘ri tushunib etish, shaxsning barkamol shakllanishida aloxida e’tiborga loyiq.

Fanning uslublari xaqida xam biroz tuxtalib utsak. Uslublar deganda nimani tushunamiz? Aslida, uslublarni turli ma’nolarda tushunish mumkin. Turli fanlarda mujassamlashgan nazariy, amaliy bilimlarni bolalar ongiga etkazishning u yoki bu yo‘lini ham uslublar deb tushunish mumkin. Bu erda esa, har bir fanning shu fanga oid bilimlarni yig‘ish, to‘plash yo‘llari tushuniladi. Aqli zaif bolalarning shaxsiy xususiyatlari, ruxiy jarayonlarining o‘ziga xosligi, bilim egallash imkoniyatlari xaqidagi oligofrenopedagoglar uchun zarur bulgan ma’lumotlar yig‘iladi. Bularga kuzatish, tajriba, suxbat, anketa, test, bolalar faoliyat natijalarini taxlil qilish va boshka uslublar kiradi

SHuni aloxida ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, juda ko‘p xollarda aloxida bir uslub qo‘llanib qolinmasdan, balki bir nechta uslublardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday xolat olingan ma’lumotlarning yanada ishonchli, ob’ektiv bulishiga xizmat kiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Mamedov K., SHoumarov G. ”Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalar xakida”. Toshkent – 1993 yil.

2. Mamedov K., SHoumarov G. “Akli zaif bolalar psixologiyasi”. Toshkent – 1994. 3-8-betlar.

3. Rubinshteyn S.YA. Psixologiya umstvenno otstalogo shkolnika. M., 1970., 1986, 3-16-betlar.

4. SHif J.I. Osobennosti umstvennogo razvitiya uchashixsya vopomogatelnoy shkolы. M., 1965, 3-19-betlar.

5. Vinogradova A.D. Praktikum po psixologii umstvenno otstalogo rebenka. M., 1985, 5-8-betlar.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Andijon viloyati Baliqchi tumani
35-DMTT Tarbiyachisi
Jo‘rayeva Nafisa Sobirjonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada kundan-kunga rivojlanib borayotgan maktabgacha ta’lim tizimiga yangi innovatsion ta’lim shakllarining va texnologiyalarining joriy etilishi, rivojlanish strategiyasining ishlab chiqilishi, chekka qishloqdagi mamlakatimiz aholisi uchun maktabgcha ta’lim tashkilotlarini barpo qilinishi va shart – sharoitlar yaratish , maktabgacha ta’limga qamrov sonini oshirish, har bir bolani maktabgacha ta’limda mukammal ta’lim va tarbiya olishi uchun ijmoiy ko’maklashish kabi islohatlar haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: ta’lim, tarbiya, rivojlanish, innovatsiya, texnologiya, barkamol avlod.

Аннотация: В данной статье рассмотрены внедрение новых инновационных образовательных форм и технологий в развивающуюся с каждым днем систему дошкольного образования, разработка стратегии развития, создание организаций дошкольного образования для жителей нашей страны в отдаленных селах, о создании условий для дошкольного образования говорится о таких реформах, как увеличение количества охватов, коллективная поддержка для того, чтобы каждый ребенок получил прекрасное образование и воспитание в дошкольном образовании.

Ключевые слова: образование, обучение, развитие, инновации, технологии, зрелое поколение.

Mamlakatimizda ta’lim tizimi tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga mo‘ljallangan “Yo’l xaritasi” keng ko’lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirish ko’zda tutilgan bo’lib, hech kimdan kam bo‘lmagan navqiron avlodning har

tomonlama sog‘lom, yuksak ma’naviyatli bo‘lib kamol topishi yo‘lidagi muhim hujjatdir. Unda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish belgilangan.

Dastur doirasida 5-6 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha muqobil shakllarni yaratish va rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlar tashkil etildi. Bunday guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun turli rivojlantiruvchi amaliy mashg‘ulotlar olib boriladi. Shu asosda har yili 305 mingdan ortiq 5-6 yoshdagi bolani maktab ta’limiga tayyorlash imkoniyati yaratildi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta’limga qamrab olinmagan 3-6 yoshli bolalarning otaonalarini metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash va ular bilan tushuntirish ishlarini olib borish orqali maktab ta’limiga tayyorlashning muqobil tizimi ham joriy etildi. Ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda maktabgacha ta’lim-tarbiya tizimi uchun muqobil dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilindi. Yangilangan dasturlar bolalarni maktabga yanada sifatli tayyorlashga, ularning intellektual qobiliyati va mantiqiy fikrlash salohiyatini yuksaltirishga, oldingidan farqli ravishda yozish va o‘qishni yanada yaxshiroq o‘rganishiga xizmat qiladi.

Ta’lim va tarbiyaning muqobil shakli bu — maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimidagi innovatsion ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish modelidir.

Maktabgacha ta’lim muqobil shakllarini tashkil etishning maqsad va vazifalari.

-Bolalarni sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish,

-Maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalar ilg’or horijiy tajribani xisobga olgan holda davlat talablariga muvofiq xar tomonlama aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy kamol topishi uchun shart sharoitlar yaratish,

-Bolalarni boshlang’ich ta’limga sifatli tayyorlash,

-Uzoq hududlarda va qishloq joylarda yashovchi maktabgacha yoshdagi bolalarni teng huquqli sifatli maktabgacha ta’limga ega bo’lishini ta’minlash,

-Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktabgacha ta’lim soxasida nodavlat ta’lim xizmatlarini ko’rsatish bilan shug’ullanuvchi yuridik shaxslarning moddiy –texnik bazasini mustahkamlash,

-Bola shaxsining asoslarini shakllantirish,unda bilimga qiziqishni rivojlantirish,

-MTT qurilishi imkoniyati bo’lgan uzoq qishloq joylari, tog’li tumanlar va borish qiyin bo’lgan aholi punktlarida kamxarj bo’lgan, bepul sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanshini ta’minlash,

-Maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish.

Maktabgacha ta’limga ehtiyoji mavjud mahallalarda, shu jumladan qishloq joylarida maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini tashkil qilish va ularni zarur moddiytexnika vositalari bilan ta’minlash choralarini ko‘rish nazarda tutilgan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari quvvati bolalar soniga nisbatan kam bo‘lganda, yechimni nimada ko‘rish mumkin? Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida 2018-2019-o‘quv yilidan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Farg‘ona viloyati va poytaxtimizning ayrim tumanlarida bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlashni joriy etish tajriba loyihasi amalga oshirildi. Loyihani amalga oshirish uchun jami 494 ta guruh tashkil etildi.

Tajriba guruhlari maktabgacha ta’lim muassasalariga bormaydigan bolalarga maktabgacha ta’lim va tarbiya olishda yordam berish, buning uchun zarur shartsharoitlar yaratish maqsadida tashkil etildi. Guruhlar davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim sohasida nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslarning negizida ochildi.

— Tajriba guruhlarida 3-4 soat davomida bir yoki ikki smenada ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etiladi. Bitta guruhdagi bolalar soni 30 nafardan oshmasligi kerak.

— Tajriba guruhlari maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat tomonidan

belgilangan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalaydi va maktabga tayyorlaydi. Bunda bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari, albatta, hisobga olinadi.

Tajriba guruhlariga 5 yoshdan oshgan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bormayotgan bolalar qabul qilinadi. Boshlang‘ich ta’limga majburiy yillik tayyorgarlikdan o‘tgan bolalarga davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Maktabgacha ta’limning ushbu muqobil shakli bog‘chaga bormagan bolani birinchi sinfga borganida tengdoshlaridan kam bo‘lmagan darajada faollashtirishni ko‘zlaydigan dastur asosida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlaydi. Demak, bu barcha ota-onalar uchun qulay va davlat tomonidan himoyalangan ta’lim shaklidir.
Maktabgacha ta`limning muqobil shakllari taqdimotida MTV tomonidan 16 ta qayta jihozlangan avtobuslar, bolalar maydonchalari bo`lgan ikkita avtoturargoh va 2 ta modulli MTT taqdim etildi.
Isuzu HC 40 rusumli avtobuslar asosida harakatlanadigan MTTlar belgilangan yo`nalish bo`ylab harakatlanadi. Ko`chma guruhlarda bo`lish muddati 3 soatdan oshmaydi, maksimal soni 3 yoshdan 7 yoshgacha bo`lgan 16 nafar bola bo`ladi. Darslarni barcha tarbiyalanuvchilar uchun qiziqarli qilish maqsadida, MTV mutaxassislari turli yoshdagi guruhlar uchun maxsus dastur ishlab chiqdilar, o`qituvchilar esa tegishli tayyorgarlikdan o`tdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-son farmoni
2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955son qarori
3.O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida
pq-4312 08.05.2019
4.o‘zbekiston respublikasi prezidentining “maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida” gi qarori pq-3261 09.09.2017

5.lex.uz

YOSH AVLODNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O’RGATISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL METODLARNING O‘RNI

Madumarova Tursinoy Mamadaliyevna-
Andijon tumani
46- umumiy o’rtta ta’lim maktabi

Annotatsiya; ushbu tezisda yosh avlodni mustaqil fikrlashga o’rgatishda zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlarning o’rni haqida bayon qilingan.
Kalit so’zlar: ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, interfaol metodlar va noan’anaviy usullar

Hozirgi har tomonlama: ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, sanoat, kurilish, ma’daniyat,ma’rifat va boshqa ko‘plab sohalar bo‘yicha rivojlanish va yuksalish jarayonlarida ta’lim tizimida ham ulkan islohatlar amalga oshirilmokda. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning ushbu sohaga nisbatan yuksak e’tibori, yaratib berayotgan cheksiz imkoniyatlari – xalkimizning buyuk kelajagi bo‘lgan farzandlar tarbiyasi, ularning baxtli yashashlari, hayotda munosib o‘rin topishlari uchun, dunyoda hech qaysi millatdan kam bo‘lmasliklari uchun zamin yaratmokda. Hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan bunday imkoniyatlarga javoban har bir o‘qituvchi o‘z fanidan mukammal bilim berishni, ta’lim – tarbiya jarayonlarini zamonaviy yondashuvlar asosida olib borishni, darsning muqaddas ekanligini yanada chuqurroq his qilishni, unga puxta va aniq reja bilan tayyorgarlik ko‘rish zaruriyatini teranroq anglashlikni, yosh avlod kelajagiga mas’ul ekanliginiidrok etishni eng yuksak vazifa deb qarashi maqsadga muvofiq bo‘ladi.Ayniqsa, yosh avlodga o‘z ona tilida so‘zlashni, o‘qishni,yozishni,talaffuz qilishni, nutq madaniyatiga erishishni, kitobxonlikni,she’r yodlashni,ijodkorlikni o‘rgatuvchi, insoniylikning olijanob fazilatlarini kamol toptiruvchi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, avvalo,o‘zlarida quyidagi savollarga javob topishlari lozim,deb o‘ylayman:

O‘z mutaxassisligim bo‘yicha mukammal bilimga egamanmi, har bir mavzuni tushuntirishga tayyormanmi?

Bir oyda nechta kitob o‘qidim, bir yilda-chi ?

Barmoq vaznida necha misra,aruzda necha va erkin vaznda necha misra she’rni yod ayta olaman?(chunki o‘quvchidan shularni talab qiladilar)

Savodxonligim qay darajada: diktantni,inshoni, bayonni necha bahoga yoza olaman?

Notiqlik madaniyatiga qanchalik erishganman ?

Adabiy til me’yorlari asosida darslarni tashkil qila olamanmi?

Zamonaviy yondashuvlar asosida dars o‘tishda qaysi texnologiyalar, qanday interfaol metodlar va noan’anaviy usullarni darslarimda qo‘llay olaman?

Zero,zamonaviy o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga o‘rnak bo‘lishligi uchun mazkur masalalar bo‘yicha mukammal tayyorgarlikka ega bo‘lishi shart.O‘zbek millatining boy madaniy-ma’naviy merosi,ularning yosh avlod ta’lim va tarbiyasiga ta’siri,vatanparlik,mehnatsevarlik kabi fazilatlarni kamol toptirishdagi ahamiyatini tushungan holda o‘rganishi,izlanishi lozim.Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari buyuk tarixiy shaxslarimiz, mutafakkirlarimiz A.Navoiy, A.Jomiy, Lutfiy, Munis Xorazmiy, Komil Xorazmiy, Z.M.Bobur, Ogahiy, Mashrab, Muqimiy, Nodira, Uvaysiy, Furkat kabi ko‘plab buyuklarimizning hayoti va ijodini o‘rgatish bilan millatimizning kuchli salohiyatga ega buyuk vakillari borligi haqida,vatanparvarlik, xalqparvarlik,insoniylikning olijanob fazilatlariular qoldirgan ma’naviy meroslari orqali qonimizga singganligi to‘g‘risida turli texnika vositalari orqali bilim beradilar, uparning ibratli hayoti haqida hikoya qiladilar. Lekin, haqiqatni bayon qilish mumkin bo‘lsa, ushbu tafakkurni barcha o‘quvchilar ongiga birday singdirib bo‘lmaydi.Ayrim o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘quvchilar ongiga mumtoz adabiyot na’munalarini singdirishda “Nazm va navo” – interfaol usulini qo‘llash muhim o‘rin tutadi. Bugungi zamonaviy adabiyot o‘qituvchisi so‘z ustasi bo‘lishi bilan birga san’at va madaniyatni, aktyorlik mahoratini puxta egallagan bo‘lishi lozim. Zero, nazm – she’riyat bo‘lsa, navo – kuy, ohang. Nazm – ilohiy qudrat, navo – ilohiy ne’mat. Har ikkalasi egizak, birini - biridan ajratib bo‘lmaydigan egiz tushunchadir. Vaholanki, ko‘ngilni asir qilgan nazm navo bilan bezatiladi. Yani unga kuy bilan ikkinchi hayot baxsh etiladi. Barchaga ma’lumki, kuy bastalangan g‘azal va she’rlar

xalqimiz orasida mashhurdir.Alisher Navoiyning “Kelmadi”, Z.M. Boburning”Mango”, Lutfiyning “Xoh inonma”,Mashrabning “O‘rtar”,Muqimiyning”Devonaman”,Furqatning “Fasli navbahor o‘ldi” kabi g‘azallari ohangi bilan xalqimiz qalbian joy olgan va bugungacha kuylanib kelinmoqda. Bu ro‘yxatni yanada ko‘plab davom ettirish mumkin. Shu ma’noda til va adabiyot ta’limio‘qituvchilari mumtoz adabiyot na’munalarini o‘quvchilarga o‘rgatishda “Nazm va navo” usulini faol qo‘llaydilar. G‘azalni tushunish va yodlash qiyin bo‘lgan jarayonlarda ushbu usuldan foydalanish yaxshi samara beradi.

Masalan, A. Navoiyning “Kelmadi” radifli g‘azalidan:

Kecha kelgumdir debon, ul sarv-u gulro‘ kelmadi
Ko‘zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi.

baytlari ifodali qilib o‘kib berilgach, badiiy tahlildan so‘ng o‘quvchilarga ushbu qo‘shiq texnika vositalari orqali eshittiriladi. O‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan qo‘shiqqa birga jo‘r bo‘lishlik, takrorlashlik g‘azal matnini yod olishni osonlashtiradi.

G’azallar kabi texnika vositalari yoki o‘qituvchining o‘zi kuylashi orqali o‘quvchilarga qayta-qayta eshittirib, jo‘rlikda kuylatib, yakkaxon qo‘shiqchilarni tanlab olish yo‘li bilan “Nazm va navo” usulini darsning mustaxkamlash bosqichida bir necha marta qo‘llab ko‘rganimizda, o‘quvchilarda g‘azalni yodlash oson kechganligining guvohi bo‘lamiz. Bugungi kunda kuy va qo‘shiqlarni radio, televidenie, komp’yuter, telefon vositalaridan bir necha marta eshitiboq yodlab olayotgan, kuylab yurayotgan yoshlarimizga mumtoz qo‘shiqlarni ham takror - takror eshittirishlik uchun imkoniyatlar yaratish zarur.

“Nazm va navo” usulida darslarni tashkil qilish orqali yosh avlodni buyuk ajdodlarimizga ehtirom, ular qoldirgan ma’daniy va ma’naviy meroslariga hurmat nuqtai nazari bilan qarashga, ular yaratgan asarlarni sevib, tushunib o‘rganishga, o‘tmishga ehtirombilan qarashga o‘rgatishdan tashqari, ana shu buyuk bobokalonlarimizning nomlari yana bir necha ming asr abadiy yashashi, asarlari orkali xalqimizning tafakkurini o‘sishida xizmat qilishi muqarrarligini ta’minlab

beradi. Ta’lim texnologiyasi usullarini tanlash va amalga oshirishda o‘quvchilarning o‘quv - bilish faoliyatini e’tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki dars nazariy qismining dastlabki daqiqalarida yangi bilimlar beriladi, keyin esa kichik guruhlarda turli noan’anaviy usullarni qo‘llash orqali yangi mavzu mustahkamlanadi. Boshlang‘ich nazariy bilimlar qismi 20 daqiqadan oshmasligi eng samarali natija beradi. Keyingi 25 daqiqa ichida o‘zlashtirish samarasi pasaya boshlaydi shu sababli mashg‘ulotlarni turli interfaol usullarda olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyodlar:

1.A. Zunnunov va boshqalar. Adabiyot o’qitish metodikasi. Toshkent «O’qituvchi», 1992.

2. Qosimova K., Matchonov S., G’ulomova X., Yo’ldoshova Sh., Sariyev Sh. Ona tili o’qitish metodikasi. –Toshkent, Noshir nashriyoti, 2009.

3. O’zbek bolalar adabyoti antologiyasi. I-II-jildlar. To’plovchi Safo Matjon. – Toshkent, Cho’lpon, 2006, 480-bet.

4.Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, O’qituvchi, 2005,272-bet.

O’quvchilar savodxonligini oshirishda diktantning o’rni

Mahmudova Dilbarxon Tojiboyevna-
Baliqchi tuman 7-maktab o’qituvchisi

Annotatsiya: ushbu tezisda o’quvchilar savodxonligini oshirishda diktantning o’rni, ularning turlari, ahamiyati, yozish texnikasi haqida uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: erkin diktant, lug’at, saylanma, savodxonlik, yozuv texnikasi.

Ma’lumki , boshlang’ich ta’limdan to yuqori sinflarda o’qitish jarayonlarida davlat ta’lim standartlari belgilab berilgan talablar biri o’quvchilar savodxonligini oshiishdan iboratdir. Ushbu vazifani amalga oshirishda eng asosiy omillardan biri yozma ishlar o’tkazish bo’lib ,ular orasida diktant alohida o’rin egallaydi. Diktant yozdirish qoidalari bo’yicha diktant matni yozib bo‘lingach, ish o‘qituvchi boshchiligida jamoa bo‘lib tekshiriladi. Doskadagi matn ochiladi. O`qituvchi doskada yozilgan matndagi qaratqich kelishikdagi so‘z bilan egalik

qo‘shimchali so‘zlar tagiga chizadi. O‘quvchilar yozganlarini doskadagiga solishtiradilar. O‘qituvchi parta oralab yurib,o‘quvchilardagi xatolarni qizil siyoh bilan tuzatadi, ayrim o‘quvchilarga chiroyli yozish kerakligi haqida ko‘rsatma beradi. Saylanma diktantda ma’lum qoida mustahkamlanishi bilan birga o‘quvchilar har bir gap, so‘z birikmasiga diqqat bilan qarashga o‘rganadilar. Bundan tashqari, matndagi gaplardan kerakli so‘z, grammatik shakl, so‘z birikmasini tezroq topa olishga o‘rganadilar. O`quvchilarning savodxonligini oshirish, insho yozishga tayyorlash,matn yaratish qobilyatlarini oshirish uchun diktantning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:
Erkin diktant.

Erkin diktant bayonnnng soddaroq bir ko‘rinishn bo‘lib, odatda yordamchi mehnat ta’limi maktabining 3-4 sinflarida o‘tkaziladi.

Erkin diktantda o‘quvchilar so‘z va grammatik formalarni o‘zgacha, erkin ishlata oladilar. Erkin diktant o‘tkazish metodi quyidagichadir: O‘quvchi tanlangan matn sarlavhasini doskaga yozadi va matnni bir marta o‘qiydi. Agarda matnda o‘tilmagan orfogramma va notanish so‘zlar bo‘lsa, doskaga yozib ko‘rsatiladi, tushuntiriladi. O‘quvchilarning qanchalik tushunganliklarini aniqlash maqsadida matn yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi matnni bir marta o‘qib eshittiradi. So‘ngra bo‘limlarga bo‘lib o‘qiydi. Agar o‘qituvchi 3 ta gap o‘qisa, o‘quvchi xuddi shu fikrni ko‘proq gaplar orqali ifoda etishi mumkin. Bir bo‘limni bolalar yozib bo‘lgach, o‘qituvchi keningi bo‘limni o‘qiydi. Ish shu yo‘sinda davom etadi.

Ijodiy diktant. Barcha turdagi diktantlar kabi, ijodiy diktant ham o‘quvchilarga o‘tilgan qoidalarni puxta o‘zlashtirishga, ularning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga yordam beradi. Ijodiy diktantda matn diktovka qilinmaydi. O‘quvchilar o‘zlari berilgan so‘zlar bilan mustaqil ishlaydilar. Shunga ko‘ra ijodiy diktantni berilgan so‘zlar asosida bayon yozish deb nomlash ham mumkin. O‘quvchilar diktantning bu turida so‘zlarni o‘z o‘rnida, to‘g‘ri

ishlata olishga, gap va kichik, sodda hikoya tuzishga, ya’ni ijod qilishga o‘rganadilar. Yozuv darslari uchun ikkita daftar tutiladi. Har kuni bitta daftar yig‘ib olinadi. Tekshirib kelingan ikkinchi daftar o‘quvchilarga tarqaladi. Yig‘ib olingan daftarlar o‘qituvchi tomonidan darsdan tashqari vaqtda batafsil tekshiriladi, xatolari tuzatiladi, ishlar baholanadi.

Yozma ishlarni baholashda ularda qilingan xatolarning turi, miqdori, qay tarzda xato ekanligi hisobga olinadi. O‘qituvchi qo‘pol va qo‘pol bo‘lmagan xatolarni belgilaydi. Odatda, o‘tilgan qoidalarda, o‘quvchilarga tanish bo‘lgan so‘zlarda qilingan xatolar -qo‘pol xato bo‘lib hisoblanadi. O‘quvchilarga tanish bo‘lmagan so‘zlarda qilingan, xali o‘tilmagan qoidalarga doir xatolar, satrdan-satrga ko‘chirishda yuz beradigan, bir so‘zni ikki xil yozish, ba’zi tasodifiy xatolar qo‘pol bo‘lmagan xatolar jumlasiga kiritiladi. Bir so‘z bir necha o‘rinda kelib, bir xil xato qilingan bo‘lsa, bir xato hisoblanadi.

Yozma ishlarni baholashda topshiriqlarning sodda va murakkabligi ham hisobga olinadi. Masalan, matnni hech qanday o‘zgarishsiz ko‘chirib yozish topshirig‘i berilgan bo‘lsa-yu shunda ham xatoga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, ba’zi bir o‘quvchiga bitta xato uchun ham qoniqarli baho qo‘yilishi mumkin. Yozma ishni baholashga o‘qituvchi ijodiy yondashadi. O‘quvchilar bir birlarining ishlarini solishtirishga qiziqadilar. Har qanday adolatsizlik ularning ruxiga ta’sir qiladi. Shuning uchun ham o‘qituvchi yozma ishlarni baholashda har bir xolatni hisobga olishi zarur.

Yozma ishlarni baholashda o‘qituvchi O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Baho normalari»ga qat`iy rioya qilish kerak Ushbu hujjatda davlat ta’lim standartlari talablaridan kelib chiqqan xolda, har bir sinfda yilning boshida va oxirida nechta so‘zdan iborat bo‘lgan matn ko‘chirib va diktovka asosida yozilishi kerakligi ko`rsatilgan.

O‘quvchilar bilan ishlashni ayrim qoidalarni so‘rashdan boshlagan ma’qul. Ma’lum bir qoidaning mustahkam o‘zlashtirganligi haqida ishonch hosil

qilingach, navbatdagisiga o‘tiladi. Shu asosda mashg‘ulot asta sekin murakkablashib boradi. Ish jarayonida o‘quvchining bu soxada erishgan yutuqlarini uning o‘ziga sezdirish, buning sabablarini birga muhokama qilish ham muhimdir.

Maktabda o‘tkaziladigan barcha turdagi yozma ishlar o‘quvchilarning bilim saviyasi, savodxonligini aniqlash vositasidir. O‘qituvchi o‘quvchilarning yozgan ishini tekshirnb, xatolarni tuzatib bormasa, o‘quvchi keyingi mashqlarni sifatli bajarishga intilmaydi, qiziqmaydi, bajarsa ham, xatolarga beparvo bo‘ladi. Har qanday yozma ish o‘qituvchining nazoratida, e’tiborida bo‘lishini bola doim sezib turishi kerak. Bu o‘quvchiga ruxiy ozuqa beradi.Sinfda bajariladigan mashqlar, ko‘pincha, sinfning o‘zida o‘qituvchi rahbarligida tekshiriladi. Bunda o‘quvchi yozganlarini o‘zi tekshiradi, xatolarini tuzatadi.

Yozma ishning turiga qarab tekshirish ishlariga o‘quvchilarning o`zini ham jalb qilish mumkin.

Ayrim hollarda xato tuzatishning ko‘proq mustaqil ishlashni talab qiladigan usullaridan ham foydalanish mumkin. Xatoni to‘g‘rilamasdan tagiga chizib qo‘yish, qaysi qatorda xato qilingan bo‘lsa, o‘sha qator hoshiyasiga belgi qo‘yish va boshqalar.

Xatolarni tuzatish usullarini tanlashda o‘quvchilarning individual xususiyatlari, materialning sodda-murakkabligi, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, ularni mustaqil ishlash darajasi hisobga olinadi. Xatolar har xil bo‘ladi: o‘tilgan qoidaga oid xatolar, xali o‘tilmagan qoidaga, xatolar, o‘quvchining tovush talaffuzi, fonematik o‘quvi, ko‘rish idroki, motorikasidagi nuqsonlardan kelib chiqqan qo‘pol xatolar va boshqalar. Xatolar harakterini aniqlash uchun ularni tahlil qilish, biror belgi asosida tasniflash kerak. Xulosa qilib aytganda, o`quvchilar savodhonligini oshirishning dolzarbligini chuqur his qilgan o`qituvchi diktantning barcha turlaridan unumli va maqsadli, to`g`ri va adolatli ravishda foydalana oladi.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK

Xosiyatxon Mamajonova Ibrohimovna
Andijon viloyati Asaka tumani 2-DMTT

Annotatsiya: *Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyachilar hamda ota-onalar umuman olib qaraganda, ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasida ochiq va shaffof munosabatlar eng muhim va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi Shu bilan birgalikda, ularning muvaffaqiyatli hamkorligi tarbiyachilanuvchilarning yaxshi ta'lim tarbiya olishida muhim hisoblanadi.*
Kalit so'zlar:MTM, ota-ona, ta'lim-tarbiya,Sifatli ta'lim,mahalla

Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi ijobiy ,qo'llab quvvatlovchi va ochiq muloqotlar muhim hisoblanadi.Negaki, ota-onalar va tarbiyachilarning birgalikdagi hamkorligi ta'lim sifatini yaxshilashga va tarbiyalanuvchilarning ta'lim natijalarini ham yaxshilaydi.Maqolada esa ta'lim-tarbiya jarayonida ota-onalar bilan hamkorlikning ro'li , hamkorlikning muhimligi va albatta hamkorlikning natijalari taxlil qilinadi.

Ota-onalar talimning eng muhim sheriklaridan biri hisoblanadi.Albatta ,har bir bola tarbiyaning boshlang'ich nuqtasini oilada ya'ni ,ota-onalari ko'magida oladi.Shuningdek, farzandlarining ta'limga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otadigan va ularni qiziqish va qobiliyatlarini qo'llab quvvatlaydigan ota-onalar hisoblanadi.Tarbiyalanuvchilarning uyda o'qishlari uchun sharoit hozirlaydi.

Hamkorlikning afzalliklari esa quyidagilardan iborat:

- Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi doimiy aloqani qo'llab quvvatlaydi.
- MTT madaniyati va MTT faoliyatiga jalb qiladi.

Masalan ,ota-onalarga uyda bolaning o'qishni davom ettirishi va mustahkamlashishi uchun topshiriqlar haqida ma'lumot berish.

- Resurslar bilan tanishish

- ❖ Bolaning rivojlanishi va ta'lim olishini kuzatish
- ❖ O'quv dasturi borasida bolalar loyihalarida ishtirok etish
- ❖ Tarbiyachilarning faoliyati to'g'risida ota-onalarni xabardor qilish

Shunday qilib, aytishimiz mumkinki, tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikning barcha shakllarini tahlili va mazmuni tarbiyalanuvchilarning yetuk va barkamol bo'lib rivojlanishiga qaratilgan faol ta'lim o'zaro tasirini yaratishdir.Albatta, sir emaski ,har bir ota-ona farzandining har tomonlama yetuk bo'lishi uchun qaratilgan ishda qo'llab quvvatlashga hamda rag'batlashga intiladi.

Bu belgilangan maqsadlarga erishish va eng yuqori natijalarga erishish uchun ota onalar bilan birgalikda turli xil hamda samarali bo'lgan hamkorlik shakllarini to'g'ri birlashtira olish va to'g'ri tahlil qila olish juda muhim hisoblanadi.Buning uchun esa Tarbiyachi bilan ma'lumot almashish ,ota-onalar o'z g'oyalarini taqdim etishlari va farzandlarini ehtiyojlarini himoya qilishni o'rganishlari mumkin bo'ladi.Buning uchun oilada uyushtirilgan suhbatlarning alohida va muhim ahamiyati mavjud.

Ayniqsa, odob axloq mavzusidagi suhbatlar farzandlariga juda ham samarali tasir qiladi.Shu bilan birgalikda,ularning ma'naviy ahloqiy sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.Nafaqat ularning odob axloqlarini shakllantirib qolmasdan farzandlarining til vositalarini mustaqil tarzda qo'llay olish imkonini ham beradi.Hozirgi paytda ko'p MTT tarbiyalanuvchilarda kuzatiladigan muammolardan biri talaffuz hisoblanadi.Ko'plab tarbiyalanuvchilar "R "xarfini talaffuz qilishda juda ham qiynaladi.So'zlarni to'liq talaffuz qila olmaslik suhbatlarning kamligidan va ota-onalar o'z farzandlari bilan yetarlicha suhbat qilmasligiga yaqqol misol bo'la oladi.

Mana shunday muammolarga tushib qolmaslik uchun MTT tarbiyachilari bilan birgalikda ota-onalar ham birdek xarakat qilishlari lozim.Chunki ,avval

takidlab o'tganimizdek ,tarbiyaning asosiy negizini oilada ya'ni ,ota-ona davrasida oladi.Bolani tarbiya qilish qanchalik erta boshlansa ,uning hosili ham shuncha barvaqt ko'zga tashlanadi.Negaki,bola tarbiyasi bilan shug'ullangan ota-onalarning farzandlari maktabgacha ta'lim muassasida o'z imkoniyat va qobilyatlarini mashg'ulot davomida hech qanday qiyinchiliklarsiz ko'rsatib bera olish qobiliyatiga ega boladi.

Shubhasizki,MTT va ota onalarning maqsadi va vazifasi bir xil va bir biri bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.Chunki,har bir MTT eng yaxshi tarbiyanuvchilarni o'qitishni ,ota-onalar esa o'z farzandlarini sifatli ta'lim olishini va albatta,yaxshi xulqli inson bo'lib voyaga yetishini maqsad qilib qo'yadi.Bu maqsadlarga erishish uchun albatta tarbiyachilar va ota-onalar bir-birlari bilan uzviy ravishda ishlashlari talab etiladi.

Hozirgi vaqtda muhim bo'lgan ota-onalar uchun bolalar bog'chasining ochiqligi va shaffofligi tamoyilini amalga oshirish hisoblanadi.Ushbu tamoyil barcha ota-onalar o'zlarining xoxishlaridan kelib chiqib bolalar bog'chasidagi farzandlarining faoliyati,tarbiyachilarning maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan muloqot qilish uslubi, va guruh mashg'ulotlariga va hayotiga kirishlari bilan erkin tarzda yaqindan tanishish imkoniyatlarini nazarda tutadi.

- ❖ Bolalarning bilim darajasini birgalikda baholash
- ❖ Oila va MTT ning birgalikda sog'liqni saqlash borasidagi ishlar masalan: salomatlik kunlar ,sport tadbirlari
- ❖ Ta'lim usullari,bolalarning fiziologik va aqliy rivojlanish bosqichlari bilan tanishish

Kutilayotgan natijalar:

- ❖ Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalashda ota-onalar bilan munosabatlar quyidagi natija va chora tadbirlarni amalga oshirishni beradi.

- ❖ Ota-ona va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi ijobiy o'zgarishlarni yuqori darajasiga erishish
- ❖ MTT va ta'lim sohasidagi o'zaro aloqalarni yanada mustahkamlash va kengaytirish

Adabiyotlar ro'yxati:

1.Bolalar bog'chasida ota-onalar bilan ishlash mavzusida taqdimot https://nogtikrasim.ru /uz/

2.Po'latov ,Sh ,N, "Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari"*Science and education* Scientific journal volume 1,Special issue 2020 21-27 P .

3. S.X. Tadjiyeva, D,G Sobirova" Tanglik vaziyatda qolgan bolaga psixologik yordam ko'rsatish". T.: RBIMM, 2011y.

Nogironligi bo‘lgan bolalarga jamiyatning qarashlari

Andijon viloyati pedagoglarni
yangi metodikalarga o`rgatish
milliy markazi o`qituvchisi
Mamanabiyeva Malikaxon Axunjonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironligi bo`lgan bolalarga jamiyatning va pedagogik jamoaning qarashlari hamda nogironligi bo`lgan o`quvchilarga beriladigan ta`lim-tarbiyaga yondashuvlar va o`quvchilar jamoasining bunday bolalarga qanday munosabat qilish kerak ekanligi haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: jismoniy, aqliy, sensor, ijtimoiy yordam, imkoniyati cheklangan, nutqida nuqsoni.

Аннотация: В этой статье рассматриваются взгляды общества и педагогического коллектива на детей с ограниченными возможностями здоровья, а также подходы к обучению, которые предоставляются учащимся с ограниченными возможностями здоровья, и то, как учащийся должен относиться к таким детям.

Ключевые слова: физическая, умственная, сенсорная, социальная поддержка, инвалидность, дефект речи.

Annotation: this article discusses the views of society and the pedagogical community on children with disabilities and approaches to education given to students with disabilities and how the student community should react to such children.

Keywords: physical, mental, sensory, social assistance, limited capacity, speech impairment.

Nogironligi bo‘lgan bolalar (bola) —jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko‘rsatilishiga hamda o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan bolalar hisoblanadi.

Istiqlol davriga qadar nogiron bolalar

- O‘qitiladigan
- O‘qitilmaydigan

Hozirgi kunda nogiron bolalar

- Alohida e’tiborga muhtoj
- Aqliy rivojlanishi orqada qolgan bolalar
- Imkoniyati cheklangan bolalar
- 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarni nogironligi bo‘lgan bola, 18 yoshdan katta fuqarolarni nogironligi bo‘lgan shaxs

Nogironligi bo‘lgan bolalarni bir necha toifasi mavjud

1. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar

2. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar

3. Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar

4. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar

5. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar

6. Harakat-tayanch a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar

7. Murakkab nuqsonli bolalar

Nogironligi bo`lgan bolalarga jamiyatning qarashlari

- kamsitish, ajratib qo'yish
- sog'lom farzandlarini nogironlardan olib qochish
- nogiron bolalar uyda ta'lim olishi zarur, ular jamiyat orasida yurishi kerak emas
- ular mehnatga layoqatsiz
- rahmdillik bilan qarash, achinish
- imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishga qobiliyatsiz, ijtimoiy hayotga moslasha olmaydi

Hamma bilishi shart

- sizni uyingizda yoki qarindosh, urug'ingizda nogiron bola tug'ilmasligiga kafolat yo'q
- nogironlik faqat nogiron ota-onalarning naslida uchraydi deb bo'lmaydi
- nogiron insonlar sog'lom insonlar yetisha olmagan yutuqlarga o'z qobiliyati orqali erishishi mumkin
- farzand sog'lom dunyoga kelishi, ammo nogironlikni hayot davomida orttirishi ham mumkin
- barcha insonlar teng huquqli, shu jumladan imkoniyati cheklangan insonlar ham.

Zamonaviy texnologiyalar natijasida tug'ma nuqsonlarni avvaldan aniqlash mumkin. SKRINING– bu oddiy usullar yordamida kasallikni erta va tez aniqlash uchun aholini ommaviy tekshiruvdan o'tkazish: Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-tibbiyot markazi, Viloyat ona va bola skrining markazi.

Nogironlikning kelib chiqish sabablari:

- Nasliy
- Biologik omillar

- Ijtimoiy omillar

Biologik omillar:

- Tug‘ruqgacha bo‘lgan davr
- Tug‘ruq davr
- Tug‘ruqdan so‘ngi davr

Tug‘ruqgacha xomiladorlik davri:

- Infeksion kasalliklar;
- Onadagi surunkali kasalliklar;
- Onaning to‘yib ovqatlanmasligi
- Bolada qon aylanish tizimida kamchiliklar;
- Homiladorlik vaqtida jarohatlar, travmalar;
- Onadagi yod, foliy kislotasi va boshqa vitaminlar yetishmovchiligi, semizlik, qandli diabet holatlari

-Homiladorlik davrini sog‘lom kechmasligi

- Ota yoki onadagi alkogolizm va tamaki chekish.

Tug‘ruq davri:

- Tug‘ruq davrida yordamchi vositalardan to‘g‘ri foydalanmaslik;
- uzoq cho‘zilib ketgan yoki vaqtidan oldin tug‘ruq;
- bolani o‘simtalar, gematoma, asfiksiya bilan tug‘ilishi.

Tug‘ruqdan keyingi davr:

- Bola miyasi jarohatlanishi;
- infeksion gepatit;
- meningit;
- meningoensefalit;
- uzoq davomiy somatik kasalliklar;
- bolalar infeksion kasalliklari natijasida miyaning charchashi.

Ijtimoiy psixologik omillar:

-Nutqiy va emotsional muloqotning yetarli emasligi

- Oiladagi mojarolar

- tarbiya metodlaridan noto‘g‘ri foydalanish

– oiladagi ikki tillik.

Genetik omillar: Qonning aralashuvi (yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh) ya’ni amaki yoki amakivachchalar, ikkinchi va uchinchi avlodga mansub aka-ukalar, opa-singillar, jiyan-amakilar orasida nikoh rasmiylashtirilsa tug‘ma nogironlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Ekologik omillar:

- Radioaktiv nurlanish havoda kimyoviy zararli moddalar nisbatining yuqori bo‘lishi

- kon, chiqindi poligoni, kimyoviy zavodlar hududida yashash tug‘ma nogironlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Har bir inson ta’lim olish, barcha qatori voyaga yetib, jamiyatda erkin yashash huquqiga ega.

Qonuniy asoslar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash;

- Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi F-5006-son farmoyishi bilan tashkil etilgan Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash bo‘yicha komissiya tomonidan nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ularni kasbga o‘qitish va ishga joylashtirish sohasidagi ishlar.

Nogironligi bo‘lgan bolalar ham alohida – uylaridan chetda emas, balki barcha bolalar singari - ota-onalari bag‘rida, uylariga yaqin maktablarda ta’lim olish huquqlariga egadirlar!

O‘zbekistonda umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim joriy etilmoqda. 2021-2022 o‘quv yilida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning 24 foizini inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan bo‘lib, 2025- yilga borib bu ko‘rsatkich 40 foizga yetishi nazarda tutilgan.

Inklyuziv ta’lim: Imkoniyati cheklangan bolalarning o‘z sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim-tarbiya olishi, oila muhitida yashashi va ilk yoshdan moslashishni ko‘zda tutadigan ta’lim tizimidir.

BMT Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti statistikasiga ko‘ra, Yer shari aholisining 15 foizga yaqinining imkoniyati cheklangani va bu ko‘rsatkichning muntazam o‘sib borayotgani har bir insonga o‘zini atrofdagilar bilan teng his qilishi hamda o‘z salohiyatini yuzaga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratish bo‘yicha samarali ishlarni amalga oshirishga undaydi.

Inklyuziv ta’limning imkoniyatlari:

- inklyuziv ta’lim ajratish iskanjasidan qutulishga imkon beradi;
- maxsus ehtiyojli bolaning o‘z oilasi va jamiyat davrasida bo‘lishiga imkon beradi;
- barcha uchun ta’lim sifatini yaxshilaydi;
- kamsitishlarning oldini oladi;
- inklyuziv ta’lim jamiyatdagi inklyuzivlikka olib keladi.

Maxsus ehtiyojli bolalar ta’lim-tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Jumladan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki hozirgi kunda yurtimizda 250.000 dan ziyod turli ko‘rinishdagi imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim olish ehtiyojiga ega.

Inklyuziv ta’limni qo‘llab-quvvatlash orqali:

- Jamiyatda ijobiy munosabatni ishlab chiqishga
- Ilk yoshdan aralashuvga

- Inklyuziv ta’lim muhitini rivojlantirishga

- Mos siyosatni ishlab chiqishga ko‘maklashish

- Ijobiy namuna bo‘la oladigan insonlar obrazini yaratishga yordam beradi.

Imkoniyati cheklangan insonlar qobiliyatlari: Eshitishda nuqsoni bo`lgan shaxslarda ko`ruv analizatori ikki barobar yaxshi rivojlangan, ular boshqalar ahamiyat qaratmaydigan mayda detallarni ham ko`ra oladilar. Labdan o`qish qobiliyati orqali, sog`lom insonlarni tushuna oladilar. Ko`rishda nuqsoni bo`lgan shaxslarda eshitish analizatori ikki barobar yaxshi rivojlangan, ular boshqalar eshitmaydigan ovozlarni, vibratsiya to`lqinlarini sezish qobiliyatiga egadirlar. Imkoniyati cheklanga insonlarda qo`l mehnatini shakllantirish orqali hunarmad, etikdo`z, naqqosh, duradgor kabi kasblarni o`rgatish mumkin.

Imkoniyati cheklangan insonlar uchun yaratilgan sharoitlardan sog‘lom insonlar ham foydalanadi. Masalan: Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan insonlar uchun yaratilgan telefonning ovozli dasturi, eshitishida nuqsoni bo‘lgan insonlar uchun telefondagi video chat, xarakat-tayanch a’zolarida nuqsoni bo‘lgan insonlar uchun yaratilgan panduslar.

Har bir bola o‘z uyining oldida sifatli ta’lim olish huquqiga ega!!!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shomaxmudova R. «Maxsus va inklyuziv ta’lim» /Toshkent «Chashmaprint» 2011.

2. Отношение общества к детям с ограниченными возможностями здоровья и детям-инвалидам. – М.: Фонд поддержки детей, находящихся в трудной жизненной ситуации, 2017. – 72 с., ил. https://www.hse.ru/mirror/pubs/share/206979080

Internet resurslari:

1. https://dunyo.info/cyrl/site/inner/tokio-2020_paralimpiya_oyinlarida_ishtirok_etadigan_ozbekiston_delegatsiyasi_kunchiqar_yurtga_zhonab_ketdi-kQ2

2. https://www.bbc.com/russian/news-58306860

3. https://www.istok-audio.com/info/articles/inklyuzivnoe_obrazovanie/inkljuzivnoe-obrazovanie-mnenie-grazhdan/

Имконияти чекланган болалар турлари ва уларнинг инклюзив таълимга йўналтириш масалалари.

Андижон вилояти педагогларни
янги методикаларга ўргатиш
миллий маркази ўқитувчиси
Маманабиева Маликахон Ахунжановна

Аннотация: Ушбу мақолада инклюзив таълим нима? Инклюзив таълимга тортиладиган ўқувчилар тоифаси,уларга яратиладиган шароитлар,дарс бериш усуллари,ўқитувчи ва ўқувчиларнинг инклюзив таълим боласига қилинадиган муомала маданияти ҳақида.

Таянч сўзлар: инклюзив таълим, ногирон ва соғлом болалар, коррекцион хона, дискриминация, махсус тамойиллар.

Аннотация: Что такое инклюзивное образование в этой статье? О категории учащихся, участвующих в инклюзивном образовании, условиях, созданных для них, методах обучения, культуре обращения педагогов и учащихся к детям инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети-инвалиды и здоровые дети, исправительное помещение, дискриминация, специальные принципы.

Abstract: What is inclusive education in this article? About the category of students involved in inclusive education, the conditions created for them, teaching methods, the culture of treatment of teachers and students to inclusive education children.

Key words: inclusive education, disabled and healthy children, correctional room, discrimination, special principles.

Инклюзив таълим (инглиз тилидан олинган бўлиб, инклусиве, инклусион–уйғунлашмоқ, уйғунлаштириш, қамраб олмоқ, қамраб олиш маъноларини билдиради) ногирон ва соғлом болалар ўртасидаги тўсиқларни (дискриминацияни) бартараф этиш, махсус таълимга муҳтож болалар, (айрим сабабларга кўра ногирон бўлган) ўсмирлар ривожланишида учрайдиган нуқсонлар ёки иктисодий қийинчиликлардан қатъий назар

ижтимоий ҳаётга мослаштиришга йўналтирилган умумтаълим жараёнига қўшишни ифодаловчи таълим тизимидир.

Инклюзив таълим - умумтаълим жараёнини ривожлантиради ва барча болаларга мос бўлган таълимни жорий қилади. Имконияти чекланган болалар таълим олишига оид қўшимча мосламаларни ташкил қилиб болаларни таълим олишига қулай шароит яратади. Инклюзив таълим ҳар хил эҳтиёжли болаларнинг таълим олишига қаратилган методологияни ривожлантиришга ҳаракат қилади. Инклюзив таълим турли эхтиёжларни қондиришга қаратилган ихчам турдаги дарс беришга ёндашадиган таълимни ишлаб чиқишни амалга оширади. Имконияти чекланган бола ҳам барча болалардек бола ҳисобланади ва у тан олиниши, ҳурматга сазовор бўлишига ҳақли, шунинг учун уларни нуқсони билан аталиши номақбул ҳисобланади. Бола, у қандай холатда ва қандай имкониятга эга бўлишидан қатъий назар хар доим катталар ёрдамига муҳтождир. Уни ажратиш ёки алоҳида ном билан аташ инсонпарварлик нуқтаи назарига тўғри келмайди.

Имконияти чекланган болаларга нисбатан «аномал болалар», «ногирон болалар», «кўр болалар», «кар болалар», «ақли заиф болалар», «ҳаракат таянч аъзолари фалажланган болалар» ва х. к. тушунчалар ишлатилиб келинди.
Аммо ушбу тушунчалар имконияти чекланган болаларни хуқуқларини поймол килади. Ота-оналарга хам салбий таъсир этади. Имконияти чекланган болалар меъёрда ривожланишдаги болалар каби топшириқ ва вазифаларни тезлик билан мукаммал амалга ошира олмасаларда, аммо имконият даражасида бажара оладилар. Боланинг ҳуқуқларини химоя килиш, уларга ижобий муносабатда бўлиш тарбиялашнинг муҳим усулидир. Шунинг учун ҳам таҳқирлашларга йўл қўймаслик талаб этилади. Инклюзив таълим – бу махсус таълимга мухтож болалар ва ёшлар учун мослашувчан ва индивидуаллашган ёрдам тизимидир. У умумий таълим тизимининг муҳим қисмини ташкил қилади ва ҳамма учун бирдек таълим берувчи оддий мактабларда олиб борилади. Инклюзив таълим болаларнинг турли эхтиёжларини ва

қобилиятлари, жумладан уларни ўрганиш усуллари ва босқичларидаги фарқларни аниқлайди ва уларнинг эҳтиёжларини қондиради. Бу индивидуллашган ўқитиш методи ва мувофиқлаштирилган ўқув режа ҳамда эшитиш асбоблари ва материаллар асосида амалга оширилади.

Барча жаҳон мамлакатларида ривожланган ва шунингдек, ривожланаётган мамлакатларда Махсус инклюзив таълим сиёсатини жорий этиш зарурлиги таклиф этилмоқда. У имконияти чекланган ёшларни мактабни тамомлаганларидан сўнг максимал имконият даражасида ўз жамоаларига киришиб кетишларини енгиллатиш учун ўз ичига инклюзив таълимнинг ғоялари, қадриятлари ва стратегиясини махсус таълим дастурлари билан бириктириб олган. Махсус инклюзив таълим ҳар бир мамлакатнинг ўз таълим тизими доирасида ишлайди, ваҳоланки уларнинг аксарида умутаълим мактабларида имконияти чекланган барча болалар учун тақдим этилиши тан олинмоқда. Умумтаълим мактаблари имконияти чекланган болалар таълимини самарали ташкил этиш учун ҳақиқий маълумотлар ёрдамида дастур ва стратегияларга асосланиб инклюзив таълимни ўта самарали амалга оширишни қўллаш учун ташкил этилади. Болаларнинг аксарияти оддий синфларда ўқитилади, лекин камроқ қисми умумтаълим мактаблари махсус синфларида ёки яқин-атрофдаги махсус мактабларда ўқитиладилар. Меинстреим мактаблари (СЕНД) имконияти янада оғирроқ даражадаги чекланган болаларга таълим беришга мўлжалланган махсус мактаблар билан чамбарчас боғланган ҳолда ишлайдилар. Инклюзив таълим ташкил этилган барча умумтаълим мактабларда имконияти чекланган болалар ва ўсмирларга нисбатан дўстона муносабат руҳи шаклланади. • Инклюзив таълимни амалга ошираётган умумтаълим мактабларида давлат таълим стандартларига илова сифатида имконияти чекланган болалар ва ўсмирлар учун коррексион дастурлар ҳам инобатга олинади, махсус коррексион ишларни амалга ошириш учун шарт-шароитлар яратилади (махсус жихозланган коррекцион хонаси, махсус техник воситалар). • Инклюзив таълимни амалга ошираётган

умумталим мактабларида тайёрлов гуруҳ ва биринчи синфларда 35 дақиқа, юқори синфларда 45 дақиқадан дарслар олиб борилади. • Имконияти чекланган болалар ва ўсмирларнинг билимлари уларнинг шахсий хусусиятлари ва қобилиятларига асосланган ҳолда белгиланган тартибда баҳоланади. • Таълим жараёнида замонавий умумдидактик тамойиллар билан бир қаторда махсус тамойиллар ҳам эътиборга олинади. • Коррексион таълим ўқувчиларнинг эхтиёжларига кўра табақалаштирилган ҳолда ташкил этилади. • Инклюзив таълим амалга ошираётган умумтаълим мактабига ўқувчилар ота-оналарнинг аризаси ҳамда “психолого-педагогик комиссия”лар хулосалари асосида қабул қилинади ва таълим муассасаларининг раҳбарларининг буйруғлари билан тасдиқланади.

Инклюзив таълим амалга ошираётган умумтаълим мактабдаги синфларда интегратция қилинган ўқувчилар сони 2-3 нафардан оширилмайди ҳамда ўқувчиларнинг умумий сони 25 нафаргача белгиланади.

Кўришида нуқсони бўлган болалар инклюзив таълимида синфларни ва дарс жараёнини мослаштириш.

Ўқитувчи кўришида нуқсони бўлган боладан (агарда у заиф кўрувчи бўлса) синф тахтасини кўриш учун энг қулай жойга суриб уни ўша жойга ўтказиши лозим;

- Агар кўришида нуқсони бўлган боланинг кўзлари ёруғликка сезгир бўлса, уни дераза ёнига ўтказмаслик керак. Шунинг учун хам боланинг кўзларини ёруғликдан сақлаш учун картон тўсикни ишлатиш мумкин;

-Синфдаги энг ахлоқий ва олижаноб ўқувчиларни аниқлаб, кўришида нуқсони бўлган болага «йўл бошловчи» ўқувчи қилиб тайинланса юқори натижага эришиш мумкин;

-Ўқитувчи синф тахтачасига ёзилган маълумотларни баланд овозда ўқиши талаб этилади;

-Кўришида нуқсони бўлган бола маълумотларни эшитиш ва тактил сезгилари асосида эгалайдилар. Шунинг учун хам уларга буюмларни ушлаб кўриш имкониятини бериш керак;

-Ўқитувчи синфий мунозараларда ким гапираётганлигини кўришида нуқсони бўлган бола билиши учун ҳар бир ўқувчининг исмини айтиб туриши керак.

Эшитишда нуқсони бўлган болалар инклюзив таълимида синфларни ва дарс жараёнини мослаштириш

1. Эшитишда нуқсони бўлган болани ўқитувчи ва доскага якинрок (3 метрдан ошмаслиги),синфдагиларнинг барчасини кўра оладиган жойга ўтказиш ;

2. Ўқитувчи дарс жараёнида фақат синфга ўқувчиларга қараб дарс ўтиши, эшитмайдиган ўқувчиларни ўзига қаратиб дарс бошлаши; Ўқитувчи мавзуни тушинтираётган пайтда китоб ёки бошқа буюмлар билан юзини бекитмаслиги, доскадаги маълумотлар хақида тушунча бераётганда эса орқа томони билан туриб қолмаслиги шарт. Чунки эшитишда нуқсони бўлган болаларнинг кўпчилиги ўқув материали, тушунтириш, мурожаат ва ҳ.к.ларни лабдан ўқиш асосида қабул қила оладилар;

3. Инклюзив синф хонаси яхши ёритилган бўлиши керак. Чунки эшитишда нуқсони бўлган болаларнинг ўқитувчи ва ўқувчиларнинг юзини, қўлларини ёки лабини яхши кўриши керак;

4. Эшитишда нуқсони бўлган болани бошка болаларнинг лабини кўра олиши учун парталарни шунга мувофик тарзда жойлаштириш лозим;

5. Доимий равишда синфда шовқин кўтармаслиги талаб этилади. Инклюзив синф хонаси мактабнинг таянч ва сокин тарафида бўлиши талаб этилади;

6. Ўқитувчи аниқ талаффуз ва баланд овозда лекин бақирмасдан гапириши тавсия этилади.

Таянч- харакат аъзоларида инклюзив таълимида муаммолари бўлган болалар синфларни ва дарс жараёнини мослаштириш

Енгил даражадаги серебрал фалаж болани умумтаълим синфларда ўқитиш учун кўп нарса талаб этилмайди. Аммо оғир даражадаги серебрал фалаж болани умумтаълим тизимида ўқитиш синфни мослаштириш бироз мураккаброк. Бунинг учун синфни мослаштириш қуйидаги имконияти чекланган бўлиши мумкин:

1. Церебрал фалаж бола ўтирганда боши ва гавдасини тўғри тутиш учун махсус ўриндиқлар;
2. Боланинг бўйинини керакли даражада тута олиши учун махсус ўриндиқлар;
3. Ўқитувчи ва тенгдошлар болани тушуна олишлари учун мулоқот тахталари (масалан, расм ёки турли рамзий белгилардан ташкил топган тахталар);
4. Бола синфда ҳаракатлана олиши учун синф хонасининг деворлари ёнига ёрдамчи воситалар қўйиш;
5. Синф хона парталари церебрал фалаж боланинг аравачаси учун мослаштириш;
6. Агар боланинг нутқида оғир нуқсонлар бўлса мулоқотнинг бошқа шаклларидан, масалан расмлар ёки чизилган рамзий карточкалардан фойдаланиш мумкин. Улар синф тахтасига жойлаштирилса, бола ўз фикрини бу воситалар орқали ифода этади;
7. Болани саволлар беришга унданг, лекин унга ўз нутқи билан ёки бошқа воситалар орқали жавоб беришга фурсат беринг;
8. Комплекс ёрдам (тиббиёт ходими логопед, массажист ёрдами) турини ташкил этиш;
9. Тенгдошларидан бола билан ўзаро мулоқот қилишларини сўранг, чунки болалар доимо бир бирлари билан мулоқот қилиш йўлини топадилар; Қўл, оёқларни бошқара олишда қийналган болалар ёзишда жуда кўп қийинчиликларга учрайдилар. Шунинг учун уларнинг ёзишларга қўшимча вақт ажратиш лозим ёки уларга маълумотнинг нусхаси берилиши ёки бошка ўқувчи уларга ёзиб бериши мумкин.

Енгил даражадаги ақлий ривожланишида муаммоси бўлган болалар инклюзив таълимида синфларни ва дарс жараёнини мослаштириш

1. Ақлий ривожланишида муаммоси бўлган болалар диққатини тарқоқлигини ҳисобга олиб партада ортиқча нарсалар бўлмаслиги керак;

2. Ақлий ривожланишида муаммоси бўлган болалар тез чарчаб қолишини ҳисобга олган ҳолда, улар ҳаракатда бўлиш имконини берувчи топшириқлар бериб туриш («дафтарларни йиғ», «доскани тозала» каби);

3. Ҳар бир дарсда жисмоний дақиқа ўтказишни унутмаслик;

4. Синфда лидерлик қобилиятига эга бўлган ўқувчини аниқлаб, «синф бошқарувчиси» (имконияти чекланган ўқитувчи) этиб тайинлаш (бу ўкувчидан ўқитувчи ақлий ривожланишида муаммоси бўлган бола билан ишлаётганда кўпроқ фойдаланади);

5. Ақлий ривожланишида муаммоси бўлган болаларни синфдаги энг аълочи ўқувчи билан бирга ўтказиш;

6. Дарсда асосан кўргазмалиликка таяниш;

7. Ақлий ривожланишида муаммоси бўлган болага топшириқларни қисмларга бўлиб бериш;

8. Болани рағбатлантиришни унутмаслик;

9. Усулларнинг хилма – хиллигидан доимий равишда фойдаланиш;

10. Ўйин методларига максимал даражада таяниш;

11. Бола топшириқни бажараётганда унга қўшимча ёки амалий кўрсатма ҳам бериш;

12. Синф жамоасига ақлий ривожланишида муаммоси бўлган боланинг ҳам ҳиссаси қўшиладиган топшириқлар бериш;

13. Доимий равишда ақлий ривожланишида муаммоси бўлган болани назорат остига олиш.

Синф ва гуруҳларда инклюзив таълим тушунчасини ривожлантириш

Болалар онгида ирқчилик, ногиронлик ҳамда имкониятлар кенглиги хусусида тўғри тушунчаларни шакллантириш инклюзив таълимнинг самарадорлигини

оширишда жуда ҳам муҳим ахамият касб этади. Нотўғри тушунчаларнинг мавжудлиги сабабли имконияти чекланган болалар ҳақорат ва масхараланишига дучор бўлмоқдалар. Бундан ҳам аянчлиси шу каби салбий муносабатдаги ҳулқ-атворни айрим ўқитувчиларнинг эътиборсиз қолдираётганлигидир. Таълим-тарбия самарадорлигини ошириш учун ҳам барча мактабларда ҳамма болалар учун тенг ҳуқуқли, севимли, дўстона илиқ муносабатдаги муҳитни яратиш лозим. Мактабда ирқчиликни, ногиронлик устидан кулишни қораланиши ва ўртасидаги тенг хуқуқлилик тушунчасини шакллантириш керак.

Қуйида болалар ўртасида тенг ҳуқуқлилик тушунчаларни шакллантириш бўйича тавсиялар берилди:

-Педагоглар барча синфларда болалар ўз хаётлари ва ҳис- туйғуларини муҳокама қила оладиган ўзаро қўллаб – қувватловчи ва ҳамжиҳатликдаги ижобий муҳитни яратишга ёрдам беришлари лозим;

-Ўқувчилар онгига ногиронлик – алоҳидалик эмас, балки камчиликни мавжудлиги натижасида имкониятлар чегараланганлигини тушунтира билиш лозим.

Ногирон болалардан қўрқиш, жирканиш ҳисларини йўқотишга эришиш талаб этилади. Педагоглар айрим ҳолатларда стереотипларни қўллашдан қочишлари ва болалар олдида шарҳламасликлари лозим. Улар болаларга нима учун лақаб қўйиш, масхара қилиш, салбий муносабатларни юзага келтиришини тушунтириб беришлари ва бунга йўл қўймасликлари талаб этилади. Зарур бўлган ҳолатларда имконияти чекланган болаларда айрим ўқувчилар томонидан билдирилаётган салбий муносабатларни бутун синф билан муҳокама қилиш ўринли ҳисобланади. Ижобий натижага эришиш учун охиригача курашиш лозим. Ҳар бир муҳокама болаларнинг ютуқларининг унинг аввалги ютуқларига солиштириб, кайд этиб, таъкидлаб бориш муҳимдир. Ўқувчилар билан турли хилдаги ва психологик тестлар ўтказишда боланинг ирқига, ижтимоий келиб чиқишига, жинси ва ногиронликка оид

саволларни бермаслик айни муддао. Ўқитувчилар ишларини ва уларнинг ютуқларини барча соҳаларида мактаб ва мактабдан ташқари ишларда намойиш қилиб бориш керак. Дарсларга материаллар тайёрлашда имконияти чекланган боланинг ижод намуналарини ҳам қўллаш жуда самара беради. Китоб, плакатлар ва дастурларни қўллаётиб, шунга ишонч ҳосил килиш керакки,улар инклюзив таълимга мос келиши керак. Мактаблар очиқ бўлиши, ўқувчилар, ота-оналар ва педагоглар ўзаро мулоқот қила билиши керак.

Адабиётлар:

1. Р. Ш. Шомахмудова. “Махсус ва инклюзив таълим” услубий қўлланма. Тошкент-2011 йил. Қўшимча адабиётлар:

2. Л.Р.Муминова. Инклюзив таълим. Тошкент- 2014 йил.

3. Туре Ёнссон. . Инклюзив таълим. Тошкент -2003.

Fanni o‘qitishda didaktik o‘yinlarning o‘rni

Mamitaliyeva Mashhura Iqboljonovna-
Shahrixon tuman
11-umum ta’lim maktabi

Annotatsiya; Ushbu tezisda didaktik oyinla ularning fanni mazvuni uqtirishdagi ahamiyati metodik jihatlar haqida bayon qilingan

Kalit so’zlar:didaktika, innovatsiyalar, loyiha.

Bugungi kunda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar ta‘lim jarayonida o‘quvchi darsning markaziy figurasi ekanligi tan olinmoqda. Qolgan barcha harakatlar uning atrofida kechadi. Haqiqatdan ham yangi ijtimoiy va iqtisodiy talablar asosida ta‘lim maqsadiga erishish uchun o‘qitishning zamonaviy usullariga murojaat qilamiz. Ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda turli noan‘anaviy metodlardan foydalaniladi. Ular orasida didaktik o‘yinlar o‘quvchining shaxs sifatida ham psixologik, ham bilim jihatidan muhim qirralarini kashf etishga xizmat qiladi. Shu o‘rinda “Didaktika” so‘zi haqida to‘xtalib o‘tsak. Didaktika (yunoncha “didaktikos” – o‘rgatuvchi, ta‘lim beruvchi) pedagogikaning tarmog‘i. Didaktika atamasi ilk bor Yevropada XVII asrda o‘qitish va ta‘lim jarayoni haqida asarlar

yaratgan olimlar tomonidan qo‘llanila boshlagan. Diaktikaning bugungi kundagi maqsadi o‘qitishning eng samaradorusul va yo‘llarini topish.

Didaktik o‘yinlar esa ta‘limiy o‘yinlardir. U o‘qituvchi tomonidan tuzilib, o‘yin maqsadi va qoidalaridan tashkil topadi. O‘quvchi ushbu o‘yinlarda ham yangi bilim oladi ham tengdoshlari bilan to‘laqonli muomalaga kirishadi. O‘yin har doim o‘quvchinig hissiyotlari bilan kechadi: hayajon, javobgarlik, g‘alaba shukuhi, qayg‘u va boshqalar. Shunday ekan bir soat darsda u nafaqat ta’lim oladi, balki his-tuyg‘ularini ham tarbiyalaydi. “O‘yin – bolalar yashayotgan va o‘zgartirishlari kerak bo‘lgan dunyo sari yo‘l”, – degan edi Maksim Gorkiy.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta’lim tarbiya jarayonida asosan o‘quvchlarda ta’lim olish motivlarini ularning turli yo‘nalishdagi qobilyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Didaktik o`yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o‘yinlardan foydalaniladi va alohida o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. Umumiy o‘yinlar nazariyasiga ko‘ra mavjud barcha o‘yin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o‘yinlarga ishlatiladi. Bularning orasida didaktik o‘yinlar ta’lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini borishi bilan alohida o`ringa ega. O‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakllari hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o‘yinlarning ta’lim – tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganish va yanada oshirish bo‘yicha tadqiqot olib borishiga asos bo‘ldi. Natijada XX asrning 60-yillari boshida AQSH so‘ngra boshqa G‘arb mamlakatlarida ishchanlik o‘yinlari qo‘llanila boshlandi. Ishchanlik o‘yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy samarali va tejamli ta’lim metodlaridan iborat deb takidlaganlar. Didaktik o‘yinlarning yana bir turi aqliy hujum usulini birinchi marta 1939-yilda A.F. Osborn

qo‘llagan. Bu usulni g‘oyalar banki deb ham nomlagan. U muammolarni quyidagicha yechishga asoslanadi.

- muammoli vaziyat yaratish
- g‘oyalarni shakllantirish
- eng yaxshi g‘oyalarni tekshirish va baholash va tanlash

Ishchanlik o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yangi bilimlarni o`zlashtirish mashqi.

Rolli o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma’lum ro‘llarni taqsimlash va dars jarayonida shu ro‘lni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustaxkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur, aniq ma’lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi – o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi.

Yamarka darsi – dars mavzusini bo‘laklar bo‘yicha oldindan o‘zlashtirish o‘quvchilarning o‘zaro muloqat asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o‘tiladigan dars.

O‘yin darsi – dars mavzusiga mos o‘yin orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini tashkil etish darsi.

Sud darsi – o‘quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tashkillashtirish darsi.

Konsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo‘lib, o‘quvchilarni faollashtirish va bilimini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Tergovchi bilimdonlar olib boradigan darsi **–** dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar yordamida qiziqarli savol – javoblar, tahlillar asosida isbotlab, tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib eslab qolishlari uchun qulaylik yaratadilar.

Foydalanilgan adabiyodlar:

1.Mirziyoyev Sh.M “erkin va farovon kuch demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz “ Toshkent O’zbekiston 2016

2.O’zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi –T.,2014

Adabiyot fanini o’qitishda darslarni noan’anaviy usulda tashkil

Mannopova Shohsanam
Abdukamol qizi Baliqchi tuman
39-umumiy o’rta ta’lim maktabi

Annotatsiya;Adabiyot fanini o’qitishda darslarni noan’anaviy usulda tashkil etish usullari va ahamiyati to’g’risida ko’rsatmalar berilgan

Kalit so’zlar: ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, interfaol metodlar va noan’anaviy usullar

Ma’lumki, «Adabiyot » darslariga noan’anaviy darslarni olib kirish va uni ta’lim mazmuniga singdirish, dars o‘tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otishda, milliy tilga, o‘z xalqining an’analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Adabiyot» darslarining o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o‘z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko‘zlagan holda ish olib boramiz.

Dars o‘tish qulay va jonli bo‘lishi uchun turli ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqamiz. Ulardan o‘z vaqtida va o‘rnida foydalanishga harakat qilamiz. Murakkab mavzuni o‘quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Modul dars», «Zigzak», «Interfaol», «Uyin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars» kabi usullardan foydalanamiz. Darslarda o‘zimiz o‘rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanamiz. Ta’lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shuning

uchun, ilojini boricha, ta’limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o‘quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o‘quvchi darsni yaxshi o‘zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o‘tilganda o‘zini oqlaydi. Me’yoridan oshmasligi, o‘quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo‘lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog‘lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e’tibor berishimiz lozim. Har bir o‘tilayotgan darsga o‘quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

Noan’anaviy darsning asosiy yo‘nalishlari:

a) o‘quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o‘rgatish;

b) b) o‘quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;

v) o‘quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to‘g‘risida aniq tushuncha hosil qilish;

g) olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash va boshqalarga o‘rgatish va hokazo.

Shu maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi:

- o‘qituvchilarga kerakli metodik yordam ko‘rsatish:
- turkum fanlar bo‘yicha uchrashuvlar, ilmiy-amaliy konferentsiya hamda seminarlar tashkil etish.
- darslarni ko`zatish va ularda IPT elementlarini qo‘llash darajasini oshirish;
- ilg‘or ijodkor o‘qituvchilar tajribasini o‘rganish va ommalashtirish;

Dars jarayonida umumiy yoki mavhum tushunchalar o‘rniga aniq ilmiy asoslangan ma’lumotlar berish va boshqalar. Bugungi taraqqiyot har bir o‘qituvchidan o‘ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o‘z navbatida, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yo`qlaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo‘lishi, ulardan o‘z darslarida samarali foydalana olishi kerak bo‘lmoqda. Darslarda qo‘llanadigan interaktiv usullar o‘quvchilarda o‘z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otish,

ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko‘tarish, mantiqiy aniq va to‘liq nutq sohibi bo‘lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Ona tili darslarida o‘tiladigan mavzuga oid materiallarni topish, ularni bajarishda o‘yin usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan, o‘quvchilar ikkiga bo‘linib gap tuzadilar. O‘yin sharti shundaki, birinchi gap qaysi harf bilan tugasa, ikkinchi gap shu harf bilan boshlanishi kerak. Gaplar ma’lum bir mavzuga oid bo‘lib, natijada matn to`ziladi. Masalan: «Odam odamsiz yashay olmaydi. Inson o‘zining xushtabiati, shirin muomalasi bilan odamlar qalbidan joy oladi», kabi. Maktabda adabiy kechalar o‘tkazish ham o‘ziga xos samara beruvchi usullardandir. O‘quvchilar bunday tadbirlarda she’rlardan namunalar yodlaydilar, timsollarga bo‘linib, asarlardan parchalar ko‘rsatadilar, sahnada o‘zlari ijro etadilar. Bunda o‘quvchi yodlagan har bir jihat uning ongida bir umr muhrlanib qoladi, uning yodidan chiqmaydi.

O‘quvchi uchun mustaqil o‘rganishga berilgan badiiy asarni taqriz yozish orqali tahlil qilib berish usuli ham ancha samarali natija beradi. Taqriz yozish jarayonida o‘quvchilarda badiiy asar tiliga e’tibor kuchayadi, ularni badiiy ijodga o‘rgatish imkonlari tug‘iladi. Chunki taqriz yozish jarayonida o‘quvchi har bir so‘zning ma’nosi, salmog‘i va ta’sir kuchini to‘liq anglab etishga harakat qiladi.

BAHS-MUNOZARA DARSLARI

Bahs darslari o`quvchini ma`lum bir muammo ustida bosh qotirishga shu muammoga o`z munosabatini bildirgan holda yondashib, uni hal etishga yo`lovchi dars turidir.

Bahs darslarini aloxida daqiqali dars davomida o`tkazilsa baxs dars deb, darsni ma`lum bir bosqichida uyushtirilgan baxs esa darsning baxsli bosqichi deb yuritiladi.

Baxs dars o`tkazish uchun o`quvchi-talabalar oldindan tayyorgarlik ko`rishi maqsadga muvofiq.

Ularga muammoli savollar berilishi va shu muammoni har bir o`quvchi o`zicha xal qilgan xolda darsga tayyorlanib kelishi kerak.

Baxs darslarni har bir o`rganilgan asar yuzasidan pala-partish o`tib bo`lmaydi. Buning uchun o`qituvchi asarni sinchiklab, o`rganib, baxs munozaraga sabab bo`ladigan o`rinlarni belgilashi, shu o`rinlar asosida o`quvchilarda munozara qo`zg`ay oladigan savollar tayyorlashi, keyin ularni o`quvchi-talabalarga xavola qilishi zarur.

O`quvchilarning darsdagi mas`ulligini oshirish va ularda o`rganilayotgan asarga qiziqishni kuchaytirishda asosan evristiik usulda foydalaniladi. Biror asarni to`liq o`rganib, bo`lingandan keyin baxs dars o`tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o`quvchi asar bilan yaxshi va to`liq tanishmagan bo`lsa, berilgan muammoni to`g`ri tushuna olmaydi va savollarga javob berishga ojizlik qiladilar. O`z fikriga ishonmagan o`quvchi baxsga ham aralashib, faollik ko`rsata olmaydi.

Baxs darslar o`quvchilarni fikrlashga, so`zlashga, tadqiqot qilishga, maqbulni nomaqbuldan ajrata bilishga, o`z fikrini dalillar bilan isbotlashga, muhokama va munozara yuritishga o`rgatadi. O`quvchi-talabalar haqiqatni yuzaga chiqarishga intiladi, chunki haqiqat baxsda tug`iladi.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Mirqosimova M. Adabiy ta`lim metodikasi. –T. 1993

. Adabiyot o`qitish metodikasi (tuzuvchilar. Q.Yo`ldoshev, O.Madayev, A.Abdurazzoqov). Toshkent. 1994 yil.

3. To`xliyev B. Adabiyot o`qitish metodikasi. Toshkent «Yangi asr avlodi», - 2006

4. http://www.pedagog.uz;www. connect.uz : www. fantexnolog.uz

www.ziyonet.uz

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Mashrapova Odinaxon Rustamovna
Qo‘rg‘ontepa tuman Qorasuv shahar 51-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich ta’limni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning sifat va samaradorligini oshirish usullari va o‘qituvchining samarali pedagogik faoliyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, innovatsiya, texnologiya, slayd, multimedia, AKT, metod.

Biz bilamizki dunyo imoratlari ichida eng buyugi bu – maktabdir. Biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari esa bu imoratni poydevorini pillapoyasini quramiz. Hozirgi kunda aytish mumkinki bilimli va intelektual rivojlangan barkamol avlod, sog‘lom muhit mavjud bo‘lgan sog‘lom jamoada tarbiyalanadi. O‘qituvchi dars jarayonida birinchi navbatda sog‘lom muhitni yaratishi kerak. Shundagina o‘quvchiga berilayotgan bilim samarali bo‘ladi. Barkamol shaxsni voyaga yetkazish va unda ta’limning dastlabki bilimlarni hosil qilish umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinflarda mashg‘ulotlarni tashkil etish aytib o‘tilganidek o‘qituvchidan yuksak bilim, iqtidor, yetarli ko‘nikma va malakalani talab etadi. O‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan dars o‘quvchining kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Zero ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan talab kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an’ananaviy ta’limda bir xillikda bo‘lgan bo‘lsa zamonaviy ta’limda o‘qituvchi ham o‘quvchi ham yanada faolroq ishlaydi, intiladi. Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan darslarda yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga, intilishlarini qondirib, ularni

fikrlashga o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Ta’lim muassasalarining o‘quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari, interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Innovatsiya nima? Innovatsiya-inglizcha “innovation” so‘zidan olingan bo‘lib, yangilik kiritmoq degan ma’noni anglatadi.

Har bir darsda o‘quv predmetning o‘ziga xos texnologiyasi mavjud. Texnologiya bu – grekcha, “san’at, mahorat” degan ma’noni anglatadi. Yunesko tomonidan pedagogik texnologiyaga – “bu ta’lim shakllarini texnologiyalashtirish vazifalarini ko‘zlagan o‘qitish va boshqalarni o‘zlashtirishni barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularni birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etish va aniqlashni izchil metodi” deb ta’rif berilgan

O‘quvchilarni kompetensiyalarni shakllantirishda didaktik o‘yinlar va AKT vositalarining ahamiyati kattadir. Har bir dars yangicha ko‘rinishda va yangicha talab bo‘yicha o‘tilishi kerak. Buning uchun o‘qituvchidan katta ma’suliyat, shijoat talab etadi. Hozirgi kunning o‘qituvchisi zamon shiddatlanib borayotgan bir pallada ana’anaviy darsdan voz kechib, yangicha qarashda, yangicha nigohda ishlashini talab etadi.

Slayd-dars – bu yoritilishi kerak bo`lgan mavzularni, o`quvchilar bajarishi lozim bo`lgan topshiriqlarni xattaxtada yoki daftarda emas, kompyuter texnologiyasi orqali ko`rsatish va bajarishdir. Slaydlaring o‘zi turlicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Slayd – matn, namoyish, rasm, shakl, ma’umot, rang…

Multimediyaga – matn, namoyish, rasm, harakat, tovush, shakl, grafika…

AKT va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash natijasida o‘quvchilar:

- mavzuni tez tushunib oladi, yaxshi o‘zlashtiradi, o‘sha mavzuga qiziqishi oshadi,

- olgan bilimlarini to‘laqonli o‘zlashtirib, hayotda qo‘llay olishiga va turli vaziyat va muammolarda tezkor javobini topishga o‘rganadi.

- mustaqil fikrlovchi, izlanuvchan, bugungi zamonga mos kadrlar bo‘lib yetishadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o‘quvchilar faolligini ta’minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta’minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, o‘zini-o‘zi va o‘z faoliyatini o‘zi tahlil qiladigan va obyektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma’naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, axborotlar to‘plash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta’lim oluvchilar faolligini ta’minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga va o‘quvchilar faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko‘rish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan hamda ta’lim- tarbiya jarayoni subyektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta’minlash yo‘nalishida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan pedagogni kompetentli o‘qituvchi deyishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki o‘z kasbini sevib ma’suliyat bilan yondashadigan talabchan o‘qituvchi pedagogik jarayonida faol bo‘ladi. Uning ijodkorligi bolalarni fikrlashga undaydi. Ta’limning sifatini belgilab beradigan omillardan eng muhim bolaning ta’limga qiziqishidir. Bolalar o‘zi qiziqqan jarayondagi faol ishtirok etadi va ijodkor bo‘ladi. Zamonaviy darsga bo‘lgan talab o‘quvchini qiziqishini kengayishi zimmamizdagi talabning ortib borishi bizni yanada faollikka izlanuvchanlikka undaydi. Bugungi kunda o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchini chuqur va puxta bilim olishga, ulardagi bilimga bo‘lgan

ehtiyojni qondirishdir. Shubhasiz, hozirgi kunning o‘quvchilari har qadamda fan texnika yangiliklariga, yutuqlariga duch kelishadi va qiziqishadi. Ular nafaqat bilim oluvchi balki axbarot, yangiliklarni izlovchi tahlil qiluvchi va shu bilan birga tadqiqot qiluvchilardir. Demak,o‘qituvchilar har doim o‘qib, izlanishi,zamon bilan hamnafas bo‘lib, yangi usullar asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga asoslangan sifatli zamonaviy dars tashkil qila olishlari lozim. Interfaol metodlar o‘quvchida zukkolikka, tirishqoqlikka, bilimlarni puxta egallash ko‘nikmalarini hosil qiladi. Mavzuni guruhlarga bo‘lib o‘tish, modullarga bo‘lib o‘rgatish, o‘quvchilarni hamkorlikka ishlashga undaydi, dars samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ro‘ziyeva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013

2. Fayzullayeva N. Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta’lim jurnal. – T.: 2006. 6-son

3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat -T.: Darslik. Iqtisod-moliya 2011.

Til fanini o`qitishda ta`lim texnilogiyalarning o`rni.

Misirova Karomat Mahammadovna
Marhamat tuman 18- umumiy
o`rta ta`lim maktabi o`qituvchisi.

Annotatsiya;ushbu tezisda til fanining o`qitishda ta`lim texnilogiyalarning o`rni.

Kalitso’zlar:pedagogic texnologiyalar, ta`lim texnologiyalar, pedagogika institutlar.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning odilona siyosati hamda amalga oshirilayotgan islohatlar tufayli halqimiz ma`naviy hayotidagi boshqa ko`plab masalalar qatori til masalasi ham kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi.Ayniqsa, ona tilimizning Xalqaro maydondagi obro`- e`tibori va nufuzini yuksaltirish, mamlakatimizning jahon komunikatsiyasi tizimida integratsiyalashuvni ta`minlash, farzandlarimiz uchun axborot texnologiyalarni

har tomonlama puxta egallash borasida qulay imkoniyatlar yaratish kabibir – biridan muhim vazifalar kun tartibig quyiladi va jarayonlar bugun ham izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

O`tkir Hoshimov yozganidek: “ Qancha ko`p tilni bilsangiz, shuncha yahshi, biroq odam ona tilida yig`laydi … O`limi oldidan onasini ona tiladi tush ko`radi, ona tilida yuqlaydi…..” Anglashiladiki, onatili insonning mavjudligi asosi, tamaltoshidir. Inson ona tilisi bilan tirik.Shu bois, maktab, akademik litsey va kollej o`quvchisida, oily o`quv yurti talabasida lingvistik kompetentlikni shakllantish, avvalo, onatili muqaddas, uning mo`tabarligini , aziz mukarramligini uqtirishdan boshlanmog` va uni ta`lim oluvchining yosh xususiyatiga ko`ra rivojlantirib borilmog`I kerak. Ta`kidlashjoizki ,universitetvapedagogikainstitutlarningnafaqatfilologiya , balki barcha yo`nalishlarida kasbiy kompetentlikning uzviy qismi sifatida lingvistik kompetentlikka xos malaka va ko`nikmalarni tarbiyalashga alohida e`tabor qaratish lozim. O`qituvchining kasbiy mahorati , o`quvchilarning ongi, bilimi dunyo qarashini o`stirish, faolliklarini oshirish orqali ta`lim samarodorligiga erishish bilan bog`liq masalalar majmuini ifodalaydi:

- Ta`lim berish mahorati;
- Tarbiyalay olish mahorati ;
- Ta`lim oluvchilarning bilimlarni holisona baholayolish va nazorat qila olish mahorati ;

Demak ,pedagog o`zoldiga qo`yilgan ma`suliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish hamda ta`lim tarbiya jarayoniga bo`lgan yangi chaqarashlarni shakllantirish uchun qator xislatlarga ega bo`lish kerak. Pedagogik texnologiyalar mohiyati va tamoillar hamda uningan` anaviy o`qitish jarayonidagi afzalliklarini bilish, shaxs manfaati va ta`lim berishda ilg`or pedagogik texnologiyalarni qo`llay olish o`quv jarayonidagi afzalliklarini

bilish, shaxs manfaati va ta`lim ustuvorligini ta`minlash uchun pedagogik innovatsiyalarni qo`llay olish;

O`quvchilarga o`z fani bo`yicha ta`lim berishda ilg`or pedagogik texnologiyalar o`quvjarayonini faollashtirish hamda o`quv materiallarini o`zlashtirishning yuqori darajasiga erishish va o`quvchilarni mustaqil fikrlash va o`z fikrini erkin bayon etishga o`rgatish.

O`z fanining mohir ustasi va fidoiysi bo`lishga erishish lozim.

Ona tili va adabiyot fanini o`qitishda " FSMU" texnologiyalarniqo`llashorqalimustqilfikrlash , o`zgalar fikrini hurmat qilish, o`zo`zinivaozgalarninazoratqilishtasavvurlarniijodiyyoritibberish, fikrlarni umumlashtirish, xulosalash ko`nikmalari shakllantiriladi.

" Insert " va "Blits usullarini qo`llashda o`quvchilarning kitobxonlik darajasini ortirish samarali o`qitish tizimini shakllantish, savodxonligini oshirish, lug`atboyliginio`stirish, nutq madaniyatiga erishish malaka va ko`nikmalariga ega bo`ladi. Asosiy innovatsion usullardan biri "Aqliy hujum"hisoblanadi . " Aqliy hujum " usuli va termini amerikalikolim A.F. Osboritomonidantavsiyaqilingan. Hozirgi kunda uning bir necha qo`llanishi usuli ishlab chiqilgan bo`lib,undan maqsad g`oyalarni yig`ish, muamoli masalalar yuzasidan har tomonlama fikr almashinishdir.

Mazkur usulning asosiy tamoili va qoidasi – ishtirokchilar taklif qilgan g`oyani umuman tanqidqilmaslik, turlihazil, e`tirozlarni rag`batlantirish , ularni fikrlashga undashdir.

"G`alaba cho`qqisi" didaktik o`yini har bir mavzuni mustahkamlash jarayonida qo`llanilishi mumkin. O`quvchi o`yin faoliyati jarayonida o`zi bilmagan holda fanni egallab borayotganininamo ishqiladi.

"Matn yaratish texnologiyasi" o`quvchi lug`at boyligini oshirishdan tashqari ijodkorlik qobilyatini shakllantiradi, savodxonligini yuzaga chiqaradi.

“Bumerang” texnologiyasini qo`llash o`qituvchidan yuksak mahorattalab qiladi. Bu tehnologiyani qo`llash bilan o`tilgan darslarni 90 foizini takrorlash va mustahkamlash orqali bilimlar orttiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki ona tili darslari noan`anaviy dars usullaridan ta`lim ta`lim texnologiyalaridan foydalanish asosida tashkil etilsa, o`quvchi – o`quvchi munosabati o`rnatiladi.Yani, bu har bir o`quvchining yangilik sari yetaklaydi, uning mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi, faolligi, o`qishga ma`suliyatini oshiradi. O`quvchining bilimlari mustahkamlanadi, puxta o`zlashtirishga erishiladi va dars samaradorligi kafolatlanadi.

Foydalailganadabiyodlar:

1. Karimov I. Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.

2. КаримовИ. Юксакмаънавият – енгилмаскуч. – Тошкент: Маънавият, 2010.– Б. 87.

II. <u>Darslik va o</u>‘quv qo‘llanmalar:

3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o’zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006. - B.397.

BOSHLANG’ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION O’YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Mo‘minova Gulnoza
Izboskan tumani 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Bu maqolada boshlang’ich sinf texnologiya darslarida turli innovatsion o’yin texnologiyalarini qo’llash orqali o’quvchilarning amaliy ko’nikmalarini faollashtirish usullari bayon qilingan.*

Kalit so’zlar. *amaliy ko’nikmalar, innovatsion texnologiyalar, o’yin texnologiyalari, tangram, Geobord, Lego konstruktor.*

Аннотация. *В этой статье описываются способы активизации практических навыков учащихся за счет использования различных*

инновационных игровых технологий на уроках технологии в начальной школе.

Ключевые слова: *прикладные навыки, инновационные технологии, игровые технологии, Танграм, Геоборд, конструктор Lego.*

Ko’plab zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar mavjud bo’lsada, ammo boshlang’ich ta’lim jarayonida eng katta e’tibor o’yin texnologiyalariga qaratilgan bo’lishi lozim. Boshlang’ich sinf Texnologiya darslarida va darsdan tashqari faoliyatda, ya’ni to’garaklarda o’yin texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. CHunki, kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning hali bola ekanligini hisobga olish lozim. Darsda foydalanish mumkin bo’lgan har bir o’yin o’ziga xos va ma’lum funktsiyaga egadir.

Texnologiya darslarida Lego konstruktorlaridan foydalanish mumkin. Lego - bu ko’p funktsiyali, kichik maktab yoshidagi o’quvchilarni ta’lim jarayonida rivojlantirishga mo’ljallangan transformatsiya-lanadigan o’yin materialidir. Lego konstruktori har xil tipdagi ta’lim muassasalarida qo’llashga moslashtirilgan, o’quvchilar va pedagoglar foydalanishiga qulay, bezarar, havfsiz plastikdan yasalgan, ranglari va shakli jozibali o’yin materiali hisoblanadi.

Lego konstruktori to’plami bilan bolalar ko’plab geometrik va o’yin shakllarini yig’a olishadi. Kichik yoshdagi maktab o’quvchilariga ko’pincha raqamlar va harflar bilan uzoq vaqt davomida ishlash uchun sabr-toqat yetishmaydi. Lego konstruktori muammoni o’yin shaklida hal qiladi. Lego konstruktori o’quvchilarning tasavvur qilish, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiribgina qolmay ularning mayda motorikasini, geometrik tasavvurlarini, matematik tasavvurlarini ham rivojlantiradi. CHunki, Lego konstruktorida simmetriyani to’g’irlash, ranglarni va shaklning katta kichikligini to’g’ri tanlash muhim hisoblanadi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilariga Texnologiya darslarida yelim bilan ishlash zerikarli bo’lishi mumkin. Bunda esa, Tangram o’yini juda qo’l kelishi mumkin. Bu o’yinning yog’ochdan yasalgan variantini sotib olish yoki karton qog’ozidan qo’lda tayyorlash mumkin. Eng asosiysi bu bir martalik o’yin emas va o’quvchilarning fantaziyasini cheklamaydi. Bu o’yinda 100 dan ortiq tayyor namunalar ham ilova qilinadi, har bir namunani yasash uchun o’quvchi mantiqiy fikrlashi va loyihalashi zarur bo’ladi. O’quvchilarda geometrik tasavvurlarni rivojlantirishda bu o’yinning ahamiyati katta.




Kichik yoshdagi maktab o’quvchilarining loyihalash faoliyatini rivojlantirish uchun “Gebord” o’yin texnologiyasini yoki matematik planshetni qo’llash tavsiya etiladi. Bu yog’ochdan yasalgan havfsiz o’yin taxtasi bo’lib:

- birinchidan, u bolaning bilish qobiliyatlarini rivojlantiradi: assotsiativ fikrlash, diqqat, xotira;
- ikkinchidan, sensomotor rivojlanishiga hissa qo’shadi;

- uchinchidan, Geobord o’yini foydalanishning juda ko’plab imkoniyatlarini taklif etadi, demakki bolalarning tasavvur qilish va ijodiy salohiyatini rivojlantiradi;
- to’rtinchidan, bu oddiy o’yinchoq “matematik planshet” sifatida ishlatilishi mumkin va bolaga geometriyaning asosiy shartlarini tushunishga yordam beradi: shakl, perimetr, maydon;
- beshinchidan, Geobord – bolalarda jismoniy va psixologik stressni bartaraf etishning ajoyib usulidir.





SHunday qilib, matematik planshet yoki Geobord o’yinini boshlang’ich sinflarda o’qish, yozuv, matematika, tasviriy san’at, atrofimizdagi olam va texnologiya darslarida keng qo’llash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalarni ta’limga joriy etish va qo’llash faqat bilimga qiziqish uyg’otibgina qolmay, balki ta’lim olishda katta muvaffaqiyatlarga erishishga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva Q.A., Safarova R.F. va boshq. Boshlang’ich ta’lim kontseptsiyasi. // Boshlang’ich ta’lim j. –T.: 1998. -№6. – B. 12-18.
2. Ksenzova G.Yu. Perspektivnыe shkolьnыe texnologii: Ucheb.-metod. posobie. - M: Ped. obщestvo Rossii, 2001. - 224 s.
3. Safarova R., Ne’matov SH. va b. O’quv predmetlari mazmunini aniqlovchi asosiy parametrlar. T.: Fan va texnologiya, 2011. – 159 b.

Andijon viloyatidagi ijtimoiy tadbirkorlik rivojiga nazar

Andijon viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o’rgatish milliy markazi tarix fani o’qituvchisi Shohruxbek Nuraliyev

Annotatsiya: Shu o’rinda “Mahallabay” va “xonadonbay” ishlash orqali oilaviy tadbirkorlik rivojlantirilmoqda. Qolaversa,bu ishsizlik va kambag’allikdan xoli hududga aylantirishda o’ziga xos maktab bo’lmoqda. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan “Lider tadbirkor”ga aholi honadonlari bilan kooperatsiyani yo’lga qo’yish yuzasidan 40 mln. AQSH dolari miqdorda ajratib berildi. mahallalardagi ishsiz,ijtimoiy himoyaga muhtoj va daromadsiz fuqarolarning bandligini ta’minlash va tadbirkorlikka yo’naltirish ishlari salmoqliy olib borilmoqda.

Kalit so’zlar: Ijtimoiy tadbirkorlik, oila, nogironlik,”Temir daftar”, mahalla, ishsizlik,kambag’allik,oilaviy tadbirkorlik

Davlatimiz rahbari tomonidan bugun ijtimoiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish bo’yicha aniq va strategik vazifalar belgilab berilgan.Yurtboshimizning “Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili, va dinidan qatiy nazar,erkin,tinch va badavlat umir kechirishi,bugun hayotdan rozi bo’lib yashashi bizning bosh maqsadimizdir.”[1] deb aytkanlaridan kelib chiqqan xolda. Bu borada Andijon viloyati misolida olib borilayotgan ishlarga qaralsa .Ularning bajarlish tarmoqlari hamda xududlarda mavjud muammolar va kamchiliklarni bartaraf etishda,davlat buyjeti mutanosibligini uning kafolatlaganligini taminlashda muhim o’rin egallamoqda. Shu o’rinda “Mahallabay” va “xonadonbay” ishlash orqali oilaviy tadbirkorlik rivojlantirilmoqda. Qolaversa,bu ishsizlik va kambag’allikdan xoli hududga aylantirishda o’ziga xos maktab bo’lmoqda. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan “Lider tadbirkor”ga aholi honadonlari bilan kooperatsiyani yo’lga qo’yish yuzasidan 40 mln. AQSH dolari miqdorda ajratib berildi. mahallalardagi ishsiz,ijtimoiy himoyaga muhtoj va daromadsiz

fuqarolarning bandligini ta’minlash va tadbirkorlikka yo’naltirish ishlari salmoqliy olib borilmoqda. “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” ga kiritilgan jami 146 ming nafardan ziyod fuqarolarga xar tomonlama amaliy yordam ko’rsatildi va moddiy qo’llab-quvvatlash ishlari amalga oshirildi. O’tkan yillar davomida ijtimoiy tadbirkorlik rivojlanishida 150 ming nafar ishsiz fuqaroning bandligini ta’minlash bo’yicha “Yo’l xaritasi” ishlab chiqildi. unga ko’ra 113 ming nafar fuqaro doimiy ish o’rinlariga ega bo’ldi. Qishloq xo’jaligi sohasi bilan shug’illanish istagini bildirgan 58-ming nafar ishsiz fuqaroga 10 sotixdan er maydoni ajratib berildi. Misol uchun, Asaka tumanidagi Yuqori bo’z mahalla fuqarolar yig’nini olib ko’rsak. 860 ta xonadonda 4556 nafar aholi yashaydi. Ijtimoiy ko’makka muhtojligi sababli “Temir daftar”ga kiritilgan 49 ta oilani kambag’allikdan chiqarish choralari ko’rildi. Aholi bandligini ta’minlash maqsadida oilaviy dadbirkorlikni yo’lga qo’yish choralari ko’rildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “ Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog’liq.”[2] deb aytib Ijtimoiy tadbirkorlikka alohida etibor qaratmoqda.

Ijtimoiy tadbirkorlik-aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ish o’rinlari,ijtimoiy tovarlar vaijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlash,aholiga tibbiy buyumlar,dori vositalari yoki ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlarini tannarxida yoxud tannarxidan past bo’lgan narxlarda sotish,favqulotddaholatlarga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini bartaraf etish hamda boshqa ijtimoiy maqsadlarni ko’zlagan faoliyat hisoblanadi. ijtimoiy tadbirkorlikni rivijlantirishdan asosiy maqsad aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini ish o’rinlari, arzon ijtimoiy tovarlarva arzon ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlash hisoblanadi.

O’tkan yillar davomida viloyatda nogironligi bo’lgan shaxslar va o’zgalar parvarishiga muhtoj bo’lgan yolg’iz keksalar va aholining boshqa ehtiyojmand qatlamlari manzilli tibbiy-ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olingan. Ijtimoiy yordamga muhtoj va ehiyojmand aholi uchun nafaqa miqdori o’tkan yillarga nisbatan 2-barobarga ko’paytirildi. Jumladan,aholini ijtimoiy-qo’llab quvatlash maqsadida 111-ming nafar kam taminlangan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga mahalliy byujetdan 286 mlrd so’m ijtimoiy nafaqalar to’lab berildi.

Adabiyotlar

1.Sh.Mirziyoyev- Oliy Majlisga Murojatnomasi.

2. Sh.Mirziyoyev- Oliy Majlisga Murojatnomasi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY BARKAMOLLIGINI TA’MINLASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘RNI

Nuryog‘diyeva Tursunoy Xamrali qizi
Marhamat tumani 37-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jamiyat va xalq ma’naviyatini shakllantirish uchun o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy barkamolligini yuksaltirish, bu jarayonda o‘quvchi - yoshlarning ma’naviy - ma’rifiy barkamolligini shakllantirishi ulardagi mustaqillik mafkurasi hamda milliy g‘urur bilan sug‘orilganligi asosiy e’tiborda bo‘lishligiga imkoniyat yaratilishi haqida bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, xalq ma’naviyati, shakllantirish, o‘quvchi-yoshlar, ma’naviy barkamollik, yuksaltirish, mustaqillik mafkurasi, milliy g‘uru, imkoniyat*

Аннотация: *В данной статье говорится о повышении духовного совершенства учащейся молодежи для формирования духовности общества и народа, о том, что формирование духовно-просветительского совершенства учащейся молодежи должно быть в центре внимания идеологии независимости и национальной гордости.*

Клюсҳевые слова: *общество, духовность народа, формирование, учащаяся молодежь, духовное совершенство, возвышение, идеология независимости, национальная гордость, возможность*

Jamiyat ma’naviyatining asosiy negizini unda yashayotgan kishilar ma’naviyati tashkil qiladi. Bunday kishilar o‘z - o‘zini anglaydigan kishilardir. Ana shuning uchun ham jamiyat ma’aviyatining yuksalishida ularning bevosita ta’siri bor.

Oilada va ta’lim muassasalarida eng yaxshi va olijanob an’analar hamda urf - odatlar ruhida tarbiyalangan o‘quvchi - yoshlar o‘z - o‘zini anglashga, o‘zligini namoyon qilishga harakat qiladi. Unday bolalarga shafqatsiz taqdirning zarbalariga mayuslik bilan bo‘yin egib turish yotdir. Ularda orqaga chekinishga xohish bo‘lmaydi va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi sari ikkilanmasdan harakat qiladi hamda ular qiyinchiliklarga kurasha oladi. Qiyinchiliklarni va muammolarni yengib o‘tib, g‘alaba qozonishni ular o‘zlariga sharaf deb biladilar. Ana shunday o‘quvchi - yoshlarni yaxshilikka muhabbat, yomonlikka nafrat ruhida tarbiyalash samarali kechadi va ulardan o‘z oilasi ham, jamoasi ham. jamiyat va davlat ham foyda ko‘radi, chunki bular tezda ma’aviy barkamol shaxslar bo‘lib shakllanadi. Bu qayd etilgan insonning ma’naviy sifatlari, insonning ma’naviy barkamolligi qirralaridir.

Insonning ma’naviy barkamolligiga xos xislatlar to‘g‘risida quyidagi mualliflar jamoasining fikri ham nihoyatda ahamiyatlidir:

- ota - onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas butun oila a’zolari, qo‘ni - qo‘shnilari, mahalla - kuyi, qishloqdoshlari va butun mamlakat, xalq farovonligi haqida qayg‘urish;

- tevarak - atrofdagi insonlar unga kerak bo‘lgani singari, o‘zi ham ularga kerak bo‘lishiga intilish; odob - axloqi, fe’l - atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblash;

- ota - bobolaridan, ajdodlaridan yodgorlik bo‘lib qolgan madaniy merosini qadrlash;

- milliy qadriyatlarni e’zozlash va ularga sodiq bo‘lib qolish; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularining barqaror bo‘lishi;

- o‘zaro muammo - munosabatda o‘rnak bo‘lishga moyillik, birovning og‘irini yengil qilishni odat qilish;

- umumxalq ma’qullagan, davlat tomonidan qonuniy deb qabul qilingan Konstitutsiyani hurmat qilish va unga sadoqat namunalarini amalda ko‘rsatish;

- Vatanni himoya qilish, boshqacha aytganda, harbiy vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan yashash;

- diyonat va adolat, mehr - shafqat va ezgulikni himoya qilish;

- va’daga vafoli bo‘lish va boshqalar»

Demak, jamiyat va xalq ma’naviyatini shakllantirish uchun o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy barkamolligini yuksaltirish kerak bo‘ladi. Ushbu jarayonda o‘quvchi - yoshlarning ma’naviy - ma’rifiy barkamolligini shakllantirishi ulardagi mustaqillik mafkurasi hamda milliy g‘urur bilan sug‘orilganligi asosiy e’tiborda bo‘lishligiga imkoniyat yaratadi.

Qayd etilgandek ma’naviy barkamollikni ta’minlashda o‘quvchi-yoshlar ma’naviy tarbiyasi hozirda juda zarur, chunki hozirgi globallashuv jarayoni shiddat bilan yuz berayotgan davrda ular ongiga turli zararli g‘oyalar, hech bo‘lmaganda bunday g‘oya elementlari singdirilib qolishi hech gap emas. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bunga hozirda oilalarimizda ham, ta’lim muassasalarimizda ham yetarli shart -sharoit va imkoniyatlar bor.

Quyida ular to‘g‘risida ma’lumotlarni keltiramiz:

1. Oilalardagi ota - onalarning o‘z farzandlari ma’naviy tarbiyasiga oid ma’lumotlarga egaligi va bunda har bir oilada farzandlariga nima yaxshi-yu, nima yomon, nimani qilish mumkin-u, nimani qilish mumkin emas kabilarni o‘rgata olishi hamda o‘zaro munosabatlarda kattalarning hurmatini, kichiklarning izzatini o‘z o‘rniga qo‘yishini farzandlari ongiga singdira olishi, kiyinish va ovqatlanish hamda salomlashish odoblarini o‘z farzandlarini odatlantira olishiga shart - sharoit borligi, aks holda bunday imkoniyatlar bo‘lmagan oilani milliy -ma’naviy oila deb bo‘lmaydi. Bunday oilalar ma’naviyati bilan shug‘ullanish alohida

tarbiyaviy jarayonni talab etadi va bunda «oila - maktab - mahalla» hamkorligida faoliyatga ko‘proq e’tibor beriladi. Bunga hozirda jamiyat institutlari bor;

2.Mamlakatimizda doimo sog‘lom muhitda yashovchi o‘quvchi - yoshlarimizni tarbiyalashning uzluksiz va mukammal tizimi bor. Ulardan ba’zilari nafaqat ta’lim muassasalarida, balki maktabdan tashqari ta’lim – tarbiya maskanlarida ham olib borilmoqda;

3. Oiladagi ota – ona ibrati va mahallalardagi, qolaversa, yurtimizdagi namunali oilalar hamda ulug‘ insonlar (mustaqillik qahramonlari, kasb - hunarning yetuk ustozlari, zamonaviy ma’rifatparvar ziyolilari va shu kabilar) turmush tarzi va hayoti faoliyati misolida o‘quvchi - yoshlarimizga ma’naviy barkamollikning ayrim qirralarini singdirish mumkin. Bunda yuqorida qayd etilgan ota - onalar va ulug‘ insonlar hamda mahallalardagi namunali oilalardan ibrat -namuna sifatida foydalaniladi. Bu yo‘nalish ham samarali kechadi. Bunga sabab ibrat - namuna - hayot dorilfununidir;

4. Oilalarda va maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim muassasalarida doimo sog‘lom ma’naviy muhitni saqlashga shart -sharoit borligi. Faqatgina bunday jarayonlarni shakllantirishda sog‘lom ma’naviy ehtiyojga sinchikovlik bilan e’tibor berish kerak, chunki u insonning qalbini nurga va ziyoga, yaxshilik va ezgulikka to‘ldiradi va bu sinchikovlik o‘quvchi - yoshlarimizni yomon illatlardan himoya qiluvchi tarbiyaviy vosita hisoblanadi;

5.O‘zbek xalqining boy ma’naviy boyligi va intellektual mulklari haqidagi ma’lumotlarni o‘quvchi - yoshlar ongi va qalbiga singdirib borishga shart - sharoitlar yetarliligi, ya’ni hozirda har bir xonadonda oilaviy axborot vositalardan foydalanish imkoniyati mavjudligi, xususan, televizorning borligi (faqatgina bunda tele eshittirishlardagi ular yoshlariga moslarini ko‘rishiga ruxsat berilishi lozim bo‘ladi. Ular jumladan quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin: «Ertaklar – ezgulikka yetaklar», har xil intellektual o‘yinlar, «Qonun va ijro», «Izla, o‘yla,

top», Odam savdosiga oid reklama materiallari va shu kabilar); yoshlarning yoshi va ongu tafakkuriga mos kitoblar, badiiy va hujjatli asarlar, kinofilmlar, videofilmlar, multimedia vositalari, kompyuterlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida filmlar va shu kabilardan muntazam foydalanib borishga imkoniyatlar bor. Bular o‘quvchi -yoshlarga (oilada farzandlarga) ma’naviy ta’sir ko‘rsatishning «Imogoterapiya» usulini qo‘llashga ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Demak, hozirda tarbiyashunoslik oldida turgan asosiy muammolardan biri o‘quvchi - yoshlarmizni ma’naviy barkamol qilib o‘stirib, ularni turli xil salbiy ta’sirlar domiga tushib qolmaydigan va har xil tahdidlarga qarshi tura oladigan qilib shakllantirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.–T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz” – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi o‘quv dasturi // Boshlang‘ich ta’lim . – Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.
4. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi// Boshlang‘ich ta’lim, 2014.

INKLYUZIV (UYG’UNLASHTIRILGAN) TA’LIMNI QO’LLAB-QUVVATLASHIMIZ OMILLARI

Ortiqova Ro`zixon Andijon shaxar 40 maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi.

Annotatsiya: Mazkur tezisda inklyuziv ta’limning bugungi kundagi zaruriyati,va mazkur amaliyotni kafolatlovchi omillar, va tizimdagi vazifalar yoritib o’tilgan.

Kalit so’zlar: inklyuziv, uyg’un, korrektsioni.

Nogironligi bo’lgan bolalar boshqalar kabi xuddi shunday guruhlarga a’zo bo’lishda teng huquqlarga egadirlar. Alohida ta’lim olish bu huquqni cheklaydi va o’z-o’zini namoyon qilish imkoniyatlaridan mahrum qiladi.

Nogironligi bo’lgan bolalar yoki o’qishdagi qiyinchiliklar alohidalanmasligi yoki qo’riqlanmasligi kerak.

Inklyuziv (uyg’unlashtirilgan) ta’lim inson huquqlarining muammosidir. Hali juda ko’p bolalar har birining foydasi uchun ta’limning asosiy yo’nalishiga kiritilishi mumkin. Katta yoshli nogironlar, o’zlarini maxsus ta’lim shartlarini boshidan kechirgan deb ta’riflab, alohida ta’limning bekor qilinishini talab qilmoqdalar.

Uyg’unlashtirish jarayoni quyidagilar bilan qo’llab-quvvatlanishi mumkin:

- munosabatlarning o’zgarishi bilan;
- inklyuziv (uyg’unlashtirilgan) ta’lim va birlashmalarning tamoyillariga o’rnatilgan majburiyatlarni bajarish bilan;
- maxsus maktab ta’limi uchun tanlangan bolalarning nisbatini qisqartirish (ko’paytirish emas) bilan;
- O’qituvchilarning boshlang’ich va ishdan bo’shamasdan ta’lim olishini muvofiqlashtirish bilan; maktab direktorlari va hokimlarni bu o’zgarishlarda quvvatlash bilan;
- nogironlarning o’z maxsus maktab ta’limi tajribalariga tegishli fikr-mulohazalarini tinglash bilan;

- nogironlik tibbiy modelining chetga chiqishi va ijtimoiy modelga ijobiy munosabat bilan.

Uyg’unlashtirishdan kutiladigan natija ikki yoqlamadir, lekin ko’pchiligimiz buni o’zimizda sinab ko’rmaganmiz. Amaldagi ta’lim bir-birimizni tushunishimizni cheklaydi.

Do’stona munosabatlar va chidamlilik qo’rquv hamda boshqalarni yomon his qilishni kamaytiradi. Inklyuziv (uyg’unlashtirilgan) ta’lim, jamiyatning barcha a’zolari uchun teng huquqli imkoniyatlar yaratilishiga o’z hissasini qo’shadi.

Bunda kutiladigan natija sifatida ilgari yuzaga chiqmagan imkoniyatlar va ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarish nazarda tutiladi.

Mazkur amaliyotni quyidagilar kafolatlaydi?

- uyg’unlashtirish tamoyiliga bo’lgan majburiyat
- inklyuziv (uyg’unlashtirilgan) ta’limning inson huquqlarida aks ettirilganligi (joylashganligi);
- bolalar birlashtirilishi bilan asosiy resurslar va moliyalashtirishning qayta taqsimlanishini ta’minlash; zarur bo’lgan joylarda yangi moliyalashtirishni ta’minlash;
- ota-onalarga, ular tomonidan yaxshi baholangan qarorlarni qabul qilgan tarzda, ma’lumotlarni berish; hozirgidagiday ularning qarashlarini ko’proq e’tiborga olish;
- yoshiga munosib muhokamalar bilan, bolalarning fikrlarini olish;
- muammolar yuzasidan rahbarlar, o’qituvchilar, mahalliy hokimiyat va mutasaddi tashkilot vakillarini tayinlash;
- noqodir bolalar ta’limining boshqalarga nisbatan kam bo’lmagan ustuvorlikka egaligini kafolatlash.

Maxsus yordamga muhtoj bo’lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi ularni o’qish va yozishga o’rgatish muammolarini ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko’mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soha xodimlari hamda nogiron bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi mas’uliyatli ishlar jumlasiga kiradi.

Maxsus yordamga muhtoj bolalar asosiy muammolarini ularning o’zlari yashab turgan muhitdan, oiladan uzoqda ta’lim-tarbiya berish bilan hal qilib bo’lmaydi.

Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor:

1. Alohida ehtiyojga ega bo’lgan bolalar ham sog’lom bolalar bilan birgalikda o’zaro faoliyat ko’rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta’lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanadilar, sog’lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan

olinishi buyukligini nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e’tibor bilan munosabatda bo’lishni his etadilar.

2. Nogironligi bo’lgan bolalar ham sog’lom tengdoshlari bilan yonma-yon o’qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Bu ishlarni muvaffaqiyati har bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma’naviy resurslar bilan ta’minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Alohida e’tiborga muhtoj bolalar-o’quvchilarga ta’lim berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat ko’rsatishlari talab qilinadi va majburiy shart hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalar hal etilishi talab etiladi:

- ta’lim muassasasida alohida e’tiborga muhtoj bolalar va o’smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologo-pedagogik, korrektsion sharitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta’lim dasturlari va
- korrektsioni ishlarni amalga oshirish orkali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;
- o’quvchilarning ta’limdagi tenglik huquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog’lom bolalarning ehtiyojlarini kondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- alohida e’tiborga muhtoj bolalar va o’smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ruyobga chikarish;
- jamiyatd aalohida e’tiborga muhtoj bolalar va usmirlarga nisbatan dustona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.BMTning bola huquqlari to’g’risidagi Konventsiyasi .1948
2.Ta’lim - barcha uchun» Butunjahon Deklaratsiyasi
Djomten deklaratsiyasi 1990
3.BMTning bola huquqlari to’g’risidagi Konventsiyasi 1989

Tabiatga muhabbatni shakillantirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligi.

Ortiqova Mashxura Bekmirzayevna
Baliqchi tumani 10- MTT tarbiyachi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab,atrof muhit muhofaza qilish va tabiat boyliklaridan unumli foydalanish bo‘yicha i tushunchalarni bola qalbiga singdirish masalasi yoritilgan bo‘lib amaliy faoliyat tashkil etishga maslaxatlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: suv resurslari,tabiiy zaxira,ong elementi,oila byudjeti.

Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiat boyliklaridan unumli foydalanis masalasi hozirgi kunda butun insoniyat uchun tobora muhim ahamiyatni kas etmoqda. Shu o‘rinda tabiat boyliklaridan sanalgan suv va undan oqilon foydalanish, uni avaylab-asrash, tejamkorlik bilan foydalanish bugungi kunc dolzarb masalalardan biri sanaladi. CHunki oxirgi vaqtlardagi statist ma’lumotlarga ko‘ra asrimizning 50-60 yillariga borganda suv tanqisligi duny miqyosida sezilarli darajaga yetish xavfi mavjud. Bu masalada butun dunyo xalqla teng ma’suliyat sezishlari, xamjixat bo‘lishlari zarur.Aslida mazkur soxada bir qat xayrli ishlarning amalga oshirilayotgani bizga ma’lum.Jumladan : “22 mart-butu jaxon suv resurslari kuni” deb e’lon qilinganligi buning isbotidir.

Respublikamizda,ayniqsa maktaabbgacha ta’lim muassasalarida xam mazku soxaga tegishli ishlar yo‘lga qo‘yilgan.Maktabgacha yosh davridan boshla bolalarni suv va uning xususiyatlari, suvdan oqilona foydalanish masalalarida ishlarni tashkil etish Davlat darajasiga ko‘tarilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlantirishg”a qo‘yiladigan Davlat talablari xamda “Ilk qadam” davlat Dasturic bolalarni yer ustki va osti boyliklari, suv, hamda boshqa tabiiy zahiralarni tejas muhofaza qilishga chaqiradi. Suvni tejash va undan oqilona foydalanishdan i saboqlar bayon qilinadi. Bu saboq va tushunchalar atrof-muhit, tabiat bila

tanishtirish, badiiy adabiyot, odobnoma, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari mujassamlashtirgan holda olib borilishi bilan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi pedagogik jarayonda bolani tabiatnin ulug‘ ne’mati suvni extiyotlash, tejash, ifloslantirmaslikga tayyorlash, quyida faoliyat turlarini ochib berish orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. Bolalarda suv va uni asrashga oid ong elementlarini shakllantirish. Bo tomonidan suv tabiatning buyuk ne’mati bo‘lishi bilan birga tugalmas emasligin va barcha suvlarni xam istemol qilish mumkin emasligini tushunish va tasavvu etishga oid bilimlar bo‘lishi kerak.

2. Bolalarda suv bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil bilim va malakalari shakllantirish, faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan xarakatlar suvni saqlash, tejas ifloslantirmaslik xarakteriga ega bo‘lishi kerak.

Mazkur soxadagi ishlarni oiladan boshlab olib borilishi yoki oilada davom ettirilishi ko‘zlangan maqsadga erishishda muxim axamiyat kasb etadi.CHunki bola o‘z tug‘ilgan oila muxitida, sharoitida, urf-odatlari

ta’sirida ulg‘ayadi. Xar bir oilaning moddiy farovonligi ko‘p jixatdan oiladagi iqtisodiy barqarorlikga va o‘z navbatida tejamkorlikga bog‘liqdir.

N.I.Novikovning qayd etishicha, “Bolalarning murg‘ak qalbiga hech bir narsa ibratdek kuchli ta’sir etmaydi va barcha ibratlar ichida esa, ota-ona ibratidan ko‘ra chuqurroq va mustahkamroq o‘rin oladigan ibrat yo‘q”

Oilada kattalar tomonidan suvni isrof qilmaslik, suvni extiyotlash ifloslantirmaslikga qat’iy amal qilish bolalar uchun ibrat vazifasini o‘taydi. Boladagi ilk tejamkorlik va suvni extiyotlash tushunchalari quyidagilarda aks etadi:

-suvdan foydalanishda isrofgarchilikga (mevalarni yuvib yeyishda, suv ichish uchun keragkligicha suvni idishga olish,yoki kran jo‘mragini o‘z vaqtida o‘chirish uchun burash xarakatlarida) yo‘l qo‘ymaslik;

- yuz qo‘llarini yuishda suvni isrof qilmaslikga harakat qilish;

-suvga axlatlar otmaslik

Oilada suv va unga bolada ijobiy munosabatlarni tarbiyalashda ota – onalar tomonidan quyidagi faoliyatlarda amaliy na’muna ko‘rsatish maqsadga muvofiq:

1. Uy ro‘zg‘or ishlarini bajarishda supir-sidir ishlarida,kirlarni yuvishda, idishlarni yuvishda, xovli joylarda suv sepish, sug‘orish ishlarida amalda ko‘rsatish orqali tejamkorlikni shakllantirib borish;

2. Oila kattalari tomonidan oila davrasida suxbatlar tashkil etish;

3. Suvdan foydalanish va foydalanilgan bu ne’mat uchun oila byudjetidan o‘z vaqtida pul to‘lab borish zarurligi, ortiqcha sarf qilinsa ortiqcha sarf-harajat bo‘lishini xam tushintirib borish kerak;

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, suvni e’zozlash va extiyotlash quruq gap, pand- nasixat bilan emas, bunga qo‘shimcha yaxshi amal bilan bola ongiga singdirib borish maqsadga muvofiq bo‘lib, maktabgacha ta’lim muassasasi va oila hamkorligidagi olib boriladigan ish ko‘zlangan maqsadga erishish garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. T.: 2018

2.“Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. T.: 2022.

3. M.N.A’zamova. M.Fayzullaeva. M.Rustamova. ”Tejamkorlik saboqlari” Toshkent- 2015.

4.Tafakkur gulshani. Vatandosh hamda xorijiy allomalarning aforizmlari va hikmatli so‘zlari. V.Vorontsov kompozitsiyasi. Tarj. Sh.Abdurazzoqova. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 463 b.

5.O.Hasanboeva,H.Jabborova,Z.Nodirova”Tabiat bilan tanishtirish metodikasi”T-2006, 5-7-betlar.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM SIFAT-SAMARADORLIGIINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH TENDENSIYALARI

Otaboyeva Dilrabo Ulug‘bekovna
Izboskan tumani 26-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘yilayotganligi, darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etish, maktablarda texnologiya, muhandislik fanlari, matematika, san’at, chet tillari yo‘nalishlarini kuchaytirish, bu boradagi laboratoriyalarni qayta jihozlash talab etilayotganligi hamda boshlang‘ich ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish tendensiyalari haqida bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyat, kasbiy mahorat, zamonaviy metodikalar, yaratish, texnologiya, muhandislik fanlari, ta’lim sifati, yangi bosqich, tendensiya.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается о серьезных требованиях к духовному облику, психическому потенциалу и профессиональному мастерству педагогических кадров, о необходимости создания и публикации учебников на основе самых современных методик, усиления в школах направлений технологии, инженерных наук, математики, искусства, иностранных языков, переоснащения лабораторий, а также о тенденциях повышения качества начального образования на новый уровень. описано.*

Ключевые слова: *духовный образ учителя, умственный потенциал, профессионализм, современные методики, творчество, технология, инженерные науки, качество образования, новый этап, тенденции.*

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘yilmoqda. “Umumiy o‘rta ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish kerak. Har bir sinfda bolalarning nimalarni bilishi zarurligidan kelib chiqib, davlat ta’lim standartlari va o‘quv rejalarini qayta ko‘rib chiqish lozim. Darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etish, maktablarda texnologiya, muhandislik fanlari, matematika, san’at, chet tillari yo‘nalishlarini kuchaytirish, bu boradagi

laboratoriyalarni qayta jihozlash talab etiladi.”[9], degan edi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. O‘qituvchilarimiz esa davlatimiz rahbarining “Umumiy o‘rta ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish kerak”, degan ta’kidlarini o‘zlariga shior qilgan holda zimmalariga yuklatilgan mas’uliyatli vazifani sidqidildan va fidoyilik bilan bajarmoqdalar.

XXI asrga kelib ta’lim jarayoni fidoiylarining vazifasi yanada takomillashib bormoqda. Endilikda global o‘zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi o‘qituvchidan yuksak mahoratni, o‘tkir irodani, psixologik quvvatni, chuqur bilim va mulohazali bo‘lishni talab qiladi. Xususan, uzluksiz ta’lim tizimining asosini tashkil etuvchi boshlang‘ich ta’limga bo‘lgan talabning ijobiy tomonga o‘zgarishiga olib keldi. Muxtaram birinchi Prezidentimiz o‘z ma’ruzalarida: “Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanidagi eng asosiy davr – bu boshlang‘ich sinf davridir” deb bejizga ta’kidlamagan. Darhaqiqat, boshlang‘ich ta’limasosan o‘quvchining ongiga savodxonlik asoslari elementlarini singdirish davridan iboratdir.Demak, bu davrdagi savodxonlik, uzluksiz ta’limtizimining keyingi bo‘g‘inlarini intektual salohiyati bo‘lishligiga mustahkam zamin yaratadi. Boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadlaridan biri ham umumiy o‘rta ta’limuchun zarur bo‘lgan savodxonlik davrida shakllantirishgaqaratilgandir.

Ma’lumki, insoniyat tomonidan yaratilgan eng katta kashfiyotlardan biri bu – yozuvdir. Yozuv inson tomonidan hayotiy ehtiyojlar va zaruriyatlar tufayli o‘ylab topildi va insoniyatning o‘ziga, jamiyatning mislsiz taraqqiyotiga xizmat qilib kelmoqda. Yozuv fikrni tovush yetmaydigan joy va kelajakka yetkazish ehtiyojidan kelib chiqqan. Shunday qilib, yozuv insoniyat tarixini kelajak avlodga yetkazib berishdek juda katta vazifani bajarib kelayotgan buyuk ne’matdir.

[9]http://qqtongi.uz/yangi-wquv-yili-yangilanishlar-bilan-boshlanmoqda/**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi rasmiy sayti.** Mirziyoyev SH.M. “Umumiy o‘rta ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish” masalalariga bag‘ishlab o‘tkazgan yig‘ilishidagi ma’ruzasidan 2018-yil 17-iyul Toshkent.

R.Safarova: “Savod o‘rgatishning ilk bosqichida o‘qituvchi oldida so‘zlarning yozuvda ifodalanishi, harf va tovush haqida tushuncha, so‘zni bo‘g‘in va tovushlarga ajratish, bog‘lanishli nutqni o‘stirish, boshlang‘ich orfografiya qoidalari xususida tasavvurni rivojlantirish, umuman, ona tilining go‘zalligi va rang-barangligini anglatishdek muhim vazifa turadi” - deya bejiz ta’kidlamagan. Chunki, boshlang‘ich ta’limning samaradorligi o‘quvchilarda o‘ziga xos tarzda tarkib topgan ta’limiy faoliyatning keng qamrovli darajasiga bog‘liq. Bunday faoliyat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish va zarur kompetentsiyalarni egallash jarayonida o‘qituvchi rahbarligida shakllanadi va muntazam rivojlanib boradi. Bunday o‘quv faoliyati natijasida boshlang‘ich ta’limni bitirgan o‘quvchilar ob’ektiv olam jonli va jonsiz tabiatdan iborat ekanligi, insonlar esa muayyan jamiyatda yashab, faoliyat ko‘rsatishi, jamiyat a’zolari o‘zaro aloqadorlikda yashashi, jonli va jonsiz tabiatni hamda jamiyatni tavsiflay olishlari, tabiat va jamiyat haqidagi aniq yo‘naltirilgan tushuncha va tasavvurlarga ega bo‘lishlari lozim. Shu bilan bir qatorda, ular shaxsning kishilik jamiyatida tutgan o‘rni va amalga oshiradigan faoliyatning ahamiyatini tushunib yetishlari zarur. Chunki, o‘quvchilarga bu haqiqatni anglatmasdan turib, ularni shaxs sifatida shakllantirish, ijtimoiy turmushga moslashtirish mumkin emas.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib, bugungi kun boshlang‘ich ta’lim jarayoniga qo‘yilayotgan talablar mazmunini anglagan holda quyidigi xulosaga kelinadi:

Ta’lim tizimli bilim olishning eng muhim usuli bo‘lganligi sababli, ta’lim jarayonining sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish muhim pedagogik vazifa sanaladi.

Har qanday ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati, ya’ni, to‘g‘ridan to‘g‘ri, bevosita va nisbiy munosabat aks etadi.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish hisoblanadi.

Respublika ta’lim muassasalari faoliyatiga rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida qo‘llanilayotgan ilg‘or tajribalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali tatbiq etish orqali, bu borada pedagoglarning ish tajribalarini boyitish va ularda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga nisbatan ijodiy, innovatsion yondashuvni qaror toptiriladi.

Bugungi kunda ilg‘or xorijiy tajribalar sifatida ta’lim jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash orqali malaka oshirish tizimida o‘qitish sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.–T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz” – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Umumiy o‘rta ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish” masalalariga bag‘ishlab o‘tkazgan yig‘ilishidagi ma’ruzasidan 2018-yil 17-iyul Toshkent.
4. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi o‘quv dasturi // Boshlang‘ich ta’lim . – Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.
5. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi// Boshlang‘ich ta’lim, 2014.

O’QUVCHILARDA UMUMMADANIY KOMPITENTSIYANI SHAKLLANTIRISHDA ADABIYOTNING O‘RNI.

Qambarova Dildora Mamatqodirovna

Oltinkol tumani 22-umumta’lim maktabi

Annotatsiya; Ushbu maqolada o’quvchilarda umummadaniy kompetentsiyani shakllantirish omillari, ularning ahamiyati haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: umummadaniy, tasavvur, talim, adabiy jarayon, kompetentsiya

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ”Badiiy adabiyot -ma’navyat, madaniyat, qadr – qimmatni targ‘ib qiladi”- deb yozadilar. Darhaqiqat, yoshlarimizni ma’naviy etuk, barkamol, komil inson qilib tarbiyalashda adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Shu o‘rinda ma’naviyat xususidagi fikrlarimizni sevimli shoirimiz, iste’dodli adib Muhammad YUsufning ijodiga to‘xtalamiz.

Bizga ma’lumki, qadimdan Sharq mamlakatlarida badiiy adabiyotga tarbiya vositasi sifatida qarab kelingan. Shundan bo‘lsa kerak, o‘zbek mumtoz adabiyotimiz didaktik asarlari bilan mashhurdir.

Milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga, xalqimiz ma’naviyatining yuksalishiga munosib hissa qo‘shgan adib O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufdir. Har gulning ifori o‘zgacha bo‘lgani kabi, Muhammad Yusuf ham o‘zbek she’riyati gulshaniga o‘z ovozi bilan kirib keldi. Bu yoqimli ovoz tez orada xalq qalbidan munosib o‘rin oldi.

Muhammad Yusuf ijodi haqida mushohada qilar ekanmiz, shoir she’rlari o‘zining tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turishini teranroq anglaymiz... Ayniqsa, ularda shoirning Vatanga bo‘lgan muhabbati aks etadi.

Vatanni sevish, uni qadrlash – bizning millatimizga xos bo‘lgan fazilat. Bu bizning buyuk bobolarimizdan meros bo‘lib o‘tgan bo‘lsa ajab emas. Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temurdek mard, jasur bobolarimiz fidoiyligi M.Yusuf ijodida o‘zgacha talqin etilganki, shoirning bunday she’rlarini o‘qigan yosh avlod qalbida g‘urur, iftixor va ularga munosib farzand bo‘lish istagi uyg‘onadi.

Shoir ijodini o‘rganar ekanmiz, she’rlarining sodda va ravonligi, jo‘shqinligi, tashbehlarning betakrorligi-yu, misralarning jozibasini his etamiz. Bu esa murg‘ak qalblarda she’riyatga oshuftalik tuyg‘usini shakllantiradi, yoshlarning badiiy adabiyotga bo‘lgan didini o‘stiradi va umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

She’rlar mazmun-mohiyatidagi shonli tariximiz, boy ilmiy adabiy merosimiz, buyuk ajdodlarimizdan faxrlanish kabi qadriyatlarimizni asrab-avaylashga chaqiradi va milliy o’zlikni anglash kompetensiyalarni rivojlantiradi.

O‘g‘il bolalarni g‘ururli, mard, jasur bo‘lib, yurt tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida hamjihat bo‘lib, ulg‘ayishlarida, ulardagi o‘ziga bo‘lgan ishonchni yanada kamol topishida shoirning vatanparvarlik ruhida yozilgan she’rlari, ayniqsa ahamiyatli bo’lib o’z o’zini annglang kompetensiyasini orttiradi.

Vatanni sevish o‘z yo‘liga, chunki uni hamma sevadi, biroq kerak bo‘lganda yurt, millat uchun jonini fido qilish, unga tayanch bo‘lish xar bir er yigitning burchi. M.Yusuf she’rlari yigitlardagi ana shunday shijoatni shakllanishiga xizmat qiladi

Vatanni sevmagan, uni kuylamagan ijodkor yo‘q. Muhammad Yusuf ijodining eng muhim o‘ziga xosligi soddaligi, dilga yaqinligidadir. Vatan shoir tasavvurida onadek mo‘tabar, singildek ardoqli.

Bunday samimiy satrlar yoshlarni fikrlashga undaydi, ular Vatanni mehribon onasidek, opa yoki singlisidek ardoqlashi kerakligini anglab etadi.

Shoir M.Yusuf Vatan mavzusiga qayta-qayta murojaat etadi va bu she’rlar biri boshqasini takrorlamaydi. Kitobxon she’rlarni o‘qir ekan, tasavvuri va tafakkuri oshadi, olamni mushohada etishga intiladi, tarixiy, ilmiy bilimlarga ham ega bo‘ladi.

Vatan har qanday qimmatbaho boylikdan-da go‘zal, bebaho. M.YUsuf she’rlari ana shunday ko‘tarinki ruhda bitilgan. Va bu she’rlar yoshlardagi o‘ziga bo‘lgan ishonchni yanada oshiradi..

Chunki insonga berilgan ne’matlarning eng oliysi ozodlik, erk, osoyishtalikdir. Bunga shukrona keltirish asrab-avaylash esa yoshlar qo‘lida.

Milliy g‘urur, o‘zlikni anglash, yurt tinchligi va osoyishtaligidek yuksak tushunchalar M.Yusuf ijodida salmoqli o‘rinni egallaydi. O‘zbek millatining buyuk allomalari bugungi zahmatkash insonlari, ularga bo‘lgan ishonch, ehtirom shoir she’rlarida o‘z aksini topgan.

Ehtirom etganga ehromlari bor,

Kekkayganga bo‘yin egmagay zinhor.

Darhaqiqat, xalqimizga xos bo‘lgan xislatlar yoshlarni shu millatga munosib bo‘lish tuyg‘usini rivojlantiradi.

Muhammad Yusuf ijodida inson, insoniy fazilatlar, sevgi-muhabbat, do‘stlik, ota-ona mehri, kamtarlik, mehr-oqibat, vafo, sadoqat kabi oliy tushunchalar go‘zal satrlrda jilolanadi.

Muhammad Yusuf ijodi kelajak avlodni ma’naviy etk, barkamol bo‘lib ulg‘ayishida, yurt va millat uchun fidoiy inson bo‘lib kamol topishida dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

Barchani dilidagi so‘zlarini topib, xalqiga tuhfa etolgan shoir M.YUsuf she’rlari o‘zbek xalqining ma’naviy xazinasiga aylanib ulgurdi. Mana shu ma’naviy boylik asrlar osha Hazrat Mir Alisher Navoiy, Z.M. Bobur asarlari kabi sevimli bo‘lib, yoshlarni vatanparvarlik bayrog‘i ostida birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyodlar:

1. Abdullaeva Sh. Ta’limda o‘qituvchi shaxsi va o‘quvchi faoliyatini uyg‘unlashtirish texnologiyalari. // Molodoy uchyonыy, 2016 yil. 9-son.

2. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi (o‘quv qo‘llanma) –T.: Muharrir, 2011.

BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARINI AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL QILISH ZAMON TALABI

Raimjonova Dilnozaxon Kimsanboevna
Qo'rg'ontepa tumani 45-umumiy o'rta ta'lim maktabi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalari zamon talabi ekanligi va boshlang'ich ta'lim darslarini axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida tashkil qilish haqida fikr boradi.*

Kalit so`zlar: *zamonaviy ta'lim, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim sifati, o'qitish jarayoni, axborotlashtirish.*

Axborot jamiyat rivojining strategik resursi va zamonaviy ta'lim – bu uzluksiz jarayon. Shuning uchun ham o'qitish jarayonini zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil qilish zamon talabi bo'lib qoldi. Ta'limni axborotlashtirish maktabni ikkita asosiy masalasini yechishga yordam beradi, birinchisi bu - ta'lim hamma uchun va ikkinchisi ta'limning yangi sifati – xar biri uchun. Boshlang'ich maktab uchun bu ta'lim maqsadlarini joylashtirishda ustuvorlikni almashinishini bildiradi. Boshlang'ich ta'limda o'qitish va tarbiyalashning natijalaridan biri, bolalarni zamonaviy kompyuter texnologiyalarini egallashga va ularning yordamida olingan axborotlarni o'z bilimini oshirishga qo'llay olishga tayyor bo'lishlari kerak. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi amalda kichik sinf o'quvchilarini o'qitishda turli strategiyalarni qo'llashiga to'g'ri keladi. Va birinchi navbatda o'quv –tarbiyaviy jarayonda AKT dan foydalanishga o'tishga to'g'ri keladi. Boshlang'ich sinf darslarida AKT dan foydalanish, o'quvchilarni o'rab turgan olam axborot oqimlarida yo'l topa olish qobiliyatini rivojlanishiga, axborot bilan amaliy usullarda ishlay olish, zamonaviy texnik vositalar yordamida axborotlar bilan almasha olish tajribasini ortishiga olib keladi. Boshlang'ich maktab darslarida AKT dan foydalanish o'qitishning tushuntiruvchi - ko'rgazmalilik usulidan ishchanlik usuliga o'tishga yordam beradi va unda bola

o’quv jarayonining faol sub’ektiga aylanadi. Bu o’quvchilar bilimni ongli o’zlashtirishini shartlab qo’yadi. Boshlang’ich maktabda AKT dan foydalanish:

- o’quvchilarda bilish jarayonini faollashtirishga;
- darslarni yuqori estetik darajada(muzikali, animatsiyali) o’tishga;
- turli darajali topshiriqlarni qo’llash yordamida, xar bir o’quvchiga individual yondoshishga yordam beradi.

Demak, ishning dolzarbligini boshlang’ich sinf o’quvchilarida matnli masalalarni erkin yecha olishni uddalashni shakllantirish uchun ta’lim jarayoniga AKT ni joriy qilish zarurati shartlab qo’ydi. Kichik yoshdagi bolalarga matematikani o’qitish jarayonida AKT dan tizimli va maqsadga yo’naltirilgan foydalanish ularni matnli masalalarni tushungan holda yecha olishga o’rgatadi, darsning mahsuldorligi va samaradorligini oshiradi, matematikaga qiziqishni kuchaytiradi va qo’llab quvvatlaydi, shuningdek bilish jarayoni, fikrlash, diqqat, tasavvur qilish va fantaziyani rivojlantiradi.

Muammo bilan bog’liq mavjud ishlarni tahlili shuni ko’satmoqdaki matnli masalalarni yechish jarayoni – bu masalani o’qiy bilish va tushunish, masala shartini va so’ralayotgan narsani ajrata olish; masalani yechish rejasini tuzish, ma’lum berilganlar va noma’lumlarni (masala modelini qarash yoki fikr yuritish yo’li bilan) bog’lash; talabni qondirish, masaladagi savollarga (tajriba-sinov, arifmetik, algebraik, geometrik, mantiqiy kabi turli usullar bilan) javob topish; topilgan yechim to’g’riligini aniqlash va agar xato-kamchiliklar bo’lsa ularni tuzatish. O’quvchilarda masalani yechishda shakllanadigan bilimlarni amalga oshirish uchun o’qituvchi masalani yechish rejasidan foydalanadi. Ko’pincha bolalar harakat bilan bog’liq bo’lgan matnli masalalarni yechishda xatoga yo’l qo’yadilar, shuning uchun o’qituvchi bunday hollarda multimediyali ko’rinishlardan foydalanadi. SHuningdek, ko’rgazmali rasmlar, tablitsa, sxema va diagrammalar tuzish kabi modellashtirish usullaridan ham foydalanadilar.

Shunday qilib boshlang’ich sinf o’quvchilarida matnli masalalarni erkin yecha olishni uddalashni shakllantirish uchun ta’lim jarayoniga AKT ni joriy qilish zamonaviy boshlang’ich maktab dolzarb muammosi xisoblanadi. Bugun boshlang’ich sinf o’qituvchi ixtiyoriy predmetni AKT dan foydalanib o’ta olishi kerak. AKT dan foydalangan holda dars o’tish degani – bu ko’rgazmali, rangli, axborotli, interfaol, o’qituvchi va o’quvchining vaqtini tejash, o’quvchiga o’z tempida ishlashga imkon berish, o’qituvchiga o’quvchilar bilan differentsiallashgan va individual ishlash imkonini berish, o’qitish natijalarini nazorat qilish va tez baholash degani.

Bu muammoni yechishda asosiy maqsad ta’lim jarayonini mukammallashtirish, yagona ta’lim muhitini yaratish, ta’lim sifatini yaxshilash. Buning uchun:

- turli predmet sohalarini integratsiyalash;
- an’anaviy predmetli o’qitish tizimini modernizatsiya qilish;
- ta’lim resurslarini yig’ish;
- o’qituvchilar zamonaviy informatsion texnologiyalardan erkin foydalana olishi;
- shaxsga-yo’naltirilgan ta’lim joriy qilinishi;
- o’qituvchi va o’quvchi orasida, o’qituvchilar orasidagi o’zaro ijodiy almashinuvlar bo’lishi zarur.

Sanab o’tilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi masalalar yechilishi kerak:

- o’quvchilarda zamonaviy axborot fazosida yo’l topa olish malaka va ko’nikmasi;
- tizimli va analitik fikrlaydigan odamlarni tarbiyalash;
- o’quvchi va o’qituvchi ijodiy hamkorligi muhitini shakllantirish va rivojlantirish;

• o’quvchilarda kompьyuterga bilish jarayonidagi asbob-uskunaga bo’lgan munosabatni shakllantirish;

• AKT dan o’quv jarayonining turli yo’nalish va shakllarda foydalanish.

Kelajakda boshlang’ich ta’limda o’qitishning boshqa ko’rinishlarini ham qo’llab ko’rish zarur. Aytib o’tilganidek bugunni o’zidayoq AKT bazasida masofaviy o’qitishni tashkil qilish muammosi ko’ndalang bo’lib turibdi. Agar biz haqiqatdan ham kichik yoshdagi o’quvchini yukini kamaytirmoqchi bo’lsak, bu muammoni yechimini ta’limda AKT dan foydalanish va masofaviy o’qitishdan qidirishimiz kerak. AKT dan nafaqat o’qitish jarayonida, balki tarbiya jarayoni, tashkiliy ishlar, metodik jarayonlarda ham foydalanishni o’rganish zarur.

JAMIYATDA TA`LIM -TARBIYA JARAYONIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TA’SIRI

Risboyeva Madina Abidjonovna
Jalaquduq tumani 41-maktab o`qituvchisi.

ANNOTATSIYA:*Ushbu tezisda* jamiyatda ta`lim –tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalarining ta`siri yuzasidan nazariy va amaliy ko`nikma hamda tajribalar haqida bayon qilingan.

KALIT SO`ZLAR: ***Axborot texnologiysi, innovatsiya, ichki omil, logos,fan, informatika***

Bugungi globallashuv jarayonlarida, texnika asrida ta’lim sohasiga axborot texnologiyalarini joriy etish dolzarb masalalardan biridir.Axbot texnologiyalari haqida gap borar ekan u to`g`rida nazariy tushunchalarni keltirib o`tish joizdir.

«Axborot texnologiyalari» fanida axborotlar, ularning xossalari, axborot tizimlari va vazifalari, axborotlarni qayta ishlash, axborotlarning amaliy ahamiyati va boshqa xususiyatlari o‘rgatiladi. «Axborot texnologiyasi» fani matematika, fizika, informatika va boshi qator fanlar bilan bevosita bog‘liq.

«Axborot texnologiyalari» iborasidagi **«texnologiya»** so‘zi lotincha «thexnos»- san’at, hunar, soha va **«logos»**-fan degan ma’noni bildiradi. Ya’ni

texnologiya — biror vazifani bajarishda uning turli xil usullari ko‘rinishini bildiradi.

Axborot texnologiyalari -axborotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari majmuidir. Axborot texnologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi ichki va tashqi omillar mavjud bo‘lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Ichki omillar—bu axborotlarning paydo bo‘lishi (yaratilii), turlari, xossalari

Tashqi omillar — bu axborot texnologiyasining texnika-uskunaviy vositalari orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

Axborot texnologiyasining mazmunini quyidagi oddiy bir misol bilan tushuntirishga harakat qilamiz. Siz biror ma’lumot haqida boshqa bir viloyat (Respublika, Qit’a)da yashovchi o‘rtog‘ingiz bilan fikr almashmoqchisiz, deylik. Buni turli yo‘llar orqali amalga oshirishingiz mumkin. Siz o‘rtog‘ingizga o‘z fikringizni (o‘z navbatida, o‘rtog‘ingiz ham sizga javoban) quyidagi usullar orqali yetkazishingiz mumkin:

1) aloqa bo‘limi orqali (yozma ravishda);

2) telefon tarmoqlari orqali (og‘zaki);

3) zamonaviy telekommunikatsiya vositalari orqali.

Axborotlarni uzatish turli xil usullarda, ya’ni xabarchi yordamida, pochta orqali, transport vositalari yordamida, aloqa tarmog‘idan uzoq masofaga uzatish yordamida amalga oshiriladi. Aloqa tarmog‘i bo‘yicha uzoq masofaga uzatish usulida ma’lumotlarni uzatish vaqtini sezilarli darajada kamaytiradi.

Hayotiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu usullardan foydalanish natijalari turlicha bo‘ladi va natijalarga qarab, qaysi usuldan foydalanishni o‘zingiz belgilab olasiz.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, albatta, biror yumushni bajarishdan oldin uni amalga oshirish uchun ketadigan mablag‘larni chamalab ko‘rishingiz lozim, aks

holda uni amalga oshira olmasligingiz mumkin. Albatta, yuqorida ko‘rsatilgan usullardan foydalanish uzatilayotgan axborot mazmuni va mohiyatiga bog‘liq.

Pirovardida, o‘zingiz uchun iqtisodiy jihatdan eng arzon (hech bo‘lmaganda arzonrog‘i) va sifati yuqori bo‘lgan usulni belgilab olasiz.

Axborotni uzatish usullariga kelsak, 1- va 2-bandda ko‘rsatilgan usullar bilan yoshligingizdayoq tanishib olgansiz va undan foydalanishni yaxshi bilasiz. Zamonaviy telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish esa ular bilan muloqot ko‘nikma va malakalariga bog‘liq. Shuning uchun, dastlab zamonaviy telekommunikatsiya vositalarining o‘zi nimaligini bilib olishingiz kerak.

Zamonaviy telekommunikatsiya vositalari imkoniyatlari juda keng tizim bo‘lib, unga «Informatika va xisoblash texnikasi asoslari» fanidan ma’lum bo‘lgan komyuter, mul’timedia vositalari, ko’mpyuter tarmoqlari, internet, kabi tushunchalardan tashqari qator yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish tizimlari, ma’lumotlar ombori, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimi, bilimlar ombori kabilar kiradi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab axborotlashtirish soxasi keskin rivojlanib ketdi. Bizning asrimiz, ya’ni XXI asrni axborotlashtirish va kommunikasiya asri deb bejiz atashmaydi. Axborotlashtirish nima va uning vazifalariga nimalar kiradi, uning asosiy xususiyatlari qanday, degan savollar xozirgi zamon jamiyatidagi xar bir fuqaroni qiziqtirishi tabiiy, chunki inson faoliyatini axborotsiz tasavvur qilish qiyin.

Hozirgi kunda har bir tashkilot, o‘quv muassasasi, firma va ishlab chiqarishning barcha soxalarida rahbar va xodimlar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida boshqaruv jarayonlarini ma’lum darajada avtomatlashtirishga oid muammolarni echish bilan shug‘ullanadi. Bunda ular maxsus firmalarning mutaxassislari bilan uchrashadi, ularning faoliyati bilan yaqindan tanishadi, ular ishlab chiqaradigan maxsulotlarni ko‘radi va pirovardida o‘zida avtomatlashtirish

uchun kerak bo‘ladigan texnik jixozlarni xarid qiladi. Albatta, tashkilotlarga o‘rnatilgan avtomatlashtirish jihozlari yildan-yilga yangilanib, texnik jihatdan takomillashtirib boriladi.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng, axborotlashtirish va axborot texnolgiyalaridan foydalanish yo‘nalishida katta tadbirlar amalga oshirildi. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan **«Ta’lim to‘grisida»**gi Qonunda bu dasturning tub moxiyati bayon etilgan. Shuningdek, so‘nggi 5-6 yil ichida bu soxada qabul qilingan qator hujjatlar axborotlashgan jamiyatni qurish eng oliy insoniy orzu-niyatga aylanganligidan dalolat beradi.

Sayyoramizda ***Axborot olami*** degan yangi dunyo paydo bo‘ldi. Odamlar zamonaviy texnologiyalarga asoslangan olamshumul elektron axborot tarmoqlaridan borgan sari muvaffaqiyat bilan foydalanilmoqda va uning qudrati ortib bormoqda. Kompyuter va Internet zamonamizning barcha sohalariga kirib bormoqdaki ,uning imkoniyatlaridan faydalana bilgan odamlar, axborot olami bilan kengroq tanishish, bahramand bo‘lishga, dunyoning istalgan nuqtasi bilan bir zumda bog‘lanish, muloqot qilishga muyassar bo‘lmoqda. Darhaqiqat, har tomonlama rivojlanayotgan jamiyat taraqqiyotini axborot texnologiyalarisiz, ayniqsa, kompyuterlarsiz tasavvur etish mushkul. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi inson faoliyatining yuqori sur’atlarda, shiddat bilan rivojlanib borayotgan alohida sohalaridan hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim sohasiga ham jadal sur’atlarda kirib bormoqda va bu esa ta’lim tizimida, xususan o‘quv jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish, o‘quv-uslubiy ta’minotni rivojlantirish, ayniqsa o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tish va o‘zlashtirish samaradorligini oshirish borasida yangicha mazmun va mohiyat shakllanishiga asos yaratmoqda. Ta’lim sohasidagi atamalar ro‘yxatida **«elektron qo‘llanma», «masofaviy o‘qitish kursi», «virtual tajriba stendi», «virtual ustaxona», «videokonferentsiya», «elektron forum», «virtual sinf»** kabi yangi so‘zlar paydo bo‘ldi.

Axborot texnologiyalarini tashkil qilishning nazariy asoslari o‘rganildi, bunda asosiy e’tibor axborot tizimini yaratish tamoyillari, rivojlantirish bosqichlari, Iqtisodiy axborotning xususiyatlari, tuzilishi va qayta ishlash jarayonlariga qaratilgan.

Axborot texnologiyasi tizimining unsurlari: hisoblash texnikasining tuzilishi, foydalanish usullari, matematik va dasturiy taominoti va uning faoliyatini belgilovchi lingvistik, erganomik va umumiy taominotlarni o‘rganadi.

Boshqarish sub’yekti faoliyatiga ta’lluqli bo‘lgan iqtisodiy masalalarni yechish yo‘llari o‘rganiladi.

Shuning uchun ham axborot texnologiyasi boshqarish funksiyalarini ifodalovchi axborotlarni yig‘ish, jamlash, uzatish, saqlash va boshqa jarayonlarni amalga oshiruvchi inson - mashina tizimi deb yuritiladi. Bu tizimni yaratish uchun bir qator tamoyillar ishlab chiqilgan.

O‘qituchining amaldagi bilim darajasi;

O‘qituvchining o‘quvchilarga o‘z bilimini bera olish qobiliyati.

Aytish lozimki, hozirgi kunda innovattsion pedagogik faoliyat ta’lim muassasalari faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunda ta’limdagi innovattsiya deganda, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, ta’lim metodlari, usul va vositalarining yig‘indisi tushuniladi. Aynan innovattsion faoliyat pedagogning kasbiy o‘sishi, ijodiy izlanishi uchun asos yaratadi, tinglovchi va tinglovchilarning shaxs sifatida shakllanishiga chinakamiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim jarayonida multimedia vositalari yordamida darslarning samaradorligini oshirish mumkin. Hozirda amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida tinglovchilarni o‘qitish ikki barobar samarali bo‘lmoqda. Ma’lumki, eshitgan materialning to‘rtdan bir qismi xotirada qoladigan bo‘lsa, tinglovchilarga berilayotgan materiallarni video orqali amalga oshirsak, axborotni xotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyati 35-70 foizgacha oshadi. Shuningdek, mazkur o‘quv dasturlar audio, video va grafika ko‘rinishida

mujassamlashtirilgan holatda tinglovchilarga berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 70-95 foizga oshishi kuzatilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.A.Abduqodirov.Axborot texnologiyalari. Toshkent,“O‘qituvchi”, 2001-y.
2. M.AripovInformatika va Axborot texnologiyalari Toshkent.O‘qituvchi 2002y
3. N.Azizxo‘jayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, O‘qituvchi, 2002-y.

ISHONCHIMNI OQLAGAN O’QUVCHILARIM YOHUD USTOZIMDAN MINNATDORMAN

Roziqova Shohidaxon Alijonovna,
Ahdijon viloyati, Andijon tumani 25- umumta’lim maktabining boshlang’ich sinf o’qituvchisi.

“Bugungi kun o’qituvchisi o’z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo’llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o’zi talab etmoqda”

Yaqindagina Toshkent shahrida bo’lib o’tgan “ Boshlang’ich sinflarda o’qitishning zamonaviy metodikasi” mavzusidagi boshlang’ich sinf o’qituvchilarining respublika forumida ishtirok etib keldim.Forumga respublikamizning barcha viloyatlaridan vakillar qatnashdi.Ular o’z ustida tinimsiz ishlaydigan, ijodkor, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg’or pedagogika va axborot texnologiyalardan samarali foydalanadigan, yuksak fazilat egalari ekan. Besh kun davom etgan forum o’zgacha tarovatda va juda ham qiziqarli tus oldi. Sababi ilmga boy, Ijodkor, bilimdon ustozlar tomonidan 4k modeli asosida kaskad usulida darslarni tashkil etish tajribalari haqida mashg’ulotlar bo’lib o’tdi. Ishtirokchilar uchun tashkil etigan qiziqarli darslar bizni yanada Forumdan boy katta tajribalar bilan qaytib tumanlardagi boshlang’ichsinf o’qituvchilariga o’zimizni olgan bilimlarimizni o’rgatdik.

Shunday yangiliklar bilan yo’g’irilib turgan bir paytda yana bir xushxabar birin ketin kela boshladi. Sobiq bitiruvchi o’quvchilarimdan 15 tasi turli oliy o’quv yurtlariga kirganligi haqida eshitib quvonchim ichimga sig’may ketdi. Bitta sinfda tehsil olgan o’quvchilarimni bunday yutuqlarga erishganligini eshitish men uchun juda katta baxt edi. Bu quvonchli kunni sizlar bilan bo’lishishni ma’qul deb topdim.

Endi men bundan 11 yil oldingi faoliyatimga qaytgim keldi. Endigina 1-sinfga kelgan jajjigina bolajonlarning ko’ngliga yo’l topib, ularni shirin so’zlar bilan qalbidan joy olib, boshlang’ch sinfni bitirgizganimga mana roppa-rosa 11 yil to’libdi. Forumdan uyga qaytar ekanman, telefonimga tinimsiz qo’ng’iroqlar bo’la boshladi. Hammasi bitta gapni aytishardi; Ustoz men o’qishga kirib oldim. Ustoz men oliy o’quv yurtiga kirib oldim,- degan gaplarni eshitib quvonchim ichimga sig’may ketdi. Bunday qo’ng’iroqdan 17 marotaba bo’ldi. . Ustozning eng quvonchli kuni qaysi ?- deb so’rasalar albatta, o’quvchisining yutug’ini ko’rishdir,- deb javob berardim. Bitta sinfda o’qigan o’quvchilarimdan 17 tasi turli oliy o’quv yurtlariga talabalikka qabul qilindi

Bu yutuqlarim uchun avvalom bor birinchi ustozimdan minnatdorman degan so’zlarni eshitish qanchalik baxt.

Pedagogning mahorati – bola ko’ngliga yo’l topa olishida, uni mustaqil fikrlay olishga o’rgatishda va to’g’ri tarbiyalay olishida deb o’ylayman.

Sharq donishmandlari aytganlaridek, “ Eng kata boylik- bu aql-zakovat va ilm. Eng kata meros – bu yaxshi tarbiya. Eng kata qashshoqlik- bu bilimsizlikdir”.

Sharq donishmandlari aytganlaridek, “ Eng kata boylik- bu aql-zakovat va ilm. Eng kata meros – bu yaxshi tarbiya. Eng kata qashshoqlik- bu bilimsizlikdir”.

Shunday ekan, biz pedagoglarning asosiy vazifamiz dono, bilimdon, aql-zakovatli, erkin fiklay oladigan, o’z kuchiga ishonadigan, mustaqil fikrlay oladigan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir.

Yaxshi natijalarga erishish , o’z oldimizga qo’ygan maqsadimizga erishish, davlatimiz tomonidan biz pedagoglarga belgilab berilayotgan dolzarb vazifalarni amalga oshirish uchun birinchi o’rin da dars jarayoniga juda katta e’tibor berish lozim.

Dars jarayonini kunda bir xilda tashkil etish har qanday o’quvchini, xatto o’qituvchini o’zini ham zeriktirib yuboradi. Inson kunda bir xil ovqatni yeyaversa meddasiga tekkanni singari, bir xillik o’quvchini darsga qiziqishini susaytiradi va shu darajaga yetadiki, o’sha darsga kirmaslik yo’lini izlaydi. Natijada o’quvchi o’zi qiziqqan darsga kiradi-da, unga esa kirmaslik xolatlari vujudga keladi. Davlatimiz tomonidan biz pedagoglarga ishlashimiz uchun keragidan ortiqcha sharoitlar yaratilayotgan bir paytda, o’quvchiga do’stona munosabatda bo’lgan holda, unga to’g’ri yo’l ko’rsata olish, qiziqqan mashg’uloti bilan shug’ ullanishi uchun sharoit yaratib berish, o’quvchi o’qituvchidan qo’rqib emas, uni yaxshi ko’rib, hurmat qilganidan, darsiga qiziqqanidan qatnashishiga undash lozim. Bu masalada o’qituvchi- ota-ona – o’quvchi munosabatlari albatta eng muhim va hamfikr bo’lishlik katta ahamiyat kasb etadi. Mening fikrim bola ko’ngliga yo’l topa olmagan pedagog, pedagog emas. Bir maqolni sedan chiqarmasligimiz kerak

“ Avval pichoqni o’zingga ur, og’rimasa birovga”. Pedagog tinimsiz izlanmasin, yangi g’oyalar va metodlar ustida ishlamasin, qalbi toza bo’lmasin hech qachon bola ko’ngliga yo’l topa olmaydi. Guvohi bo’lganman o’qituvchi o’quvchini majburlab tashqaridan darsiga olib kirib ketayotganini. Shunday qiligki, bolani siz emas, bola sizning ortingizdan ilm izlab quvib yursin. Shundagina biz prezidentimiz ta’kidlaganidek hozirgi zamon pedagogi bo’la olamiz.

Men 35 yillik tajribamdan kelib chiqib shuni aytmoqchimanki, dars jarayonida hamma o’quvchi ham darsni birday qabul qila olmaydi.

Albatta bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvcnilar ham bo’ladi. Ularni a’lochilar qatoriga qo’shilishi uchun quydagicha ish yuritaman:

1. Yakka tartibda ishlayman.
2. Hamkorlikda ishlashga o’rgataman (do’sti bilan).
3. Guruhlar bilan ishlashda faolligini oshiraman.
4. “ O’rgan – o’rgat” tadbiri asosida o’quvchiga biriktiraman.
5. Uy vazifasini bajarishida ota – ona bilan yaqindan muloqatda bo’laman. Yuqorida aytib o’tilgandek ish yuritsak o’ylaymanki sinfda bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvchining o’zi qolmaydi. Hozirgi davlat siyosatining talabi shundan iboratki, o’quvchiga yodlashni emas , fikrlashni o’rgatish kerak.

Darsni qiziqarli tashkil etish, o’quvchilarni darsga qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlashga, do’stona munosabatlarni shakllanishiga, ma’naviy ongini o’sishiga, milliy g’urur va e’tiqod ruhida tarbiyalashda, ayniqsa xalqaro miqyosida talab etilayotgan PIRLS dasturi o’quvchining keng qamrovli 4 ta tushunish jarayonini baholaydi. Bular : Diqqatni jamlash va aniq ma’lumotni topish, to’g’ridan –to’g’ri xulosalar chiqarish, g’oyalar va axborotlarni talqin qilish, uyg’unlashtirish, kontekst va matn elementlarini baholash hamda tanqid qilishdan iborat. Demak, didaktik o’yinlar va turli ko’rgazmali qurollar, o’quvchilar tomonidan to’plangan yangi ma’lumotlar, ularning ma’lumotlar asosida bildirgan fikrlar jamlanmasining o’rni katta bo’ladi.. O’quvchi turli ko’rgazmalar bilan ishlayotganda mustaqil fikrini bildiradi, ijod qiladi, dunyoqarashi kengayadi, eng zaruri hayotga qiziqib yashaydi. Biror hikoya ustida ishlashda esa, o’z fikrini bayon qilishda hayotiy voqealardan misollar keltiradi, dunyoqarashi kengayadi. Ularda yaxshi va yomonni ajrata olish imkoni tug’iladi.

Darsning turli metodlarga asoslanib o’tilishi, darsning unumini oshiradi. O’quvchiga dars mazmuni tez yetib boradi, dars maqsadini tez tushunib oladi. O’quvchilarda quyidagi jihatlarni namoyon qiladi.

1. O’z kuchiga ishonishda
2. Darsga faolligini ijodiy yo’naltirishda
3. Ixtiyoriy diqqatni oshirishda

4. Mo’jallni to’g’ri olishda
5. Og’zaki nutqini o’stirishda
6. Predmet hodisalarni tasavvur qilishda
7. Jamoaviy munosabatlarni tarbiyalashda
8. Fikrlash qobiliyatini oshirishda
9. O’zini tahlil va nazorat qilishda eng zarur manbaa hisoblanadi

Turli metodlardan va didaktik o’ynlardan foydalanganda quydagi jihatlarga ko’proq e’tibor berilishi lozim.

Har bir o’yinni bolalarning bilib olish faoliyatini hisobga olgan holda o’tkazish. O’quvchilarni o’yin qoidasini to’la tushungan holda ishtirok etishini ta’minlash. O’yin mazmuni bolalarning qobiliyatini hisobga olgan holda tuzish. O’yinni bajarishda vaqtdan unumli foydalanish.

Masalan : “ O’z o’rnini top o’yini.

1. Matn bo’limlarga bo’lib yoziladi. Yozilgan matn bo’limlari konvertlaga joylanadi. O’quvchi chiqib konvertdan oladi. Tanishib chiqib, bo’limlar o’rnini topib matnni o’qiydilar. Yoki , o’quvchilar qo’liga gullar, asalarilar, yaproqlar orqasiga yozilgan tarqatmali savollar beriladi. Guruh o’quvchilari savollarga javob berib bo’lganidan so’ng magnit doskaga ulardan bahor tasviri yoki yoz tasvirini hosil qilib, o’z o’rnini topib qo’yadilar.

2. “ O’yla, izla, top” yoki “ Mustaqil ishlay olasanmi?” metodini olsak. (Topshiriq bir kun oldin beriladi).

1. Guruh o’quvchilari hamkorlikda ishlaydi. Yangi mavzuga oid ma’lumotlar to’playdi. Yangi ma’lumotlarni izohlab beradilar. Bunda yakka tartibda ishlashlari ham mumkin. O’quvchilar o’rtasida do’stona munosabatlar shakllanadi. O’quvchini tinimsiz izlanishga, ijod qilishga, yangi g’oyalar o’ylab topishga , tariximizni, o’tmishga nazar solib ularni hozirgi zamonga taqqoslashga o’rgatadi.

3. “So’zlar qo’sh va jumla tuz ” metodi. Rasm asosida gap tuzish. Bir o’quvchi 2 ta so’zli gap tuzadi. Qolgan o’quvchilar esa unga yana so’z qo’shib matndagi gaplarni davom ettiradilar. “ So’z qo’sh” metodini qo’llashdan asosiy maqsad: O’quvchilarning og’zaki va yozma nutqini shakllantirish; lug’at boyligini oshirish; to’g’ri talaffuz qilishga o’rgatish.

Ushbu metod o’quvchilarning dars jarayonida olgan bilimlarini hayotda tadbiq etishiga imkon yaratadi va o’quvchilarning nutq malakalarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi va eslab qolish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Bu metoddan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin.

Iboralar tuzishda, maqollar yozishda, gaplar tuzishda, matnlar yaratishda, lug’at ustida ishlashda, so’z turkumlarini tahlil qilishda.

Maqsadimiz keljagimiz bo’lmish farzandlarimizni to’g’ri tarbiyalab, ta’lim berib, vatan ravnaqi uchun asqotadigan barkamol inson qilib tqrbiyalash ekan, albatta bunday metod va didaktik o’yinlarni ko’plab yaratib, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalardan samarali foydalangan holda hayotga tadbiq eta olsakkina oldimizga qo’yilgan vazifani bajargan va prezidentimizning bizga bo’lgan ishonchini oqlagan bo’lamiz.

XALQ SEVGAN SHOIR MUHAMMAD YUSUF SHE’RLARING MAZMUN VA MOHIYATI

Andijon davlat universiteti magistri
Sadridinova Madina Davronbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimiz sevgan shoir Muhammad Yusufning she’rlarining mazmun va mohiyati xaqida hamda Muhammad Yusufning sherlari xalqimizga va bolalarga vatanni sevish vatanni ardoqlashga o’rgatadi va shunung bilan birga tarbiyaviy jihatdan ham juda katta ahamiyatga ega ekanligi haqida gap boradi.

Kalit so’zlar: “Izhori dil”, Ramz Ravshan, , Koshg’ariy, Qodiriy, Cho’lpon.

Аннотация: В данной статье говорится о содержании и сути стихов Мухаммада Юсуфа, любимого поэта нашего народа, а также о том, что стихи Мухаммада Юсуфа учат наш народ и детей любить Родину, чтить Родину, и в то же время , это имеет большое воспитательное значение.
Ключевые слова: «Ижори дил», Рамз Равшан, Кошгари, Кадири, Чолпан.
Abstract: This article talks about the content and meaning of the poems of Muhammad Yusuf, the beloved poet of our nation, and the fact that Muhammad Yusuf's poems teach our people and children to love the motherland and honor the motherland, and at the same time, it is of great educational importance.
Key words: "Izhori dil", Ramz Ravshan, , Koshgari, Qadiri, Cholpan.

“Koinot qachonlardir bir nuqtaning, bir zarraning portlashidan paydo bo’lgan deyiladi. Agar shu fikr to’g’ri bo’lsa, poetik so’z ya’ni she’riyatning mohiyatida lohududga sochilib ketgan koinotni to’plab, sidirib yana o’sha nuqtaning ichiga sig’dirish istagi yotadi”, - deydi Ramiz Ravshan. Va shoirning zimmasidagi qutlug’ vazifa haqida gapirib: “har bir asl shoir tangrini o’z ona tilida tasvirlaydi va haqiqiy shoir tangri diydorini tilab qushday qanot qoqa-qoqa o’z tilining osmonini kengaytiradi”, - deydi. Qushning qanot qoqishidan ohang yaraladi, kuyga aylanadi, so’zga aylanadi. Shu bepoyon osmon qushlarga va shoirlarga armug’on qilindi, deya bejiz aytilmaydi.

O’z so’zi bilan ko’rkli tilimizning pokiza osmonini kengaytirgan shoirlar ko’p. O’zbekning baxti ham shunda. Bugun bu tilda tarannum etib bo’lmaydigan tuyg’u yoxud tushunchaning o’zi yo’q. Turkiy tilni dag’al va nazmga yaroqsiz deb bilganlarning haddini buyuk Navoiy **xv** asrdayoq ko’rsatib qo’ygan. **xx** asr avvalida o’zbek tilida nasriy asar yozishning mushkulligini ro’kach qilganlarni Qodiriy va Cho’lpon nasrdagi betakror so’z nazmi bilan hayratga solgan. Keyingi avlodlar ichida ham badiiy so’zning me’morlari sanalmish katta shoirlar yetishib chiqdi. Demak, muqaddas silsila davom etmoqda va millat turguncha turadi. O’tgan asrning so’nggi choragida adabiyotimizning pokiza osmonida yo’lchi

yulduzdek porlagan shoir Muhammad Yusuf o’zining sodda va samimiy so’zi, o’zigagina yarashadigan she’riyati bilan el nazariga tushdi. U o’zining qisqagina umrida milliy she’riyat va zamonaviy qo’shiqchilikni yuksaklarga ko’tarilishiga beminnat hissasini qo’sha oldi. Shoir haqida Erkin Vohidov shunday yozgan edi: “Muhammad Yusufni xalqimiz sevib dilida saqlaydi, Vatan kuychisi, Istiqlol kuychisi deb ardoqlaydi, o’zbek eliga ulug’ mehr, sadoqat singib ketgan nazokatli, samimiyat to’la she’rlarini qadrlaydi, qo’shiq qilib aytadi. Uning she’riyatini chin ma’noda qanotli she’riyat, yurt osmonida baland parvoz qiluvchi, yuraklarga qanot berguvchi she’riyat desa bo’ladi.”

Vatanini kuylamagan, madh qilmagan shoir dunyoda bo’lmasa kerak. Muhammad Yusufgacha ham undan keyin ham qo’liga qalam tutgan shoir borki, ona vatanni ulug’lab she’rlar yozdi. Bu g’oyat tabiiy hol. Muhammad Yusuf vatanni qandaydir balandparvoz, she’rdan she’rga o’tib yuruvchi jimjimador so’zlar bilan emas, sodda, begidir va mag’zi to’q so’zlar bilan tasvirlaydi. Uning she’rlaridagi Vatanni tasavvur qilish oson va huzurli; qaysidir jihati bilan singlingizga, qaysidir jihati bilan onangizga yo otangizga o’xshab ketadi. Vatanning andozasini ulardan olasiz, Vatanning sarhadlarini ularga bo’lgan mehru muhabbatingiz bilan belgilaysiz. Uning “Izhori dil” she’ridagi satrlarga e’tibor bering-a:

Ko’hna tol beshikdan
Boshlangan olam,
Senga iddaolar
Qilmay sevaman.
Bir kuni singlim,deb,
Bir kuni onam
–Vatan,
Kimligingni

Bilmay sevaman!..

Vatan haqida bundan-da samimiy yozib bo'larmikan? Shuning uchun ham uning she'rlarini o'qigan sari, Vatanga, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbatingiz ortaveradi.Buyuk bastakorlarning muqaddas maqsadi musiqada ilohiy ovozga, sasga, tovushga eng yaqin ohangni topish va tinglovchiga jannatiy ovozni, behishtiy sadolarni tuydirishdan iborat bo'ladi. Olimlar esa insoniyatni o'ylatadigan savollarga aniq javob topish peshida aziyat chekadi. Shoirlar esa millatning vijdoni, milliy qadriyatlarning muhofizi, his-tuyg'ularning ko'zgusi hisoblanadi.

Muhammad Yusuf tilimizning jonkuyar himoyachisi edi. Bu bejiz emas, u har bir so'zni vatan deb bilar, vatanni asrashni milliy tildan boshlash kerakligini she'rlarida ko'p ta'kidlar edi.

Sen bo'lmasang nima bizga silliq she'rlar,
Bu dunyoda tili yo'qda, dil yo'q derlar.
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Inson ona allasi bilan qulog'iga quyilgan tildagina taraddudsiz so'zlay oladi, kayfiyatini, his-tuyg'ularini bexato ifoda qiladi, dilidagini emin-erkin, bor bo'yicha to'ka oladi. Shu ma'noda shoirlar millat ruhiyatidagi evrilishlarning, ijobiy va salbiy o'zgarishlarning barometrlari hisoblanadi.

Qanday alam otimizni qo'ysa yovlar,
Marg'ilonlar qaerdayu Gorchakovlar?..
Bizni azal bukolmagan bu sinovlar,
Mingtepani ataylik o'z nomi bilan.

Buni shoirning katta vasiyati deb tushunmoq kerak. Bu vasiyatni amalga oshirmoq bugunlarga nasib qildi. Davlat tilini rivojlantirish departamenti joy nomlarini, toponimik obyektlar nomini tartibga solishga astoydil bel bog'lagan.

Muhammad Yusufning bu orzusini mazkur muassasa faoliyati davomida amalga oshiradi degan umiddamiz.

Xalq orasida “odam dunyoga bir marta keladi” degan mashhur gap bor. Odamday yashashga, orzularni ertangi kunga surmaslikka da’vat qiluvchi bu gapni shoir o’z yo’rig’ida so’roqlaydi. “Odam dunyoga bir marta keladi. Shu bir kalima so’z bilan qancha savob ishlar qilish mumkin”, - deydi shoir. Va shu bir jumlarga odamzod qancha gunohlarni, orzularni, isyonlarni, dard va alamlarni sig’dirib yuborishini aytmoqchi bo’ladi. Shoir, xalq tilidan tushmaydigan bir jumlani so’roqlash orqali xalq tilidagi har qanday birlikning yaxshilikka, ezgulikka va abadiyatga dahldor ekanligini urg’ulaydi. Bir marta kelinadigan dunyoda faqat yaxshilik qil, yaxshi nom qoldir degan qadimiy hikmatning ohorli ifodasini topadi. Shoir xalq tilidagi ayrim so’z, ibora va quyma gaplarni g’uborlardan poklab asl holida yana xalqqa qaytarib beradi. “Odam dunyoga bir marta keladi” gapining mayda maqsad va manfaatlar uchun qurbon qilmaslik kerakligini, ezgu niyat va amallar uchun ishlatish zarurligini eslatmoqchi bo’ladi.

Shoir ijodi bedorlikka da’vatkor she’riyat. U sevgi, visol, ayriliq, iztirob kabi shaxsiy kechinmalardangina iborat she’riyat emas. Kitobxonni ijtimoiy hayotda faol yashashga, uyg’oqlikka chorlovchi she’riyat. Bir she’rida shunday satrlar bor:

Mudroq bosgan dilim,
Aytaman bir sir.
Tangri uyquni-da
Pallada tortar.
Uyqu – ham
Nasiyaga berilgan umr,
Uyqung ortgan sayin
Qarzing ham ortar...

Umrning har oni o’lchovli, hatto uyquning ham badali bor. Buni idrok qilgan kitobxon o’z umrini sarhisob qiladi va shoirdan minnatdor bo’ladi. Muhammad Yusuf ijodi umuminsoniy qadriyatlarni ulug’lovchi she’riyat hisoblanadi. Uning she’rlarida insoniyatga aloqadar ezgu xislatlar, savob amallarning tamomi eng baland pardada kuylanadi. Bir mansur she’rida shunday deydi: “Asli inson xoki qo’yilgan hamma joy aziz va muqaddasdir. Bas shunday ekan, odamlar istagan qabr tuprog’ini ko’zlariga surtsin. Bundan kimga jabr.” Bu yerda insonning din, e’tiqod, mazhab, irq, millat va rang-ro’yi qanday bo’lishidan qat’i nazar muqaddasligi va uning xoki qo’yilgan tuproqning azizligi tarannum qilinmoqda. Shoir she’rni, tilni ajdodlardan qolgan va avlodlarga bekam bexato yetkazilishi shart bo’lgan muqaddas meros deb biladi.

Tushimga kiradi Qodiriy bobom
Bemador, bemajol, behol beorom.
Tushimga kiradi Qodiriy bobom:
Tur deydi, muncha ko’p uxlading, bolam.

So’zga, tilga, milliy an’ana va qadriyatlarga loqaydikni ajdodlarga, ota-bobolarimizga, Koshg’ariyga, Navoiyga, Boburga, Qodiriyga hiyonat deb biladi. Undandan-da o’ta Vatanga hiyonat deb tushunadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev bir guruh yozuvchi, shoir va ziyolilar bilan o’tkazgan uchrashuvida milliy adabiyotimizni rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor, galdagi muhim vazifalar haqida gapirib: “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko’rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo’l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak” – degan edilar. O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti jamoasiga shoir Muhammad Yusuf hayoti va ijodiy faoliyatini keng targ’ib qilish vazifasi yuklatilgan edi. O’zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ibratli hayoti va ijodini chuqur o’rganish bo’yicha institutda o’quv-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish, ilmiy-ijodiy faoliyatni yo’lga qo’yish bo’yicha

tizimli ishlar rejasi tuzildi. Institutning barcha kurs va guruhlarida Muhammad Yusuf hayoti va ijodiiy faoliyatiga bag'ishlangan maxsus kurslar o'qitilishi belgilab olindi. Bu maxsus kurslarni o'qitishdan maqsad bir shoirning hayoti va ijodini o'rgatishdangina iborat bo'lmasligi kerak. Kamida, Vatanni Muhammad Yusufdek "iddaolar qilmay" sevishni o'rgatishdan, ona tilimizni Muhammad Yusufdek gard yuqtirmay ardoqlashni o'rgatishdan, beqiyos milliy qadriyatlarimizni uningdek anglashni o'rgatishdan iborat bo'lishiga erishmog'imiz lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunkin shoir Muhammad Yusufning barcha she'rlarida vatanga bo'lgan muhabbat aks etadi. Xar bir inson bu she'rlani o'qigach vatanga bo'lgan mehri toblanib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Muhammad Yusuf " Xalq bo'l elim " kitobi.
2.Muhammad Yusuf "Shoir sevgisi" kitobi.
3.Muhammad Yusuf "She'riy to'plamlari" kitobi.
4.Muhammad Yusuf "Sara she'rlari" kitobi.

Ноанъанавий дарслар самарадорликни таъминлайди

Сайдолимова Турсуной Хабибуллайевна,
Андижон шаҳар 15-мактаби
бошланғич синф ўқитувчиси

"Бугунги кун ўқитувчиси қандай бўлиши керак ?" деган савол бугун ҳар бир ўқитувчини жиддий ўйланишга, ўзи устида кўпроқ ишлашга ундайди

Бугун кучли билимли, юксак маҳоратли ҳамда илғор тажрибаларни ўзида мужассамлантирган педагоггина сифатли ва самарали дарс бера олади. Компьютер асри бўлган XXI асрда компьилмий эмасютернинг имкониятларини чуқурроқ ўрганган ҳолда дарсларни АКТ дан самарали фойдаланиб ўтиш - ҳам дарсларни мазмунли бўлишга олиб келади, ҳам ўқитувчига анча енгиллик яратади.

Фақатгина слайдлар яратиб қолмасдан дарсларга ўз қўлингиз билан ясаган кўргазма ёки тарқатмалар билан киришингиз ўқувчиларда дарсингизга қизиқишини орттиради Лекин ҳар доим ҳам бунга вақт, имконият топилмай қолади. Шунда қўл остингиздаги бор нарсалар билан қизиқарли ўйинлар ташкил этсангиз ҳам бўлади.

Масалан ўқувчилар ўқувчи сонига қараб гуруҳларга бўлиб олинади. Ҳар бир гуруҳга қоғоз ва ручка ёки маркер берган ҳолда берилган мавзуни учта сўз билан ифодалаш топширилади. Қоғозларда:

От бу -…,

Сифат бу - …,

Сон бу-…,

Феъл бу - …,

Равиш бу -… каби сўзлар ёзилган бўлади. Ҳар бир гуруҳ ўз варақларига гуруҳлари номини ёзиб қўйган ҳолда фикрларини қоғозга ёзадилар. Сҳундан сўнг бу ёзган таърифлари ва ручкаларини ўтирган жойларида қолдириб соат стрелкаси бўйлаб жойларини алмаштирадилар. Алмашиб ўтирган жойларида қолдирилган қоғозлардаги фикр ва таърифларни ўқиб чиққач, уларни такрорламаган бошқа ўз таърифларини ёзадилар Шу тариқа ўз ўринларига келгунларигача барча мавзулар устида бош қотиришларига, барча маълумотларни эслашларига ундалади. Ўқувчилар ўз гуруҳлари ўринларига етиб келгунларигача ўрин алмашишлар амалга оширилади.Ўз жойларига етиб келганларидан сўнг барча ёзилган таъриф ва сўзлар жамланади. Гуруҳлар ўзларига берилган мавзуни ҳимоя қилишлари ва тақдимот тайёрлашлари учун вақт белгиланади. Белгиланган вақтдан сўнг гуруҳ сардори синф хаттахтасида мавзуни ҳимоя қилади. Ҳар бир гуруҳ ўз тақдимотини ҳимоя қилишлари сўралади.

Агар синф хонаси кичкина ёки ўқувчиларнинг жой алмашишлари учун шароит бўлмаса варақлар алмаштирилиши мумкин.Бу ўйин 5-6 синфларда мустаҳкамлаш ёки такрорлаш дарсларида ўйналса бўлади.Ўйин адабиёт ёки бошқа ҳар қандай дарсларда мавзулари алмаштирилган ҳолда ўйналади.Мен бу ўйинни шартли равишда 5Х 6 деб атадим. 30 талик синфларни 5 тадан 6 гуруҳга ёки 6 тадан 5 гуруҳга ажратиб олиниши мумкин.

Машғулот ўтказиш учун тахминий вақт тақсимоти:

- Ўқувчилар билан саломлашиш ва дарсни ташкил этиш учун 3 дақиқа,
- 5 тадан гуруҳга ажратилгач, 4 дақиқадан фикрлар билдиришга ажратилса жаъми 20 дақиқа гуруҳларнинг фикр ёзишларига ажратилади
- 3 дақиқа барча гуруҳларга тақдимот учун тайёрланишлари учун вақт берилади
- Ҳар бир гуруҳ ўз мавзуларини тақдимот қилишлари учун эса 3 дақиқадан жаъми 15 дақиқа берилади.
- 4 дақиқада ўқитувчи мавзуни умумлаштириб, ўқувчиларни баҳолайди ва баҳоларни изоҳлайди

Бугунги кун ўқувчилари жуда зийрак, тиришқоқ ва талабчан. Дарслардаги дам олиш дақиқалари ҳам уларнинг фикрлаш қобилиятларини ўстиришга хизмат қилиши зарур. Дарсда “Эртак занжири” ўйини ташкил этиш эса бунга ёрдам беради. Бу ўйин :

Ўқувчиларни эркин, мустақил ва мантиқий фикрлашга;

Ижодкорликка;

Жамоа бўлиб ишлашга;

изланишга;

Фикрларни жамлаб улардан назарий ва амалий тушунча ҳосил қилишга;

Артистлик қобилиятларини намойиш қилишга ўргатади.

Ўйинни амалда қўллашга оид воситалар:

А-3 , А-4 варақлар,ручкалар

Ўқувчиларнинг ёши : 3- 4 синфлар учун

Адабиёт дарсларида қўллаш тавсия этилади.

Вақти : 10- 15 дақиқа

Бу қизиқарли ёзма машғулот.Ўқувчилар бир стол атрофига ўтказилади.Ҳар бир ўқувчига ёзиш учун қоғоз ва ручка берилади. Ўқувчиларнинг ичидан лидер сайланади. Лидер ўқувчиларга командалар бериб, уларни кузатиб туради. Ёзишга рухсат бериши билан ўқувчилар ёза бошлайдилар.Улар биринчи гапни эртакка ўхшатиб бошлайдилар. Масалан:Қадим- қадим замонда бир қурбақа бўлган экан. Унинг бирорта ҳам ўртоғи бўлмаган экан. У ўзига ўртоқ топмоқчи бўлибди…

Лидер 1 дақиқадан кейин “Тўхтанг” буйруғини беради ва ҳамма ёзишдан тўхтайди.Ўқувчилар ручкаларини қўйиб, варақларини ёнидаги ўртоғига узатади. Ўзларининг олдиларига келган варақни ўқиб кўриб, лидернинг “бошланг” буйругидан кейин эртакни давом эттириладилар. Шу тариқа ўйин давом эттирилади.Бу ўйин варақ эгасига етиб келгунча давом эттирилиши ҳам мумкин. Вақт тақсимотига қараб, ўқувчиларнинг сонига қараб эрта тугатилиши ҳам мумкин.Бунда лидер ўқувчиларга вақт тамом бўлаётганини эслатиб қўйиши керак бўлади. Чунки эртак “мурод- мақсадига етибди” деб тугатилиши керак бўлади.Бунда эртакнинг тили ўқувчининг ёдида сақланиб қолади.(Эртак ўз тилига эга)

10 дақиқадан кейин қизиқарли эртак ўқишга тайёр бўлади. Ўқишдан олдин эртакдан ҳулоса чиқаришлариб,тақдимотга тайёрлашлари керак бўлади.

Бу ўйинда синф гуруҳларга ажратилиб олиши ҳам мумкин.

Ўқувчилар тақдимотга тайёрлашда эртак қаҳрамонларига бўлиниб,ўзларининг эртакларини гуруҳлари билан саҳналаштиришлари ҳам мумкин.

Юқори синф ўқувчилари учун ташкил этилган “Имкон шоу ” ўйини ҳам ўқувчиларда фанга оид тест саволлар билан ишлашга, ибора ёки мақолларни гуруҳларига фонтамимо тарзида тушунтиришларига, бунда эса артистлик қобилиятларини намойиш этишларига ундайди. Тезкор савол ва жавоблар ҳам ўтилган мавзулар асосида тузилади.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ АМАЛИЙ КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ЎРНИ

Сидиқова Гавҳарой Турсуновна
Улуғнор тумани 12-умумий ўрта таълим мактаби, бошланғич синф ўқитувачиси

Аннотация. *Бу мақолада бошланғич синф ўқувчиларининг амалий кўникмаларини ривожлантириш, бунда инновацион ўйин технологияларининг тутган ўрни Технология дарслари мисолида ёритиб берилган.*

Калит сўзлар. *амалий кўникмалар, инновация, инновацион технологиялар, ўйин технологиялари, сенсомотор, майда моторика.*

Таълимни ривожлантириш инновациялар орқали амалга оширилиши мумкин. Инновацион фаолият деганда янгиликни яратишга, излашга, ўзлаштиришга, фойдаланишга ва уни ҳаётга тадбиқ этишга қаратилган фаолият тушунилади. Замонавий таълимни ривожлантиришда инновацион йўналишлар хилма хил, бунда таълим технологияларининг ўрни беқиёс.

Ўқувчиларнинг амалий кўникмаларини ривожлантиришга хизмат қиладиган кўплаб педагогик-психологик омиллар орасида ўзаро субъект-субъект муносабатлари билан бир қаторда, уларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олиш ҳам алоҳида ўрин эгаллайди.

Бошланғич синфларда дарслар ва дарсдан ташқари фаолиятда ўйин технологиялари орқали таълим бериш асосий ўринни эгаллайди.

Ҳозирги кунда кўплаб педагогик технологиялар мавжуд, аммо бошланғич таълим жараёнида энг катта эътибор ўйин технологияларига қаратилган бўлиши лозим. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг ҳали бола эканлигини ва уларнинг психологиясини ҳисобга олиш лозим. Ўйин технологиялари ўқитувчи ва ўқувчиларнинг ўйин шаклига кўра ўзаро мулоқотига боғлиқ. Бунда ҳар бир ўйин ўзига хосдир ва турли функцияларни ўз ичига олади.

Ҳар бир ўйин тури соғлом инсон ва соғлом шахс сифатида боланинг ривожланишига ёрдам беради. Ўйинларни тўғри танлаш орқали сиз боланинг нормал ривожланиши ва ижтимоийлашувини режалаштиришингиз, бунинг учун мос шароитларни яратишингиз мумкин. Таълим жараёнини қизиқарли қилиш, ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш ҳақидаги тадқиқотлар натижасида инновацион ғояларни лойиҳалаш ва ўрганиш бошланди.

Буни бошланғич синфларда Технология дарслари мисолида ўрганиб чиқадиган бўлсак, дарсларда ўйин технологияларини қўллаш ўқувчиларнинг дарс вақтини мароқли ўтказиши ва уларнинг фаол бўлишини таъминлайди. Технология фанининг асосий вазифаси ўқувчиларнинг амалий қўникмаларини фаоллаштиришдан иборат бўлиб, бунда уларга тайёр намуна ва кўргазмаларни кўрсатиб, худди шундай топшириқни уйга вазифа қилиб бериш яхши самара бермайди.

Биринчидан, бу ўқувчиларни тайёр намуна асосида ишлайдиган роботларга айлантиради;

Иккинчидан, бошланғич синф ўқувчилари учун кўпгина топшириқлар ҳали мураккаблик қилади ва кўп ҳолларда буни улар ўрнига ота-оналари ёки ака-опалари бажариб беришади;

Учинчидан, улар уйда кимдир томонидан худди намунага ўхшатиб бажарилган ишни олиб келиб, мактабда яхши баҳо олишади ва бунга кўникишади;

Тўртинчидан, Технология фанидан ҳам уйга вазифа берилиши кичик мактаб ёшидаги ўқувчилар учун дарслардан ва уй вазифаларидан тез безиб қолиши учун сабаб бўлиши мумкин;

Бешинчидан, ўқувчи учун энг қизиқали фанлардан бирига айланиши керак бўлган фанда у фикрлашни тўхтатади.

Аслида, ўқитувчилар ўқувчида билимга эмас билим олишга қизиқишни уйғота олишлари муҳим ҳисобланади. Ўқувчилар билим олишдан ўзлари манфаатдор бўлишни ўрганишлари зарурдир. Бунинг учун эса тайёр намуна асосида топшириқ беришни, ўқувчи ёшига мос бўлмаган, аммо кимдир томонидан бажариб берилган уй вазифалари учун баҳолашни бас қилиш зарур. Ўқувчига Технология дарси давомида изланишга, фантазиясини ривожлантиришига, ўз имкониятларини рўёбга чиқаришига ва бу орқали ўз-ўзига ишончи ортишига имкон бериш лозим. Бунда ўйин технологияларининг аҳамияти катта.

К.Д.Ушинский шундай деб ёзган эди: “*Болалар учун энг яхши ўйинчоқ – бу қум уюмидир*!”.

Қум билан ўйнаш болаларнинг энг севимли машғулотларидан биридир. Аммо қум билан ўйнаш бу шунчаки вақтни бекор ўтказиш эмас. Бу жуда кўп янги ҳис-туйғуларни ривожлантирувчи ўйинлардир. Боланинг ўзи қумга талпинади, бунга ижодий йўналиш бериш керак холос ва оддийгина қум титиш қизиқарли таълим жараёнига айланади. Қум билан ўйнаш кичик мактаб ёшидаги ўқувчининг сенсомотор кўникмаларини ривожлантиради. Қумда расм чизиш (***sand-art***) ва қумдан шакллар ясаш (***sand-play***) дарс бошидаўқувчиларнинг билиш фаолликлари ва нутқини фаоллаштириш ва кучайтириш учун қўлланиши мумкин. Ўқувчиларнинг

кўпчилик бўлиб, гуруҳларда бирон-бир каттароқ обьектни ясаши учун топшириқ бериб, уларга вақт бериш керак (қаср, чорраҳа, уй). Намуна кўрсатиш мумкин, аммо ҳудди шундай ясашни талаб қилиш мумкин эмас, бу билан ўқувчиларнинг хаёлотини чегаралаб қўйган бўламиз. Дарс охирида эса, ўқувчиларнинг фаоллигини баҳолаш, уларга тавсиялар бериш, бажарилган “санъат асари” учун рағбатлантириш мумкин.

Бундай мароқли дарс ўқувчиларнинг чарчоғини олади, фанга ва айниқса таълим олишга бўлган қизиқишини оширади, диққатини оширади, майда моторикасини ривожлантиради. Майда моторикаси яхши ривожланган ўқувчиларнинг ҳуснихати ҳам жуда чиройли бўлади. Амалий кўникмалари ривожланади, мантиқий фикрлаши ва ижодий тафаккури уйғонади.

Фойдаланилган адабиётлар:

4. Mirziyoyev Sh. M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.–T.: “O‘zbekiston”, 2017.

5. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz” – T.: “O‘zbekiston”, 2017.

6. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi o‘quv dasturi // Boshlang‘ich ta’lim . – Toshkent, 2005.- 5-son, 21-33-betlar.

7. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi// Boshlang‘ich ta’lim, 2014.

8. Boshlang‘ich ta’lim dasturi. XTV 2017-yil , 3-iyun, 190-sonli buyrug‘i.

9. Сафарова Р., Неъматов Ш. ва б. Ўқув предметлари мазмунини аниқловчи асосий параметрлар. Т.: Фан ва технология, 2011. – 159 б.

10. Ксензова Г.Ю. Перспективные школьные технологии: Учеб.-метод. пособие. - М: Пед. общество России, 2001. - 224 с.

11. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания, опыт педагогической антропологии. 1 том –М.: Литература, 1965. -115 с.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni ma’naviy-mafkuraviy jixatdan tarbiyalash ishlari bugungi kunning zaruratidir

Turaqulova Manzuraxon Mallaboyevna

PYMO‘M markazi, maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasining katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada bugungi globallashuv jarayonida maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab farzandlarimizni vatanparvrlik, shuningdek, begona, tajovuzkor, zararli g‘oyalarga qarshi kurash ruhida tarbiyalab voyaga yetkazish juda dolzarb vazifalardan biri ekanligi yoritib berilgan..

Kalit so‘zlar: ma’naviy-mafkuraviy, globallashuv, *milliy tarbiya, umuminsoniy qadriyatlar*

O‘tmish tariximizdan ham yaxshi ma’lumki, ajdodlarimiz doimo bolalarning kichik yoshidan tartibli, odobli, qalban va axloqan pok, insonparvar, tabiatni sevuvchi, sofdil, ma’naviy yetuk insonlar bo‘lib yetishishiga alohida e’tibor berganlar. CHunki har bir mamlakatning, yurtning istiqboli va taraqqiyoti, halqning farovon va osoyishta turmush kechirishi, xavfsizligi, baxtli yashashi — albatta, kelajak egalari bo‘lgan yosh avlodning qanchalik darajada to‘g‘ri tarbiyalanganligiga bog‘liq.

Bugungi globallashuv jarayonida maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab farzandlarimizni vatanparvrlik, shuningdek, begona, tajovuzkor, zararli g‘oyalarga qarshi kurash ruhida tarbiyalab voyaga yetkazish juda dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoldi. Buni yaxshi anglagan davlatimiz rahbariyati tomonidan ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa, farzandlarni tarbiyalash ishlariga, ularning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Ijtimoiy hayotimizda milliy g‘oya va azaliy tayanch qadriyatlarimiz hayotimizga tobora chuqurroq singib bormoqda. Milliy tarbiya y o‘nalishidagi ma’naviy, axloqiy va g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiya bolaning kichik yoshidan, ya’ni maktabgacha yosh davridan (3-6 yoshidan) boshlab muntazam va to‘g‘ri yo‘nalishlarda mukammal olib borilsa, bolalarni voyaga yetkazishdagi ko‘zlangan maqsadlarda ijobiy natija va samaradorlikka erishish mumkin. Birinchi Prezidentimiz bu borada shunday degan: “Bolaning ongi asosan 5–7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta’sirida ma’naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi. … Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg‘ubor ongi bamisoli bosma qog‘oz singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha voqea-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o‘ziga shimib-singdirib oladi”[10]. SHu nuqtai nazardan, farzandlarni maktabgacha yosh davridan boshlab ham tomonlama barkamol qilib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratishimiz va buni yoddan chiqarmasligimiz zarur.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan Maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga ta’lim -tarbiya berishning ma’naviy, axloqiy, aqliy, g‘oyaviy, estetik, mehnat, jismoniy, ekologik, iqtisodiy kabi qator *yo‘nalish*lari mavjud bo‘lib, ular jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi,

ijtimoiy-hissiy rivojlanish,nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari,

bilish jarayonining rivojlanishi va ijodiy rivojlanish soxalari orqali amalga oshiriladi

Bolalar ishonuvchan, tashqi ta’sirlarga beriluvchan, kattalarga taqlidchan bo‘ladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar xarakterida ijobiy his-tuyg‘ularni, xulq-atvorida insoniylik fazilatlarini shakllantirish ma’suliyati maktabgacha ta’lim muassasasi pedagoglaridan tashqari asosan, ota-onalar zimmasiga xam tushadi. Bunda, maktabgacha ta’lim muassasas va oilining o‘zaro hamkorligi — farzandlarni barkamol qilib voyaga yetkazishda muhim *yo‘nalish*lardan hisoblanadi. Bola uchun bu davr kattalarning har bir gapi, xatti-harakati, ta’sir ko‘rsatish uslubi haqiqat *mezon*i vazifasini bajaradi. Ota-ona va MTM mutaxassislarining bu davrda bolalarga to‘g‘ri *yo‘nalish*da (tarbiya maqsadi va vazifalari asosida ish olib borish yo‘nalishida) ma’naviy-axloqiy va psixologik ta’sir ko‘rsatishi – bolalarni atrofdagi kishilarga yaxshilik qilishga, yordam berishga undaydi, nima yaxshi-yu va nima yomon ekanligini anglash, to‘g‘ri fikr yuritishga o‘rganishi imkoniyatini vujudga keltiradi.

Bolalarni milliy ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muhim asosi milliy g‘oyalarimiz va ma’naviy qadriyatlarimiz asosidagi tarbiyadir. Bu tarbiyaning muhim *yo‘nalish*laridan biri hisoblanadi va bolalar ongiga milliy-ma’naviy qadriyatlar, ya’ni masalan, oilaga hurmat va e’tiqod, Vatanga sadoqat, o‘zaro mehr-muhabbat, mehr-oqibat va qadr-qimmat, kattaga hurmat va kichikka izzat, halollik, yaxshilik, go‘zallik, hayo, axloqiy va ruhiy poklik, haqiqat va adolat kabi qator eng yuksak fazilatlardan iborat bo‘lgan – ma’naviy qadriyatlar, shuningdek, tinchlik, totuvlik, bag‘rikenglik, adolat, insonparvarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, vatanparvarlik, fidoiylik, sihat-salomatlik, ekologiya va tabiatni asrash singari umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar mazmunidagi ezgu g‘oyalarni singdirish orqali: ular dunyoqarashini shakllantirish, ularni ilmiy asoslangan bilimlarni o‘zlashtirishlarini ta’minlash, Vatanimiz ravnaqi uchun zarur bo‘lgan ijobiy xislatlarni shakllantirish va kamol toptirishga yo‘naltiriladi. Bunday ta’lim –tarbiya ishlarini amalga oshirishda bir qator faoliyat turlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan:

“Temuriylar”, “Zumradoylar davrasi” to‘garaklari, “Sog‘lomjon va Polvonjon”, “Alpomish va Barchinoylar”,”Biz oilaviy sportchilarmiz”kabi sport musobaqalari,”O‘zbekiston mening vatanim”, “Musaffo osmonimiz”, “Baxtli bolalik” rasimlar ko‘gazmasi kabilarni tashkillashtirish orqali ona-Vatanning mohiyati, insonlararo va tabiat bilan bog‘liq madaniy munosabatlar borasidagi o‘ziga xosliklar, ma’naviyat va qadriyatlar, odob-axloq va go‘zallik haqidagi hamda yurt tinchligi, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi uchun xizmat qilish singari keng qamrovli tushunchalarini shakllantirish mumkin.

Psixologiyaga oid adabiyotlarda bola ma’naviyatini rivojlanishida oilaning taraqqiyoti ya’ni oila a’zolarining va xususan farzandlarning:

-oiladagi va atrof-muhitdagi voqelikka, ota-onasiga va oilasining boshqa a’zolariga, do‘stlarga, o‘zga shaxslarga, o‘ziga munosabatida ma’naviy, axloqiy qadriyatli yondashuvning mavjudligi va ustuvorligi;

- ongi va dunyoqarashida vijdon, yaxshilik va yomonlik to‘g‘risida aniq tasavvurlarning mavjudligi va yaxshilik qilish yo‘lidan borishga intilishi;

- sog‘lom ruhiyatga, yaxshi kayfiyatga ega bo‘lishi, jismonan sog‘lom va tetikligi;

- qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh-urug‘lar va atrofdagi o‘zga odamlarning muvaffaqiyatlaridan xursand bo‘lishi, muvaffaqiyatsizligidan kuyunishi va hamdardlik bildirishga, muhtojlarga yordam ko‘rsatishga ehtiyojining mavjudligi.

- Bolalarda o‘zining xulq-atvorining salbiy va ijobiy jihatlarini taxlil eta bilish ko‘nikmalarini shakllantirilib borilishi kabilardir

Oilada va maktabgacha ta’lim muassasasida olib boriladigan mazkur qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-tarbiyaviy yo‘nalishlarda bolalarda shakllantiriladigan va rivojlantiriladigan – bir-biri bilan o‘zaro aloqadorlikni

talab qiladigan, bir-birini taqozo qiladigan, uyg‘unlashgan fazilatlarni ko‘rish mumkin:

- ✓ *milliy tarbiya yo‘nalishi* orqali bolalarda o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va axloq, milliy-g‘oyaviy ijobiy dunyoqarash, oilaga, Vatanga e’tiqod va sadoqat, milliy qadriyatlarni e’zozlash kabi;
- ✓ *umuminsoniy qadriyatlar asosidagi tarbiya yo‘nalishi*da millatlararo totuvlik va muloqot madaniyati, vatanparvarlik, insonparvarlik, fidoiylik, tinchliksevarlik, birdamlik, mehnatsevarlik, hamjihatlik, hamdardlik, do‘stlik, yaxshilik qilish, mehribonlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlar shakllantiriladi.

Xulosa qilib aytganda bolalarni ma’naviy-mafkuraviy jixatdan tarbiyalash ishlari bugungi kunning zaruratidir

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablari 2018 yil 18 iyun
2.”Ilk qadam ”davlat dasturi. 2022 yil
3.Q.Ibragimov.”Umumiy Pedagogika”. Toshkent -2022

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЛОЙИҲА МЕТОДЛАРИДАН ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМИЙ РЕСУРСЛАР ВОСИТАСИДА ФОЙДАЛАНИШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Тожибоева Мукаррамхон Турсуновна
Балиқчи тумани 15-умумий ўрта таълим мактаби, бошланғич синф ўқитувачиси.

Аннотация:*Мақолада бошланғич синфларда лойиҳа методларидан электрон таълимий ресурслар воситасида фойдаланишхусусиятлари ўз аксини топган. Унда лойиҳалаш жараёнида ўқувчиларда рефлексив кузатувчанликни шакллантириш, уларнинг мустақиллигини ошириш, назарий тафаккурни тарбиялаш, тушунчаларни ривожлантириш, муносабатларни ҳосил қилиш, таҳсил олувчиларда танқидий, рефлексив, дивергент фикрлаш кўникмаларини ривожлантиришга йўналтирилганлиги ҳақида фикр баён этилади.*

Таянч иборалар: *лойиҳа методи, муносабат, педагогик шарт-шароит, такомиллаштириш, таҳсил олувчилар, танқидий фикрлаш, рефлексив тафаккур, ривожлантириш.*

Мустақиллик йилларида ижтимоий-сиёсий жараёнлар таълим тизимига турли инновацион методларни татбиқ қилиш учун муҳит яратишни тақозо этди, чунки ҳаётимиз бутунлай бошқача тус олган ва турмушимиз ўзгача мазмун касб этган руҳий-маънавий ҳолатда йиллар мобайнида қотиб қолган тушунчаларимиз ўзгармоқда ва мудраб қолган онгимиз ўйғонмоқда. Кейинги йилларда ҳуррият буюк ўзгартирувчилик мўжизасини кўрсатиб, дунёқарашимизни ўзгартириб, фикримиз, тафаккуримизни бойитмоқда. Воқеалар ривожини бутун моҳияти билан англашни, дунёга кенгроқ ва тийракроқ назар билан қарашни тақозо этади.

Шу жиҳатдан олганда, ўқувчиларни «ўқишга ўргатиш», ва фикрлашнинг турли кўринишларини эгаллашлари учун таълим жараёнига лойиҳалаш методларини татбиқ этиш зарурати ошмоқда. Янги ахборотларга дуч келар экан, ўқувчилар уни мустақил равишда баҳолаши, унга турли хил нуқтаи-назардан қараши, ундан ўз эҳтиёж ва мақсадлари йўлида фойдалана олиш имконияти тўғрисида хулоса ясай олишлари зарур. Лойиҳа методларидан фойдаланиш орқали бошланғич синф ўқувчиларини танқидий ва ижодий фикрлашга ўргатиш, ўзини синаб кўриш ва бунга оид малакаларни эгаллашга ундалади.

Бошланғич таълим жараёнида лойиҳа методларидан фойдаланиш хусусиятлари муайян тавсифга эгадир.

I ва III-синфлардаги суҳбат мазмуни билангина эмас, балки қўлланиш услублари билан ҳам фарқ қилади: IV синфларда ўқитувчининг саволлари мавзунинг катта қисмларини қамраб олади, бинобарин, умумлаштирувчи характерда бўлади; ўқувчилар мустақил саволлар беришга жалб қилинадилар; ўқувчиларга таклиф қилинадиган мантиқий услублар мураккаблашган бўлади ва ҳоказо.

Лойиҳалашда ҳикоя синфдан-синфга ўтган сари мураккаблашиб II—IIIсинфларда маъруза белгиларини ҳосил қилиб боради.

IV синфда фронтал равишда, яъни ўқитувчининг айрим майда бир-биридан чекланган операциялар бўйича «бўйруқ остида» бутун синф билан олиб борилади. Хар бир операция бутун синф билан, бир вактда амалга оширилади. Кейин ўқувчилар топшириқ бўйича гуруҳ билан ва индивидуал тарзда ишлашга ўргатиб борилади.

3-4 синфларда лойиҳа методлари ўқитувчининг олдиндан берган топшириқ режаси, йўриқномаси бўйича мустақил бажарилади. Уларнинг натижалари иш охирида текширилади. Ўқувчилар ишни мустақил режалаштирадилар, уни алоҳида операцияларга ажратадилар, уларнинг бажариш изчиллигини белгилайдилар, адабиётлардан фойдаланадилар, жавоб беришда ўқитувчининг ёрдамисиз керакли кўргазмали қуролларни танлайдилар, дарсда ўтказилган тажриба ва амалий ишларни такрорлайдилар.

Лойиҳалаш жараёнида кўргазмали методлар ўқувчиларнинг материални ўрганишлари ва жавоб беришларида билим манбаи сифатида кўргазмали қуроллардан фойдаланишдаги мустақиллиги аста-секин ортиб боради.

Шу билан бир вақтда лойиҳалаш жараёнида ўқувчиларда рефлексив кузатувчанликни шакллантириш, уларнинг мустақиллигини ошириш, назарий тафаккурни тарбиялаш, тушунчаларни ривожлантириш, муносабатларни ҳосил қилиш муҳимдир.. Ўқитувчи доим ўқувчиларни қандай мулоҳаза ва хулосаларга олиб келишини олдиндан билади. Ўқитувчи ўқувчилар фикри йўналтирилган хулосани қанчалик яшира олса, ўқувчилар шу хулосага шунчалик катта кучланиш ва қизиқиш билан ёндашадилар ҳамда уни яхшироқ ўзлаштириб оладилар.

Шундай қилиб, бошланғич таълим жараёнида лойиҳалаш методлари ўқувчиларда рефлексив кузатувчанликни шакллантиради, ҳар бир метод ва уларнинг бутун тизими уларнинг мустақиллигини ривожлантириш мақсадини

кузлайди. Ўқувчиларнинг дарсда фаол бўлишларига, китоб билан мустақил ишлашга, амалий ишлар бажаришга, фикр юритишга, биологик масалаларни ҳал этишга ва назарий билимларни амалиётда қўллашга ўрганишлари учун ўқитувчи уйлаб, чидам билан раҳбарлик кўрсатиши зарур. “Билим олишда ўқувчиларнинг мустақиллиги қанчалик муваффақиятли ривожлантирилса, ўқитувчининг таълим-тарбия жараёнига раҳбарлик қилиши мураккаблашади, аммо унинг ижоди ва ташаббуси шунчалик яхшироқ ривожланадики, педагогик фаолиятидан тўлароқ қаноат ҳосил қилади”-дея таъкидлайди Р. Ғ. Сафарова (94 ,87).

Фақат талабни ошира бориб, аста-секин, тизимда методларнинг қўлланиш турларини мураккаблаштира бориб ўқувчиларда билим ўзлаштириш самарадорлигини ошириш мумкин. Ўқувчилар тафаккури ва билимларини амалиётда қўлланилишининг катта мустақиллиги синфдан-синфга ўтган сари амалга ошади. Бошланғич синфларда лойиҳалаш методлари бир дарсда унинг қисмлари мазмунига қараб турли қўлланилиши мумкин. Бунда улар демонстрация, амалий иш ва суҳбат биланалмашинади.

Лойиҳа методлари улардан бир ёки бир нечтасининг устунлиги билан бирга олиб борилади. Масалан, маъруза ўз таркибига кўра суҳбат, ҳикоя муқобилларидан тузилишимумкин. Дарсда қўлланилган методларнинг бирга олиб борилиши анализ қилиш билан е т а к ч и бош методни ажратиш ва қолганларини ёрдамчи методлар сифатида белгилаши мумкин.

Бошланғич синфларда лойиҳалаш методларидан фойдаланиш ўқувчиларнинг тафаккури ва малакаларини кўп томонлама ривожлантиради, шунинг учун фақат биргина метод билан чекланиб қолмасдан ҳар хил методларни қўллаш ўринли бўлади.

Бошланғич таълим жараёнида лойиҳа методларидан фойдаланиш орқали ўқувчиларда мулоқот маданияти ўсади ва гуруҳ билан ишлаш малакалари ривожлантирилади.

Бошланғич таълим жараёнида лойиҳа методларидан фойдаланишда*: биринчидан*, индивидуал таълим жараёнини қулайлаштириши, таълим мақсадларининг дидактик лойиҳалашда хизмат қилиши, унинг натижаларини кафолатлаши; *иккинчидан*, жамият талабидан келиб чиққан ҳолда, таълим-тарбия жараёнида ўқувчи ва ўқитувчи ўртасида «субъект-субъект» муносабатларини тўғри йуналтиришни таминлаши; *учинчидан*, ўқувчи шахсини гуманитар педагогика самараларидан баҳраманд бўлишида кўмаклашиши керак. Бошланғич таълим жараёнини лойиҳалаш фикримизча, қуйидаги тамойилларга асосланади:

-биринчиси-шахснинг эркин фикрлашига замин яратиш, унинг интеллектуаллик даражасини ҳар томонлама ўрганиш, ташхислаш;

-иккинчиси- педагоглар жамоаси томонидан таълимий-тарбиявий жараённинг самарадорлигига эришишни таъминлаш;

-учинчиси-жамиятда ҳар томонлама чукур мулоҳаза юритувчи, эркин шахс, баркамол авлодни тарбиялаш муаммосининг ечимини топиш;.

Бошланғич таълим жараёнида лойиҳалаш методларидан фойдаланиш орқали ўқувчиларда мустақил ва танқидий фикрлашни шакллантириш натижасида ҳар бир режали ўқув жараёнининг дидактик таъминоти эъти-борга олинади, таҳсил олувчи ўқув материалини қандай ўзлаштираётгани доимий мониторинги ишлаб чиқилади, таълим жараёнидаги муаммоларнинг ечимини топишга ҳаракат қилинади. Моҳир педагог ўқув жараёнида туғиладиган қийинчиликларни бошқалардан кўра яхшироқ тушунади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 46 б.

8. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисидаги Қонуни. – Т.: Ўзбекистон, 2020 йил 23 сентябрь ЎРҚ-637-сон.

9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сонли қарори
10. Абулғханова-Славская К.А. Стратегия жизни. – М.: Мқслғ, 1991. – 299 с.
11. Абдукаримов Х. «Профессионалғное воспитание личности учителя в процесса непрерқвного педагогического образования» Автореф.дисс. ... докт. пед.наук.-Т.1997.-46с
12. Абдуллаева Қ.А., Сафарова Р.Ф. ва бошқ. Бошланғич таълим концепцияси. // Бошланғич таълим ж. –Т.: 1998. -№6. – Б. 12-18.

BOSHLANG’ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Toxirova Iroda Mamirjonovna,
Oltinko’l tumani 49- umumta’lim maktab Boshlang'ich sinf o`qituvchisi

Annotatsiya; Ushbu tezisda boshlang’ich sinf ona tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati bayon qilingan.

Kalit so’zlar: Kompitentsiya, texnologiya, interfaol ta`lim, o’qituvchi faoliyati

Umumta‘lim maktablarining ta‘lim jarayonida turli xil pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni qo’llanilishi dars-mashg’ulotlarning samaradorligini oshiruvchi omillardan hisoblanadi. Ta‘lim mazmuni, shakli va usullarini takomillashtirish, ularning uzviyligini ta‘minlash, o’qitishning noan‘anaviy usullari, zamonaviy axborot va ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish,
didaktik materiallar va texnik vositalarni qo’llash, fanlararo bog’lanishlarni hisobga olish bularning barchasi o‗quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgandir.

Biz yosh avlodni mustaqil bilim ola bilishga o`rgatishimiz lozim. Bu narsa bizning umumta`lim maktablari hal qilishi zarur bo`lgan eng muhim masalalardan biridir.O`quvchilarni mustaqil bilim olishga tayyorlash ishlari boshlang`ich

sinflardan boshlanadi. Shuning uchun ham dasturlarda bu masalaga alohida e`tibor
berilgan. Maktabda dars o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning asosiy shakli hisoblanadi. Shunday ekan, ona tili o‘qitishning samaraliligi darsning sifatiga bevosita bog‘liq.

Shuni aytish joizki, ta lim texnologiyalari pedagogika ilmining tadqiqot obyekti sifatida aniq fanlarni o‘qitish uslubi bo‘libgina qolmay, ijtimoiy fanlarni o‘qitishga ham yangicha yondashuv sifatida qayd qilishi lozim.

Pedagogik texnologiyaning tom ma`nosining bilish va uning hududimizga mos turini yaratish uchun majmualar nazariyasini to‘la egallab olish zarur. Chunki pedagogik texnologiya majmualar nazariyasining qonuniyatlariga yuz foiz suyangan bo‘lib, yangicha falsafiy tafakkurni dunyoqarashini ifoda etadi.

Pedagogik texnologiyaning an`anaviy uslublaridan asosiy farqi, uning to‘la-to‘kis majmualar nazariyasi qonuniyatlaridan kelib chiqqanligidir. Pedagogik texnologiyaning avvalgi uslublaridan afzalligi u ta`lim jarayonini bir butunlikda qurib, ta`lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta`lim natijalarini baholash kabi qismlarini o‘zviy bog‘lab majmuaga keltirib uning loyihasini tuzishidadir. Jahon pedagogik taffakkurida talim-tarbiyaga bunday yondashuv yangi emas.

Interfaol ta`lim texnologiyasi o‘quvchilarni mustaqil bilim olishga o‘rgatadi.

Mustaqil fikrlashga undaydigan, qiziqtiradigan ruhiy muhit muammo, o‘quv metodik ta`minotga alohida e`tibor berish zarur, aks holda o‘qituvchi darsga yuqori
samaraga erishmasligi mumkin. Mazkur texnologiyada shaxs (o‘quvchi shaxsi) resursidan, o‘quvchilarning o‘zaro birgalikdagi faoliyatini tashkil etishdan, shaxslararo aloqadan o‘rinli foydalana bilish kerak.

Eng muhimi, darsni boshlashda o‘quvchilarni fanni o‘rganishga ishtiyoqini uyg‘otish va darsni maqsadi hamda vazifalarini o‘quvchilar bilan hamkorlikda

ifodalashni bilish kerak. Keyingi bosqichda ilmiy g‘oyani o‘qituvchi o‘quvchilar e`tiboriga havola etishi, muammoli vaziyatni o‘rtaga tashlashi, muammoni, ma`lumotlarni tahlil qilish va ular asosida xulosa, qarorlarni shakllantirish, taqqoslash, muhokama qilish kabilarni o‘rgatib boriladi. Masalan, “Ko‘p ma‘noli so‘zlar va shakldoshlar”mavzusini oladigan bo‘lsak o‘quvchilarga ko‘p ma‘noli so‘zlar uchrab turadi, ammo ular ko‘p ma noli so‘z ekanini tushunib yetmaydilar. O‘qituvchi badiiy asar ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarni ko‘chma ma‘nodagi so‘zlar bilan tanishtirish orqali ayrim so‘zlar ko‘p ma‘noda ishlatilishini tushuntirib boradi. Shu bilan birga, maxsus mashqlar ham ishlatiladi.

So‘zlarning so‘z birikmasidagi ma‘nosini qpyoslash: soat yurdi, poezd yurdi,

ukam yurdi; tosh yo‘l, tosh yurak; kumush qoshiq, kumush osmon, kumush qish. Gaplarni o‘qib, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma‘nosini aytish: Bu yil yoz issiq bo‘ldi. Sen o‘rtogingga xat yoz.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘p ma‘noli va omonim so‘zlar yuzasidan nazariy ma‘lumot berilmaydi, bunday tushunchalarni shakllantirishga tayyorgarlik ko‘riladi, xolos.

O‘quvchilar nutqini boyitishda maqollar katta ahamiyat kasb etadi. Maqollar o‘qish uchun ham, suhbat uchun ham, hikoya tuzish uchun ham, grammatik tahlil va yozuv uchun ham juda qulay materialdir. Ular ixcham, sermazmun va ta‘sirchan bo‘ladi; maqollar o‘quvchilarning badiiy didini o‘stiradi, nutqqa e‘tibor bilan qarashga, to‘g‘ri, mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi, estetik tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. O‘qish kitoblarida mavzuga bog‘liq

holda, o‘zbek tili darsliklarida esa mashq matnlari ichida xilma-xil mavzularda juda ko‘p maqollar beriladi.

O‘quvchilar maqollarni o‘qib, o‘qilgan asarning axloqiy muammosi bilan, hayotiy sharoit bilan bog‘laydilar, ularning majoziy mazmunini, ayrim so‘z va iboralarniig ma‘nosini tushuntiradilar. Natijada o‘rni bilan maqollardan foydalana boshlaydilar.

Maqollar o‘qilgan asarning xulosasi sifatida ishlatilib, ko‘pgina asarlarning mazmunini tushunib olishga yordam beradi.

1. Narsalarnpng mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (ko‘ylak, kostyum, . . .) va oyoq kiyimlar (botinka, tufli, ..); uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar «Bu nima?» so‘rog‘iga javob berishga o‘rgatiladi: Bu n i m a?- Avtobus. Avtobus nima? - Mashina.

2. Bir turdagi narsalarni sanab ko‟rsatish va umumlashtiruvchi bir so’z bilan nomlash.Masalan, stol, stul, shkaflarni bir so‘z bilan qanday nomlash mumkin? (Mebel)

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish.

Masalan, qalam, pero, chizg‘ich, o‘chirg‘ich, stul ko‘rsatiladi, o‘quvchilar o‘quv qurollarini ajratadilar, stul o‘quv quroliga kirmasligini, mebel ekanini aytadilar.

Bunday mashq o‘yin tariqasida o‘tkazilishi ham mumkin: ma‘lum so‘zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: qaldir‘och, chumchuq, mushuk, musicha.

Predmet nomlari va belgi bildirgan so‘zlarni guruhlarga ajratish. Bunda so‘zlar choynak, tesha, bolta, piyola, arra, tarelka kabi aralash beriladi; bolalar guruhlab, idishlar nomi: choynak, piyola, ... ; ish qurollari nomi: tesha, bolta, ... kabi yozadilar. Narsa belgisini bildirgan so‘zlar ham aralash beriladi, bolalar to‘rt guruhga (rang, maza, shakl, xususiyat) ajratadilar.

Qarama-qarshi qo‘yish bilan umumlashtirish: qaldirg‘och, chumchuq, bulbul - qushlar, tovuq, xo‘roz, kurkalar-chi? (Parrandalar.)

Mantiqiy mashqlar sermazmun bo‘lishi, o‘quvchilarning tajribasi bilan bog‘lanishi, ularni to‘g‘ri fikrlashga o‘rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va

tartibga solishga xizmat qilishi lozim. Bunday mashqlardan o‘rni bilan boshqa darslarda ham, o‘qish va grammatika darslarida ham foydalaniladi.

"Aql charxi" usulida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi.

Bu o'yinda ikki yoki uchta o'quvchidan iborat guruhchalar ishtirok etadi.

Birinchi o'quvchi mavzuga doir terminlardan birini aytadi. Ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan terminni qaytaradi va o‗zi ham bitta termin aytadi. Uchinchi o'quvchi avvalgi ikkita terminni qaytaradi va bitta termin qo'shib aytadi. Yana birinchi o'quvchiga navbat keladi, u ham avvalgi uchta terminni qaytaradi va o'zi bitta termin qo'shib aytadi. Qaysi o'quvchi adashib ketsa yoki aytilgan terminiarni qaytarib aytsa, o'yindan chiqadi. Shu tariqa o'quvchilar guruhi davom etadi o'yinni tashkil etishda maqsad aniq bo'lishi va o'quvchilarning qaysi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga e'tibor qaratilishi muhim. Masalan; ko‘p ma‘noli so‘zlarga tegishlilarni ayting:

1-o'quvchi: yurdi

2- oquvchi: mashina yurdi

3- o'quvchi: poezd, mashina yurdi

1- o'quvchi: arava, poezd, mashinada yurdi

2- o'quvchi: arava, poezd, mashina 4.00 da yurdi

3- o'quvch: arava, poezd, mashina 4.00 da Toshkentga yurdi

1-o'quvchi: men arava, poezd, mashinada 4.00 da Toshkentga yurdim O'quvchi so'zlarni ketma-ket aytishda xatoga yo‘l qo'ysa, o'yindan chiqadi.

Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishiga, bilimlarni puxta egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Xulosa: Bugungi ta‘lim tizimida biz avval maqsadni belgilab, so‘ng natija sari intilishimiz kerak. Ana shunda har bir ishga biz oldinga siljigan bo‘lamiz. Ta‘lim kundan-kunga yangilanib bormoqda. Biz ba‘zan rivojlanish oldida kuchimiz yetmaganday bo‘lib qoladi. Sababi, dunyo ta‘limi kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Shuning uchun biz o‘qituvchilar ozgina o‘z ustimizda ishlamasak, bu sohada orqada qolib ketishimiz aniq. Shunday ekan, ta‘lim jarayonidagi yangiliklarni bilib borishimiz lozim. Ana shunda bu soxada buyuk o‘zgarishlarni yasay olamiz.

Hozirgi fan-texnika rivojlangan bir paytda ona tili darslarimizni ham noananaviy, texnika vositalaridan foydalangan holda o‘tkazishni taqazo etmoqda.

O‘quvchilarning ongida, olgan bilimlarni uzoq va vaqt saqlashi, bu o‘qituvchining pedagogik mahoratiga, bilim saviyasiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyodlar;

1.Azizxo‘jayeva N.N.Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006 y. 200b

2.Tolipova J.O.Pedagogik texnologiyalar – do’stona muhit yaratish omili -T.: YuNISEF,2005.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH-TA’LIM SIFATINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Umarova Gulxumor Komilovna
Shaxrixon tumani 57 -umumiy o`rta ta’lim maktabi, boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola boshlang`ich ta’lim jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning samarali yo`llari haqida fikr boradi.*

Kalit so`zlar: *ta’lim sifati, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, guruh, faoliyat*

Аннотация: *Данная статья посвящена к изучение прогрессивные методы и их использовании в начальном образовании.*

Ключевые слова: *качество образования, современные образовательные технологии, группа, деятельность*

Annotation: *In this article is enlightened the using of progressive methods in the elementary education.*

Keywords: *Quality of education, modern educational technologies, group, activity*

Ta’lim tizimiga yurtimizda barqaror taraqqiyotning muhim omili sifatida e’tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar qisqa fursatlardayoq o‘z samarasini bera boshladi. Bugungi kunda mamalakatimizda kadrlar tayyorlash tizimi mukammal tarzda amalga oshirilayotgani buning isbotidir. Fan va texnika taraqqiyoti jadal sur’atda rivojlanayotgan bir paytda davr bilan hamnafas faoliyat olib borish har bir soha, xususan, ta’lim sohasi mutaxassisining ham bosh maqsadiga aylangandir. Davlat ta’lim standartlarini o‘zlashtirishni kafolatlash shu kundagi ta’lim oldida turgan dolzarb va kechiktirib bo‘lmas masalalardan biridir. Bu esa, o‘z navbatida yuksak mahorat talab etadi. Har qanday mahoratning boshlanishi esa shaxsning ijodkorligidan boshlanadi. Bola hayotida bog‘chadan so‘ng maktabning dastlabki davri muhim o‘rin tutadi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim davri eng mas’uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi ham shakllanadi. Bu davrda bolaning zehnini o‘stirishga qaratilgan har bir mashg‘ulot bola aqlini tarkib topishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda avvalo ta’lim jarayonini qiziqarli, ta’sirli qilib tashkil etishga motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim. Chunki, bu muddat bolaning o‘yin faoliyatidan o‘quv faoliyatiga o‘tganligi bilan xarakterlanadi. Bolaning o‘quv faoliyatini rivojlantirishda turli o‘qish motivlari ta’lim jarayoinini turli pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o‘rin tutadi. Pedagogik texnologiyalarda ta’lim jarayoninig maqsadini belgilash muhim bo‘lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o‘qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Shuni ta’kidlash

lozimki, pedagogik texnologiyalar asosida didaktik jarayonning aniq loyihasini ishlab chiqish mumkin. Bunda didaktik material va mashqlardan har bir o‘qituvchi, ayniqsa boshlang‘ich sinflarda samarali va ijodiy foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga mo‘ljallangan mashqlardan biri “Jumlani to‘g‘rila” mashqidir. Ushbu mashqni bajarish jarayonida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri - maqollardan foydalanish mumkin. Masalan:

1. Boshda, aql, yoshda, emas. (Aql yoshda emas, boshda)

2. Ko‘rasan, hurmat,qilsang, hurmat. (Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan)

3. Mingni, bilimi, yiqar, zor, bilimi,zor, mingni, yiqar. (Biagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni yiqar).

O‘quvchilarning diqqatini jamlash uchun “Bu menman” didaktik mashqi samaralidir. Mashq 2 bosqichda bajariladi. 1-bosqichda guruhlar topshiriq bermoqchi bo‘lgan guruhlardagi ishtrokchilar necha nafarni tashkil etsa, shuncha so‘z topadilar, har bir so‘zning bosh harfi bittadan kartochkaga yoziladi. Harflar yozilgan kartochkalar keyingi guruh ishtrokchilariga tarqatiladi. Keyingi bosqichda kartochka olgan guruh ishtrokchisi diqqat bilan o‘tiradi, topshiriq bergan guruhdagilar bu so‘zlarni o‘qiydilar,keying guruhdagi qaysi ishtrokchida bu so‘zning bosh harfi bo‘lsa, osha ishtrokchi “ bu menman” deb o‘rnidan turadi. Bu mashqni o‘qish , ona tili, matematika , odobnoma, tabiatshunoslik va boshqa darslarda ham qo‘llashi mumkin.

O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish va ularni mantiqan fikrlashga o‘rgatish uchun “Tez javob” ta’limiy o’yinidan foydalaniladi.

Har bir guruhdagi ishtirokchilar turlicha savollar tuzadilar, bu savollar 5-10 tadan iborat bo‘lishi mumkin. Tuzilgan savollarga keyingi guruhdagi ishtirokchilar o‘z guruhlariga berilgan harf bilan boshlanadigan so‘zlar orqali javob beradilar.

Berilgan javoblar mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi shart emas, ya’ni:

1. -Qayerda yashaysiz?

-Andijonda.

2. -Ismingiz nima?

- Tolibjon.

3. -Oilada necha kishi yashaysizlar?

- sakkiz kishi.

Hozirgi globallashuv davri talablariga javob o‘laroq farzandlarimiz, o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida dunyo xalqlari bilan o‘zaro do‘stona, tenghuhuqli hamkorlik munosabatlari madaniyati shakllanishi lozim. Buning uchun esa,albatta farzandlarimiz xorijiy tillarda erkin muloqot qila olishlari talab etiladi.Ushbu maqsad yo‘lida tashlangan eng muhim va maqbul qadam yosh avlod ongiga murg‘aklikdan xorijiy tilda so‘zlashish tafakkurini singdirishdir.

Boshlang‘ch sinflarda xorijiy til ta’limini yanada samaraliroq tashkil etish, hamda olib borish uchun yuqoridagi kabi pedagogik texnologiyalardan va turli didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchunhar bir sinflarda xorijiy tillardan ta’lim beruvchi pedagog o‘quvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlari , qiziqishlarini hisobga olib hamda muayyan xorijiy tilning tabiatidan kelib chiqib, pedagogic texnologiya va o‘yin turlarini tanlashi lozim bo‘ladi. Jumladan , biz yuqorida keltirilgan mashqlarimizdan “Tez javob” mashqini darsning tashkiliy qismida qo‘llash , o‘tilgan darslarni takrorlash, yodga solish, darsda xorijiy til muhitini yaratish, o‘quvchilarni tezkor fikrlashga o‘rgatishda yaxshi samara beradi. Misol tarzida o‘quvchilardarsning boshlanishida guruhlarga ajratiladi. Ushbu jarayonni turli usullardan foydalanib o‘tkazish mumkin. Aytaylik biz sanash usulini tanlaymiz. Agar guruhda 15 nafar o‘quvch bo‘lsa, ular navbati bilan 1dan 3 gacha xorijiy (masalan ingliz)tilda sanaydilar.

ONE, TWO, THREE.

“ONE” raqamini aytganlar bir guruhga, “TWO” raqamini aytganlar ikkinchi guruhga , “THREE” raqamini aytganlar uchinchi guruhga bo‘linadilar. Demak, har biri bir necha o‘quvchidan iborat guruhlar vujudga keladi. Ushbu guruhlar o‘tilgan mavzular yuzasidan o‘zaro savollar berishlari mumkin:

-What is your name?

Yoki, -Ingliz tilida”ona”?

- Ingliz tilida “ ota”?

- Ingliz tilida “maktab”? va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida yuqoridagi kabi ilg‘or usullardan foydalanish, albatta, ta’limning sifatli va samarali bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buning ushun har bir pedagog o‘z ish jarayoniga ijodiy yondashishi, o‘quvchilarning qobiliyati, bilimi va qiziqishlarini hamda o‘tiladigan mavzuning mazmunini hisobga olgan holda interfaol mashqlar va pedagogik texnologiya turlarini tanlashi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. T. Gafforova. Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. (o’qituvchi kitobi) Tafakkur nashriyoti. T., 2016 y.

2. Sh.Nasriddinova Quvnoq alifbe. “Omad - KOL”nashriyoti. T., 2015 y.

3. Boshlang’ich ta’lim jurnali. 2-soni. 2018 y.

4. Yo’dashev J.G’, Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.- T., O’qituvchi 2014 y.

BOSHLANG’ICH SINFDA O’QUVCHILARNI KREATIV RUHDA TARBIYALASH

Usmonova Dilnoza Komildjonovna
Pedagoglarni yangi metodikalarga
o’rgatish milliy markazi Maktabgacha,
boshlang’ich va maxsus ta’lim
metodikasi kafedrasi o’qituvchisi

dilnozakomildjonovna555@gmail.com
+99897-338-90-47

Annotatsiya. Maqolada yangi darsliklar va darslarda o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatishga qaratilgan metodlar haqida yoritilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются новые учебники и методы, направленные на обучение учащихся творческому мышлению на уроках.

Annotation. The article covers new textbooks and methods aimed at teaching students to think creatively in classes.

**Kalit so`zlar:** Ta`lim, ta`lim jarayoni,psixologik xizmat maqsadi, psixologik kadr xuquqlaripsixologikkadrlar majburiyatlari,qiziqishi, qabul qilish darajasi.

Ключевые слова: Воспитание, образовательный процесс, индивидуализация обучения, способности, талант, одаренность.

Key words: Education, educational process, purpose of psychological service, rights of psychological personnel, obligations of psychological personnel, interest, level of acceptance.

“Har bir inson har kuni qiladigan ishini huddi birinchi marta qilayotgandek qilishi kerak. Shundagina ishda rivojlanish bo’ladi” [1] -degan edi prezidendimiz Sh. Mirziyoyev. Shunday ekan, ta’lim sohasida ham har kungi faoliyatimizni eng yuksak qiziqish, shijoat bilan bajarishimiz lozim. Shundagina ta’lim sohasida rivojlanish bo’ladi deganida juda katta xaqiqat yotadi.

“Yurtimizda bo’layotgan o’zgarishlar ,ayniqsa, bolalar-yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar, imkoniyatlar tinimsiz mehnat, ijodkorlik, o’z yurtini sevish, unga bo’lgan mehr-muhabbat ekanligidan darakdir.”

Prezidentimiz topshirig’iga asosan xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, o‘tgan vaqtda darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1–4-sinf darsliklari yangidan tayyorlangan yangi darsliklardagi topshiriq va vazifalarni bajarish orqali o‘quvchilarimizda boshlang‘ich sinflarda bilimni baholaydigan

PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro dasturlarning masalalarini yechish malaka koʻnikmasi shaklanadi.

Prezidentimiz maktab ta’limiga katta e’tibor qaratayotganligining asosiy sababi, albatta, yoshlarni bilimli, erkin va to’g’ri fikrlovchi, jamiyatga qo’shilib, unda o’z o’rnini egallay oladigan yoshlarni tarbiyalshni maqsad qilib qo’yganligidandir. “ Umumiy o’rta ta’lim sifatini yangi bosqichga ko’tarish kerak. Har bir sinfda bolalarning nimalarni bilishi zarurligidan kelib chiqib, davlat ta’lim standartlari va o’quv rejalarini qayta ko’rib chiqish lozim. Darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etish talab etiladi. “ Prezidentimizning ushbu fikrlari yuqoridagi fikrimizning isboti bo’la oladi. Davlatimiz rahbari aytganidek, bugungi kunda boshlang’ich sinf barcha darsliklari butunlay yangilandi. Bu darsliklar Finlandiyaning eng nufuzli tashkiloti tomonidan ko’rib yuqori baho berildi. 2023-yildan boshlab maktablarga tarqatilib o’quv jarayoniga kiritildi. Yangi darsliklar o’zgalar fikrini hurmat qilgan holda o’zgalarni tinglay oladigan va o’zgalarga o’z fikrini yetkaza oladigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan bo’lib, “4 K “ modeli asosida yaratilgan. Bu metodologiya bolalarning rivojlanishiga qaratilgan boʻlib, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ va tanqidiy fikrlash kabi asosiy kompetensiyalarni qamrab oladi. Ushbu kompetensiyalar asosidan tasavvur etish, gʻoyalarni ilgari surish, dalillar keltirish, ma’lumot yetishmasligini ta’kidlash va izlash, oʻz gʻoyalarini shakllantirish va boshqalarning gʻoyalarini rivojlantirish, taxmin va mulohazalarini baholay olish, guruh maqsadlarini qabul qilish va umumiy natijani baholash kabilar oʻrin oladi. Ular maktab oʻquvchilariga mustaqil oʻqish va boshqalar bilan birgalikda tadqiqot olib borish, oʻzini koʻrsatishga imkon beradi. Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, oʻquv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars oʻquvchilar faqat fan mazmunini oʻzlashtiradigan emas,

balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini mustaqil rivojlantiradigan jarayondir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishga to'xtalib o'tmoqchiman. ***Kreativ fikrlash*** ijodiy tafakkur va yangilik qilish qobiliyatini bildiradi. O'quvchilar maqsadiga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi. Innovatsion yechimlarni ishlab chiqadi va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Masalan, bolalar kreativ yondashib, darsliklardan o'rin olgan topshiriqlarni nostandart usulda hal etish ko'nikmasini shakllantiradi.

Kreativlik (Ijodkorlik) ko'nikmasi • qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o'rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o'z savollariga javob topish qobiliyati; • tasavvur – ko'plab original va nostandart g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati; • optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati; • g'oyalarni rivojlantirish – g'oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o'zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma'lumotlarning paydo bo'lishida o'z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

Yangi darsliklarning har birida, har bir fan har bir darsida o'quvchilarni kreativ fikrlashga qaratilgan topshiriqlar juda ham ko'p. O'quvchilarni kreativ fikrlashga turli xil ta'lim metodlari va texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. Quyida shunday metodlardan na'munalar keltiramiz:

Klaster – bu axborotni grafik (chizma shaklida) tashkil qilish shakli bo'lib, unda asosiy ma'no birliklari ajratilib, ular o'rtasidagi barcha aloqalar chizma shaklida ifodalanadi. Klaster o'quv materialini tizimlash va umumlashtirishga imkon beruvchi tasvirdir.

Klaster usuli tizimli fikrlashni rivojlantiradi; bolalarga nafaqat o'quv materialini, balki o'z baholovchi fikrlarini ham tizimlashni o'rgatadi; kuzatuvlar,

tajribalar va olingan yangi bilimlar asosida o‘z fikrini ishlab chiqish va uni ifodalashni o‘rgatadi; bir paytning o‘zida bir necha pozitsiyalarni ko‘rib chiqish, axborotni ijodiy qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Esse – bu erkin shakldagi insho bo‘lib, u muallifning biror masalaga munosabatini ifodalab, uni asoslab beradi. Essening mazmuni puxta o‘ylangan, mantiqan to‘g‘ri tuzilgan, tarkiblangan (kirish, asosiy qism va xulosadan iborat) bo‘lishi kerak. Muallif esseda murojaat qilgan ma’lumotlar, faktlar, raqamlarning manbayi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Esseda ijodiy yondashuv sezilib turishi kerak.

Essening tuzilishi: masalani qo‘yish – fikrlash – rejalashtirish – yozish – tekshirish – takomillashtirish.

Vaziyatlar tahlili (keys-stadi) – bu quyidagi sohalarda olingan ko‘nikmalarni takomillashtirish va tajriba orttirish uchun mo‘ljallangan o‘quv metodi:

muammolarni aniqlash, tanlab olish va yechish;

axborot bilan ishlash – vaziyatdagi detallarning ahamiyatini anglash;

axborot va asoslarning tahlili va sintezi;

taxmin va xulosalar bilan ishlash;

muqobil variantlarni baholash;

qaror qabul qilish;

boshqalarni tinglash va tushunish – jamoaviy ishlash ko‘nikmalaridir.

Case-studies – bu faktlar asosida maxsus ishlab chiqilgan va o‘quv mashg‘ulotlarida tahlil qilinadigan muayyan o‘quv vaziyatlari. Vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida bolalar jamoada ishlashni, tahlil qilishni va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni o‘rganadi.

Keysni yechish – bu taklif qilingan vaziyatni (keysni) tadqiq etish, axborotlarni to‘plab va tahlil qilish, qilish mumkin bo‘lgan harakatlar variantlarini taklif qilish va ularning ichidan eng maqbulini tanlash.

Aqliy hujum – bu muammoni imkon qadar koʻp variantlar hosil qilib, keyin ularning orasidan eng maqbulini tanlash yoʻli bilan hal qilish usuli. Aqliy hujumning bir necha ustunliklari bor:

qisqa fursatda yechim topishga imkon beradi;

vazifani yechishning muqobil variantlarini aniqlashga imkon beradi;

jamoaning barcha a'zolarini yechim topishda faol ishtirok etishga undaydi;

ijodiy fikrlashni rivojlantiradi;

jamoaning ahilligini, jipsligini, samaradorligini oshiradi;

sodda, oddiy usul.

Aqliy hujum oʻtkazishning uchta asosiy bosqichi bor.

Masalani qoʻyish – bu dastlabki bosqich boʻlib, unda muammoni aniq ifodalab olish kerak.

Fikrlarni shakllantirish – bu bosqichda aqliy hujumning barcha ishtirokchilari muammoni yechishning turli variantlarini taklif qiladilar. Variantlar qancha koʻp boʻlsa, shuncha yaxshi. Muhimi – eng aql bovar qilmaydigan variantlar ham yozib borilaveradi. Taklif qilingan fikrlar tanqid qilinmaydi, baholanmaydi – har qanday takliflar faqat oʻrtaga tashlanaveradi.

Fikrlarni tanlab olish va tahlil qilish – bu ekspertlik bosqichi boʻlib, unda toʻplangan variantlar tizimlanadi, baholanadi va ularning ichidan eng maqbullari tanlab olinadi.

Misol. Oʻqituvchi "Darsni hamma oʻzlashtirish uchun nima qilish kerak?" deb soʻradi.

Oʻquvchilar oʻz fikrlarini aytaverishadi, oʻqituvchi ularning hammasini yozib boraveradi. Bu bosqichda fikrlar saralanmaydi yoki oʻqituvchi notoʻgʻri deb bilgan fikrlar rad qilinmaydi.

Hamma oʻz fikrini aytib, ularning hammasi yozib olingach, muammoni rostdan ham yechishga yordam beradigan fikrlarni tanlab olish boshlanadi.

Munozara – bu bahsli masalalarni muhokama qilish va munozara qilish usuli. Bugungi kunda munozara ta’lim faoliyatining eng muhim shakllaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning tashabbuskorligini oshirishga, refleksiv fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

“O‘quv munozarasi” tushunchasining ma’nosi shuki, bunda darsni shunday tashkil qilish kerakki, o‘quvchilar yangi dars materiali bilan tanishgach, uni muhokama qilishi, o‘z fikrini aytishi mumkin. Muhokama paytida har bir o‘quvchi o‘qituvchi bergan savol yoki o‘rtaga tashlagan muammo bo‘yicha o‘zining shaxsiy fikrini aytishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirziyoyev Sh M “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. O‘zbekiston.Toshkent 2017

2. B. Xodjayev Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Darslik.T.2017

3. Munavvarov.A.K Pedagogika. "O‘qituvchi".1996

4.Yangi O’zbekiston gazetasi, 2021yil 29-mart soni. Muhtasar Tojimamatova.

DARSLARNI SAMARALI TASHKIL QILISHDA MILLIY YUKSALISH BILAN UZVIYLIK.

Vohidova Durdona Murodiljon qizi
Shahrixon tumani 69 –umumiy
o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi.

Annotatsiya; Maktabda darslarni samarali tashkil qilishda milliy yuksalish bilan ta’lim-tarbiya uzviyligini ta’minlashning dolzarbligi masalalari ushbu tezisda ko’rsatilgan

Kalit so’zlar: Milliy yuksalish, shaxsiy sifatlar,malaka , ko’nikma, uzviylik.

Muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev shunday degan edi: yuqori malakali pedagoglarni tayyorlashning sifati, erkin fikrlovchi shaxs-fuqaroni kamol toptirish ertaga uning saboq berishiga bog‘liq...

Shu ma’noda mamlakatning har tomonlama rivoji, har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bogliqdir. Ijtimoiy soha; fan va madaniyatning rivojlanishi esa ta’lim-tarbiya ishlarining qay yo‘sinda olib borilishi, sifat darajasiga asoslanadi. Shu bois, mamlakatimizning istiqlol yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Buning uchun ta’lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash, ya’ni uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini tashkil qilish talab qilinadi.Xukumat tomonidan qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ushbu maqsadga erishishga yordam beradi, «o‘z o‘lkamizda yuksak malakali, har jihatdan etuk kadrlar tayyorlash dasturimizning asosiy sharti bo‘lmog‘i lozim».Ma’lumki, umumta’lim maktablarida fanlarni o‘qitishning eskicha usullari zamon talabiga to‘la javob berolmay qoldi. o‘qituvchilarning o‘qitish tizimidagi o‘rnini belgilash hozirgi kunning muhim masalasidir. Hozirgi zamon maktab o‘qituvchisi milliy yuksalish jarayonlarida mumkin qadar mustaqil, erkin faoliyat ko‘rsatish yo‘lidan bormog‘i lozim. Buning uchun unda chuqur bilim, tajriba, iqtidor va shu bilan birga, bolalarga bilimni etkaza olish mahorati bo‘lishi zarur. Zero, «biz o‘z iste’dodli, fidoyi bolalarimizga, farzandlarimizga bilim va kasb cho‘qqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz kerak». Boshqacha aytganda, o‘qituvchi zamon bilan hamnafas faoliyatda bo‘lmog‘i muhim va albatta, o‘qituvchining quroli so‘z, so‘zning kaliti tildir.O‘zbek tili mustaqil O‘zbekiston Respublikasining davlat tili bo‘lib, uning umumta’lim maktablarida o‘qitilishi davlat ahamiyatiga molik masala sanaladi. O‘quvchilarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, turli imkoniyatlardan eng

maqbulini tanlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an’analarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda o‘zbek tili fanining tutgan o‘rni va imkoniyatlari benihoya kattadir.Ma’lumki, o‘zbek tili va o‘zbek xalqining tarixi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Xalq tarixida ro‘y beradigan o‘zgarishlar, eng avvalo, tilning lug‘at tarkibida ko‘rinadi. So‘z birikmasi va iboralarning kelib chiqishi, etimologiyasi haqidagi ma’lumotlar ta’lim mazmunining bolalar uchun qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, ko‘p o‘quvchilar fors-tojik, arab va Evropa tillaridan o‘zbek tiliga turli so‘zlar o‘zlashganini biladilar, biroq o‘zbek tilidan boshqa tillarga ham so‘zlar o‘tganini eshitmaganlar. Ularni bunday ma’lumotlar bilan tanishtirish o‘zbek tiliga qiziqishlarini uyg‘otishi, shubhasiz: ochag (o‘choq), utyug (o‘tliq), Orenburg (o‘rin-burun), Saratov (sariq tog‘), kazan (qozon), brak (birlik) kabi yuzlab, hatto minglab so‘zlar boshqa tillarga o‘zlashgan.Bunday ma’lumotlarni o‘quvchiga faqat darsda beriladi.Darsda tillarni qiyoslab o‘rgatishda ayniqsa, ikki tillilik va ko‘p tillilik sharoitida bunday ma’lumotlar o‘ta muhimdir. Mashg‘ulotda boshqa fanlardan olingan ma’lumotlardan foydalanib,o‘quvchilarni nutq uslublari bilan tanishtirish imkoniyatiga egamiz. Darsliklardagi mashqlar ham o‘rganish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ular 3 xil bo‘lib, miqdori o‘quv mavzusining hajmi, turi va sinfning tayyorgarlik darajasiga muvofiq tarzda belgilanadi.

Qayta xotirlash mashqlari. o‘quvchilarning qayta xotirlash faoliyati egallangan bilimlarni qayta eslash, uni xotirada tiklash, o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab aynan bajarishga asoslangan faoliyatdir. . 2. Qisman izlanuvchan mashqlar. Bu bosqichda o‘quvchi ma’lum yordamga asoslangan holda til hodisalarining o‘xshash va farqli tomonlari ustida o‘ylash va uni aniqlash, suhbat (dialog)ni davom ettirish; qavs ichida berilgan so‘zlarni kerakli shaklga qo‘yish va h.k.

Faoliyatning bu turi reproduktiv faoliyat deb ataladi.3.Ijodiy mashqlar. Bu bosqichda o‘quvchi hech qanday tashqi yordamsiz olgan bilimlarini butunlay yangi sharoitda amalda qo‘llay olishi, faoliyati uchun zarur bo‘lgan, lekin o‘zida bo‘lmagan bilimlarning manbalarini bilishi, bu manbalardan foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi talab etiladi. Birinchi turdagi mashqlar qanchalik zarur bo‘lmasin, ular faqat ikkinchi va uchinchi bosqich talablarini qondirish maqsadigagina xizmat qiladigan bo‘lishi shart. Shundagina biz har bir masala yuzasidan o‘z mustaqil fikriga ega, savodli, barkamol shaxsni tarbiyalashga erishamiz. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, «o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan, o‘z kuchiga, o‘zi tanlagan yo‘lning to‘g‘riligiga ishongan inson doimo mamalakat taqdiriga, milliy yuksalishga xizmat qila oladi, yurt kelajagiga ishonch bilan qaraydi.

Foydalanilgan adabiyodlar:

1.Sh.Mirziyoyev erkin va farovon ,demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz Uzbekistan

2. Каримов И.А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат: Ўзбекистон Респ.Олий кенгаши XI сесс.сўзлаган нутқи (1992 й. 8 ва 10 декабрь).-Т.: Ўзбекистон, 1992.-62 б.

3. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли.- Т.: Ўзбекистон, 1992.-78 б

YOSHLARDA INSONIYLIKNING OLIJANOB FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYAVIY SOATLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI..

Yuldasheva Xalimaxon Ahmadjonovna
Qo’rg’ontepa tuman 33-umumta’lim maktabi o’qituvchisi

Mustaqil O‘zbekistonimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar zamirida xalq farovonligi, yurtimiz tinchligi, Vatan ravnaqi va yosh avlodni barkamol hamda intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashdek buyuk maqsad

ko‘zda tutilgan.Barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham ana shu ulkan maqsadni ko‘zda tutilgan holda hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar pedagog xodimlarga yurtboshimizning e’tibori va g‘amxo‘rliklari yoshlarning ta’lim tarbiyasiga ma’sul bo‘lgan har bir ustoz ,murabbiylar zimmasiga katta ma’suliyat yuklaydi . Maktabda o‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ularda insoniylikning olijanob fazilatlarini shakllantirishda tarbiyaviy soatlarning ahamiyati katta .Tarbiyaviy soatlarni o‘tkazish sinf rahbarlari zimmasiga yuklatilgan bo‘lib o‘quv yili boshidan o‘quv rejasi tasdiqlanadi .Tarbiyaviy soatlar rejasida mavzular mazmun mohiyati o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

-Vatanni sevish ,uni ko‘z qorachig‘idek asrash

- Ona- Vatannni madh etuvchi maqollar , matallar , rivoyatlar , she’rlarni yod olish va mazmunini o‘zlashtirish

- Ajdodlar merosini o‘rganish ularga ehtirom nazari bilan qarash

- Qadimiy urf-odatlar xalqimizning ma’naviy va madaniy moddiy boyliklarini anglab etish .

- O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish

- Ota –ona , aka – uka , opa –singil ,do‘stu yor munosabatlarida mehr . samimiylik tuyg‘ularini kamol toptirish .

- Mehnatsevarlik ,xalqparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash

- O‘z–o‘zini va o‘zgalarni nazoratqilish,boshqalar fikrini tinglash odobidan saboq berish

- Ezgulik g‘oyalarini singdirish .

Tarbiyaviy soat rejasida berilgan “Ajdodlar o‘giti –oltin xazina “mavzusini o‘tish jarayonida “FSMU”va “Zinama-zina” texnologiyalaridan va turli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq . «Kichik guruhlarda ishlash» metodi orqali darsni tashkil etish yaxshi samara beradi .

“G‘alaba cho‘qqisi» o‘yinida o‘quvchilar 3ta kichik guruhlarga bo‘linadi.

Savol: buyuk shaxslar nomini yozish bilan g‘alaba cho‘qqiga chiqing

1-guruh «Ziyo» 2- guruh »A’lo» 3-guruh »Navo»

Xar uchala guruhdan chiqqan o‘quvchilar 2- boskichda boholanadi .

1- Topkirligiga 2-Mazmuniga

O‘quvchilar quydagicha misollar keltirishi mumkin : Imom Buxoriyning «Al jome’ as –saxix «asaridan :Ey- bandai mo‘min sen kichginagina bir chumoliga xam ozor bermagin , chunki chumolining xam sen kabi shirin va latofatli joni bor .Har bir o‘quvchi o‘zi yozgan buyuklarning asarlaridan misol keltiradilar o‘qituvchi uni birgalikdataxlil qiladi.Tarbiyaviy soatlarda FSMU texnologiyasidan foydalanilganda savol javob metodini qo‘llash mumkin. F-fikr-(vatan nima degan savolga javob beriladi)-ko‘z qorachig‘i ,onam allasi,mo‘jaz mahallam,ajdodlarim ko‘milgan tuproq,men tug‘ilgan zamin, to‘ydirgan , o‘stirgan,kiydirgan maskanim va hakazo.

Sabab- Nima uchun sevamiz . Ona kabi muqaddas –mo‘‘tabar, ota kabi buzrikvor , nondek aziz, hayotdek laziz, suvdek musffo nurdek yorug‘ maskanligi uchun

Misol- Oq yo‘rgakka o‘ragansan o‘zing bizni

Oq yuvib oq taragansan o‘zing bizni

Beshigimiz uzra bedor ona bo‘lib

Kunimizga yaragansan o‘zing bizni

Hech kimga bermaymiz seni O‘zbekiston

2-O‘quvchi: Ona yurtim oltin beshigim.

3-O‘quvchi: O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha o‘z yurtingda gado bo‘l kabi misollar bilan davom ettiriladi va ular tahlil qilinadi

Zinam-zina texnalogiyasida o‘z nuqtayi nazaring bo‘lsin,usuli qo‘llanishi lozim.

O‘quvchilar zinama –zina bir birini fikrini to‘ldirib oladilar Ayol ona – opa-singil-ustoz-boquvchi-tarbiyachi.

Dunyoni ko‘zgusi ,tiragi- ayol

Hayotning tomiri yuragi- ayol

Zaminning qudrati tilagi -ayol

U borki bilingiz yorqin -kelajak

Xulosa kilib aytganda, tarbiyaviy soatlar- ma’naviyat soatlari bo‘lmog‘i insoniylikdan saboq bermog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyodlar:

3. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O’zbekiston, 2017. – 76 b.

2.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

Мактабгача таълим тизимида экологик таълимни такомиллаштириш

“University of economics and pedagogy” мактабгача таълим факультети 2 курс талабаси Ф. Турсунова

Анотация: Мактабгача таълим ташкилотларида атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва атрофимиздаги оламни тоза сақлаш, шу жумладан, маиший чиқиндилардан тозалаш каби тушунчалар билан бойитиб бориш ва амалиётчи сифатида болаларни ташкилот худудидаги чиқиндиларни турига қараб чиқинди яшикларига ташлашга ўргатиб бориш орқали экологик таълим шунингдек ҳар бир мактабгача таълим ташкилотида экологик бурчаклар ташкил этиш ҳамда уларни зарур материаллар билан

таъминлашни асосий вазифаларидан бири сифатида белгилаб олиш назарда тутилган.

Калит сўзлар: экология, табиат ва жамият, ўсимлик ва хайвонот дунёси, атроф –мухит, узвийлик ва узлуксизликсизлик, ер ресурслари , ер ости бойликлари

Экологик таълим-тарбия табиат ва жамият ўртасидаги узвийликни таъминлаш ҳамда табиий барқарорликни сақлашда муҳим аҳамиятга эгадир. Шунингдек, экологик таълим-тарбия ёшларни табиатдан онгли равишда фойдаланиш ва улар қалбида табиатга меҳр-муҳаббат уйғотиш ҳамда тежамкорликка ўргатишда қўл келади. Албатта, ёш авлод қалбида табиатга нисбатан ҳурмат ҳиссини шакллантириш ва ривожлантириш муҳим масалалардан саналади. Бу, ўз навбатида, педагог кадрлар зиммасига катта масъулият юклайди. Мустақиллик йилларида мамлакатимизда барча жабҳалар қаторида экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш соҳасида тўлақонли ҳуқуқий-меъёрий база яратилди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги, “Таълим тўғрисида”ги қонунлар ҳамда Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, шунингдек, бошқа қатор ҳужжатлар экологик таълим-тарбия тизимининг ҳуқуқий асосини ташкил этади. Таъкидлаш жоизки, “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 4-моддасида табиатни муҳофаза қилиш мақсадларига эришиш учун барча турдаги таълим муассасаларида экология фанини ўқитишнинг мажбурийлигини таъминлаш мустаҳкамлаб қўйилган. Табиат бойликларидан унумли фойдаланиш, уларни муҳофаза қилиш масалаларини онгли равишда ҳал этиш учун оила, мактабгача таълим ташкилотларидан бошлаб болаларда табиатга меҳр-муҳаббат руҳини шакллантириш, экологияга оид билимларни улар шуурига сингдириш

даркор. Бу келажакда атроф-муҳитни муҳофаза қила оладиган ва табиатдан оқилона фойдаланадиган авлодни шакллантиришнинг муҳим шартидир. Зеро, ўсиб келаётган ёш авлод табиат ҳақидаги билимларни эгаллаб, теварак атрофнинг нозиклигини, унинг гўзалликларини қалбан ҳис қила олсагина, она-Ватанга, унинг табиатига муҳаббати ошади. Таълим ташкилотларида ўқитиш жараёнида болаларр онгини ҳозирги экологик муаммолар моҳиятини очиб берувчи билимлар билан бойитиш ва шу билимларни уларнинг амалий фаолияти, ижтимоий меҳнати билан мустаҳкамлаб бориш мақсадга мувофиқ. Бундай масъулиятли вазифани ҳал қилиш учун тарбиячидан шу соҳа бўйича билимга, педагогик маҳоратга, юксак экологик маданиятга эга бўлиш, шунингдек, тинимсиз изланиш, ўрганиш талаб қилинади. Бу борада таълим ташкилотларида “Экологик марказ”, “Экологик тўгарак”ларни ташкил қилиш, мунтазам равишда экофестиваллар ёки танловлар ўтказиб туриш, ўқув-методик қўлланмалар, дарсликлар, кўргазмали материалларни нашр этиш яхши самара бериши, шубҳасиз. Экологик таълим-тарбияни юзага келтирувчи масканлардан яна бири, бу - маҳалла. Дарҳақиқат, халқимизда табиатга бўлган эҳтиром тарих каби кўҳнадир. Шу маънода, азалий қадриятларимиздан бўлмиш умумхалқ ҳашарларини ўтказиш ва уларга ёшларни кўпроқ жалб этиш айни муддао. Бундан ташқари, оммавий ахборот воситаларида экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилишга бағишланган туркум кўрсатув, эшиттиришлар, ижтимоийэкологик роликларни мунтазам эфирга узатиб бориш, вақтли матбуот нашрларида мақолалар чоп этиш орқали тарғибот-ташвиқот ишларини кучайтириш ҳам аҳолининг экологик маданиятини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Мухтасар айтганда, жамиятимизда ёшларнинг экологик-ҳуқуқий таълимтарбияси, экологик маданиятини юксалтиришнинг йўналишлари кўп. Энг муҳими, улар ҳаётимиз асоси бўлган табиат неъматларини

асрашга хизмат қилсагина, олдимизга қўйган мақсадларимизга эришамиз.

Мактабгача таълим ташкилотларида экологик таълимни ривожлантиришга йўналтирилган “ Эколог болажон” дастури ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш кўзда тутилмоқда.

Мактабгача таълим ташкилотининг ўрта, катта ва мактабгача тайёрлов гуруҳлари учун жонсиз табиат (ўсимликлар дунёси), жонли табиат (ҳайвонот дунёси) ҳамда сайрда бўлиб ўтадиган жонсиз ва жонли табиат тушунчаларини уйғотишга йўналтириш, бунда, мавзуларни қайта белгилашда ер юзида, шу жумладан, юртимизда йўқолиб бораётган ва камёб турдаги ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда уларни асраб-авайлаш масаласига алоҳида урғу бериш мақсадга мувофиқдир.

Мактабгача таълим ташкилотида кундалик фаолиятни мазмунли ташкил этишда атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва атрофимиздаги оламни тоза сақлаш, шу жумладан, маиший чиқиндилардан тозалаш каби тушунчалар билан бойитиб бориш ва амалиётчи сифатида болаларни ташкилот худудидаги чиқиндиларни турига қараб чиқинди яшикларига ташлашга ўргатиб борилади. Ҳар бир мактабгача таълим ташкилотида экологик бурчаклар ташкил этиш ҳамда уларни зарур материаллар билан таъминлашни асосий вазифаларидан бири сифатида белгилаб олиш зарур.. Мактабгача таълим тизимида тарбияланувчиларнинг экологик онги уларнинг кўзига яққол ташланадиган атроф табиий муҳит (ер, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси) билан «Она табиат» мавзусида очиқ ҳавода таништирув соатлари ўтказиш, расмлар чиздириш, атроф олам ҳақидаги шеърларни ёд олдириш, машқларни бажартириш ва турли мавзудаги ўйинларни ташкил этиш орқали шакллантирилади. Шунингдек мактабгача таълим ташкилотларида 21 март - Наврўз байрами, 1 апрель-Халқаро қушлар куни, 15 апрель - экологик билимлар куни, 22 апрель-

Халқаро Ер куни, 5 июнь - Бутунжаҳон атроф табиий муҳитни муҳофаза қилиш куни каби экологик саналарга бағишлаб маърифий тадбирлар ўтказиш , оммавий ахборот воситаларида намойиш этиб бориш ота-оналар ва кенг жамоатчиликни эколгияга бўлган муносабатини ўзгартиради. Шунингдек, муҳим экологик саналарга бағишланган машғулотларни ўтказиш учун мактабгача таълим ташкилотларининг педагоглари учун махсус методик қўлланмалар ишлаб чиқиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир.

Мактабгача таълим ташкилотларида ”Экологик йўлакчалар” ташкил этиш орқали Ўзбекистон Республикаси Қизил китобига киритилган ўсимлик ва ҳайвонлар ҳақидаги дастлабки тушунчалар тарбияланувчининг онгига сингдирилади, муҳофаза қилинадиган ўсимлик ва ҳайвонлар расмларини чизиш орқали тарбияланувчиларда дастлабки экологик билимлар шакллантирилади. Тарбияланувчилар учун она табиатни асраб-авайлаш ва уларда табиатга нисбатан меҳр-муҳаббат туйғуларини кучайтириш мавзусида турли театрлаштирилган томошалар ва саҳна кўринишлари ташкил этиш зарур.

Тарбияланувчиларда она табиатга нисбатан меҳр ҳиссини уйғотиш, уларнинг экологик тарбиясини янада кучайтириш мақсадида оммавий ахборот воситаларининг роли янада кучайтирилади.

Мактабгача таълим тшкилотларида болаларга билим бериш «оддийдан мураккабга», “узвийлик ва узлуксизлик” каби педагогик тамойилларга таянган ҳолда назарий ва амалий билимлар уйғунлигига, болаларда экологик маданият ҳамда тарбиянинг босқичма-босқич шаклланишини таъминлайдиган мақсадли тизимга айланиши керак. Экологиянинг назарий асосларига оид билимлар ва экологик маданиятни шакллантиришга қаратилган билим, кўникма ва малакалар мавжуд ўқув

фанлари мазмунида узвийлик асосида берилади ва бир бутун комплекс тарзда ифодаланади.

Бунда мактабгача таълим ёшдаги болалар минимал даражада экологик тушунчалар, хулқ-атвор қоидалари (экологик маданият) тўғрисида билимга эга бўлади, экологик билимлар кундалик фаолият давомида мажбурловчи чора сифатида эмас, балки атроф –оламга бўлган муносабат орқали сингдирилади.

Мактабгача таълим ташкилотларида ўрта, катта ва мактабга тайёрлов гуруҳларида сувни тежаш ва асраш,атмосфера ҳавосининг аҳамияти ва уни муҳофаза қилиш, ер ресурслари ва ер ости бойликларидан оқилона фойдаланиш,ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш,чиқиндиларни йиғиш ва жойлаштириш, Ўзбекистоннинг гўзал ва такрорланмас табиатини асраш,ўзи яшайдиган қишлоқ (шаҳар) табиатини асрашда фаол иштирок этиш, Ўзбекистондаги қўриқхоналар ва табиат боғлари тўғрисида, Орол денгизи фожиаси тўғрисида умумий билим ва кўникмаларга эга бўлиши лозим.шу билан бирга мусиқага оид фанларга она табиат боланинг ота-онасидек азизлиги мавзусидаги қўшиқларни ёддан билиш ҳамда куйлай олиш, табиат манзараларини кузатиш ва тасвирлай олиш, табиатга зарар етказишнинг, шу жумладан, чиқиндилар белгиланмаган жойларга ташланишнинг салбий оқибатларини тушуна олиш, инсон ва табиат ўртасидаги меҳр-муҳаббатни кучайтиришга қаратилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. “Таълим тўғрисида”ги Қонун, Кадрлар тайёрлаш миллий дастури,
2. “Илк қадам” давлат ўқув дастури
3. Ражабова Л.С. Тўхтаева М. Х.“Мактабгача таълим муассасаларида табиат бурчагини ташкил қилишнинг ахамияти”

4. Khamidova, P. I. (2022)methods of Ecological Educationthe Process of Familiarzing EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 2 (2) 245-249
5. Ражабова Л.С. Мухторова М.А. (2021)мактабгача ёшдаги болаларда табиатда оддий тажрибаларни ўтказишга ўргатиш.Scientific progress 2(7) 1218-1223

SO‘Z BOSHI 4

I-SHO‘BA. Integrativ yondashuvlar asosida Maktabgacha va maktab ta’lim tizimi xodimlarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish omillari

Abdullayeva M.A.	Ma’naviyat o’quvchilarni go’zallikga yetaklaydi – go’zallik va ma’naviyat ularni hayotga tayyorlaydi.	5
Axmedova Z.A	Practical development of artistic and aesthetic competence in future matematic teachers technological system	9
Azimova G.I	Pedagogik mahorat va o‘qituvchi kompetensiyasi– ta’lim sifatini oshirish omili sifatida	14
Islomov I.I.	Ta’lim-tarbiya jarayonidagi zamonaviy yondashuvlarda o’qituvchi kompetentligining zarurati.	20
Ismoilova M.E.	Zamonaviy o‘qituvchi, zamonaviy dars – jamiyat tayanchi	22
Karimova N.R.	Boshlang‘ich sinflarda zamonaviy darsliklar va ularning afzalliklari.	25
Kuychiyeva M.A.	Malaka oshirish jarayonida steam ta’limi asosida tabiiy fanlarni o‘qitishda tinglovchilarda ilmiy fikrlash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish	29
Mannopova N.Q.	Boshlang’ich ta’lim darslarda fanlar integratsiyasini tashkil etishning o’ziga xos jihatlari	38
Qurbonov O‘.	Таълим тизимини бошқариш усуллари	43
To’rayeva G	Integrativ yondashuvlar asosida Maktabgacha va maktab ta’lim tizimi xodimlarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish omillari	49
Tursimatova S.X.	O’qituvchining faoliyati, muloqoti va shahsiy hususiyatlarida aks etuvchi omil - o’qituvchi kompetentliligidir	54
Valixanov S.Sh.	Jismoniy madaniyat yo’nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik jihatlari	59
Valixanova N.A.	O‘qituvchi shaxsi va uning kasbiy xususiyatlari	63

II-SHO‘BA. O’quvchilarning nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda zamonaviy darsliklarning o’rni

Ashurova H.I.	O’quvchilar nutqini oshirish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda nutqning ahamiyatini yangi avlod darsliklari misolida ko’ramiz	68
Ashurova M.N.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish omillari.	71
Asqarova G.A.	Bolalar she’riyati vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish	74
Ibragimova N.	Kommunikativ kompetensiyalarni oshirishda sintaksisni o’rganishning muhimligi .	79
Karimova G.X.	O’quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda maqollarning o’rni	83

Majidova X.O.	O`quvchi shaxsini rivojlantirishda hamkorlikda ishlashning ahamiyati.	87
Mutallipova N.I.	Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish-davr talabi.	90
Qosimbekova M.A.	O‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yozma ishlarning ahamiyati	92
Sobirjonova G.N.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'stirish faoliyatini samarali usullar yordamida tashkil etish	96
Sobirova D.A.	Boshlang’ich sinf o’quvchilarining nutqiy rivojlanishida xalq og‘zaki ijodinining o'rni	100
Султанова М.Э.	Организация математического развития ребенка как способ реализации «Концепции непрерывного образования в системе дошкольного и начального образования»	103
Turakulova O.A.	O‘quvchilarning nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda zamonaviy darsliklarning o‘rni	112
Umarov G.M.	O’quvchilar nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning dolzarbligi.	116
Usmonova G	Мактабгача ёшдаги болаларда компентентликни ривожлантиришда халқ оғзаки ижоди намуналаридан фойдаланишнинг афзалликлари .	119
Usmonova K	Мактабгача ёшдаги болаларда масъулият ҳиссини тарбиялаш орқали улардаги ижтимоий ҳиссий компетентликни ривожлантириш	124
Xaydarova R.	**Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishning metodik asoslari.**	129

III-SHO‘BA. Pedagogning innovatsion faoliyatini takomillashtirishda zamonaviy yondashuvlar

Abdihamidova D.M.	Zamanoviy dars-zamonaviy o’qituvchi va unga qo‘yiladigan talablar	133
Abdullayeva S.N.	Zamonaviy o‘qituvchi, zamonaviy dars jamiyat tayanchi	136
Abdullayeva S	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faol ta’lim olishda “keys- stadi” ish shaklidan foydalanish.	139
Abduvaliyeva S.K.	Pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyati	142
Axmedova V.A.	Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar interfaol metodlarning qo‘llanilishi	145
Iminova M.A.	Методологические подходы проектирования индивидуального образовательного маршрута будущего педагога начального образования	149
Karimova F.A.	Boshlang’ich sinf o’qituvchisi va uning rahbarlik mahorati.	154
Mamadaliyeva H.X.	Бошланғич синф ўқувчилари амалий кўникмаларини ривожлантиришда инновацион технологиялар	157
Mamasoliyeva Z.B.	Maktabda filologik ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari.	160
Mavlonova O.K.	Internet tarmog‘idan ona tili va adabyot faniga oid ta’lim	163

saytlari, portallari va o‘quv resurslarini izlab topish hamda ulardan dars jarayonida foydalanish.
Mirhaydarova U.O. Zamonaviy pedagog timsoli va unga qo’yiladigan zamonaviy talablar 167
Rahmatova M.M. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari 172
Rasulova X.M. Ta’lim jarayoniga didaktik yondashuvlar integratsiyasi 177
Usmonov M.F. Узлуксиз таълим тизимида педагогик жараёнларни бошқаришда инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш ва ўқувчилар рефлексив фаолиятини ташкил этиш. 181

IV-SHO‘BA. Maktabgacha va maktab ta’lim tizimida ta’lim va tarbiyaning sifat va samaradorligiga erishish yo’llari

Abdurahimova O.M. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining kitobxonlik madaniyatini takomillashtirish 187
Anarqulova S. Ertalabki badan tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishga qo’yilgan talablar. 191
Arslonova Sh. N. Boshlang’ich sinflarda loyiha metodlaridan foydalanish – ta’lim sifatini ta’minlash omili sifatida. 195
Arziqulova X.M. Dars samaradorligini oshirish omillari: interfaol metodlar. 200
Asqarova G. A. Maktabgacha ta’lim tashkilotida turli yosh guruhlarida ertaklarni sahnalashtirish va bolalarni ijodiy faoliyatga o’rgatish. 203
Axmatova X. Y. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda olimlarning ilmiy pedagogik qarashlari 208
Azizova M.Q. Umumiy o`rta ta‘limda axborot-ommunikasion texnologiyalarni joriy etish samaradorlik omilidir. 212
Bektemirova N. X. Boshlang’ich sinflarda ona tili fanini o‘qitishda ta’lim texnologiyalarinning o‘rni. 215
Bo’ronova S. I. Innovatsion yondoshuvlar yordamida ta’lim Samaradorligini oshirish yo’llari. 218
Ergasheva R. Y. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarni kitobxonlikka o’rgatish. 221
G’ofurova Z. O‘yin faoliyatining bola shaxsining shakillanishi va rivojlanishida o‘rni. 226
Imomova G. Aqli zaif bolalar psixologiyasini o‘rganish omillari. 229
Jo‘rayeva N. S. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion ta'lim tizimini takomillashtirish. 234
Madumarova T. M. Yosh avlodni mustaqil fikrlashga o’rgatishda zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlarning o‘rni. 238
Mahmudova D.T. O’quvchilar savodxonligini oshirishda diktantning o’rni. 241
Mamajonova X.I. Maktabgacha ta'lim tizimida ota-onalar bilan hamkorlik. 245

Маманабиева М.А.	Nogironligi bo‘lgan bolalarga jamiyatning qarashlari.	248
Маманабиева М.А.	Имконияти чекланган болалар турлари ва уларнинг инклюзив таълимга йўналтириш масалалари.	255
Mamitaliyeva M. I.	Fanni o‘qitishda didaktik o‘yinlarning o‘rni.	263
Mannopova Sh.	Adabiyot fanini o’qitishda darslarni noan’anaviy usulda tashkil.	266
Mashrapova O. R.	Boshlang‘ich ta’limni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning sifat va samaradorligini oshirish.	270
Misirova K.M.	Til fanini o`qitishda ta`lim texnilogiyalarning o`rni.	273
Mo‘minova G.	Boshlang’ich sinf texnologiya darslarida innovatsion o’yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati.	276
Nuraliyev Sh.	Andijon viloyatidagi ijtimoiy tadbirkorlik rivojiga nazar.	280
Nuryog‘diyeva T.X.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy barkamolligini ta’minlashda xalq og‘zaki ijodining o‘rni	282
Ortiqova R.	Inklyuziv (uyg’unlashtirilgan) ta’limni qo’llab-quvvatlashimiz omillari.	286
Ortiqova M.B.	Tabiatga muhabbatni shakillantirishda maktabgacha ta’lı tashkiloti va oila hamkorligi.	290
Otaboyeva D.U.	Boshlang‘ich ta’lim sifat-samaradorligiini yangi bosqichga olib chiqish tendensiyalari.	293
Qambarova D.M.	O’quvchilarda umummadaniy kompitentsiyani shakllantirishda adabiyotning o‘rni.	296
Raimjonova D.K.	Boshlang’ich ta’lim darslarini axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil qilish zamon talabi.	300
Risboyeva M.A.	Jamiyatda ta`lim -tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalarining ta’siri.	303
Roziqova Sh.A.	Ishonchimni oqlagan o’quvchilarim yohud ustozimdan minnatdorman.	308
Sadridinova M.D.	Xalq sevgan shoir muhammad yusuf she’rlaring mazmun va mohiyati.	313
Сайдолимова Т.Х.	Ноанъанавий дарслар самарадорликни таъминлайди.	319
Сидиқова Г. Т.	Бошланғич синф ўқувчилари амалий кўникмаларини ривожлантиришда инновацион технологиялар ўрни.	323
Turaqulova M. M.	Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni ma’naviy-mafkuraviy jixatdan tarbiyalash ishlari bugungi kunning zaruratidir.	327
Тожибоева М.Т.	Бошланғич таълим жараёнида лойиҳа методларидан электрон таълимий ресурслар воситасида фойдаланишнинг хусусиятлари.	331
Toxirova I.M.	Boshlang’ich sinf ona tili darslarida yangi pedagogik Texnologiyalardan foydalanish.	336

Umarova G. K.	Boshlang‘ich ta’lim jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish-ta’lim sifatini oshirish omili sifatida.	341
Usmonova D.K.	Boshlang’ich sinfda o’quvchilarni kreativ ruhda tarbiyalash.	345
Vohidova D.M.	Darslarni samarali tashkil qilishda milliy yuksalish bilan uzviylik.	351
Yuldasheva X. A.	Yoshlarda insoniylikning olijanob fazilatlarini shakllantirishda tarbiyaviy soatlarning o‘rni va ahamiyati.	354
Турсунова Ф.	Мактабгача таълим тизимида экологик таълимни такомиллаштириш.	357